[1] Потапова Н.М. Особенности семантики эвфемизмов в языке делового общения // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В.В. Красных, А.И. Изотов. – М.: МАКС-Пресс, 2007. – Вып. 35. – С. 71-79; Потапова Н.М. Эвфемизмы в языке и речи: на материале англоязычного делового дискурса: Дисс. … канд. филол. наук. – М., 2008. – 165 с.

[2] Казакова Е.П. Об употреблении профессионализмов и жаргонизмов с прозрачной внутренней формой в современном английском деловом дискурсе // Вестник Самарского государственного университета. Гуманитарная серия. – 2011. – № 7 (88). – С. 81-86; Казакова, Е.П. Фразеологические средства формирования прагматики английского делового дискурса: Автореферат дисс. … канд. филол. наук. – М., 2012. – 24 с.

[3] Казакова Е.П. Фразеологические средства формирования прагматики английского делового дискурса: Автореферат дисс. … канд. филол. наук. – М., 2012. – С.16.

– проникновение в официально-деловую речь разговорных выражений, молодёжного сленга, жаргонизмов и вульгаризмов имеет важное значение для формирования современной бизнес-коммуникации, поскольку это явление отражает коммуникативный стиль молодого поколения. Именно представители молодого поколения сегодня занимают важные должности в бизнес-сообществе и активно участвуют в его деятельности. Например, выражение «*to make a killing*» широко употребляется в значении «получить крупную прибыль»;

– наблюдаются постепенная демократизация системы вертикальных деловых отношений и снижение степени официальности общения, что способствует формированию свободной коммуникативной среды, основанной на интерактивном, открытом и конструктивном сотрудничестве, и т. д.

В бизнес-дискурсе функционально обоснованные способы дерегламентации представляют собой выражение стратегической цели на тактическом уровне и направлены на создание смысла в прагматико-семантической системе посредством искусственной неупорядоченности. При этом данный подход требует перестройки риторической и семантической структуры речи. Действительно, изменения во внешней среде, трансформация ценностей, а также обновление статусно-ролевых отношений меняют направленность дискурса. В свою очередь, диахронический анализ раскрывает лингвистические механизмы, лежащие в основе дерегламентации, и целостно отражает современное состояние и тенденции развития бизнес-коммуникации.

Rezyume. Maqolada o‘zbek va ingliz biznes diskursi ochiq, dinamik hamda o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi funksional-sinergetik tizim deb talqin qilinib, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar ta’siridagi transformatsion jarayonlari yoritiladi. Tadqiqotda biznes kommunikatsiyasidagi leksik-semantik yangilanish, terminlarning qayta ma’nolanishi, yangi atamalarning barqarorlashuvi va eskirgan ifodalarning periferiyaga siljishi o‘zbek hamda ingliz tillari materiallari asosida tahlil qilinadi.

Resume. The article examines Uzbek and English business discourse as open, dynamic, and self-regulating functional and synergetic systems, with a focus on their transformational features under the influence of socio-economic, political, and cultural factors. Based on Uzbek and English linguistic material, the study analyzes the lexical-semantic renewal of business communication units, the reinterpretation of terms, the consolidation of new terminological units, and the shift of outdated expressions to the periphery.

Резюме. В статье узбекский и английский бизнес-дискурсы рассматриваются как открытые, динамичные и саморегулирующиеся функционально-синергетические системы; раскрываются их трансформационные особенности под влиянием социально-экономических, политических и культурных факторов. На материале узбекского и английского языков анализируются лексико-семантическое обновление единиц бизнес-коммуникации, переосмысление терминов, закрепление новых терминологических единиц и смещение устаревших выражений на периферию.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«CHIG'ATOY GURUNGI» VA UNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARIXIDAGI O'RNI

Baynazarov Zokir,
Samarqand davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida kechgan uyg'onish jarayonlari til masalasini milliy taraqqiyotning markaziy o'rinlaridan biriga aylantirdi. Bu davrda jadid ma'rifatparvarlari tilni faqatgina aloqa vositasi emas, balki millatning o'zligini saqlovchi, uning ma'naviy va siyosiy uyg'onishini ta'minlovchi asosiy kuch sifatida tushundilar. Shu sababli alifboni isloh qilish, imloni tartibga solish, ilmiy islohatlarni belgilash kabi masalalar jadidlar faoliyatining muhim yo'nalishiga aylandi. Manbalarda ham bu holat alohida ta'kidlanib, «Chig'atoy gurungi»ning tilshunoslik faoliyati, sovetlarning til siyosati va umumadabiy til jarayonlari maxsus tadqiq etilganini ko'rsatadi. Bu davr faoliyati uzoq vaqt davomida yetarli darajada o'rganilmay keldi. Buning asosiy sababi sifatida jadid ziyolilarining qatag'on qilinishi, davr merosiga mafkuraviy nuqtayi nazardan baho berish, milliy o'zlikni anglash yo'lidagi har qanday harakatning «millatchilik» sifatida talqin qilinishi bilan bog'liqdir. XX asr boshlarida o'zbek tilshunosligida, xususan, til, yozuv va imlo islohatlari bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Ularni ilmiy meros sifatida o'rganish, «Chig'atoy gurungi» kabi tashkilotlar faoliyatini keng ko'lamda tadqiq qilish, ulardan qolgan ilmiy manbalarni samarali tadqiq etish bugungi kundagi yozuv va imlo masalalaridagi muhim ilmiy vazifani amalga oshirda qo'l keladi.

«Chig'atoy gurungi»ning vujudga kelishi – hayotiy ehtiyoj. Jadidlar nazarida til millatning ko'zgusi edi. Chunki XX yuzyillik boshlarida Turkiston xalqlari bir tuzumdan ikkinchi tuzum qo'liga o'tib, mustamlakachilik siyosiy qo'rg'onida yashayotgan, butun mustamlaka hududlarida bo'layotgani kabi islohat va yangilanishlarga hayotiy ehtiyoj sezayotgan davrda umr guzaronlik qilayotgan edi. Sovet hukumatining boshlang'ich – o'tish davrida kichik tirqishdan kelayotgan umid nuri, ozgina esayotgan hurriyat shabodasi islohatlarga undovchi avlodni – jadidlarni tarixiy maydonga chiqargan edi. Yillar davomida kichik davralarda aytib kelingan fikrlar butun bir millat taqdirini hal qilishga qodir harakatni yuzaga chiqargan edi. Aytish mumkinki, mustamlakachilar tomonidan tinimsiz bug'ilib kelinganayotgan bo'lsa-da, bo'g'iq ovoz bilan gapirayotganlar, millatning kelajak taqdirini o'ylayotganlar – jadidlar edi. Manbalarda bu fikr juda aniq ifodalanadi: milliy uyg'onish vaqtida ma'rifatparvar ziyolilar kishilarda milliy ruh va ongni uyg'otishda tilga g'oyat katta ahamiyat berganlar. Chunki ular millatning harakatini tasdiqlovchi bebaho javohir – ona tili ekanligini chuqur anglagan edilar. Xalq jonli tilining ishlashini ro'yobga chiqarish va adabiy til me'yorlarini belgilash o'sha davr uchun eng muhim vazifalaridan biri edi[1]. Shu ma'noda «Chig'atoy gurungi»ning vujudga kelishi kutilmagan hodisa emas edi. U o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti oldida turgan murakkab savollarga javob sifatida yuzaga chiqdi. Bir tomondan, adabiy tilning tayanch me'yorlari hali to'la shakllanmagan, undan asosiy yozuv, imlo, istiloh va talaffuz kabi masalalarda bir xillik yo'q edi. Bu maqsadning o'ziyoq «Chig'atoy gurungi»ga til islohotlarini olib borish ilmiy-ma'rifiy muhit sifatida talqin etish imkonini beradi.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlar yuz bera boshladi. Rossiya mustamlakachilik siyosati, xalqning siyosiy nazorat ostiga olinishi, iqtisodiy-ijtimoiy zaiflashishi, madaniy-ma'rifiy himoyaning yo'qligi Turkiston ziyolilarini jiddiy tashvishga soldi. Ruslashtirish siyosatining jadal amalga oshirilishi, rus-tuzem maktablarining ochilishi, eski ta'lim tizimi zamon talablariga javob bermasligi, xalq orasida savodxonlik darajasining pastligi, milliy til va adabiyot masalalarining yetarli darajada rivojlanmagani yangi ma'rifiy va madaniy jamiyatlarning ochilishiga sabab bo'ldi. Shu davrda o'lkaning jadid ziyolilari xalqni uyg'otish, uni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash zarurligini chuqur angladilar va harakatga kechdilar. Bu sa'y-harakatlarning natijasi yangi usul maktablari, xayriya jamiyatlari, nashriyotlar, gazeta va teatr truppalarining faoliyatida ya-

[1] Azimov I. XX asr boshlarida o'zbek tilshunosligining rivojlanish yo'nalishlari: Fan doktorligi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.

qqol namoyon bo‘ldi. «Shirkati Buxoroyi Sharif», «Tarbiyayi atfol», «Jamiyati xayriya», «Nashriyot», «Maktab», «Turon» kabi o‘nlab tashkilotlar ana shu tarixiy zarurat natijasida maydonga keldi. Millatni uyg‘otish uchun uning tarixiy xotirasini tiklash, adabiyot tilini yaxshilash, imlo va yozuvlarni tartibga solish, milliy adabiyotning nazariy asoslash zarur edi. Ana shunday sharoitda «Chig‘atoy gurungi» kabi ilmiy-adabiy va ma’rifiy tashkilotning yuzaga chiqishiga omil bo‘ldi. Bu milliy «Gurung»ning tashkil etilishi, eng avvalo, o‘zbek xalqining madaniy o‘zligini anglashi yo‘lida ilk qadamlardan biri edi. Tashkilotning «Chig‘atoy» deb atalishi ham bejiz emas edi. Bu nom Alisher Navoiy davri, Chig‘atoy adabiyot tili, o‘zbek mumtoz adabiyoti va tarixiy madaniy merosga ishora qilardi. Tashkilot a’zolari o‘z faoliyatida o‘tmishdagi adabiyot va madaniy yuksalish an’analarini qayta tiklash, xalqni o‘z tarixidan saqlash, milliy g‘urur va birlik tuyg‘usini mustahkamlashga ishora edi. «Chig‘atoy gurungi» Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan yaratilgan bo‘lib, uning faol a’zolari orasida Cho‘lpon, Botu, Elbek, Shorasul Zunnun, Shokirjon Rahimiy, Mannon Ramz, Uyg‘ur, Qayum Ramazon, G‘ulom Zafariy kabi ko‘plab taraqqiyparvarlar bor edi[1]. **«Chig‘atoy gurungi» 1918-yilning oxirlarida tashkil qilingan va Fitrat rahbarligida ish olib borgan. Bu madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy tashkilot 1919-yilning boshida Milliy ishlar komissarligi tomonidan rasman tasdiq qilingan. «Chig‘atoy gurungi» madaniy merosimizni to‘plash, o‘rganish va ulardan xalqni bahramand etish, o‘zbek adabiy tili, milliy yozuv va adabiyotimizni yaratish va yuksaltirish masalalari bilan shug‘ullangan**[2]. Tashkilot 1921-yilgacha faoliyat yuritdi. Til, yozuv va imlo masalalaridan tashqari, maorif ishlari – maktablarni tashkil etish, ularuchun zarur kitoblarni yozish va nashr qilish, madaniy-ma’rifiy dasturlar tayyorlash, xalq ijodiy namunalarini yozib olish, ularni tadqiq qilish va chop etish, qo‘lyozmalarni topish va o‘rganish kabi madaniy ishlarni amalga oshirishdi.

Tashkilot bor-yo‘gi 3 yil faoliyat yuritadi. Tadqiqotlarda uning tugatilishi sanasi bilan bog‘liq bahsli holatlar bor. Tilshunos T. Tog‘ayevning bir necha manbalarga tayanib ma’lumot berishicha, 1918-yil tuzilib, 1919-yil rasman ish boshlagan «Chig‘atoy gurungi» 1921-yil yopilgan va uning bajaradigan vazifasi Maorif komissarligi qoshida tuzilgan 3 kishilik komissiyaga yuklatilgan. 1921-yilning yanvar oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Til-imlo qurultoyida Cho‘lpon «Chig‘atoy gurungi» hamda «O‘zbek RusTA» vakili sifatida ishtirok etgan. Ushbu anjuman o‘lkadagi imlo bahslari bois Maorif komissarligi taklifi va «Chig‘atoy gurungi»ning tashabbusi bilan chaqirilgan edi. «Chig‘atoy gurungi», ayrim tadqiqotchilar ko‘rsatib kelayotganlaridek, 1922-yilda emas, balki mana shu qurultoydan so‘ng tugatilgan. Elbekning ma’lum qilishicha, qurultoy so‘ngida Maorif komissari Shohid Ahmadiyevning taklifi bilan Maorif komissarligi huzurida uch kishidan iborat (Cho‘lpon, Elbek, Vadud Mahmud) O‘zbek bilim hay’ati tuziladi. 1921-yil 10-yanvardan ishga kirishgan bu bilim hay’ati «o‘zbekning butun ilmiy ishlarini qaraguchi va qurultoy ishlarini amalga oshirguchi bo‘lib qoladir». «Chig‘atoy gurungi»ning ko‘pgina yumushlari endi o‘lka sho‘ro tashkilotlari (Milliy ishlar va Maorif komissarliklari)ning ko‘magida ish ko‘ra boshlagan O‘zbek bilim hay’atiga yuklatilgan edi. Har holda, bundan keyin Til va imlo masalasiga bag‘ishlangan qurultoy yoki anjumanlarda (masalan, 1922-yilda Toshkentda va 1923-yilda Buxoroda), umuman, hech bir joyda «Chig‘atoy gurungi» nomi harakatdagi jamiyat sifatida zikr qilinmaydi. Fitratning o‘zi «Chig‘atoy gurungi» 20-yillargacha davom qildi» deb ma’lumot beradi[3].

Tashkilotning yopilishiga bir necha bahslar va tortishuvlar sabab bo‘lgan. Uning shiddat bilan kengayib, erkin faoliyat olib borishi, tabiiyki, mustamlakachilarga yoqmagan. Kichik bahona ham yetarli edi. Ammo, Fitrat va uning hamrohlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar boshqa tashkilotlar nomi ostida davom etdi.

«Chig‘atoy gurungi» amalga oshirgan ishlar va islohatlar. O‘zbek tili imlo masalalarini belgilashda Fitrat boshchiligidagi «Chig‘atoy gurungi» a’zolarining xizmatlari beqiyos bo‘ldi. I.Azimov o‘z tadqiqotida yozishicha[4], «gurungchilar» o‘z oldilariga quyidagi vazifalarni qo‘ygan edi:

– tilimizning tugal, yuksak, san’atkor bir adabiyoti bor. Tilimizning adabiyligi arabiylikda emas, o‘zidadir. Shuni turgizmak kerak;

– adabiyotimizni yuksaltmak uchun burung‘i san’atkor shoirlarimizning o‘lmag‘an va o‘lmas narsalarindan foydalanmoq ham taraqqiy qilg‘an uluslar tomonidan orag‘a solingan umumiy asoslarga erishmak kerakdur;

- tilimizning qoidalarini tatarcha yoxud usmonlicha qoida kitoblaridan emas, tilimizning o‘zidan olmoq kerak. Shuning uchun xalq og‘zida yurgan so‘zlarni, xalq adabiyoti bo‘lg‘an ertaklar, maqollar, laparlarni yig‘ib tekshirmak lozim;

- adabiyot yozuchiliq bo‘lg‘ani uchun yozu(v) qoi-

[1] Açık F. Özbekistan’da 1909-1917 Yılları Arasında Faliyet Gösteren Turan Cemiyeti, Türk Yurdu, 2005 Cilt 25, Sayı 214.

[2] Tog‘ayev, T. M. 2022. XX asrning 20-30-yillarida O’zbekistonda til va yozuv siyosati / O‘zbekiston: til va madaniyat 3: 6–23.

[3] Тоғаев Т. “Чиғатой гурунги” фаолияти тўғрисида баъзи мулоҳазалар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2 | ISSUE 9. Orient.uz, 2022. -B.424-425.

[4] Azimov I. XX asr boshlarida o‘zbek tilshunosligining rivojlanish yo‘nalishlari: Fan doktorligi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.

dalari, imloni ham tuzatmak kerak[1].

«Chig‘atoy gurungi» madaniy merosimizni to‘plash, o‘rganish va ulardan xalqni bahramand etish, o‘zbek adabiy tili, milliy yozuv va adabiyotimizni yaratish va yuksaltirish masalalari bilan shug‘ullangan[2].

«Chig‘atoy gurungi» tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan eng muhim ishlardan biri ***yozuv, milliy alifbo va imlo*** islohoti bilan bog‘liq faoliyatdir. «Gurungchilar» arab alifbosi o‘zbek tilining milliy tovushlar tizimiga tabiatan mos emasligini qayd etib, uni isloh qilish zarurligini ilgari surdilar. Shu maqsadda tashkilot arab yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini milliy tilimizga moslashtirishga kirishdilar. Avvalo, ta’kidlash lozimki, arab yozuvidan qat’iy qoidasiz foydalanib kelingan edi. Bu holat turli chalkashliklarni, jumladan ta’lim olish, savod chiqarishda murakkabliklarni keltirib chiqarar edi. Bu alifbo o‘zbek tilidagi tovushlarni, asosan, unlilarni ifodalash uchun yetarlicha imkoniyat bera olmasdi. «Chig‘atoychilar», dastlab, ularni aniq ifodalash uchun maxsus belgilar joriy etishga harakat qilishdi va ayrim o‘rinlarda foydalandilar. «Chig‘atoy gurungi» «imlo to‘dasi»ning o‘qituvchilar uchun imlo qo‘llanmasi bo‘lgan «Bitim yo‘llari» nomli bitikchasi 1919-yilda Maorif komissarligi ruxsati bilan chop etildi. Ko‘pchilik yosh ziyolilar, o‘qituvchilar «Chig‘atoy gurungi» imlosini yoqladilar va unga ergashdilar. Munavvar qori va Ashurali Zohiriy o‘z tarafdorlari bilan yangi imloga qarshi bo‘ldilar[3]. «Gurung» tomonidan o‘zbek tilidagi 6 ta unli tovush uchun maxsus belgilar taklif qilindi. Bundan tashqari, gurung arab harflarining to‘rt shakldan ikki shaklga tushirilishini qo‘llab-quvvatladi. 1920-yilgi o‘qituvchilar qurultoyidagi qaror asosida harflar soni 150 dan 50 taga tushirildi. Keyinchalik esa faqat bosh harflarni qoldirib, harflar sonini 23 taga qisqartirish taklif qilindi. Bu nashriyot va matbaa ishlarida muhim qulaylik yaratardi. Manbalarda, jumladan prof. J.Eltazarov[4], I.Azimov[5] va boshqalarda, keltirilishicha, XIX yuzyil ikkinchi yarmida Ozarboyjonda arab yozuvini isloh qilish va turkiy tilga moslashtirish bo‘yicha ko‘p harakatlar bo‘lgan, hatto, Eron va Usmoniylarga ham tavsiya etilgan. Ammo samara bermagan. Boshqa o‘lkada bo‘lgani kabi yurtimizda ham arab alifbosini isloh qilishga din ta’siridagi dunyoqarash to‘sqinlik qilgan. Bundan tashqari, bu yozuvdan barcha turkiy xalqlar foydalanayotgani sababli «birlashtiruvchi kuch» sifatida ko‘rilgan. 1921-yil qurultoyidagi Fitrat ma’ruzasi mavjud yozuv tizimidagi qoidasizlikni aniq ko‘rsatib beradi: harakat va harf shakllarining chalkash, ular turkey tovushlarni aynan belgilay olmaydi, yozuvda tartibsizlik mavjud va, shuningdek, imlo «buzuq» holatda. Bu sabablarning barchasi sohada islohot zaruratini tug‘dirgan. Yuqoridagi omillar «Chig‘atoy gurungi»ning imlo masalasiga nazariy emas, balki amaliy jihatdan yondashganining ko‘rinishidir.

«Chig‘atoy gurungi» a’zolarining **singarmonizm**ga munosabati to‘rt asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lgan. Birinchidan, barcha a’zolar o‘zbek tilida singarmonizm mavjudligini e’tirof etdi. Ikkinchidan, asosiy munozara «temir qonun» va «istisnochilar» o‘rtasida kechdi. Uchinchidan, o‘zlashma qatlam so‘zlariga singarmonizmni qo‘llash yoki qo‘llamaslik eng katta bahsni keltirib chiqardi. To‘rtinchidan, «Gurung» a’zolari orasida ham bu ikkinchi guruh fikrlari bo‘yicha turlicha qarashlari bo‘lib, 1929-yil konferensiyasida Q.Ramazon taklifiga ko‘ra murosali qaror qabul qilindi.

«Chig‘atoy gurungi» a’zolarining bu masaladagi faoliyati singarmonizmni o‘zbek adabiy tilining ilmiy asosi sifatida belgilash yo‘lidagi harakatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, keyinchalik sovet hokimiyati tomonidan bu qonuniyat sun’iy ravishda inkor etildi. 1934-yil 9 unlilik 6 unlilikka tushirildi. Bu o‘rinda «Chig‘atoy gurungi» a’zolarining fikri inobatga olingan deyish mumkin. Chunki, Fitratning o‘zi 6 unlilik tarafdori bo‘lgan. Endi savol tug‘iladi: Fitrat nega olti unli tavsiya qilgan, boshqa turkiy tillar kabi to‘qqizta emas? Shu savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Ma’lumki, bu davrda milliy tilshunoslik hali fan sifatida shakllanmagan, o‘zbek jadidchilik harakati Turkiya va Tataristonda paydo bo‘lgan jadidchilikning bevosita ta’sirida shakllangan, tilshunoslik bo‘yicha ilmiy qarashlarda aynan ularning roli kuchli bo‘lgan. Bu haqda Sh.Bobomurodova shunday yozadi: «1895-1915-yillarda Tataristonda harflarni isloh qilish borasida harakatlar avj olgan bir paytda tatar tilshunoslari orasida unlilarni belgilashda turli qarashlar mavjud bo‘lib, bularning hammasi singarmonizm bilan bog‘liq edi. Tildagi yo‘g‘onlik va ingichkalikni so‘z tarkibidagi unlilarga bog‘liq deb talqin etgan tilshunoslar yo‘g‘on va ingichka juftlikdan iborat sakkiz unlini belgilab olganlar. Singarmonizm hodisasini ayrim unli (alif, hoyi havvaz) va asosan, undoshlarga bog‘lab tushuntirgan O.Ibrohimov va uning tarafdorlari dastlab besh, keyinroq qisqa «i» ni kiritib, olti unlini qabul qildilar. Bu olti unliga aso-

[1] Фитрат. Танланган асарлар, IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – B.135.

[2] Tog‘ayev, T. M. 2022. XX asrning 20-30-yillarida O’zbekistonda til va yozuv siyosati. O‘zbekiston: til va madaniyat 3: 6–23.

[3] Azimov I. XX asr boshlarida o‘zbek tilshunosligining rivojlanish yo‘nalishlari: Fan doktorligi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.

[4] Eltazarov J.D. O‘zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Samarqand, 2017.

[5] Azimov I. XX asr boshlarida o‘zbek tilshunosligining rivojlanish yo‘nalishlari: Fan doktorligi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.

slangan tatar yozuvi 1918-yilda o‘rta imlo nomi bilan keng tarqalgan bo‘lib, o‘zbek tilshunoslari Fitrat va Elbeklar ham ana shu imloga asoslanib 1919-yil o‘zbek yozuvi uchun olti unlini belgilab oldilar[1]**«.**

Tashkilot **o‘zbek adabiy tili**ni zamonaviy ko‘rinishda shakllantirish va me’yorlashitirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratdi. Jadid ziyolilari va «gurungchilar» xalq jonli tiliga yaqin bo‘lgan adabiy til tarafdori edilar. Ular mumtoz «chig‘atoy tili» an’analarini saqlagan holda xalq tilidagi so‘z va shakllarni adabiy me’yorga olib kirishga harakat qildilar. Bu orqali o‘zbek tilining xalqchil va milliy ruhdagi adabiy til bo‘lishiga zamin yaratildi. Tashkilot a’zolarining bunday qarashlari zamonaviy o‘zbek adabiy tilining rivojlashiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Fitrat faoliyatining yana bir muhim jihati u tilni tarixiy bilan bog‘liq holda, lekin ko‘r-ko‘rona taqlidsiz tushungan. Jadidlar Alisher Navoiyni til ravnaqi yo‘lidagi mayoq deb bilganlar. Manbada Navoiy milliy asarlarini jadidlar o‘zlari uchun dasturulamal sifatida qabul qilingani va tilning rivojlanishini ro‘yobga chiqarishda undan ilhomlangani alohida qayd etib o‘tiladi. Bu hol «Chig‘atoy gurungi»ning «chig‘atoychilik»ni oddiy tarixiy romantizm merosi sifatida emas, balki adabiy til bilan uyg‘unlashtirishni ko‘rganini anglatadi.

«Chig‘atoy gurungi» milliy **terminologiya**ni olish masalasida ham katta ishlarni amalga oshirdi. Ular o‘zbek tilini chet tillar ta’siridan imkon qadar himoya qilish, yangi ilmiy va ijtimoiy hodisalar uchun turkiy asosdagi istilohlarni topishga kirishdilar. Shu bilan birga, ular boshqa turkiy xalqlar til tajribalaridan ham unumli foydalandilar. Bu faoliyat o‘zbek tilida ko‘plab yangi terminlar va ilmiy atamalarning krib kelishiga sabab bo’ldi. Fitrat boshchiligidagi «Chig‘atoy gurungi» adabiy tildagi barcha yot so‘zlarni chiqarib tashlash va ularning o‘rniga o‘z tilimizdan istilohlar yasash tashabbusi bilan chiqdi. Bu qarash gurungning bosh tamoyillaridan biri edi: tilimizga kirib qolgan yot so‘zlarning o‘zbek muqobillarini topish, ilmiy istilohlarning turkcha (o‘zbek) variantlarini yaratish yo‘lida harakat qilish har bir o‘zbek yozuvchisining burchi deb belgilandi. Ammo «Gurung»ning bunday keskin qarashi o‘sha davrdagi ko‘pchilik ziyolilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadi. Ashurali Zohiriy, Munavvar qori, Behbudiy, Hoji Muin kabi ziyolilar «Gurung»ning istilohlarni yoppasiga turkiylashtirishiga qarshi chiqdilar. Miyon Buzruk tilga o‘zlashgan barcha istilohlarni o‘zbek tiliga o‘girish masalasida gurungni tanqid qildi va «bu sohada «Chig‘atoy gurungi»ning qilib ko‘rgan tajribasi yetarli natija bermadi» deb baholadi. Unga ko‘ra, gurungning eski, unutilgan so‘zlarni tiklash yo‘li (masalan, *atamachiliq, izm, sachim* kabi so‘z yasash) kutilgan natijani bermadi, chunki jamiyat o‘z ruhiga mos kelmagan so‘zni rad etib tashlayveradi. Gurung qarashlariga davr ziyolilari tomonidan alternativ sifatida bir qator ilmiy asoslar ilgari surildi. Jumladan: arab va fors tilidan o‘zlashib, tilga singib ketgan *ilm, muallim, falsafa, maarif, tibbiyot, tabiat* kabi so‘zlarni o‘z o‘rnida saqlash qolish, istilohlarni faqat turkiy tillardan olish o‘rniga, avvalo, xalq shevalariga murojaat qilish hamda internatsional istilohlarni (*proletar, komitet, kommuna* kabi) qabul qilish maqsadga muvofiq kabi.

1921-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Birinchi o‘lka o‘zbek tili va imlosi qurultoyida asosiy ma’ruza qiluvchilarning ikkitasi (Fitrat va Botu) aynan «Chig‘atoy gurungi» vakillari bo‘lib, qurultoy qarorlari ham ular tomonidan ishlab chiqildi. Qurultoyda alifbo islohi bilan birga istiloh va imlo masalalari ham ko‘rib chiqildi. Gurung tomonidan tuzilgan «Bitim yo‘llari» asarida bir qator milliy atamalar kiritildi. Bu haqida bir necha ilmiy tadqiqotlarda izlanishlar amalga oshirilgan. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida iste’molda bo‘lgan terminlarning (keyinchalik kirib kelganlardan tashqari) deyarli barchasi Fitrat ilmiy tafakkurining mahsulidir[2]. 1926-yil 25-noyabrdagi O‘zbekiston Ilmiy Sho‘rosining yig‘ilishida istilohlarni milliylashtirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar «Gurung» g‘oyalarini ma’lum darajada aks ettirib, turkiy shevalarni chet so‘zlardan tozalash, unutilgan, tarix qarida qolib ketgan turkiy so‘zlarni topib, adabiyotga kiritish, barcha turkiy xalqlar uchun yagona atama (istiloh) qabul qilish, va bu atamalar faqat turkiy so‘zlardan olinishi lozimligi qayd etildi. «Chig‘atoy gurungi»ning istiloh masalasidagi qarashi radikalligi bilan ajralib turadi. Ular arabcha, forscha va boshqa yot so‘zlarni yoppasiga chiqarib, o‘rniga milliy, turkiy istilohlar yaratish g‘oyasini targ‘ib qilgan va birmuncha maqsadiga erishgan. Biroq amaliyot bu yo‘lning qiyinligini ko‘rsatdi, jamiyat o‘z ruhiga mos kelmagan sun’iy so‘zlarni qabul qilmadi. Shu sababli keyinchalik gurung a’zolarining o‘zlari ham bu fikrdan qisman qaytgan[3].

Tashkilot ma’rifiy va madaniy faoliyat bilan ham shug‘ullandi. Jadidlar yangi usuldagi maktablar ochish, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, matbuotni rivojlantirish orqali xalq savodxonligini oshirishga harakat qildi. Bundan tashqari, xalq tilida yashayotgan folklor namunalarini yozib olish, tarixiy boylik sanaladigan qadimiy qo‘lyozmalarni topish, to‘plash va tadqiq qilish, bosmaxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabi faoliat bilan mashg‘ul bo‘lishdi. Abdurauf Fitratning Istan-

[1] Элбекнинг тилшуносликка оид асарлари (тўпловчи: Ш.Бобомуродова). – Тошкент, 2001. – В.43.

[2] Baynazarov Z. Xusanova Z. Tinish belgilar tarixi va ularning yozma matnlarda qo‘llanilish xususiyatlari / Turkologik tadqiqotlar. – Samarqand. 2025/2-son. turkologiya.samdu.uz

[3] Azimov I. XX asr boshlarida o‘zbek tilshunosligining rivojlanish yo‘nalishlari: Fan doktorligi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.

buldagi faoliyati, «Yosh buxoroliklar» harakati bilan aloqalari ham «Chig‘atoy gurungi»chilarining g‘oyalariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Fitrat jadidchilik, milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini Turkistonga olib kirgan yuqori ziyolilardan biri bo‘ldi.

«Chig‘atoy gurungi»ning faoliyati turlicha baholandi. Imlo masalasida «*Chig‘atay gurungi»ning katta bir xizmati bo‘lsa, u ham imla masalasidir. Tarixiy imladan savtiy, sarfiy imlaga ko‘chish bo‘ldi*» deb e’tirof etildi [*Yangi alifbo*]. Alifbo islohidagi ilmiy izchillik va turkiy xalqlar tajribasiga murojaati ilmiy yondashuv sifatida yuqori baholandi. Milliy fonetika ilmining shakllanishiga asos solinishi ham tashkilotning xizmatlaridan biridir. «Gurung» faoliyatini yoqlamagan, ijobiy baholamagan tomonlar ham mavjud va buni tabiiy hol sifatida ko‘rish mumkin. Chunki har bir harakatning salbiy bahosi ham mavjud. «Gurung» islohatlariga qo‘shilmaganlar fikricha, arab va fors so‘zlarini yoppasiga chiqarish taklifi amalda bajarib bo‘lmas harakatdir, unutilgan eski so‘zlarni sun’iy ravishda qayta tiklash jamiyat tomonidan qabul qilinmaydi, deb qaradi. Bundan tashqari, «Gurung»chilar adabiy tilni xalq jonli tiliga yaqinlashish tamoyilini e’lon qilgan holda, amalda bu bir necha lug‘at so‘zlarini olish bilan cheklandi, xolos. Amalda kichik bir harakatdan nariga o‘ta olmadi. Muxolif fikrlarga qo‘shilishdan boshqa chorasi qolmadi.

Sobiq Sovet hokimiyati mustahkamlanib olgach, «Gurung» faoliyati siyosiy jihatdan qoralandi. Ularning milliy til, alifbo, adabiy tilning sofligi uchun olib borgan harakatlari «*eskilik sarqiti*» sifatida baholanib, «panturkizm» va «millatchilik» tamg‘asi bosildi. Biroq mustaqillikdan so‘ng gurungning milliy til va alifbo masalasida katta xizmatlar qilganligi e’tirof etildi.

Xulosa o‘rnida. «Gurung» 1918-yil oxirlarida Toshkentda Abdurauf Fitrat rahbarligida tashkil topdi. 1919-yil boshida Milliy ishlar komissarligi tomonidan rasman tasdiqlangan bu madaniy-ma’rifiy va adabiy-badiiy tashkilot jadidchilik harakatining so‘l oqimini birlashtirdi. Tashkilot tarkibida Qayum Ramazon, Elbek, Shokirjon Rahimiy, Botu, Shorasul Zunnun, Oltoy kabi yirik ziyolilar faoliyat yuritdi. Ularning imlo masalalari bilan maxsus shug‘ullanuvchi alohida bo‘limi – «Imlo to‘dasi’ tuzilgani tashkilotning ishiga naqadar tizimli yondashilganini ko‘rsatadi. Gurungning bosh maqsadi yangi o‘zbek milliy adabiyoti va adabiy tilini yaratish, ilm-madaniyatini rivojlantirishdan iborat edi. «Gurung» a’zolari yangi adabiyot va adabiy tilni chig‘atoy adabiyotining chin vorisi sifatida ko‘rib, uni Navoiy davridagidek yuksak mavqeyiga qaytarishni va boshqa turkiy tillar uchun ham namuna bo‘lishini istadi. Fitratning o‘z so‘zlari bilan aytganda, «Chig‘atoy adabiyoti turk adabiyoti orasida eng yuksak, eng muhim o‘rinni tutqondur». «Gurung» a’zolari o‘ziga xos millatparvarlik pozitsiyasida turib, faqat o‘zbek millati manfaatidan kelib chiqib ish ko‘rdi va 1921-yilgi Birinchi o‘lka qurultoyiga «Turkistonda bo‘lgan turk urug‘laridan yolg‘iz o‘zbeklarni» chaqirdi. Ularning eng muhim va davomli hissasi til va yozuv islohotida namoyon bo‘ldi. Tashkilot arab yozuvini o‘zbek tiliga moslashtirib, harflar sonini 150 dan 23 taga qisqartirdi, o‘zbek tilidagi 6 unli tovush uchun maxsus belgilar kiritdi, qalinlik-ingichkalik (singarmonizm) qoidasini imlo asosiga aylantirdi. 1919-yilda Maorif komissarligi ruxsati bilan nashr etilgan «Bitim yo‘llari» asari o‘zbek tilshunosligida milliy grammatika va fonetikaning ilk ilmiy asosi bo‘lib qoldi. 1921-yilgi Birinchi o‘lka o‘zbek tili va imlosi qurultoyida asosiy ma’ruzani gurung vakillari (Fitrat va Botu) qildi, qurultoy qarorlari ham ular tomonidan ishlab chiqildi. Ular «Eski imloni isloh etishga bel bog‘ladilar. O‘zlari isloh etgan imloni gazeta sahifalarida e’lon qilib, targ‘ib qila boshladilar. Ikki oylik o‘qituvchilar tayyorlash kurslari ochib, yangi imloni o‘rgata boshladilar.

«Gurung» faoliyatining muhim qismi madaniy merosni to‘plash, o‘rganish va ommalashtirish hamda matbuot orqali g‘oyalarni yoyishdan iborat edi. «Qizil O‘zbekiston», «Qizil bayroq», «Sharq haqiqati», «Maorif va o‘qitg‘uchi» kabi nashrlar g‘oyaviy platforma vazifasini bajargan. Ko‘plab yosh ziyolilar va o‘qituvchilar «Gurung» imlosini qo‘llab-quvvatladilar. Barcha yot so‘zlarni chiqarib, o‘z tilimizdan istilohlar yasash tashabbusi bilan chiqdi. Bu fikr Ashurali Zohiriy, Munavvar qori, Behbudiy, Hoji Muin kabi ziyolilar tomonidan tanqid qilindi. Ammo «chig‘atoychilar»ning bu boradagi faoliyati o‘zbek ilmiy terminologiyasini shakllantirish yo‘lida birinchi tizimli urinish sifatida tarixda o‘z o‘rnini egalladi. Tashkilot faoliyati o‘sha davr va keyingi davrda turlicha baholandi. Bir tomondan, gurungning imlo masalasidagi xizmati hatto raqiblari tomonidan ham tan olindi. Imlo sohasidagi eng katta xizmat tarixiy imlodan tovush-sarf imloga o‘tish bo‘ldi, deb e’tirof etildi. Boshqa tomondan, arab va fors so‘zlarini yoppasiga chiqarib, o‘rniga unutilgan turkiy so‘zlarni kiritish g‘oyasi amalda o‘zini oqlamadi, jamiyat sun’iy tarzda tiklangan so‘zlarni qabul qilmadi. Sovet hokimiyati mustahkamlangach esa, gurung faoliyati «*panturkizm*» va «*burjua millatchiligi*» tamg‘asi ostida qoralandi, Fitrat va boshqa a’zolar qatag‘onga uchradi.

«Chig‘atoy gurungi» o‘zbek milliy tilshunosligini, milliy fonetika va grammatika ilmini, imlo qoidalarini shakllantirgan, o‘zbek yozuvini arab alifbosidan lotin yozuviga o‘tkazish harakatida faol ishtirok etgan, o‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasiga tamal toshini qo‘ygan tashkilotdir. Uning faoliyati XX asr boshlarida o‘zbek ziyolilari millat taqdiri uchun olib borgan fidokorona kurashning eng yorqin namunasidir.

Rezyume. O‘tgan asrning birinchi choragi o‘zbek xalqi tarixida o’chmas iz qoldirgan davr sifatida kechmishning zarhal sahifasi sanaladi. Turli ko‘rinishdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy inqiloblar samarasi o‘laroq til, yozuv va imlo borasida juda ko‘p ishlar hamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Natijada bir necha loyihalar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu ishlarning barchasi hayotga tatbiq etilmagan bo‘lsa-da, ularning ahamiyati hozirgi davrda ham o‘z kuchini saqlab qolmoqda. Jumladan, yozuv va imlo borasidagi ishlar. Ushbu maqolada XX asr boshlaridagi jadidchilik harakatining tilshunoslik yo‘nalishida alohida o‘rin tutgan «Chig‘atoy gurungi»ning o‘zbek milliy tilshunosligidagi o‘rni yoritiladi. Tarixiy manbalar asosidagi faoliyatning bosh yo‘nalishlari – alifboni islohloh qilish, imlo qoidalarini milliylashtirish, singarmonizmga munosabat, terminologiya va xalq jonli nutqiga tayangan adabiy me’yorni ishlab chiqishda muammolarni tahlil qilish. «Chag‘atoy gurungi» atrofida kelgan munozaralar, unga qarshi bildirilgan tanqid hamda keyingi harakatlar baholangan. Manbalarda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bu «Gurung» nafaqat milliy bir uyushma, balki milliy tilni ilmiy asosda qayta qurishga uringan ma’rifiy-intellektual harakat sifatida ham muhim tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Resume. The first quarter of the twentieth century left an indelible mark on Uzbek history, during which significant scholarly work was carried out in the fields of language, script, and orthography. This article examines the role of «Chagatay Gurung» – a prominent organization within the linguistic dimension of the early twentieth-century Jadidist movement – in the development of Uzbek national linguistics. Based on historical sources, the article analyzes its main areas of activity: alphabet reform, nationalization of orthographic norms, attitudes toward vowel harmony, terminology development, and the establishment of literary norms based on living spoken language. The debates surrounding the organization, criticism directed against it, and subsequent developments are also assessed. The study concludes that «Chagatay Gurung» was not merely a national association, but an enlightenment and intellectual movement that sought to reconstruct the national language on a scientific basis.

Резюме. Первая четверть прошлого века считается золотой страницей прошлого как период, оставивший неизгладимый след в истории узбекского народа. В результате различных социально-политических и культурных революций было проведено множество работ и научных исследований в области языка, письменности и орфографии. В результате было разработано несколько проектов и рекомендаций. Хотя все эти работы не были внедрены в жизнь, их значение сохраняет свою силу и в настоящее время. В частности, работы по письму и орфографии. В данной статье рассматривается роль «Чагатайской беседы» в узбекском национальном языкознании, которая заняла особое место в лингвистическом направлении джадидского движения начала XX века. Основные направления деятельности на основе исторических источников – реформирование алфавита, национализация орфографических правил, отношение к сингармонизму, анализ проблем при разработке литературной нормы, основанной на терминологии и живой речи народа. Оценены дискуссии, возникшие вокруг «Чагатайской беседы» критика, высказанная против него, и последующие действия. Данные, приведенные в источниках, показывают, что «Гурунг» имеет важное историческое значение не только как национальное объединение, но и как просветительско-интеллектуальное движение, пытавшееся перестроить национальный язык на научной основе.

ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DISLEKSIYA NEYROLINGVISTIK MUAMMO SIFATIDA

Xolnazarov Umid Erkinovich,
Termiz davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ma’lumki, zamonaviy o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika, shuningdek, yangi soha sanalgan neyrolingvistika yo‘nalishlarida tadqiqot olib borish dolzarblik kasb etmoqda. Chunonchi, neyrolingvistika (lot. neuron – nerv va lingua – til) – psixologiya fani sohasi, afaziyaning psixolingvistik jihatlarini o‘rganadi. Neyrolingvistikaning fan sifatida vujudga kelishi, bir tomondan, neyropsixologiyaning, ikkinchi tomondan, lingvistika va psixolingvistikaning rivojlanishi bilan bog‘langandir. Hozirgi zamon neyropsixologiyasida neyrolingvistika so‘zlashga miyaning sistemali funksiyasi sifatida, afaziyaga esa sistemaning buzilishi sifatida qaraydi. Neyrolingvistikaning rivojlanishi psixolog A. R. Luriya (1902 – 1977) va uning shogirdlarining ilmiy ishlari bilan bog‘liqdir. Chunonchi, hozirgi kunda neyrolingvistika (nevrologiya va tilshunoslikning tutashgan nuqtasi) psixolingvistika, neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g‘oyalari va metodlaridan barakali oziqlanmoqda. Shunday qilib, insonning olamni belgilashtirish tabiatini kompleks ravishda o‘rganishda neyrolingvistikaning bir tarmog‘i sanaldan disleksiyaning o‘rni alohida ajralib turadi. Xo‘sh, avvalo, «disleksiya» nima va uning yuzaga kelishiga olib keluvchi qanday sabablar bor?

Darhaqiqat, til tizimining miyaning nutqiy xulq-atvor mexanizmi bilan bog‘liq jarayoni mahsuli sanalgan «disleksiya» atamasi (qadimgi yunon. δυσλεξία – nutq buzilishi yoxud so‘z, nutqni o‘zlashtirishdagi qiyinchilik) – umumiy o‘rganish qobiliyatini saqlab qolgan holda, aynan o‘qish va yozish ko‘nikmalarini egallash qobiliyatining buzilishi[1] bo‘lib, ingliz tili tarjima lug‘atida[2] harflar birikmalarini imloda fonemalar bilan bog‘lash kabi, yozma tilni dekodlash va eshitish hamda ko‘rish ma’lumotlarini integratsiyalashda qiyinchilik bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil o‘qish buzilishlaridan biri, shuningdek, o‘qish, yozish va hisoblash sohalarining bir yoki bir nechtasida o‘rganish qiyinchiliklarini keltirib chiqaradigan rivojlanish buzilishi, xalq tilida esa «so‘z ko‘rligi» demakdir. Ushbu fikrlarga asolangan holda aytish mumkinki, disleksiya faqatgina og‘zaki nutqdagi buzilish emas, balki yozma nutqdagi buzilish muammolarini ham o‘z ichiga olar ekan.

Tadqiqotchi R.I.Lalayeva disleksiyaga quyidagicha ta’rif beradi: «disleksiya – bu oliy psixik funksiyalarning shakllanmaganligi (buzilganligi) tufayli yuzaga keladigan va takrorlanuvchi xatolarda namoyon bo‘ladigan o‘qish jarayonining qisman xususiy buzilishidir». A.N.Kornyev esa disleksiyaga to‘xtalib, «asosiy ko‘rinishi o‘qish ko‘nikmasini egallashda turg‘un va tanlangan qobiliyatsizlik bo‘lgan holatlarni nazarda tutadi[3], ya’ni buning uchun yetarli darajadagi intellektual va nutqiy rivojlanish mavjud bo‘lishi, eshitish va ko‘rish analizatorlarida hech qanday buzilish kuzatilmasligi mumkinligi qayd etilgan. Bu esa disleksiya inson psixik funksiyalarining buzilishi tufayli ham kelib chiqadigan o‘qish jarayonidagi buzilish ekanligidan darak beradi.

Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatadiki[4], tarixiy jihatdan, aksariyat Yevropa mamlakatlarida «disleksiya» tushunchasi yozma nutq: o‘qish mahoratini o‘zlashtirish, yozish mahoratini o‘zlashtirish, savodxonlik muammolari, arifmetikani o‘zlashtirish, harakatlar va ularning ketma-ketligining buzilishi va diqqatni jamlash bilan bog‘liq barcha muammolarni o‘z ichiga oladi. Rus logopedlari ushbu muammolarni bir-biri bilan bog‘lamagan holda ko‘rib chiqib, quyidagi: 1) disleksiya; 2) disgrafiya; 3) disorfografiya; 4) diskalkuliya; 5) dispraksiya; 6) diqqat va giperaktivlik yetishmasligi sindromlari tarzida tasniflashadi.

Biz yashayotgan bugungi axborot asri va raqamli texnologiyalar hukm surgan bir davrda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, avvalo, qilinadigan birinchi ishimiz «ta’lim-tarbiyaning asosi, poydevori sanalgan maktablarda ta’lim sifatini oshirmasdan, maktabni o‘zgartirmasdan odamni, jami-

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Disleksiya
[2] https://www.dictionary.com/browse/dyslexia?trk=article-ssr-frontend-pulse_little-text-block
[3] Левонюк, А. Е. Психолингвистика : учеб.-метод. пособие / Брест гос. ун-т им. А. С. Пушкина. – Брест : БрГУ, 2023. – С. 107.
[4] https://uz.wikipedia.org/wiki/Disleksiya

yatni o‘zgartira olmas»[1]ligimizni tushunmog‘imiz kerak. Zero, Yangi O‘zbekistonda eng muhim, ustuvor soha – ta’lim va eng hurmatli insonlar esa o‘qituvchi va murabbiylar ekanligi milliy ta’lim tizimida ham o‘z amaliy tasdig‘ini topayotganligi quvonarli hol, albatta. Biroq, tadqiqotimiz doirasida maktab o‘qituvchilari, jumladan, Termiz shahar maktablari o‘qituvchilari bilan suhbat olib borish davomida ayrim o‘quvchilar orasida o‘qishdagi sustlik, agressivlik, aqliy zaiflik, axloqiy buzuqlik, dangasalik, o‘ziga ishonchsizlik kabi – «disleksiya belgilari» ning kuzatilishi esa achinarli holatdir. Bu kabi salbiy oqibatlar, belgilar disleksiya neyrobiologik va genetik asosga ega bo‘lgan tug‘ma holatlarda ko‘pincha kuzatilishini ko‘rsatadi.

Disleksiya (o‘qish qobiliyatining spesifik buzilishi) zamonaviy nevrologiya, psixologiya va tilshunoslikning eng murakkab va ko‘p o‘rganilgan muammolaridan biridir. Bu holat nafaqat o‘qish va yozish ko‘nikmalarining sekinlashishi yoki xatolari bilan cheklanmaydi, balki miya va til tizimining chuqur o‘zaro bog‘liqligini aks ettiruvchi neyrolingvistik buzilish sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda disleksiya «neyrobiologik asosga ega bo‘lgan rivojlanish buzilishi»[2] deb ta’riflanadi. Unda o‘qish qobiliyati intellekt, ko‘rish va eshitish funksiyalari normal bo‘lishiga qaramay pasayadi. Disleksiyaning ilmiy tarixi XIX asr oxiriga taqaladi. 1896-yilda britaniyalik shifokor Pringle Morgan birinchi marta «o‘qish ko‘rligi» (word-blindness) atamasini qo‘llagan. Keyinchalik, 1920–1930-yillarda Samuel Orton disleksiyani miya yarim sharlarining asimmetriyasi va neyron migratsiyasi buzilishi bilan bog‘lagan. Ammo zamonaviy tushuncha 1970-yillarda Haskins laboratoriyasida (AQSh) fonologik defitsit gipotezasi shakllanishi bilan bog‘liq. Bu gipoteza disleksiyani fonologik qayta ishlashdagi buzilish sifatida talqin qilgan. Bu nazariya bugungi kunda eng kuchli dalillarga ega nazariya hisoblanadi[3]. Disleksiyaning tarqalishi dunyo bo‘yicha 5–20% ni tashkil etadi va bu ko‘rsatkich tilning grafematik tizimiga bog‘liq. Masalan, ingliz tilidagi chuqur ortografiya (harf va tovush o‘rtasidagi nomutanosiblik) disleksiyani yanada og‘irlashtirsa, italyan yoki fin tilidagi yengil ortografiya holatni yengillashtiradi. O‘zbek tilida (lotin yozuviga o‘tish davrida) disleksiya tadqiqotlari hali yetarli emas, ammo turkiy tillar uchun xos bo‘lgan vokal garmoniyasi va morfologik murakkablik disleksiyaning lingvistik namoyon bo‘lishini o‘zgartirishi mumkin. Shunga qaramay, asosiy neyrolingvistik mexanizmlar barcha tillarda bir xil bo‘lib qoladi.

Neyrolingvistik nuqtayi nazardan disleksiya miyaning chap yarim sharidagi til tarmoqlarining disfunksiyasi bilan bog‘liq. Asosiy hududlar:

a) chap temporal-parietal mintaqa (Wernicke maydoni yaqinida) – fonologik qayta ishlash;

b) chap occipito-temporal mintaqa (fusiform gyrus, «visual word form area») – vizual so‘z shakllarini tanish;

c) chap inferior frontal gyrus (Broca maydoni) – artikulyatsiya va fonologik chiqarish.

Bu hududlar o‘rtasidagi oq modda yo‘llari (arcuate fasciculus) buzilishi disleksiyaning asosiy neyrobiologik belgilaridan biridir. B.Boets[4] va hamkorlari o‘tkazgan tadqiqotda disleksiyali kattalarda fonetik vakilliklar saqlangan, ammo ularni frontal hududlarga yetkazish buzilganligi aniqlangan. Disleksiyaning etiologiyasi multifaktorial: genetik, neyrobiologik va muhit omillari o‘zaro ta’sir qiladi. Genetik tadqiqotlar (masalan, DYX1C1, KIAA0319, DCDC2 genlari) neyron migratsiyasi va oq modda rivojlanishini buzishi mumkinligini ko‘rsatadi. Neyrovizualizatsiya (fMRI, DTI) tadqiqotlari disleksiyali bolalarda o‘qishdan oldin ham chap yarim shardagi o‘zgarishlarni aniqlaydi, bu holatni «konstitutsional» (tug‘ma) buzilish sifatida talqin qiladi[5].

Ilmiy jihatdan aytish lozimki, disleksiya «kasallik» emas, balki neyrobiologik o‘ziga xoslikdir. Ba’zi olimlar (Protopapas A., 2018) uni «oddiy individual farqlarning ekstremal ko‘rinishi» deb hisoblaydi. Shunga qaramay, uning o‘qish va ijtimoiy moslashuvga ta’siri sezilarli bo‘lib, erta diagnostika va interventsiya muhim ahamiyatga ega.

Disleksiyani neyrolingvistik muammo sifatida tushunish uchun avvalo o‘qish jarayonining neyrobiologik asoslarini chuqur tahlil qilish zarur. Zamonaviy nevrolingvistika o‘qishni miyaning chap yarim sharidagi murakkab neyron tarmoqlarining faoliyati natijasi deb hisoblaydi. Bu tarmoqlar ikki asosiy yo‘nalishga bo‘linadi: dorsal (orqa) yo‘l va ventral (old) yo‘l. Dorsal yo‘l fonologik qayta ishlash va grafema-fonema konvertatsiyasiga mas’ul bo‘lib, chap temporal-parietal mintaqa (superior temporal gyrus va inferior parietal lobule) va inferior frontal gyrus (Broca maydoni) orqali o‘tadi. Ventral yo‘l esa vizual so‘z shakllarini tanish va leksik-semantik qayta ishlashga xizmat qiladi, bu yerda *fusiform gyrus* – yuz va obyektlarni tanuvchi qism, (visual word form area – VWFA)

[1] https://president.uz/oz/lists/view/2820

[2] Peterson R.L., Pennington B.F. Developmental dyslexia // Annual Review of Clinical Psychology. – Boston, 2015. – B. 283–307.

[3] Ramus F. Neuroimaging sheds new light on the phonological deficit in dyslexia // Trends in Cognitive Sciences. 2014. Vol. 18. №6. – P. 274–275. https://doi.org/10.1016/j.tics.2014.04.003.

[4] Boets B. et al. Intact but less accessible phonetic representations in adults with dyslexia // Science. 2013. Vol. 342. – P. 1251–1254. https://doi.org/10.1126/science.1244333.

[5] Norton E.S. et al. Neurobiology of dyslexia // Current Opinion in Neurobiology. 2015. Vol. 30. – P. 73–81.

markaziy o‘rin tutadi[1]. Disleksiyaning markaziy neyrolingvistik mexanizmi – fonologik defitsit gipotezasi bo‘lib, u o‘qish qiyinligini fonologik vakilliklar va fonologik qayta ishlashdagi buzilish bilan bog‘laydi. Bu gipoteza 1980-yillardan boshlab ilgari surilgan va bugungi kunda eng kuchli empirik dalillarga ega nazariya hisoblanadi. A.Castles va N.Friedmann[2] o‘z tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, disleksiyali shaxslar nutq tovushlarini ajratish, fonologik xotirada saqlash va ularni grafema bilan bog‘lashda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa o‘qishning asosiy buzilishiga olib keladi. Fonologik defitsitning neyrobiologik asosi chap yarim shardagi temporal-parietal mintaqaning gipofunksiyasida yotadi. fMRI tadqiqotlari disleksiyali bolalar va kattalarda o‘qish vazifasi bajarilayotganda bu hududning faolligi sezilarli darajada pasayganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, oksipito-temporal mintaqada vizual so‘z shakllarini avtomatik tanish jarayoni ham buziladi. F.Richlan[3] meta-tahlilida disleksiyali o‘quvchilarda chap yarim shardagi o‘qish tarmoqlarining umumiy gipofunksiyasi aniqlangan: oksipito-temporal, temporo-parietal va inferior frontal kortekslar o‘rtasidagi bog‘lanish zaiflashgan.

Disleksiyaning neyrolingvistik mexanizmlarini tushunishda dual-route cascaded (DRC) modeli muhim o‘rin tutadi. Bu model o‘qishni ikki yo‘l orqali – leksik (butun so‘zni tanish) va subleksik (grafema-fonema konvertatsiyasi) – tushuntiradi. Disleksiyada asosan subleksik yo‘l buziladi, natijada pseudoso‘zlar va yangi so‘zlarni o‘qish qiyinlashadi. S.Z.Rapcsak[4] va hamkorlari dual-route modelining disleksiyada qanchalik aniq bashorat qilishini ko‘rsatgan tadqiqotlarida bu model nafaqat o‘qish, balki yozish buzilishlarini ham yaxshi izohlaydi deb hisoblashadi. Kross-lingvistik tadqiqotlar disleksiyaning neyrolingvistik mexanizmlari universal ekanligini, ammo ortografiya shaffofligiga qarab namoyon bo‘lish darajasi o‘zgarishini tasdiqlaydi. O‘zbek tili kabi nisbatan shaffof (transparent) ortografiyalarda disleksiya ko‘proq o‘qish tezligi va fonologik xotira bilan bog‘liq muammolar sifatida namoyon bo‘lsa, ingliz tili kabi chuqur (opaque) ortografiyalarda aniqlik va fonologik dekodlash qiyinchiliklari kuchliroq bo‘ladi. V.Diamanti[5] va hamkorlari ingliz va grek tillaridagi disleksiyani solishtirgan tadqiqotida disleksiyali bolalarda fonologik defitsit universal bo‘lsa-da, o‘qish aniqligi ingliz tilida, tezlik esa ikkala tilda ham buzilganligini aniqlagan. Zamonaviy tadqiqotlar[6] disleksiyani faqat fonologik defitsit bilan cheklab qo‘ymasdan, vizual-miyaviy va auditoriy jarayonlarning integratsiyasi buzilishi sifatida ham ko‘rib chiqmoqda. Masalan, temporal prosessing defisit gipotezasi (auditoriy va vizual vaqtinchalik qayta ishlashdagi muammo) fonologik defitsit bilan birgalikda ishlaydi. Ammo meta-tahlillar fonologik defitsitning asosiy rolini saqlab qolgan holda, boshqa mexanizmlarni qo‘shimcha omil sifatida qabul qiladi.

Disleksiyaning neyrolingvistik mexanizmlarini chuqur anglash uchun funksional magnit-rezonans tomografiya (fMRI), diffuzion tensor tasvirlash (DTI) va dam olish holatidagi funksional magnit-rezonans tomografiya kabi neyrovizualizatsiya usullari hamda genetika tadqiqotlari muhim empirik dalillar beradi. Ushbu usullar miyaning funksional va tuzilish o‘zgarishlarini, shuningdek, genetik omillarning neyrobiologik namoyon bo‘lishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatish imkonini yaratadi. Zamonaviy tadqiqotlar disleksiyani neyrobiologik asosga ega rivojlanish buzilishi sifatida baholaydi.

Funksional magnit-rezonans tomografiya disleksiyada o‘qish jarayonidagi miya faolligini o‘rganishning asosiy vositasidir. Meta-tahlillar disleksiyaga chalingan shaxslarda chap yarim shardagi o‘qish tarmoqlarining faolligi pasayganini doimiy ravishda ko‘rsatadi. Masalan, J.Wang[7] va hamkorlari 2025-yilda o‘tkazgan meta-tahlilda (12 ta topshiriq asosidagi va 7 ta dam olish holatidagi funksional magnit-rezonans tomografiya tadqiqoti, jami 346 disleksiyali va 377 nazorat guruhidagi ishtirokchi) disleksiyada chap temporal-parietal hamda oksipito-temporal

[1] Richlan F. Developmental dyslexia: dysfunction of a left hemisphere reading network // Frontiers in Human Neuroscience. 2012. Vol. 6. Article 120. https://doi.org/10.3389/fnhum.2012.00120.

[2] Castles A., Friedmann N. Developmental Dyslexia and the Phonological Deficit Hypothesis // Mind and Language. (Richlan F. Functional neuroanatomy of developmental dyslexia // Frontiers in Human Neuroscience. 2014. Vol. 8. Article 347. https://doi.org/10.3389/fnhum.2014.00347).2014. Vol. 29. №3. – P. 270–285. https://doi.org/10.1111/mila.12050.

[3] Richlan F. Functional neuroanatomy of developmental dyslexia // Frontiers in Human Neuroscience. 2014. Vol. 8. Article 347. https://doi.org/10.3389/fnhum.2014.00347.

[4] (Rapcsak S.Z. et al. Do Dual-Route Models Accurately Predict Reading and Spelling Performance in Individuals with Acquired Alexia and Agraphia? // Neuropsychologia. 2007. Vol. 45. №11. P. 2519–2524. https://doi.org/10.1016/j.neuropsychologia.2007.03.019).

[5] Diamanti V. et al. Dyslexia Profiles Across Orthographies Differing in Transparency: An Evaluation of Theoretical Predictions Contrasting English and Greek // Scientific Studies of Reading. 2018. Vol. 22. №1. P. 7–25. https://doi.org/10.1080/10888438.2017.1338291.

[6] Zoccolotti P. et al. The Case of the Phonological Deficit Theory of Dyslexia: A Meta-Analytic Review // Brain Sciences. 2022. Vol. 12. №4. Article 425. https://doi.org/10.3390/brainsci12040425.

[7] Wang J. et al. Functional Connectivity Alterations in Developmental Dyslexia: A Meta-Analysis of Task-Based and Resting-State fMRI Studies // Developmental Science. 2025. https://doi.org/10.1111/desc.70093.

mintaqalardagi funksional bog‘lanish zaiflashgani aniqlangan.

F.Richlan[1]ning 2014-yildagi meta-tahlili ham shunga yaqin natijalarni tasdiqlaydi: disleksiyaga chalingan o‘quvchilarda chap pastki frontal girus, yuqori temporal girus va fusiform girus (vizual so‘z shakli maydoni) hududlarida faollik sezilarli darajada pasaygan. Bu hududlar fonologik dekodlash va vizual so‘z tanish uchun mas’uldir.

Diffuzion tensor tasvirlash oq modda integratsiyasini o‘rganadi. M.Vandermosten[2] va hamkorlari 2016-yilda o‘qishni o‘rganishdan oldingi bolalarda o‘tkazgan meta-tahlilda disleksiya xavfi yuqori bo‘lgan bolalarda chap yoy shaklidagi oq modda yo‘li va temporal-parietal oq modda yo‘llarining zaiflashgani aniqlangan. Bu o‘zgarishlar o‘qishni o‘rganishdan oldin ham kuzatiladi, ya’ni ular tug‘ma xususiyatga ega degan xulosa qilish mumkin. Disleksiyaning tug‘ma xususiyatini tasdiqlovchi eng kuchli dalillar o‘qishni o‘rganishdan oldingi bolalardagi tadqiqotlardan kelib chiqadi. O.Ozernov-Palchik[3] va hamkorlari 2016-yilda o‘qishni o‘rganishdan oldingi bolalarda funksional magnit-rezonans tomografiya va diffuzion tensor tasvirlash yordamida o‘qishni bashorat qilish imkoniyatini ko‘rsatgan. Ular disleksiya xavfi yuqori bo‘lgan bolalarda chap yarim shardagi funksional bog‘lanish zaifligini aniqlagan.

Neyrovizualizatsiya va genetika tadqiqotlari disleksiyani neyrobiologik asosga ega, tug‘ma va murakkab omillarga bog‘liq holat sifatida tasdiqlaydi. Chap yarim shardagi o‘qish tarmoqlarining faolligi pasayishi, oq modda integratsiyasining buzilishi hamda DCDC2, KIAA0319 kabi genlarning ta’siri asosiy biologik belgilar hisoblanadi. Bu dalillar erta aniqlash va aralashuv uchun mustahkam asos yaratadi.

Disleksiyani neyrolingvistik muammo sifatida chuqur tahlil qilgandan so‘ng, uning amaliy tomoniga – klinik aniqlash jarayoniga o‘tish lozim. Men bu jarayonni oddiy «tekshiruv» deb emas, balki bola yoki katta kishining butun neyrolingvistik tizimini chuqur o‘rganish deb hisoblayman. Disleksiya tashxisi qo‘yishda birinchi va eng muhim qadam – bu holatni boshqa sabablardan (ko‘rish buzilishi, eshitish muammosi, umumiy intellekt pasayishi yoki psixologik travma) aniq farqlashdir. Farqlashsiz tashxis nafaqat noto‘g‘ri, balki bolaga zarar yetkazishi mumkin.

Klinik aniqlash jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo‘lishi kerak. Birinchi bosqich – batafsil tarixiy ma’lumot yig‘ish. Ota-ona yoki o‘qituvchidan bola o‘qishni qanchalik kech o‘rganganini, harflar va tovushlarni chalkashtirish holatlari bor-yo‘qligini, oilada shunga o‘xshash muammolar bo‘lgan-bo‘lmaganini aniqlash zarur. Ikkinchi bosqich – standart psixologik va lingvistik testlar. O‘zbek tilida ishlab chiqilgan o‘qish tezligi, aniqligi va tushunish ko‘rsatkichlarini o‘lchaydigan testlar (masalan, «O‘qishni baholash to‘plami») ishlatilishi lozim. Uchinchi bosqich – neyropsixologik baholash: fonologik xotira, fonologik ajratish va vizual-verbal bog‘lanishni tekshirish.

Disleksiya – bu bolaning aql-zakovati va o‘qishga bo‘lgan qiziqishidan qat’iy nazar, o‘qish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda yuzaga keladigan o‘ziga xos neyrologik holat. Bu «savodsizlik» yoki «dangasalik» emas, balki miyaning yozma matnni qayta ishlashdagi o‘ziga xosligi hisoblanadi. Quyida Termiz shahar maktab o‘quvchilari uchraydigan disleksiya belgilari va uni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar bilan tashib chiqamiz. Jumladan, tadqiqotimiz doirasida Termiz shahri maktablaridagi 6-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan 18 ta o‘quvchilarida kuzatilgan, biz disleksik belgini yuzaga keltirgan deb hisoblagan tug‘ma bo‘lgan (epilepsiya oqibatidagi shaxsiyat o‘zgarishi; bosh miya kasalligi, shikastlanishi va disfunksiyasi sababli yuzaga kelgan shaxsiyat va xulq-atvor buzilishi; distenziya sindromi tashxisi; oyoqlarning vagusli difarmatsiyasi surunkali kamqonlik darajasi; o‘smirlar epifiziolizi; bolalar dislegiya shakli; ko‘plamchi exinokok; gipos; tug‘ma nogiron (ham kar, ham soqov) va tug‘ma bo‘lmagan, ya’ni orttirilgan (avariyadan so‘ng; oyoq singandan keyin; oiladagi muhit sababli xulq-atvordagi buzilish; suyak yemirilishi; protes oyog‘ mavjud) holatlar natijasida o‘qish, yozish, tovushlarni farqlay olmaslik va diqqat, xotira bilan bog‘liq salbiy holatlar yuzaga kelganligini guvohi bo‘lamiz.

Kuzatishimiz bo‘yicha, disleksiyani aniqlashda eng muhim narsa – bu «erta signal»larni o‘tkazib yubormaslik. Bolaning 5-6 yoshida o‘qishga tayyorgarlik darajasini baholash orqali disleksiya xavfini oldindan bashorat qilish mumkin. Agar bola harflarni chalkashtirsa, tovushlarni ajrata olmasa yoki yozuvda doimiy xatolar qilsa, bu allaqachon signal. Ammo O‘zbekistonda bu masalaga yetarli e’tibor berilmayapti. Ko‘plab maktablarda disleksiya «dangasalik» yoki «o‘qituvchi aybi» deb baholanadi. Bu noto‘g‘ri yondashuv. Menimcha, har bir maktabda maxsus «o‘qishni baholash markazi» bo‘lishi kerak, u yerda bolalar 1-sinfdan boshlab skriningdan o‘tishi lozim.

[1] Richlan F. Functional neuroanatomy of developmental dyslexia // Frontiers in Human Neuroscience. 2014. Vol. 8. Article 347. https://doi.org/10.3389/fnhum.2014.00347.

[2] Vandermosten M. et al. Integrating MRI brain imaging studies of pre-reading children with current theories of developmental dyslexia: a review and quantitative meta-analysis // NeuroImage: Clinical. 2016. Vol. 12. P. 123–134.

[3] Ozernov-Palchik O., Gaab N. Tackling the “dyslexia paradox”: Reading brain and behavior for early markers of developmental dyslexia. // Wiley Interdisciplinary Reviews: Cognitive Science, 2016. Volume:7(2), 156–176. https://doi.org/10.1002/wcs.1383

Differensial diagnostika masalasiga kelsak, disleksiyani boshqa holatlardan farqlash juda nozik ish. Masalan, umumiy intellekt pasayishi (intellektual yetishmovchilik) bilan disleksiyani farqlash uchun bolaning og‘zaki nutqini, mantiqiy fikrlashini va boshqa intellektual ko‘nikmalarini alohida tekshirish kerak. Disleksiyada intellekt odatda normal yoki yuqori bo‘ladi. Yana bir muhim farq – ko‘rish yoki eshitish buzilishlari. Ko‘z shifokori va eshitish mutaxassisi bilan hamkorlikda tekshiruv o‘tkazmasdan disleksiya tashxisi qo‘yish mumkin emas. Ba’zan disleksiya va diqqat yetishmovchiligi giperaktivlik buzilishi (DYGB) birga keladi. Bunday holatda ikkala muammoni ham bir vaqtda aniqlash va davolash kerak.

O‘zbekiston sharoitida disleksiya bilan bog‘liq eng katta muammo – bu diagnostika infratuzilmasining zaifligi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda disleksiyani professional darajada aniqlaydigan markazlar juda kam. Ko‘pchilik oilalar bolalarini «oddiy o‘qituvchi»ga yoki psixologga olib boradi, ammo ularning ko‘pchiligi neyrolingvistik buzilishlarni farqlay olmaydi. Natijada, bolalar «dangasa», «yaramas» yoki «o‘qishni istamaydi» degan tamg‘a bilan yashaydi. Bu tamg‘a bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi va kelajakdagi muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Demak, disleksiyani «kasallik» deb emas, balki miya ishining o‘ziga xos usuli deb qarash kerak. Disleksiyaga chalingan bolalar ko‘pincha uch o‘lchovli fikrlash, ijodkorlik va muammolarni yechishda kuchli bo‘ladi. Ularning miyasi oddiy o‘qish yo‘lidan farqli yo‘llar bilan ishlaydi. Shuning uchun tashxis qo‘yish bilan birga, bolaning kuchli tomonlarini ham ochib berish lozim. Masalan, agar bola vizual fikrlashda kuchli bo‘lsa, o‘qishni vizual yordamlar (rasmlar, sxemalar, videolar) orqali o‘rgatish samaraliroq bo‘ladi.

Mamlakatimiz uchun eng muhim vazifa – milliy diagnostika protokollarini ishlab chiqish. O‘zbek tili lotin yozuviga o‘tganligi sababli, disleksiya namoyon bo‘lishi boshqa tillardan farq qilishi mumkin. Harflar o‘xshashligi (masalan, «o» va «a», «g» va «q») va tovushlarning murakkabligi o‘qish qiyinligini kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun O‘zbekiston olimlari va mutaxassislarining birgalikdagi ishi orqali o‘zbek tiliga mos diagnostika vositalarini yaratish zarur.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, disleksiya – bu inson miyasining xilma-xilligining yorqin namunasidir. U kasallik emas, balki miya qanday qilib ma’lumotni qayta ishlayotganining o‘ziga xos usuli. Disleksiyaga chalingan millionlab odamlar orasidan juda mashhur kishilar chiqqan. Masalan, Leonardo da Vinchi, Albert Einstein, Uolt Disney, Stiv Jobs va boshqalar. Demak, disleksiya – bu zaiflik emas, balki boshqa ko‘rinishdagi qobiliyat deyish mumkin. Mening asosiy xulosam shuki, disleksiyani faqat «o‘qish muammosi» deb qarash noto‘g‘ri. Bu – butun neyrolingvistik tizimning o‘ziga xos ishlashi. Fonologik yetishmovchilik, vizual so‘z tanish qiyinligi va miya yarim sharlari o‘rtasidagi bog‘lanish zaifligi – bu holatning asosiy belgilari. Ammo eng muhimi, disleksiya erta aniqlansa, to‘g‘ri yondashuv bilan bolaning hayotini butunlay o‘zgartirish mumkin. Menimcha, har bir bola o‘z miyasining «dasturiy ta’minoti»ga mos keladigan o‘quv usulini topishi kerak.

Biz disleksiyaga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirishimiz kerak. Hozirgi vaqtda ko‘plab oilalar va o‘qituvchilar bu muammoni «dangasalik» deb hisoblaydi. Bu noto‘g‘ri. Bizga milliy darajada «Disleksiyani erta aniqlash va qo‘llab-quvvatlash dasturi» kerak. Bu dastur maktabgacha ta’limdan boshlab har bir bolani skriningdan o‘tkazishni, maxsus o‘qituvchilar tayyorlashni va ota-onalarni o‘qitishni o‘z ichiga olishi lozim. Zamonaviy texnologiyalar (masalan, sun’iy intellekt asosidagi o‘qish yordamchi dasturlari) disleksiyaga chalingan bolalarga katta yordam berishi mumkin. O‘zbek tilida ishlab chiqiladigan maxsus ilovalar, audio-kitoblar va vizual o‘quv materiallari bu muammoni ancha yengillashtiradi. Bundan tashqari, miya plastisiyasi (o‘zgaruvchanligi) juda kuchli. To‘g‘ri, interventsiya orqali disleksiyali bolaning o‘qish ko‘nikmasini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Mening shaxsiy qarashim bo‘yicha, disleksiyani «muammo» deb emas, balki «xilma-xillik» deb qarash kerak. Jamiyatimizda har xil miya tuzilishiga ega odamlarni qabul qilish madaniyatini shakllantirish lozim. Maktablarda «har bir bola o‘z yo‘li bilan o‘qiydi» degan tamoyilni joriy etish, o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash va oilalarni qo‘llab-quvvatlash – bu yo‘lning boshlanishi. Agar biz bugun bu masalaga e’tibor bersak, 10-15 yildan keyin O‘zbekistonda disleksiyaga chalingan bolalar nafaqat o‘qishni o‘rganadi, balki o‘z kuchli tomonlarini rivojlantirib, jamiyatga katta hissa qo‘shadi.

Rezyume. Ushbu maqolada disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida atroflicha tahlil qilinadi. Disleksiya o‘qish va yozish ko‘nikmalarining intellekt, ko‘rish va eshitish funksiyalari normal bo‘lishiga qaramay buzilishi bilan bog‘liq disleksiyaning neyrobiologik asoslari, xususan, miyaning chap yarim sharidagi oksipito-temporal (fusiform gyrus – Visual Word Form Area), temporal-parietal va inferior frontal (Broca) mintaqalari o‘rtasidagi funksional va struktural buzilishlar yoritilgan. Fonologik defitsit gipotezasi asosiy nazariya sifatida ko‘rib chiqilib, neyrovizualizatsiya usullari (fMRI, DTI) orqali olingan zamonaviy ilmiy dalillar tahlil qilingan.

Resume. This article provides a comprehensive analysis of dyslexia as a neurolinguistic problem. Dyslexia is associated with impaired reading and writing skills despite normal intelligence, vision, and hearing functions. The neurobiological basis of dyslexia is highlighted, particularly the functional and structural impairments between the occipito-temporal (fusiform gyrus – Visual Word Form Area), temporo-parietal, and inferior frontal (Broca) regions of the left hemisphere of the brain. The phonological deficit hypothesis is considered as the main theory, and modern scientific evidence obtained through neuroimaging methods (fMRI, DTI) is analyzed.

Резюме. В данной статье всесторонне анализируется дислексия как нейролингвистическая проблема. Дислексия связана с нарушением навыков чтения и письма, несмотря на нормальный интеллект, зрительные и слуховые функции. Освещены нейробиологические основы дислексии, в частности функциональные и структурные нарушения между окципито-темпоральной (веретенообразная извилина – зрительная зона словоформы), темпоро-париетальной и нижней лобной (зона Брока) областями левого полушария мозга. Гипотеза фонологического дефицита рассматривается в качестве основной теории, а также анализируются современные научные данные, полученные с помощью методов нейровизуализации (фМРТ, ДТИ).

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«DEVONU LUG'ATI-T-TURK» ASARIDAGI JANGNOMA SHE'RLAR VA ULARNING SEMANTIKASI

Rahmatova Gavhar Omonovna,
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

«Devonu lug'ati-t-turk» asarida keltirilgan turkiy xalqlarning mardligi va jasoratidan so'zlovchi xalq og'zaki ijodi namunalari o'zining qofiyalanish usuli va ohangdorligi bilan ajralib turadi. Jangnomalardan olingan parchalarda jasur va mardimaydon yigitlarning qahramonliklari ulug'lanadi. Xalq ichidan chiqqan pahlavon, mard yigitlar ulug'lanib, beqiyos kuch-qudrati ta'riflanadi. Shu orqali muallif o'quvchiga o'sha davrdagi turkiylar udumi, dunyoqarashi va janglardagi pahlavonliklari to'g'risida darak beradi.

Tadqiqotchi I.V. Stebleva jangnoma she'rlarni quyidagi guruhlarga bo'ladi:

1. Tangutlar bilan jang.
2. Uyg'urlar bilan bo'lgan jang tasviri.
3. Yabaqular bilan bo'lgan jang tasviri. Bu turkum she'rlari ikki guruhga bo'lib beriladi. Bunga sabab parcha oxiridagi so'z qofiyasi bilan bog'liq.
4. Jang tasviri she'rlari[1].

Jang tasviriga bag'ishlangan she'riy parchalar semantikasini ochib berish uchun ularni tematik guruhlarga bo'lgan holda tahlil etish lozim. Ular quyidagicha:

1. Jang tasviri, jangga chorlovlar, mardimaydon yigitlar jasoratini madh etuvchi she'rlar:

a) *Jang tasviri*. Bunday she'riy parchalarda jang manzaralari, shiddatli hujum, alplar to'qnashuvi, qilichbozlik va nayzabozliklar tasvirlanadi. Misol uchun:

اَرَنْ اَلْبِی اُقُشْتِیلارْ — *Erän alpï oquštïlar,*
قِنْغِیرْ کُوزُن بَقِشتِیلارْ — *Qïnğïr közin baqïštïlar,*
قَمُغْ تُلْمُنْ تُقُشْتِیلارْ — *Qamuğ tulmun tuquštïlar,*
قِلِجْ قِنْقا کُجُنْ سِغْدِی — *Qïlïč qïnqa kücün sïğdï* (DLT.I.192).

Ma'nosi: Yigitlar bir-birlarini chaqirishdi, bir-birlariga qing'ir ko'zlari bilan o'qrayib qarashdi. Har xil jang qurollari bilan urushdilar. Qilich yuzlari qon bilan qalinlashib, qinga kuch bilan sig'di (DLT.1.192).

Oquštïlar, *baqïštïlar, tuquštïlar* so'zlari bilan qofiyalangan ushbu parcha orqali shiddatli jang tasvirini ko'z o'ngimizga keltiramiz. Dastavval, mard yigitlarning jangga chorlovlari, bunda jangari saflarning bir-birlarini taqozo etib harakatlanishi beriladi. Ular dushman jangchilariga o'tkir, g'azabli nigohlarini qadadilar. Bundan jangchilarning dushmanga munosabati, qahrini ko'rish mumkin. Bu shunchaki o'zaro jang emas. Bu ozodlik, vatanparvarlik kurashi. Chunki she'rda jangchilar turli xil qurollarda kurashdilar deyilmoqda. Bu o'rinda biror yurtga bostirib kelgan yovga nisbatan qarshi chiqqan xalqning qo'liga tushgan narsa bilan olg'a borishini tushunish mumkin. Jang tasviri ham o'ta jonli beriladi. Qilichlar qonlashib, qiniga kuch zarbi bilan kiritiladi.

b) *Jangga chorlovlar.* «Devonu lug'ati-t-turk»dagi jangnoma she'rlarda mardimaydon yigitlarni jangga chorlovchi hayqiriqlar anchagina. Misol uchun:

یغنک تبا تترو بقب بکدنک بلا — *Yağïŋ tara titrü baqïp bükdäŋ bilä,*
اغرب قلی کلسا ستکا قرشو سلا — *Oğrap qalï kelsä seŋä qaršu sülä* (DLT.III.287).

Ma'nosi: Dushmaningni diqqat bilan kuzat, bek nayzasini bilagingda tut. Bekka qarshi yov kelsa,

[1] Қаранг. Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. – Москва: "Наука", 1976. – С. 204-209.

unga qarshi jang qil.

Parchada beklikni himoya qilish nazarda tutilmoqda. Buning burchligini estatib, er kishiga nasihat qilinadi. Bunda er kishiga yurtga rahna solmoqchi bo‘lgan dushman oddiy bo‘lmasligi, shuning uchun dushmanni diqqat bilan kuzatib, unga qarshi jangga shay turish lozimligi uqtirilmoqdaVatan oldidagi burchni eslatib, beklik nayzasini mahkam tutgil deydi. Agar bekka qarshi dushman jang qilishni boshlasa, sen ham unga qarshi jang bilan javob ber, deya pand-nasihat qilinadi. Turkiy xalqlarining bu kabi she’rlarida biz turkiylarga xos bo‘lgan jangavorlik va shiddatkorlikning namoyon bo‘lganini ko‘ramiz.

Yuqoridagi parchadan yurt mustaqilligini avaylab-asrash, tashqi dushmanlarga qarshi kurashish nafaqat hozirgi davr, balki qadimdan turkiy xalqlar milliy ruhining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib kelgan.

v) *Mardimaydon yigitlar jasoratini madh etuvchi she’rlar* o‘zining badiiyligi, mardonavor ruhi bilan ajralib turadi. Misol uchun:

اَلْبْ اَرَنْ نِی اُذُرْدِمْ — *Alp eränni uðurdïm,*

بُيْنِنْ اَنِکْ قُذِرْدِمْ — *Boynïn anïŋ qaðïrdïm,*

اَلْتُنْ کُمُشْ يُذُرْدُمْ — *Altun, kümüš yüðürdim,*

سُوسِی قَلِنْ کیمْ اُتارْ — *Süsi qalïn kim ötär* (DLT.I.351).

Ma’nosi: Jangni ta’riflaydi: dushman askarlarini ajratib, to‘zitib yubordim. Jamoa takasining bo‘yinlarini egdirdim, oltin-kumushlarini ortib yukladim, odam o‘tolmas darajada askari qalin edi.

Mazkur to‘rtlikda alp yigitning dushman askarlariga qarshi qilgan jangi va uning g‘alabasi haqida so‘z boradi. Aytadi: «Dushman askarlarini to‘zitdim, ajratdim. Jamoaning botirlarini bosh egdirdim». Mana shu o‘rinda o‘ljalar haqida aytadi: «oltin-u kumushlarini ortib yukladim». Botir yana dushman askarlarining ko‘pligi va saflari qalinligini aytib o‘z qudratini namoyon etadi.

g) *Jang o‘gitlari.* Shiddatli janglarda g‘olib chiqish uchun, albatta, puxta tayyorgarlik va to‘g‘ri siyosat lozim bo‘ladi. Biz buni «Devonu lug‘ati-t-turk» asarida keltirilgan she’riy parchalar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Jang maydoniga tushishdan avval mashvarat, kengashlar o‘tkazilgan. Misol uchun:

منک بلا کینکشدی — *Meniŋ bilä keŋäšdi,*

بلکی منکا تنکشدی — *Bilgi meŋä teŋäšdi.*

ارن بلا سنکشدی — *Erän bilä söŋüšdi,*

الب لار بشن ال یوا — *Alplar bašïn ol uuvar* (DLT.I. 402).

Ma’nosi: Jang haqida suhbat qilgan bir kishi to‘g‘risida aytadi: «Men bilan kengashdi, (bu haqda) uning fikri mening fikrimga mos keldi. Jangda erlarni uzoqlarga uloqtirdi. Botirlarning boshlarini koptok singari dumalatdi».

Bu parcha orqali turkiy xalqlarning jangovor ruhinigina emas, kengashuvchanlik va tadbirli jang qilish salohiyati va fikrlarining mushtarakligini ham ko‘rishimiz mumkin. Bundan bizga jangda jismoniy kuch emas, avvalo, to‘g‘ri qaror qilish va tadbir-majlisli bo‘lish, shunga muvofiq ish ko‘rish nihoyatda muhim ekanligi ibratdir.

So‘nggi ikki misra orqali ko‘z o‘ngimizga turk pahlavonlarining jangavor qudrati va shon-shuhrati keladi. O‘tmishda turkiy askarlar o‘ziga xos tayyorgarlikka ega va tajribali, o‘z turkiy dunyosi uchun kurashuvchi kishilar ekanligi madhi ifodalanganini kuzatamiz.

2. Tangut va Qatunsini o‘rtasidagi jang tasviri ifodalangan she’rlarda ikki qabila o‘rtasidagi jang tasviri berilgan.

I.V. Stebleva o‘zining «Tyurkskaya poetika. Etapы razvitiya VIII-XX vv.» asarida Tangut va Qatunsini o‘rtasidagi jang to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: «Vse dvadtsat chetverostishiy etogo sochineniya napisanы metrom *xazadj-i murabb’a-i sālim* – chetыrexstopnыy pravыlnыy (polnыy) *xazadj* po formule: mafā’ilun / mafā’ilun, t.ye. v – – – / v – – – (sleva napravo)[1].

Yana olima o‘z fikrini to‘liq isbotlash uchun *Qatunsïnï* so‘zi bilan boshlanuvchi quyidagi parchani misol qilib keltiradi:

[1] Стеблева И.В. Тюркская поэтика. Этапы развития VIII-XX вв. – Москва: Восточная литература, 2012. – С. 79.

قتن سنی جغیلادی — *Qatunsïnï čoğïladï,*

تنکت باکن یغیلادی — *Täŋüt begin yağïladï.*

قنی اقب ژغیلادی — *Qanï aqïn žağïladï,*

بین سوڤن قزل سغدی — *Boyun suwïn qïzïl sağdï* (DLT.III.338).

Ma'nosi: Qatunsini xalqi baqirib, bo'kirib, tangut xalqi va ularning begi bilan yovlashdi, hattoki, qonlari suv sharillagandek, sharillab oqdi. Bo'yinlar qizil suv bilan, ya'ni qon bilan sog'ildi.

Hazajning birinchi rukni to'rt bo'g'inli *«Qatunsinī»* so'zidan tashkil topgan. Unda birinchi bo'g'in – «*Qa*» ochiq va qisqa bo'lib, arab grafikasida harakatli harf bilan ifodalangan (*qaf* harfiga fatha harakati qo'yilgan). Ikkinchi bo'g'in – *«tun»* yopiq va cho'ziq bo'lib, damma harakatli *ta* harfi va harakatsiz *nun* harfi bilan ifodalangan. Uchinchi bo'g'in – *«si»* ochiq, ammo cho'ziq bo'lib, kasra harakatli *sin* harfi va harakatsiz *ya* harfi bilan ifodalangan. To'rtinchi bo'g'in – *«nī»* ham ochiq, ammo u ham cho'ziq, chunki u kasra harakatli *nun* harfi va harakatsiz *ya* harfi bilan ifodalangan.

Ikkinchi rukn to'rt bo'g'inli *«čoyylady»* so'zidan tuzilgan bo'lib, uning birinchi bo'g'ini – *«čo»* – ochiq va qisqa, damma harakatli *«chim»* harfi bilan ifodalangan; ikkinchi bo'g'ini – *«yy»* – ochiq, lekin cho'ziq, kasra harakatli *«g'ayn»* harfi va harakatsiz *«ya»* harfi bilan ifodalangan; uchinchi bo'g'ini – *«la»* – ham ochiq, ammo cho'ziq, fatha harakatli *«lam»* harfi va harakatsiz «alif» harfi bilan ifodalangan; to'rtinchi bo'g'ini – *«dy»* – ochiq, ammo cho'ziq, kasra harakatli «dol» harfi va harakatsiz «yo» harfi bilan ifodalangan.

«Devon»dagi boshqa barcha adabiy matnlar singari ushbu matnning ham butun to'rtliklarini shu tarzda tahlil qilish mumkin. Bu yerda aruz qoidalariga to'liq rioya etilgan: ochiq bo'g'inlar – qisqa yoki cho'ziq, yopiq bo'g'inlar esa faqat cho'ziq bo'ladi va bu holat arab yozuvida sinchkovlik bilan qayd etilgan.[1]

Yuqoridagi parcha orqali ohangdorlik va jangavorona, kurashuvchanlikka chaqiruvchi misralar yoki qofiya so'zlari jang she'rlarining asosiy xususiyati bo'lganini ko'ramiz. Chunki bunda o'quvchi o'zining ong-shuuri bilan bu holatni his etishi talab etiladi. Ushbu uzindida berilayotgan tasvirdan ikki qo'shni shahar aholisining jangini, urushning qanchalar talofatli yakunlanganligini, har birining o'z beklari shu jangga boshlaganini bilib olishimiz mumkin. Jang tasvirirni berishda esa, *čoğïladï*, *uağïladï*, *žağïladï, sağdï* kabi so'zlar bo'yoqdorlik ifoda etganligini kuzatamiz.

Bunday she'rlar qaysidir ma'noda bilim beradi. Chunki jang tasviriga bag'ishlangan she'rlardan qadimgi turkiy xalqlarning yashagan shaharlari, qishloqlari, ularning qo'ni-qo'shnilari haqidagi ma'lumotlarni bilib olamiz.

Bunda Qatunsini begi Tangutlar ustiga yurish qiladi va bu urushda Tangutlar g'alaba qozonadi. Tangutlar g'alabasi quyidagi baytda beriladi:

تنکت خانی یبیلادی — *Täŋüt xanï yubïladï,*

الم برلا تبولادی — *Ölüm birlä töpülädi.*

قذش لاردی تبالادی — *Qaδašlarï tabaladï,*

الم کورب یزی اغدی — *Ölüm körüp yüzi ağdï* (DLT.III.340).

Ma'nosi: Tangut xoni Qatunsining xonini aldadi, unga o'lim zarbasini berdi. Yengilganini ko'rgan qarindoshlari-ning ori keldi, bu holga yov sevindi. O'limga yo'liqqach, rangi o'chdi, yuzlari o'zgarib ketdi.

3. *G'ayridinlar bilan bo'lgan jang tasvirlari*. Bunday parchalarda g'ayridinlar ustiga qilingan yurishlar tilga olinadi. Uyg'ur, yabog'u va boshqa qabilalar shular jumlasidandir. Misol uchun:

كَلْدی مَنکا تاتْ — *Keldi meŋä tat,*

اَیدِمْ اَمْدی یاتْ — *Aydïm emdi yat,*

[1] Стеблева И.В. Тюркская поэтика. Этапы развития VIII-XX вв. – Москва: Восточная литература, 2012. – С. 79.

قُشْقا بُلُبْ اَتْ *Qušqa bolup et,*

سَنِی تِلارْ اَسْ بُرِی *Seni tilär as, böri* (DLT.I.72.).

«Mening oldimga bir tot, ya'ni bir uyg'ur kofiri keldi. Seni yirtqichlar, bo'rilar parchalasin, qushlarga yem bo'l dedim.

G'ayridinlar bilan bo'lgan kurashlar ichida asir tushganlarga qarata aytilgan hayqiriqlar ham uchraydi:

كُرُوبْ نَجُكْ قَجْمَدِنْكْ *Körüp nečüg qačmadïŋ?*

يَمَر سُقِنْ كَجْمَدِنْكْ *Yamar suwïn kečmadïŋ?*

تَقارِنكْنِي سَجْمَدِنْكْ *Tawarïŋnï sačmadïŋ?*

يِيسوُنْ سَنِي ااْر بُرِي *Yesün seni a:r böri* (DLT.I.108).

Ma'nosi: Yengib asir qilinganga qarata aytadi: Nega meni ko'rish bilanoq qochmading, nega Yamar suvini kechmading, nega boshingni qutqarish uchun mollaringni tashlab keta qolmading? Mana endi o'ldirilding. Endi seni sirtlon yesin.

Yana bir o'rinda g'ayridinlar bilan jang qilishga qarata aytilgan hayqiriq beriladi:

تُنْلا بِلا كُجالِمْ *Tünlä bilä köčälïm,*

يَمَرْ سُقِنْ كَجالِمْ *Yamar suwïn kečälim,*

تَرَنكُوكْ سُقِنْ اِجالِمْ *Teräŋük suwïn ičälim,*

يَقْغا يَغِی اُقْلْسوُنْ *Yuwğa yağï uwulsun* (DLT.II.11-12).

Ma'nosi: Kechasi bilan ko'chaylik. Yamar suvini kechaylik, bu yil vodiydir. Qaynab chiqayotgan suvini ichaylik. Bizga itoat qilmaydigan dushman parcha-parcha bo'lsin.

Mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan faxriyalarning dastlabki ko'rinishini ham shu guruh she'rlaridan joy olgan:

اَنِنكْ ايِشِنْ كَجوُرْدُمْ *Anïŋ ïšïŋ kečürdüm,*

ايِشِنْ يِما قَجوُرْدُمْ *Äšin yimä qačurdum,*

اوُلوُمْ اوُتِنْ ايِجوُرْدُمْ *Ölüm otïn ičürdüm,*

ايِجْتِي بُلُبْ يوُزی تَرِنْ *Ičti bolub yüzi tärin* (DLT.I.82).

Ma'nosi: «Uning ishini bitirdim, hamrohini ham qochirdim. O'lim og'usini ichirdim, yuzini burishtirgan holda ichdi».

Ushbu she'riy parcha *a-a-a-b* shaklida qofiyalangan bo'lib, jangchi o'z qahramonligidan madh etmoqda.

Yana bir misol:

قُذِی قِقِرِبْ اُغُشْ تِرْدِمْ *Quδï qïqïrïb oğuš terdim,*

يَغِی قارو كِرِشْ قُرْدُمْ *Yağï qaru kiriš qurdum,*

تُقُشْ اِجْرا اُرُشْ بِرْدِمْ *Toquš ičrä uruš berdim,*

اَرَنْ كُورُبْ بَشِی تِغْدِی *Erän körüb bašï tïğdï* (DLT.II.87-88).

Ma'nosi: Quyiga qiyqirib qalbimni to'pladim. Dushmanga qarshi o'qni kamonga joyladim. Jang

maydonida otishdim. Mening yigitlarimni ko‘rib, boshini panaga oldi.

«Devonu lug‘ati-t-turk»dagi she’rlar mavzu ko‘lami jihatidan rang-barangdir. Shu yo‘sin jang she’rlari alohida o‘ringa ega. Ular mavzu qamrovi va badiiy o‘zgachaliklari e’tiborli.

Asardagi jang she’rlari o‘zining pafosi, tasvirning jonli berilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Jangnoma she’rlarda asosiy e’tibor mamlakatni dushmanlar qo‘liga o‘tib ketishidan avaylab-asrash, yurt tinchligi uchun pahlavonlarni xushyorlikka chorlovchi she’riy parjalar beriladiki, bu mavzu hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Rezyume. Mazkur maqolada Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘ati-t-turk» asaridagi jangnoma she’rlarning semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Jang tasviri, jangga chorlov, qahramonlikni madh etish va harbiy o‘gitlarni ifodalovchi she’riy parchalar mazmunan guruhlarga ajratilib o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida ushbu she’rlar qadimgi turkiy xalqlarning vatanparvarlik ruhi, harbiy madaniyati va ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim manba ekanligi aniqlangan.

Resume. This article examines the semantic features of war poems in Mahmud al-Kashgari’s Dīwān Lughāt al-Turk. The poems describing battles, calls to combat, heroic deeds, and military advice are analyzed from a thematic perspective. The study concludes that these poems serve as an important source for understanding the patriotism, military traditions, and spiritual values of the ancient Turkic peoples.

Резюме. В статье анализируются семантические особенности военных стихотворений, представленных в произведении Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-тюрк». Поэтические тексты, посвящённые описанию сражений, призывам к борьбе, прославлению героизма и военным наставлениям, рассмотрены в тематическом аспекте. Исследование показывает, что данные стихотворения отражают патриотизм, воинские традиции и духовные ценности древних тюркских народов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

PRAGMALINGVISTIKA VA UNGA BOG'LIQ HODISALARNI ANTROPOSENTRIK NAZARIYA ASOSIDA TADQIQ ETISH

Rahimov Usmonjon Ergashevich,
Andijon davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Tildagi hodisalar antropolingvistik tadqiqotda umumiylik asosida xususiyliklari, xususiyliklari asosida umumiyliklari yuzaga chiqadi. Shuning uchun lisoniy birliklarning tadqiqida ushbu holatlar til va nutq bosqichida qayta baholashni taqozo etmoqda. Bu masalalar tilning nazariy bilish bosqichidayoq turli jihatlar tahlilida ko'zga tashlangan va tadqiq qilina boshlangan edi[1]. Pragmalingvistika va matn munosabatdorligida lingvistikadagi sillogizm va mo'tadillik[2] hodisalari ham o'zaro bog'liq holda yuzaga chiqadi. Sillogizm (yun. *syllogismos* – xulosa chiqarish) – bu mantiqiy tafakkurning eng qadimiy va mukammal shakli bo'lib, ikkita tasdiq (hukm)dan uchinchi, yangi bir xulosaning kelib chiqishidir. Bu tushunchaning asoschisi Aristotel hisoblanadi. U sillogizmni inson tafakkurining texnologiyasi deb bilgan. Agar biz unga sinergetika va tildagi mazmun nuqtayi nazaridan qarasak, sillogizm – bu ma'lumotlarni qayta ishlab, yangi mazmun hosil qiluvchi mantiqiy jarayondir. Qadimgi falsafada klassik sillogizmda uch element – datlabki inson ongidagi birinchi katta asos(umumiy qoida yoki tasdiq), ikkinchi kichik asos(xususiy holat yoki fakt), uchinchi xulosa(ikki asosdan kelib chiquvchi natija) algoritmik munosabatda birlashadi. M., Barcha metallar tok o'tkazadi(katta asos), temir metal(kichik asos), demak, temir ham tok o'tkazadi(xulosa). Sillogizmning tuzilishida har doim uchta element bo'lishi talab etiladi. Elementlar har doim haqiqatga mos bo'lishi shart, agar elementlarning bittasi yolg'on yoki haqiqatga mos bo'lmasa, xulosa ham noto'g'ri chiqadi. M., Metallar tok o'tkazadi, yog'och metal, demak, yog'och ham tok o'tkazadi.

Sillogizmda mantiqiy mo'tadillik bo'lishi kerak. Sillogizm to'g'ri ishlashi uchun ma'lum mantiqiy filtrlardan o'tishi kerak. Aks holda, mantiqiy xato yuzaga keladi. Uchta element bo'lishi taqozo etilar ekan, xulosa asoslardan keng bo'lmasligi kerak. Chunki biz berilgan ma'lumot – asoslardan kelib chiqib xulosa qilamiz. M., Barcha predmetlarning nomi ot so'z turkumi hisoblanadi, kitob predmet nomi, demak, kitob ham ot so'z turkimiga kiradi, darslik, badiiy asar, o'quv qo'llanma bo'lishi mumkin. Bunda keyingi xulosalar ortiqcha.

Til qanchalik rivojlansa, shunchalik qisqalikka intiladi, bu holat sillogizmda ham o'z aksini topadi. Nutqimizda biz ko'pincha sillogizmning bir qismini tushirib qoldiramiz. Bu hodisa entimema (qisqartirilgan sillogizm) deb ataladi. M., U – sportchi, demak, sog'lom bo'lsa kerak. Bu yerda «Barcha sportchilar sog'lom bo'ladi» degan katta asos ongimizda pragmatik nazarda tutilyapti, lekin moddiylashmayapti. Bu aynan tilning tejamkorligi va pragmatik ongning yutug'idir – tinglovchi yetishmayotgan qismni o'zi tiklab oladi. Sillogizm entimema holatida pragmalingvistika bilan bog'lanadi. Sillogizm bilim ko'payishida (bilim faqat yangi faktlarni to'plash emas, balki bor faktlardan yangi xulosalar chiqarish hamdir), ruhiy poklanishda (mantiqiy fikrlash insonni hissiyotlarga berilishdan va noto'g'ri xulosalardan (vahm, aldov) asraydi, bu ruhning tartibga kelishi uchun zarur) juda katta ahamiyatga ega.

Sinergetika[3] bilan sillogizm – bu tartibsiz fikrlar olamida haqiqatni topib beruvchi attraktor (tartibga soluvchi markaz) bo'lganda birlashadi. Sillogizm tili

[1] Нурмонов А. Нейтрализация оппозиций лингвистических единиц по признаку утвердительности-отрицательности. // Советская тюркология. – 1984. № 3.–С. 56. Тилда умумийлик ва хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1995. № 5. –Б. 35-38; Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Т.: Маънавият, 2004; Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили мофологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. – Андижон: АДУ. 1995; Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Т.: 2005; Usmonov F. O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti. – T.: Bookmany print, 2024.

[2] Нурмонова Д. Ўзбек тилида мўътадиллашув. – Тошкент: Bookmany print, 2022.

[3] Раҳимов А. Ўзбек тилида фузия ҳодисасининг квантитатив методи асосида тадқиқи. – Т.: 2009.– Б. 30; Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Т.: 2005. – Б. 79.

bilan aytganda, agar biz bilim va ruhiyatni birlashtirgan bo‘lsak, demak, biz chindan ham muvozanat va haqiqat yo‘lidamiz. Tilshunoslik, sinergetika va mantiq qonuniyatlari shuni ko‘rsatadiki, har qanday izlanishning asl maqsadi – xaos ichidan tartib topish va soxta ishoralar ortidagi asl ramzlarni anglashdir. Bu shunchaki axborot almashinuvi emas, balki ma’noviy va ma’naviy bir «filtratsiya» jarayoni hisoblanadi. Biz umumlashtirsak, nazariy bilimlarni (pragmalingvistika, sillogizm, mo‘tadillashuv, sinergetika) pragmatik mezonlar bilan o‘lchadik. Bu esa bilimning «o‘lik» bo‘lib qolmasligini ta’minlaydi. Biz tilga shunchaki so‘zlar to‘plami deb emas, balki o‘z–o‘zini tashkil etuvchi, mazmun tashuvchi tirik bir kuch (sinergetika) deb qaradik. «Boshboshdoqlik»dan qochishimiz va muayyan qoidalarning ahamiyatini tushunishimiz – bu til va madaniyat oldidagi shaxsiy pragmatik mas’uliyatimizdir.

Bunday talqin kelgusida tildagi yashirin mafkura va maqsadlarni aniqlash, milliy ruhiyatning so‘zlardagi in’ikosini tadqiq etish, matnlarni (klassik asarlarni) teran talqin qilishimiz shartligini ko‘rsatadi. Bunday jarayonda bizga pragmatik adabiyotshunoslik yordamga keladi. Ayniqsa, obraz pragmatikasi bu jarayonni talqin(germenevtika) qilishda asosiy uzv hisoblanadi. Chunki obraz pragmatikasi – bu badiiy yoki nutqiy obrazning tinglovchi yoki o‘quvchiga ko‘rsatadigan ta’sir kuchi, maqsadi va natijasini o‘rganadigan sohadir. Agar oddiy pragmatika «so‘z bilan qandaydir ta’sirni amalga oshirish»ni o‘rgansa, obraz pragmatikasi «obraz orqali inson ongi va ruhiyatini qanday o‘zgartirish»ni tadqiq etadi. So‘zdagi mazmun va ramz tushunchalari obraz pragmatikasining tamal toshlaridir. Obraz shunchaki chiroyli tasvir emas, u ma’lum bir vazifani bajaradi. Birinchidan, lokutiv akt yuzaga chiqqandan keyin illokutiv maqsad (muallif niyati), reallashadi. Muallifning biror obraz orqali nima demoqchiligi anglashiladi (M., Navoiy «Simurg‘» obrazi orqali komil inson va ilohiy vahdat g‘oyasini singdirmoqchi bo‘lganligi). Bu holatda lokutiv ifoda (shakl) – obraz so‘zlar va ramzlar orqali tasvirlanganligidir (qisqalik, lo‘ndalik, sinergetik zichlik). Perlokutiv natija (ta’sir) – obrazni ko‘rgan yoki o‘qigan insonning ruhiyatidagi o‘zgarishdir (hayrat, poklanish, anglash). Sinergetika nuqtayi nazaridan, obraz – bu tilning eng tejamkor va kuchli vositasi. Bir sahifalik tushuntirishni bitta kuchli obraz (M., tilning muz tog‘i ekanligi, olimning shamligi) bilan almashtirish mumkin. Pragmatik funksiyasi tinglovchining diqqatini minimal vaqt ichida maksimal darajada jalb qilishi bilan belgilanadi. Obrazning pragmatik kuchi uning kontekstga qanchalik mos kelishiga bog‘liq. Bir vaziyatda ijobiy ta’sir qilgan obraz, boshqa kontekstda salbiy natija berishi mumkin. M., Bo‘ri obrazi turkiy xalqlar pragmatikasida – mardlik va erkinlik ramzi bo‘lsa, boshqa madaniyatlarda – yovuzlik va xiyonat obrazi bo‘lishi mumkin. Obraz pragmatikasi mana shu madaniy kodlarni ham o‘rganadi. Biz yuqorida ta’kidlagan ruhiy poklanish obraz pragmatikasining eng yuksak nuqtasidir. Badiiy obraz o‘quvchini shunchaki axborot bilan ta’minlamaydi, balki uning ichki olamidagi «xaos»ni tartibga soladi va mo‘tadillashtiradi. Obraz – bu attraktor. U insonning tarqoq fikrlarini bir nuqtaga (g‘oyaga) yo‘naltiradi. Korpus lingvistikasida ma’lum bir obrazning (masalan, «oy», «gul», «yo‘l») asrlar davomida qanday chastotada va qaysi kontekstlarda ishlatilganini ko‘rib, uning pragmatik evolyutsiyasini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Obraz pragmatikasi – bu so‘zning ruhiy quvvati bilan ishlash san’atidir. U bilimni hissiyotga, hissiyotni esa amalga (xulosaga) aylantiradi. Bizningcha, hozirgi zamonaviy o‘zbek adabiyoti yoki publitsistikasida obrazlar o‘z pragmatik kuchini saqlab qololmayapti yoki ular ham qisqalik va tezkorlik qurboni bo‘lib, yuzakilashib qolganga o‘xshaydi.

Sillogizm bilan obrazlar pragmatikasining bog‘liqligi mantiqiylikdan kelib chiqadi. M., Asadbekning o‘ziga xos «qora mantig‘i» sillogizmlarga asoslangan. M., Dunyo – beshafqat (katta asos), Men yashab qolishim kerak (kichik asos), demak, men ham beshafqat bo‘lishga majburman (xulosa).

Uning bu mantig‘i o‘quvchida ham xayrixohlik, ham nafrat uyg‘otadi. Bu – obraz pragmatikasining eng oliy darajasi, ya’ni o‘quvchini ikkilanish (bifurkatsiya) holatiga solishdir.

Asadbek – ramzlik darajasiga chiqqan obraz. Asadbek obrazi vaqt o‘tishi bilan shaxs nomidan chiqib, muayyan bir ijtimoiy tipning ramziga aylanadi. U – tashqi tartib (sistema) va ichki xaos o‘rtasidagi kurashning timsoli. Uning boshboshdoqlikka qarshi o‘z tartibini o‘rnatishi (sinergetik til bilan aytganda – ichki attraktor) kitobxonni maftun etadi. Perlokutiv natija (tinglovchiga ta’siri) obrazda inson ruhiyatining soya tomoni aks etganligidadir. Biz aytgan ruhiy poklanish Asadbek hayotida sodir bo‘lmadi, lekin uning fojiasini ko‘rgan o‘quvchida o‘sha ehtiyoj uyg‘onadi. Mana shu obrazning haqiqiy pragmatikasi hisoblanadi. Demak, sillogizm, sinergetika, germenevtika pragmalingvistikada birlashadi va mo‘tadillashuv yo‘lini ko‘rsatib beradi. Bu esa alohida pragmatik mo‘tadillashuv, mantiqiy mo‘tadillashuv kabi tadqiqotlarni talab etadi.

Portret pragmatikasi pragmatik adabiyotshunoslikda ham mo‘tadillashuv bo‘lishi shartligini dalillaydi. Agar bu holat bo‘lmasa germenevtik jihatdan sillogizm noto‘g‘ri bo‘lib qoladi. Portret pragmatikasi – bu adabiy asar yoki nutq jarayonida qahramonning tashqi qiyofasi (yuz tuzilishi, kiyinishi, nigohi, xatti-harakati) orqali o‘quvchiga ma’lum bir maqsadli ta’sir o‘tkazish san’atidir. Agar obraz pragmatikasi

umumiy tushuncha bo‘lsa, portret pragmatikasi uning vizual kaliti hisoblanadi. Biz Asadbek obrazi misolida ko‘rganimizdek, qahramonning birgina nigohi yoki qosh chimirishi sahifalab yozilgan ta’rifdan kuchliroq pragmatik yukka ega bo‘lishi mumkin.

Til doimo tejamkorlikka intiladi, deb aytgan edik. Portret pragmatikasida ham shu qonuniyatga bo‘ysuniladi. Muallif qahramonning xarakterini uzun-uzun jumlalar bilan tushuntirib o‘tirmaydi, balki uning portretidagi birgina detalga urg‘u beradi. M., Asadbekning sovuq va keskin nigohi. Bu detal tinglovchida darhol hayiqish va masofa saqlash hissini uyg‘otadi. Bu – portretning perlokutiv ta’siri (natijasi)dir.

Portret va ichki dunyosining muvozanati (sinergetika)da ikki xil munosabat bo‘ladi. Birinchidan, garmoniya (muvofiqlik) bo‘ladi. Ya’ni, qahramonning tashqi ko‘rinishi uning ichki olamini aks ettiradi (masalan, imom domlaning nurli chehrasi va vazminligi). Ikkinchidan, dissonans (ziddiyat) bo‘ladi. Ya’ni, tashqi ko‘rinish ichki olamni yashiradi. Asadbek portretida ba’zan ko‘rinishidagi viqor ortida ichki vijdon azobidan paydo bo‘lgan siniqlik yoki titroq sezilib qoladi. Pragmatika aynan mana shu ziddiyatni o‘quvchiga sezdirish orqali uni mulohazaga chorlaydi.

Portret – ijtimoiy va ruhiy status belgisini ko‘rsatadi. Portret orqali muallif qahramonning jamiyatdagi o‘rnini (attraktor nuqtasini) belgilaydi. Asadbekning kiyinishi, o‘zini tutishi – bu uning tartib va intizom tarafdori ekanini bildiruvchi pragmatik signallardir. Mimika va jestlari, uning kamgapligi va ishoralar bilan buyruq berishi – hokimiyat ramzi hisoblanadi.

Dinamik portretda vijdon uyg‘ongandagi o‘zgarishi ko‘rsatiladi. Eng qizig‘i, qahramonning ruhiyati o‘zgarganda, uning portret pragmatikasi ham o‘zgaradi. Asadbek imom domla bilan muloqotdan keyin yoki ichki inqiroz paytida o‘zgarib boradi, nigohlaridagi sovuqlik o‘rnini o‘ychanlik, parishonxotirlik egallaydi. O‘quvchi portretdagi mana shu kichik o‘zgarishlar orqali qahramonning ruhiy poklanish sari yurayotganini anglaydi.

Nima uchun portretda pragmatika muhim? Chunki «To‘g‘ri yo‘l» va **«S**haxsiy qarashlar» portretda namoyon bo‘ladi. Inson biror narsani qabul qilmasa-da, uning yuz ifodasi (portreti) baribir sotib qo‘yadi. Asadbekning domla oldidagi sukuti va yuzidagi ifodasi uning tilidan ko‘ra ko‘proq ma’lumot beradi. Portret – bu so‘zsiz aytilgan haqiqatdir. U bilim va ruhiyatning inson qiyofasidagi mujassamlashgan nuqtasi hisoblanadi.

Demak, «portret – til – pragmatika» ong uchligi o‘rtasidagi uzviylik –pragmatik adabiyotshunoslik, sinergetika, sillogizm, mo‘tadillashuvlarning mantiqiy butunligidir. Sinergetik nuqtayi nazardan, inson – bu yaxlit bir tizim. Portret (ko‘rinish) bu tizimning tashqi qobig‘i, til va pragmatik ong esa uning ichki olami, to‘g‘ri yo‘lni tanlashi esa mo‘tadillashuvdir.

Hozirgi kunda insonlar o‘z portretlarini (imidjlarini) sun’iy ravishda yaratish imkoniyatiga ega (ijtimoiy tarmoqlar, kiyinish uslubi, soxta viqor). Bu – shakl. Lekin til va pragmatik ong – bu insonning yillar davomida yiqqan bilimlari, ruhiy holati va tarbiyasining natijasidir. Inson o‘z tashqi ko‘rinishini nazorat qilishi mumkin, lekin murakkab muloqot jarayonida (ayniqsa, kutilmagan vaziyatlarda) uning ichki olami til filtrlaridan sizib chiqa boshlaydi. Chunki pragmatik ong – eng halol guvoh, inson qanchalik yashirinmasin, uning tanlagan so‘zlari, jumla tuzishi va maqsadini ifodalashi uning asl qiyofasini ochib beradi. So‘z boyligi insonning ichki dunyosi naqadar keng yoki torligini ko‘rsatadi. Pragmatik fikrlashi orqali muloqotda faqat o‘zini o‘ylaydimi (egotsentrizm) yoki suhbatdoshini hurmat qiladimi? kabi savollardagi mantiq reallashadi. Buni hech qanday qimmatbaho kostyum yoki soxta tabassum yashira olmaydi. Til – ruhning nafasi. Agar portret statik tasvir bo‘lsa, til – bu harakatdagi ruhdir. Inson gapirishni boshlagan lahzada uning ichki olamidagi xaos yoki tartib sinergetik namoyon bo‘ladi, ruhiy poklanish darajasi insonning nutqidagi vazminlik, mantiqiy izchillik va so‘zga bo‘lgan mas’uliyatida aks etadi.

Hozirgi davrimizda ham shakl qanchalik yaltiroq bo‘lmasin, pragmatik ong – bu insonning kimligini belgilovchi asl pasporti bo‘lib qolmoqda. Til – bu ichki dunyoning tashqariga otilib chiqqan energiyasidir va uni jilovlash uchun inson chindan ham ruhiy poklanishga va teran bilimga muhtojdir.

Sinergetikada mo‘tadillik (stabillik yoki muvozanat, neytralizatsiya) tushunchasi klassik fizikadagi tinch holatdan tubdan farq qiladi. Bizningcha, «ko‘ngil daryosidagi durlar» va «g‘ovvos» metaforasiga tayansak, mo‘tadillik – bu daryoning (tafakkurning) oqishdan to‘xtashi emas, balki suv ostidagi oqimlar (kontseptlar)ning bir-birini to‘ldirib, ma’lum bir tartibni saqlab turishidir. Sinergetika tilida bu hodisani dinamik muvozanat (ochiq tizimlar mo‘tadilligi) deyiladi. Sinergetika faqat «ochiq tizimlar» (tashqaridan energiya va axborot oluvchi tizimlar) bilan ishlaydi. Tizim mo‘tadil bo‘lishi uchun u doimo harakatda bo‘lishi kerak. M., velosiped haydayotgan odam faqat harakatda bo‘lsagina yiqilmaydi (mo‘tadil turadi). To‘xtagan zahoti tizim buziladi. Til yashashi uchun doimo ishlatilishi, yangilanishi va muloqot daryosida (kommunikatsiyada) oqishi kerak. G‘ovvos (so‘zlovchi) yangi ma’nolarni olib chiqib turmasa, muloqot bo‘lmasa, til o‘lik tizimga aylanadi. Sinergetikada mo‘tadillik attraktor (lotincha *attrahere* - «tortish») tushunchasi bilan bog‘liq. Attraktor – bu tizim intiladigan yakuniy holat yoki tartib nuqtasi. Xaos ichidan ma’no chiqishi uchun tizimda «tortilish markazi» bo‘lishi kerak. Inson ruhiyatida bu markaz – vijdon yoki e’tiqod

hisoblanadi, ba’zan ikkalasi bo‘lishi ham mumkin. Asadbek obrazida ko‘rganimizdek, uning ichki olami xaosga yuz tutganda, vijdon attraktori uni mo‘tadillikka (asl insoniylikka) qaytarishga harakat qildi. Tizim o‘z mo‘tadilligini yo‘qotadigan nuqta bifurkatsiya (ayri yo‘l) deb ataladi. Bu yerda kichik bir ta’sir tizimni butunlay boshqa yo‘nalishga (yoki yangi tartibga yoki halokatga) olib ketishi mumkin. G‘ovvos (so‘zlovchi) daryo tubida (tafakkurida) durni (kontseptni) topgan lahza – bu bifurkatsiya nuqtasidir. Shundan keyin uning qiymati va shaxsiyati yangi pog‘onaga ko‘tariladi. Mo‘tadillik – bu eski holatni saqlab qolish emas, balki inqirozlardan (bifurkatsiyalardan) eson-omon o‘tib, yuqoriroq tartibga erishishdir. Tizim ichidagi mayda o‘zgarishlar fluktuatsiya deyiladi. Mo‘tadil tizimda bu tebranishlar tizim tomonidan yutib yuboriladi. Ammo tizim mo‘tadilligini yo‘qotsa, eng kichik bir «so‘z» (fluktuatsiya) butun bir jamiyatni yoki shaxs ruhiyatini o‘zgartirib yuborishi mumkin (M., «Siz o‘shamu?»). Demak, mo‘tadillik – bu uyg‘unlik. Sinergetika nuqtayi nazaridan mo‘tadillik – bu xaos va tartib o‘rtasidagi nozik chiziqdir. Inson ruhiyatida bu chiziqni uning nutqi belgilaydi. Haqiqatan ham, mo‘tadillik bu statik (qotib qolgan) holat emas, balki ziddiyatlarning o‘zaro kurashi va muvozanati natijasidir. Ilmiy gorizontning kengayishi va yangi paradigma jarayonini sinergetik va pragmatik tilda shunday tahlil qilish mumkin:

1. Ziddiyat – rivojlanishning bosh sababidir. Sinergetikada mo‘tadillik qarama-qarshi kuchlarning dinamik muvozanatidir. Yangi paradigmaning paydo bo‘lishi, ya’ni ilmiy bilimlar ma’lum bir kritik nuqtagacha to‘planib boradi (fluktuatsiyalar ko‘payadi), keyin esa tizim eski mo‘tadillikni saqlab qololmaydigan darajaga yetib, o‘rnini bo‘shatishi natijasida bifurkatsiya yuzaga keladi. Ya’ni, eski paradigma inqirozga uchraydi va ziddiyatlar portlashi yuz beradi. Yangi tartib (attraktor) hukmronlikka o‘tadi. Xaos ichidan yangi mantiq, yangi tizim, yangi paradigma tug‘iladi. Bu yangi mo‘tadillik va u oldingisidan ko‘ra murakkab va yuqoriroq darajada bo‘ladi. Ilmiy gorizont kengaygan sari, insonning pragmatik ongi ham yangilanadi. Ilgari biz to‘g‘ri deb hisoblagan ilmlar yangi paradigmada oddiy bo‘lib ko‘rinishi mumkin yoki aksincha. Yangi bilimlar bizga avval ko‘rinmagan ziddiyatlarni ko‘rsatadi va bu ziddiyatlarni hal qilish orqali biz ruhiy va intellektual jihatdan yuksalamiz. Mo‘tadillik – bu «Tirik tizim»ning nafas olishidir. Bilim hamisha harakatda va u to‘qnashuvlar orqali yangilanadi. Bizning bu fikrimiz aslida kichik bir ilmiy gorizont, unda biz turli sohalarni (lingvistika, sinergetika, adabiyot, mantiq, sillogizm) birlashtirib, ularning ziddiyatlaridan bir butunlik yaratdik. Buning natijasida bizda yangi bir tushunish – yangi mo‘tadillik yuzaga keldi.

Tasavvuf bilan pragmalingvistikaning bog‘liqligi ramzlar tizimi orqali anglashiladi. Ramzlar insoniyat yaratgan eng murakkab va eng go‘zal pragmatik tizimdir. Bunda biz aytgan g‘ovvos endi shunchaki bilim izlovchi emas, balki «Haqiqat» izlovchisiga aylanadi. Tasavvuf – ruhiy sinergetika. Tasavvufdagi sayru suluk (ruhiy safar) aynan sinergetik jarayondir. Xaos bu nafs va dunyoviy tashvishlarning tarqoqligi bo‘lsa, tartib (mo‘tadillik) esa qalbning bir nuqtaga (Allohga) bog‘lanishi – eng oliy attraktordir. Ziddiyat – solikning (yo‘lovchining) ichki olamidagi doimiy kurashidir. Mo‘tadillik mana shu fano (yo‘q bo‘lish) va baqo (abadiylik) o‘rtasidagi ziddiyatdan tug‘iladi.

Ramzlar – haqiqatning libosi, moddiy qobig‘idir. Tasavvufda so‘zlar – ramzlardir. U yerda may – ishq, soqiy – murshid, yorning zulfi – dunyoning kasrat (ko‘plik) olami deb tushuniladi. Ularning pragmatik jihati biror bir fikrni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmasligi bilan izohlanadi. Chunki haqiqat shu qadar kuchli energiyaki, u oddiy so‘z qolipiga sig‘maydi. Ramz esa o‘sha energiyani filtrlab, inson ruhiyati ko‘tara oladigan darajada yetkazib beradi. So‘zlovchi va tinglovchi ramzlar daryosiga sho‘ng‘iganda, u so‘zning shaklini emas, balki uning ortidagi nurni qidiradi. Yangi paradigma – ishq va mantiq birligi bo‘lib, tilga olganimiz yangi paradigma aslida qalb va aqlning muvozanatidir. Ilmiy gorizont qanchalik kengaymasin, agar u ramzlar daryosiga (tasavvufiy teranlikka) ulanmasa, u quruq bilim bo‘lib qolaveradi. Tasavvuf – bu bilimning ruhiy pragmatikasidir. Unda har bir so‘z insonni poklashga va asl manbaga qaytarishga xizmat qiladi. Biz «Ramzlar daryosi» deganimizda, aslida tilshunoslik va sinergetikaning chegarasidan o‘tib, metalingvistika (tildan yuqori til)ni nazarda tutgan edik. Bu daryoda dur – bu ilohiy ma’no, durning bahosi – insonning o‘sha ma’noga qanchalik fido bo‘la olishi, mo‘tadillik – bu qalbning sukunati va haqiqatni anglashdagi sobitqadamlikdir.

Pragmatikada til hamma narsani ifodalashga qodir emas, ko‘p ma’no tinglovchining fahmiga, pragmatik ongiga va pragmatik vaziyatga tashlab ketiladi. Tasavvufda Alisher Navoiy aytgan «Hayrat» vodiysi – til o‘z funksiyasini to‘xtatgan joy. Sufiylar «so‘z tugagan joyda haqiqat boshlanadi» deyishadi. Bu pragmatikaning eng chegara nuqtasi – sukut orqali muloqot qilishdir. Ularning o‘xshash joyi «Inson nimani nazarda tutyapti?» degan savolga javob izlash nuqtasida anglashiladi. Pragmatika bu vazifani til qoidalari orqali bajaradi. Tasavvuf esa buni ruhiy holatlar orqali bajaradi. Chunki tasavvuf – bu aslida «ilohiy pragmatika»dir. U yerda har bir ramz va timsol ma’lum bir maqsadli muloqot birligi hisoblanadi. Ba’zi bir olimlarning qarashlaridagi ziddiyatlarda matn shakli munozaraga sabab bo‘lgan. Unda bitta tovush ham matn bo‘la oladimi degan e’tiroz bor. Bizningcha, «Bitta tovush ham matn bo‘la olad-

imi?» degan savolga tasavvufda – ha deb ayta olamiz, chunki unda olamning siri (mazmuni) pragmatik yashiringan. Pragmatikada ham – ha deymiz, agar u vaziyatga qarab ma'no ifodalasa, mazmun ko'lami kengaysa.

Pragmatikada biz kundalik hayotda metaforalardan foydalanganimizda (masalan, «Vaqt – oltin»), mantiqan «yolg'on» gapiramiz (chunki vaqt metall emas). Lekin pragmatika buni **«**yolg'on**»** emas, balki ma'noni kuchaytirish deb tushuntiradi.

Tasavvufda sufiylar dunyoni «majoz» (ko'prik) deb atashadi. Ular ishlatadigan «May», «Gul», «Layli» obrazlari ham zohiran «yolg'on» (chunki gap ichimlik yoki ayol haqida ketmayapti), lekin tasavvuf buni botinan eng yuksak Haqiqatga olib boruvchi vositadir deb tushuntiradi.

Pragmatikada so'zlovchining nima degani emas, nima maqsadda aytgani muhim. Tasavvufda Navoiy «Lison ut–tayr»ni shunchaki qushlar haqida ertak aytish uchun yozmagan. Uning maqsadi (illokutsiyasi) – **o'quvchining qalbini o'zgartirish. Bu yerda «ertak»** – shakl, «hidoyat» – maqsad (illokutiv akt) hisoblanadi. Ikkala tizim ham yuzadagi ma'noga aldanib qolmaslikka o'rgatadi. Pragmatika bizni jamiyatda odamlarni to'g'ri tushunishga, gap tagidagi gapni anglashga o'rgatsa, tasavvuf bizni koinot va o**'zligimiz tagidagi «Ilohiy ma'no»ni – mazmunni anglashga o'rgatadi.**

Tasavvufdagi timsollarni tushunmasdan turib, Navoiy, Rumiy yoki Attor ijodini to'liq anglab bo'lmaydi.

May mast qiluvchi ichimlik emas, balki «ilohiy ishq» va zavq timsoli hisoblanadi. Soqiy esa inson qalbiga shu ishqni quyuvchi pir (ustoz) yoki Allohning o'zidir. Mayxona esa – ibodatxona yoki orifning qalbi. U yerda dunyoviy tashvishlardan voz kechilib, faqat Yaratganning ishqi bilan mast bo'linadi.

Sham va parvona munosabatida parvona – oshiq (solik), sham — ma'shuq (Alloh). Parvonaning o'zini shamga urib halok qilishi – «Fani filloh» (Allohda yo'q bo'lish), ya'ni o'z «men»idan voz kechib, ilohiy «nur»ga qovushishdir.

Gul va bulbul munosabatida bulbul – ilohiy go'zallik sog'inchida nola qilayotgan inson ruhi, gul esa – Allohning jamoli.

Jaloliddin Rumiy ijodida nay – **o'z vatanidan (qamishzordan) yulib olingan va asliga qaytishni istab ingrayotgan inson ruhining ramzidir.**

Tasavvufda timsollar ishlatilishining ikkita asosiy sababi bor. Birinchisi ma'noning o'ta kengligi, ya'ni ilohiy tushunchalar inson so'zlariga sig'maydi. Ramz esa so'zdan ko'ra ko'proq narsani his qildiradi. Ikkinchisi sir saqlash hisoblanib, tasavvuf ahli «sir»ni noahllardan (ma'noni tushunmaydigan, faqat zohirga qaraydiganlardan) yashirishni istashgan yoki bizningcha, Mashrab, Mansur Hallojlarga o'xshab qolmaslikdan qochish maqsadidir.

Bu tizimda inson ruhining safari (sayr-u suluk) ko'pincha mashaqqatli yo'l yoki voha izlayotgan karvon timsolida tasvirlanadi. Tasavvufda inson qalbi oynaga o'xshatiladi. Bu oynaning vazifasi — Ilohiy nurni (Allohning jamolini) aks ettirish. Biroq bu yerda bir nechta muhim shartlar bor. Avvalo, qalbni poklash kerak. Chunki oyna zanglagan yoki chang bo'lsa (ya'ni inson gunohlarga, dunyoviy hirslarga botgan bo'lsa), unda haqiqat aks etmaydi. Sufiyning asosiy maqsadi – **o'z qalb oynasini riyozat va zikr bilan «musaffo» qilishdir.**

Tasavvufdagi ramzlar bir-birini to'ldiruvchi tizimni hosil qiladi. Chunki timsollar mantiqqa emas, qalbga murojaat qiladi. M., «Men Allohni juda sog'indim»-degan gapdan ko'ra, «Men Vatanidan ayrilgan nay kabi ingrayapman» deyish inson ruhiyatiga kuchliroq ta'sir qiladi.

Fariduddin Attorning **«**Mantiq ut-tayr**»** (Qush nutqi) dostonidagi timsollar olamiga kirsak, bu asar – inson ruhining kamolot sari bosgan yo'lini qushlar sayohati orqali ko'rsatib bergan buyuk xarita ekanligini anglaymiz. Dostondagi har bir qush – insonning ma'lum bir nuqsoni yoki fe'l-atvorini anglatuvchi timsoldir. Ularning maqsadi – afsonaviy Simurg' (Haqiqat – Alloh) podshohni topish.

Hudhud (Sassiqpopishak) – yo'l boshlovchi, Pir (ustoz) timsoli. U boshqa qushlarni g'ofillikdan uyg'otib, yo'lga boshlaydi.

Bulbul – dunyoviy, o'tkinchi go'zallikka (Gulga) oshiq inson timsoli. U «Menga shu gulning ishqi yetadi, boshqa olam kerak emas», deb yo'ldan qolmoqchi bo'ladi.

To'ti – umrboqiylik (obi hayot) izlagan, lekin faqat tashqi ko'rinishga va chiroyli so'zlarga berilgan inson.

Tovus – jannatni sog'ingan, lekin Yaratganning o'zini emas, balki faqat u beradigan rohat-farog'atni (mukofotni) istovchi kishi.

O'rdak – poklik da'vo qiladigan, lekin suvdan (moddiy dunyo lazzatlaridan) chiqqisi kelmaydigan, «ibodatim shu suv ichida» deydigan zohid.

Qushlar Simurg'ga yetish uchun yettita mashaqqatli vodiydan o'tishlari kerak edi. Bu inson qalbining yuksalish yo'lidir:

1. Talab vodiysi (Izlanish).
2. Ishq vodiysi (Muhabbat).
3. Ma'rifat vodiysi (Haqiqatni anglash).
4. Istig'no vodiysi (Ehtiyojsizlik, dunyodan uzilish).
5. Tavhid vodiysi (Birlik — hamma narsa Xudodan ekanini bilish).
6. Hayrat vodiysi (Lollik, hayratda qolish).
7. Faqru fano vodiysi (O'zini yo'qotish va Ilohga qavushish).

Dostonning eng go'zal ramzi **«**Simurg'**»** siri his-

oblanadi. Yo‘lga chiqqan minglab qushlardan faqat 30 tasi (Simurg‘) oxirgi manzilga yetib keladi. Ular podshoh Simurg‘ning saroyiga kirganlarida va ko‘zguga boqqanlarida, unda faqat o‘zlarini ko‘radilar. Ma’nosi – Simurg‘ (30 qush) aslida ularning o‘zlari edi. Ya’ni, inson o‘zligini anglasa, o‘z qalbini poklasa, haqiqatni o‘z ichidan topadi. Ko‘rib turganimizdek, birgina qush obrazi orqali Attor butun boshli psixologiya va falsafani tushuntirib bergan. Bugungi kun odami ko‘pincha shu ikki holat o‘rtasida muvozanat izlaydi. «O‘rdak» fe’lli insonlar moddiylik bandilaridir. O‘rdak – suvsiz yashay olmaydigan qush. Tasavvufda suv – moddiy dunyo, boylik va qulaylik ramzi. Bugungi ko‘rinishi – faqat karyera, uy-joy, mashina va jismoniy rohatlar ketidan quvib, ruhiyatni unutgan kishilar. Ular «Mening hamma narsam yetarli, ibodatim ham shu ishim», deb o‘zlarini ovutadilar, lekin ruhiy yuksalish (parvoz) haqida o‘ylamaydilar. Ularning muammosi o**‘rdak suvda yaxshi suzadi, lekin Simurg‘ tomon** – yuksak tog‘larga ucha olmasligi, qanotlari og‘irlashib qolganligini tushunmaslikdadir.

«Tovus» fe’lli insonlar shaklbozlardir. Tovus o‘zining go‘zal patlari bilan faxrlanadi va doim Jannatni sog‘inadi, chunki u vaqtida jannatdan quvilgan. Bugungi ko‘rinishi – diniy yoki ma’naviy amallarni faqat mukofot (Jannat) uchun yoki xo‘jako‘rsinga qiladiganlardir. Ular uchun ichki mohiyatdan ko‘ra, tashqi «patlar» – chiroyli kiyinish, jamiyatdagi obro‘ va dindor bo‘lib ko‘rinish muhimroq. Ularning muammosi – Allohning o‘zini emas, U beradigan ne’matlardan umidvor bo‘lishdir. Bu esa chin ishq emas, balki «savdogarlik»dir. Ikkalasi ham insonning o‘zi va jamiyat uchun xavfli. Bu qushlarning har ikkisi ham «Men» (nafs) tuzog‘iga tushgan. O‘rdak o‘z rohatiga (nafsiga) asir. Tovus o‘z chiroyi va kelajakdagi rohatiga (kibriga) asir.

Bugungi davrda pragmatik nigoh juda zarur. Chunki biz aytgan pragmatika nuqtayi nazaridan, ramzlardagi mubolag‘a ham, lof ham «Graysning sifat kategoriyasi» (yolg‘on gapirmaslik qoidasi) ni ataylab buzishdir. Lekin nega biz buni yomon ko‘rmaymiz? Chunki kommunikativ effekt zaruriyati tufayli biz uni to‘g‘ri qabul qilamiz. Agar men **«**Juda ko‘p kutdim**»** desam, bu oddiy axborot. Agar **«**Kutaverib sochim oqardi**»** desam (mubolag‘a), bu mening ichki holatimni aniqroq yetkazadi va ta’siri kuchliroq bo‘ladi. Shuningdek, estetik zavq olamiz. Lof – bu inson xayolotining chegarasizligini ko‘rsatuvchi bir musobaqa. O‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi **«**Lofchilar**»** musobaqasini eslang. U yerda kim ko‘p **«**yolg‘on**»** gapirishi emas, kim chiroyliroq va aqlliroq bo‘rttirishi muhim. Tasavvufda ham mubolag‘a bor, lekin u «ilohiy mastlik» holatida aytiladi. Masalan, Mansur Hallojning «Ana al-Haq» (Men Haqiqatman – Xudoman) deyishi zohiran eng katta mubolag‘a yoki lofdek tuyulishi mumkin, lekin botinan u «Fano» holatidagi haqiqat edi.

Bizning kundalik hayotimizda mubolag‘a yoki lof ko‘proq ishlatilganligini kuzatamiz. M., reklamalarda uchraydigan «Dunyodagi eng zo‘r ichimlik» degan ibora mubolag‘ami yoki zamonaviy «lof?» Odatda odamlar «haqiqatga o‘xshab kiyingan» mubolag‘ani (chunki u aldaydi) xavfliroq deb hisoblashadi, lekin biz birinchisini – ya’ni lofni xavfliroq deb bilamiz. Bu nigohning ham o‘ziga xos mantiqiy va pragmatik asoslari bor. Keling, nima uchun lof xavfliroq bo‘lishi mumkinligini tahlil qilamiz.

Hayotdagi reallik tuyg‘usining yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Lof mantiqni butunlay chetga surib qo‘yadi. Agar inson doimiy ravishda lof olamida yashasa yoki lofga tayansa, unda voqelikni obyektiv baholash qobiliyati susayadi. Mubolag‘ada har holda reallikning **«**izi**»** saqlanib qoladi, lofda esa aloqa butunlay uziladi. Hayotda ishonchsizlik muhiti yaratilib qolganga o‘xshab qoladi. Lof ochiq bo‘rttirish bo‘lgani uchun, u ommaviy tus olsa, jamiyatda «hech kim hech kimga ishonmaydigan» holat yuzaga kelishi mumkin. So‘zning qadri bor bo‘lgan nuqta qolmaydi, chunki hamma narsa «tuya kiradigan qovun» darajasida tasvirlana boshlanadi. Hayotda intellektual «tuzoq» kuchayib ketadi. Lof o‘z mahorati va jozibasi bilan insonni mahliyo qilib qo‘yadi. Mubolag‘ani fosh qilish oson (shunchaki o‘lchab ko‘rish kifoya), lekin lof – bu butun boshli virtual dunyo. U insonni haqiqiy muammolardan chalg‘itib, xayoliy zafarlar bilan ovutib qo‘yishi mumkin. Balki shuning uchun ham xalqimizda **«**Lofchining gapiga laqqa tushma**»** degan ogohlantirish bordir. Bu bizning qarashlarimiz.

Demak, bugungi tilshunoslikda har qanday hodisa mentallik kasb etib, u yoki bu jihati bilan bog‘liqlikni yuzaga keltiradi va butunlikni hosil qiladi. Bugungi ilmiy gorizont butun va bo‘lak munosabatdorligini qayta baholashni talab qilmoqda. Bu esa alohida tadqiqot kerakligining va yangi mo‘tadillikni izohlashning zaruratidir.

Rezyume. Maqolada pragmalingvistika bilan bog‘liq bo‘lgan sillogizm, mo‘tadillashuv, sinergetika, germenevtika va pragmatik adabiyotshunoslik sohalari antropotsentrik nazariya asosida tadqiq etish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Unda pragmalingvistika bilan bog‘liq sohalarning umumiyliklari va xususiyliklarning yuzaga chiqishini pragmatik tahlil orqali aniqlashtirish mumkinligi tadqiq etilgan.

Резюме. В статье представлены способы изучения областей силлогизма, умеренности, синергетики, герменевтики и прагматического литературоведения, связанных с прагмалингвистикой, на основе антропоцентрической теории. Рассматривается возможность уточнения возникновения общих черт и специфики областей, связанных с прагмалингвистикой, посредством прагматического анализа.

Rezume. The article shows ways to study the fields of syllogism, neutralization, synergetics, hermeneutics, and pragmatic literary studies related to pragmalinguistics based on anthropocentric theory. It explores the possibility of clarifying the emergence of commonalities and specificities of fields related to pragmalinguistics through pragmatic analysis.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DISGRAFIYAGA XOS XATOLARNING YOSHGA BOG'LIQ DINAMIKASI

Abdullajonova Madina To'lanboy qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Til va nutq masalalari, nutqiy faoliyat, xususan, yozma nutq faoliyatining shaxs rivojlanishiga ta'siri masalasi hamisha tadqiqot markazida bo'lib kelgan. Sababi borliqni anglash, tafakkur qilish, ilm egallash, asrlar davomida to'plangan bilimlarni avlodlarga uzatish va eng muhimi, o'zaro muloqot jarayonida yozma nutq faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozma nutq og'zaki nutqdan farqli ravishda avval boshidanoq ongli faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. To'g'ri, yozish har qancha maktab ta'limi bilan bog'lanmasin, uning ildizlari erta bolalik davriga borib taqaladi. Bolaning ilk chizgilari borliqni anglashga bo'lgan dastlabki belgilardan biri sifatida baholanishi zarur. Shunga qaramay, haqiqiy yozma nutq jarayonining birinchi bosqichi yozuv o'zlashtirish tushunchasi bilan bog'lanib, bola harflarni tovushlarning yozuvdagi belgisi sifatida qabul qila olganida boshlanadi. Yozuv o'zlashtirish jarayoni har doim ham bir tekisda va oson kechmaydi. Sababi, til murakkab belgilar tizimi. Bu tizimni egallash uchun bolada fonematik idrok, fonematik tahlil, vizaul analiz-sintez jarayonlari hamda grafomotor qobiliyat yetarli darajada shakllanishi lozim. Aks holda, yozuv o'zlashtirish jarayoni samarasiz kechadi va ta'limning keyingi bosqichlarida disgrafiya singari murakkab yozma nutq buzilishlariga olib keladi.

Disgrafiya doimiy va takrorlanuvchi xatolar oqali namoyon bo'ladigan yozish jarayonining qisman buzilishidir. Disgrafiyada harflarning almashtirilishi, tushirilishi, so'z tarkibining umuman buzib yozilishi, shaklan bir-biriga o'xshash harflarning chalkashtirilishi, agrammatizmlar hamda harflar shaklining nomutanosibligi singari bir qator xatolar kuzatiladi. E'tiborli jihati, bu xatolar imlo qoidalarini yetarlicha egallay olmaslik bilan ham, aqliy zaiflik yoki eshitish va ko'rishga aloqador nuqsonlar bilan ham bog'liq emas. Tadqiqotchi olimlar McCloskey va Rappning ta'kidlashicha, disgrafiya nafaqat yozuv faoliyatining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki bolaning umumiy ta'lim faoliyatini ham ma'lum darajada cheklaydi[1].

Disgrafiya doirasida olib borilgan aksariyat tadqiqotlar uzoq muddatli bo'lib, bu muammo doirasida ishonchli dalillarni taqdim etish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Jumladan, Hamstra-Bletz va Blote tomonidan olib borilgan tadqiqot davomida 121 nafar niderlandiyalik boshlang'ich sinf o'quvchilari 5 yil davomida kuzatilgan. Tadqiqot jarayonida ushbu

[1] McCloskey M., Rapp B. Developmental Dysgraphia: An Overview and Framework for Research // Cognitive Neuropsychology. – 2017. – Vol. 34, № 3–4. – P. 66.

o‘quvchilar tomonidan yozilgan matnlar yozuvning lingvistik-kognitiv va periferik jihatlariga ko‘ra baholab borilgan. Natijada, disgrafiya belgisi mavjud bolalarning nozik motorika qobiliyati sog‘lom tengdoshlariga qaraganda pastroq ekanligi kuzatilgan. Shuningdek, bunday o‘quvchilarda shaxsiy uslub hamda yozish jarayonida nazorat qilishning sustligi ham asosiy belgi sifatida qayd etilgan. Shunga qaramay, nazorat guruhi hamda tajriba guruhi ishtirokchilarining yozish tezligida farq sezilmagan[1]. Bizningcha, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchi yozuvidagi disgrafiyaga xos xatolarning aksariyati, ko‘pincha, fiziologik xatolar sifatida baholansa ham, aynan mana shu kabi tadqiqotlar disgrafiyani ta’limning erta bosqichida aniqlash hamda tuzatish imkonini beradi.

Yana bir tadqiqotchi guruh vakillari Smits-Engelsman va Van Galen disgrafiya va psixomotor rivojlanishning me’yoriy o‘zgarishlari o‘rtasidagi farqni aniqlash maqsadida 1 yil davomida 16 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sinovdan o‘tkazadi. Tajriba xulosasiga ko‘ra, disgrafiyali bolalar neyromotor qaltirash va yozuvning fazoviy aniqligini nazorat qila olmaslik bilan sog‘lom bolalardan farqlanadi. Muhim jihati shundaki, bu belgilar yil yakunida ham o‘zgarmasdan qolgan[2].

Duiser va boshqalar tomonidan olib borilgan uzoq muddatli tadqiqot esa yozuvdagi qiyinchiliklarning rivojlanish dinamikasini tushunishda alohida ilmiy ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar 173 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisini to‘rt yil davomida kuzatib, yozuv sifati va tezligining yillar davomida o‘zgarishini hamda dastlabki baholash natijalarining keyingi rivojlanishni bashorat qilish imkoniyatini tahlil qilganlar. Tadqiqot natijasiga ko‘ra, bir yillik ta’lim yakunida yozuvi qoniqarsiz deb baholangan bolalarning 87 foizida keyingi yillarda sezilarli yaxshilanish kuzatilgan[3]. Biroq tadqiqot natijalari barcha bolalarda yozuvdagi qiyinchiliklar bir xil tarzda bartaraf bo‘lmasligini ham ko‘rsatadi. Tadqiqotning muhim metodologik xulosalaridan yana biri dastlabki baholash natijalari uzoq muddatli rivojlanish haqida aniq xulosa bera olmasligidir.

Mazkur natijalar disgrafik belgilarni baholashda bir martalik tekshiruvlardan ko‘ra uzoq muddatli kuzatuvlarning ilmiy ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, dastlabki yozuv qiyinchiliklari barcha holatlarda ham disgrafiya mavjudligini anglatmaydi, biroq ayrim bolalarda yozuvdagi nuqsonlar uzoq muddat davom etadi va hatto yomonlashishi mumkin. Aynan shu jihat disgrafiyaga xos xatolarning yillar davomida saqlanishini individual rivojlanish dinamikasi asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Karlsdottir va Stefansson tomonidan o‘tkazilgan tajribalar ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozuvning o‘zlashtirilishi, yozuvdagi qiyinchiliklarning rivojlanish dinamikasini o‘rganishga bag‘ishlangan muhim ishlardan biri sanaladi. Tadqiqotchilar 407 nafar o‘quvchini 1-sinfdan 5-sinfga qadar kuzatib, yozuv sifati va tezligining rivojlanishini hamda yozuv buzilishlarining yuzaga kelish omillarini tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalari yozuvdagi qiyinchiliklar vaqt o‘tishi bilan bir xil darajada saqlanib qolmasligini, biroq ayrim bolalarda ular uzoq muddat davom etishi mumkinligini ko‘rsatadi. O‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, 1-sinf oxirida bolalarning 27 foizi yozuv buzilishiga ega deb tasniflangan bo‘lsa, 5-sinf oxiriga kelib bu ko‘rsatkich 13 foizni tashkil etgan[4].

Bosga-Stork tomonidan olib borilgan tadqiqot esa yozuv faoliyatining rivojlanishini guruh natijalari bilangina emas, balki individual rivojlanish asosida ham tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqotning umumiy maqsadi boshlang‘ich maktabning dastlabki uch yili davomida grafomotor nazorat samaradorligining shakllanishini o‘rganishdan iborat bo‘lib, buning uchun 34 nafar o‘quvchi uch yil davomida muntazam kuzatilgan[5]. Muallif yozuv faoliyatini faqat motor jarayoni sifatida emas, balki harakat, til va kognitiv jarayonlarning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida talqin qiladi va aynan shu o‘zaro bog‘liqlikni longitudinal kuzatuv orqali tahlil qiladi.

Mazkur maqolada disgrafiyaga xos xatolarning o‘quvchilar yozma nutqida namoyon bo‘lishini hamda uning yoshga bog‘liq xususiyatlarini aniqlash maqsadida biz tomonidan olib borilgan 3 yillik tadqiqotning birinchi va uchinchi yilida olingan natijalar muhokama qilinadi. Tajribalar bir umumta’lim maktabning 2–9-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan bo‘lib, qo‘lga kiritilgan natijalarni sifat jihatdan tahlil qilish uchun 3 ta respondent yozma ishi namunalari tanlab olingan. Aynan mana shu 3 nafar respondent

[1] Hamstra-Bletz L., Blöte A.W. A Longitudinal Study on Dysgraphic Handwriting in Primary School // Journal of Learning Disabilities. – 1993. – Vol. 26, №10. – P. 689–699.

[2] Smits-Engelsman B. C. M., Van Galen G. P. Dysgraphia in Children: Lasting Psychomotor Deficiency or Transient Developmental Delay? // Journal of Experimental Child Psychology. – 1997. – Vol. 67, No. 2. – P. 164.

[3] Duiser I.H.F., Ledebt A., Van der Kamp J., Savelsbergh G.J.P. Persistent handwriting problems are hard to predict: a longitudinal study of the development of handwriting in primary school // Research in Developmental Disabilities. – 2020. – Vol. 97. – Article 103551. – P. 2.

[4] Karlsdottir R., Stefansson T. Problems in developing functional handwriting // Perceptual and Motor Skills. – 2002. – Vol. 94, No. 2. – P. 623.

[5] Bosga-Stork I.M. A Longitudinal Study of Preparatory Handwriting: Developing Efficiency in Motor Control: PhD Thesis. – Nijmegen: Radboud University, 2016. – 193 p.

tanlab olinganligining asosiy sababi ularning yosh jihatdan yaqinligi, disgrafik xatolarning yaqqol namoyon bo‘lishi va tahliliy materiallarning to‘liqligidir.

Birinchi respondentning ikki yillik yozma ishlari yozma nutqning turli neyrolingvistik bosqichlarida saqlanib qolayotgan barqaror qiyinchiliklarni ko‘rsatadi (1-jadval). Kuzatuvning dastlabki yilida respondent yozuvida fonetik-fonologik, optik, motor hamda agrammatik disgrafiyaga xos belgilar kuzatilgan. Uchinchi yilga kelib, ushbu xatolar kamayish o‘rniga ko‘paygan va yanada murakkabroq ko‘rinishda namoyon bo‘lgan. Bu tizimli tuzatish ishlari tashkil etilmaganligi, hamda yoshga bog‘liq ravishda yozma nutq faoliyatiga qo‘yiladigan talablarning ortishi natijasida xatolar yanada og‘irlashganligi bilan izohlanishi mumkin.

Respondent yozuvida fonetik-fonologik disgrafiyaga xos xatolar fonematik tahlildagi nuqsonlar natijasida kelib chiqqan. Jumladan, kuzatuvning dastlabki yilida, aksariyat holatlarda, harflarni chalkashtirish yondosh bo‘g‘indagi tovush ta’sirida yuz bergan bo‘lsa, keyingi bosqichda fonematik tahlil darajasining sustligi sababli unli harflarni tushirib qoldirish, so‘z tarkibiga ortiqcha harf kiritish bilan bog‘liq xatolar soni ko‘paygan. Kuzatuvning har ikkala bosqichi uchun tegishli bo‘lgan so‘z tarkibini buzib yozish esa fonologik obrazning beqarorligi hamda vaqtinchalik ishchi xotiradagi zaiflik bilan bog‘lanishi mumkin.

Respondentda vizual tahlil jarayonidagi kamchiliklarni yaqqol ko‘rsatib beruvchi o‘xshash elementli harflarni almashtirish, harflarga ortiqcha element qo‘shib yozish yakuniy tajriba bosqichida ham saqlanib qolgan. Ayniqsa, k harfini h shaklida yozish ham optik disgrafiya belgisi, ham periferik nuqson sifatida ham baholanishi mumkin. Bu esa tahlil jarayonini yanada murakkablashtiradi.

Motor disgrafiyaga xos belgilar birinchi yilda satr chizig‘idan og‘ish va harflar hajmining nomutanosibligi orqali namoyon bo‘lgan. Bu bolaning grafomotor nazorati, qo‘l harakati koordinatsiyasi va yozuv maydonida fazoviy joylashuvni boshqarishida qiyinchilik borligini ko‘rsatadi. Harflar shaklidagi xilma-xillik uchinchi yilga kelib ham o‘zgarmasdan qolgan. Umuman olganda, respondent yozuvining periferik jihatida nisbatan yaxshilanish kuzatilgan bo‘lishiga qaramay, yozuvning umumiy aniqligi hali yetarli darajada shakllanmagan.

Agrammatik disgrafiyaga xos xatolar ham respondent yozuvida muhim o‘rin egallaydi. Birinchi yildagi agrammatizmlar so‘zning yaxlit morfologik tuzilishini idrok etishdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, kuzatuvning so‘nggi bosqichiga kelib xatolar yanada murakkablashib, egalik va kelishik qo‘shimchalarini tushirib yozish, kelishik qo‘shimchalarini almashtirish, gaplarni tugallamaslik tarzida namoyon bo‘lgan.

Artikulyar-akustik disgrafiyaga xos xatolar respondentda har ikki yilda ham kuzatilmagan. Bu xatolar nutq apparati yoki talaffuz obrazlarining noto‘g‘ri shakllanishi bilan emas, balki fonologik tahlil, vizual idrok, motor nazorat va grammatik qurilishdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Ko‘rinadiki, birinchi respondentda disgrafik belgilar ikki yil davomida saqlanib qolgan. Birinchi yilda xatolar ko‘proq harf-tovush mosligi, harf shakllarini farqlash va grafomotor nazorat bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, uchinchi yilda fonetik-fonologik va agrammatik xatolarning murakkablashgani kuzatiladi. Fonetik-fonologik va agrammatik xatolarning davom etishi bolaning yozma nutqida ichki nutq, fonologik va morfologik tahlil, sintaktik rejalashtirish jarayonlari sust shakllanganidan dalolat beradi.

1-jadval

Respondent – 1.	1-kuzatuv yili (11-yosh)	3-kuzatuv yili (13-yosh)
Fonetik-fonologik disgrafiyaga xos xatolar	a) so‘z tarkibidagi boshqa tovushning kuchli ta’siri natijasida harflarni almashtirish: qilmoqchiman – qilmoqchimin; b) so‘z tarkibini buzib yozish: noyabr – noyolari.	a) so‘z tarkibidagi unli harflarni tushirib qoldirish: agar – agr, go‘shamizni – gshamizni; b) so‘z tarkibiga ortiqcha harf kiritish: boshlaymiz – bosholoymiz; c) so‘z tarkibini buzib yozish: olisroqda – olisitiroqdon, qolsak – qolshao, g‘ash – hoz.
Artikulyar-akustik disgrafiyaga xos xatolar	Kuzatilmadi	Kuzatilmadi
Optik disgrafiyaga xos xatolar	a) o‘xshash elementli harflarning almashtirilishi: chiroyli – chizoyli, ko‘prik – hoprik, kamalak – hamalah, oynali – oymali; b) harflarga ortiqcha element qo‘shib yozish.	a) o‘xshash elementli harflarning almashtirilishi: ko‘nglimiz – honnimiz, ko‘ngil – hongil, kishilarning – hoshilarning; b) bir so‘zni bir o‘rinda ikki marotaba yozish.

Motor disgrafiyaga xos xatolar	a) satr chizig‘idan og‘ish; b) harflar hajmining nomutanosibligi.	a) harflar shaklining nomutanosibligi; b) so‘zlarning tushunarsizligi.
Agrammatik disgrafiyaga xos xatolar	Bitta so‘zni qismlarga ajratib yozish: foydalanaman – foy dalanmoqchiman.	a) egalik va kelishik qo‘shimchalarni tushirib yozish; b) kelishik qo‘shimchalarini almashtirish (dan o‘rniga da); c) gaplarni tugallamaslik.

Ikkinchi respondent yozma ishlarining tahlili mazkur respondentda asosan fonetik-fonologik disgrafiyaga xos xatolar ustunligini ko‘rsatadi. Ikkala kuzatuv bosqichida ham tovushlarni farqlash, fonemalarni grafemalarga moslashtirish, so‘zning fonologik tarkibini to‘g‘ri tahlil qilish va tartibni saqlash bilan bog‘liq xatolar uchraydi. Respondent ayrim so‘zlarda tovushlarni almashtirgan, ayrim fonemalarni tushirib qoldirgan yoki so‘z tarkibini fonologik jihatdan buzib yozgan. Ayniqsa, so‘z tarkibidagi unlilarni idrok etish bilan bog‘liq jiddiy kamchilik kuzatilgan. Bu holat fonematik eshituv, fonologik tahlil va tovushlar ketma-ketligini nazorat qilish jarayonlarida qiyinchilik mavjudligiga ishora qiladi.

Respondentda gap tuzilishining to‘liq shakllanmasligi, ayrim so‘zlarning grammatik jihatdan noto‘g‘ri bog‘lanishi yoki mustaqil so‘zlarning qo‘shib yozilishi kabi agrammatik disgrafiyaga oid ayrim belgilar ham kuzatildi.

Optik disgrafiyaga oid xatolar kuzatuvning dastlabki bosqichida aniqlangan bo‘lsa ham, tajribaning oxirgi yiliga kelib, bu turdagi xatoliklar, deyarli, uchramaydi.

Muhim jihati shundaki, respondent yozma ishlarida artikulyar-akustik va motor disgrafiyaga xos belgilar ikkala bosqichda ham aniqlanmadi. Demak, ushbu respondentda xatolar harf shaklini ko‘rish orqali farqlay olmaslik, grafomotor harakatlarning sustligi yoki talaffuzdagi buzilishlarning yozuvga ko‘chishi bilan izohlanmaydi. Aksincha, asosiy muammo yozma nutqning fonologik bosqichida, ya’ni tovushlarni ajratish, ularni barqaror fonemalarga moslashtirish va grafema bilan ifodalash jarayonida yuzaga kelgan.

Umuman olganda, vizual tahlil bilan bog‘liq xatoliklar yoshga bog‘liq bo‘lganligi va motor belgilar kuzatilmagani sababli mazkur respondentda yozuvning periferik komponentlari nisbatan saqlangan, asosiy buzilish esa fonologik kodlash va fonema-grafema mosligini ta’minlash singari yozish jarayonining markaziy lingvistik komponentlariga aloqador degan xulosani taqdim etish mumkin.

2-jadval

Respondent-2	1-kuzatuv yil (11 yosh)	2-yil (13-yosh)
Fonetik-fonologik disgrafiyaga xos xatolar	a) so‘z tarkibidagi unli harflarni tushirib qoldirish: diktant – diktd, shug‘ullanishar – shug‘ulrshr, bildirmay – bldlmay; b) jarangli-jarangsiz juftliklarni almashtirish: tol – dol, tut – tud, faoliyat – volyat; c) so‘z tarkibidagi boshqa tovushning kuchli ta’siri natijasida harflarni almashtirish: tarbiya – rabrbya, sizning – zizng, to‘qqiz – qo‘qqiz, beshik – beshish.	a) so‘z tarkibidagi unli harflarni tushirib qoldirish: go‘zallik – go‘zalg // go‘zlg // go‘zllg, ko‘rmasdan-ko‘rmsdan; b) so‘z tarkibiga ortiqcha harf kiritish: ta’rifi – tarirfi, gul- gull; c) bir nechta harflarni yoki bo‘g‘inni tushirib yozish: birinchi – birchi, tassurotni – taassurni; d) so‘z tarkibini buzib yozish: tavsiflashga – tavqlshga, maskandan – mod, go‘zallashtirgani – go‘zlytrgn.
Artikulyar-akustik disgrafiyaga xos xatolar	Kuzatilmadi	Kuzatilmadi.
Optik disgrafiyaga xos xatolar	a) o‘xshash elementli harflarni almashtirish: keltirish – htrsh, kasbini – kslni; b) harf va raqamlarni yozishdagi beqarorlik, harflarning vizual tasvirida noaniqlikning kuzatilishi; c) bir so‘z yoki jumlaning qayta-qayta yozilishi, so‘z yoki jumlalarning butunlay tashlab ketilishi.	Kuzatilmadi.

Motor disgrafiyaga xos xatolar	Kuzatilmadi	Kuzatilmadi.
Agrammatik disgrafiyaga xos xatolar	a) ikkita alohida so‘zni qo‘shib yozish: ish emas – ishemas;	a) ikkita alohida so‘zni qo‘shib yozish: yuzi ham – yuzham, maskandan ham – modhom, turishi lozim – turshilozm; b) bitta so‘zni qismlarga ajratib yozish: yuzlarda – yuz lorda.

Uchinchi respondent yozma ishlarining tahlili disgrafiyaning aralash turi mavjudligini ko‘rsatadi (3-jadval). Mazkur respondentda fonetik-fonologik, artikulyar-akustik, optik va agrammatik disgrafiyaga xos xatolar birgalikda namoyon bo‘lgan.

Fonetik-fonologik disgrafiyaga oid xatolar respondent yozma ishlarida yetakchi o‘rinni egallaydi. Ikkala kuzatuv bosqichida ham tovushlarni almashtirish, tushirib qoldirish, fonologik jihatdan yaqin birliklarni farqlay olmaslik, so‘z tarkibidagi tovushlar ketma-ketligini buzish holatlari uchragan. Bunday xatolar respondentning fonematik farqlash, tovush tarkibini tahlil qilish va fonema-grafema mosligini barqaror saqlashda ma’lum qiyinchiliklarga duch kelayotganligini ko‘rsatadi. Matn va gap qurilishi murakkablashgani sari fonetik-fonologik xatolarning ham saqlanib qolishi markaziy-lingvistik qiyinchiliklar barqaror ekanini bildiradi.

Respondent yozma nutqida artikulyar-akustik disgrafiyaga xos xatolar ikki yil davomida muntazam uchradi. Xususan, til orqa qator g tovushi o‘rniga til oldi qator d tovushini, til orqa qator jarangli z tovushi til oldi qator jarangsiz sh tovushini talaffuz qilish va yozuvda ham xuddi shunday yozish bola artikulyatsiya tizimidagi jiddiy kamchilikdan dalolat beradi.

Optik disgrafiyaga oid belgilar ham respondent yozma ishlarida uchragan. Jumladan, harf elementlarini tushirib qoldirish, ortiqcha element qo‘shish, so‘z tarkibidagi ayrim qismlarni takrorlash kabi holatlar qayd etilgan. Bu esa grafemalarning vizual obrazini saqlash, yozuv jarayonida vizual nazoratni amalga oshirishdagi qiyinchiliklarni ko‘rsatadi. Respondentda optik xatolar fonetik-fonologik xatolardan mustaqil holda ham, ular bilan qo‘shilgan holda ham namoyon bo‘lgan.

Motor disgrafiyaga xos belgilar dastlabki kuzatuv bosqichida mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, keyingi bosqichda kuzatilmagan. Bu holat yozuvning grafomotor komponentida nisbatan ijobiy o‘zgarish borligini ko‘rsatadi. Biroq motor jihatdagi bunday yaxshilanish yozma nutqning markaziy-lingvistik komponentlaridagi xatolarning kamayishiga ta’sir qilmagan. Bu esa, yozma nutq faoliyati sof grafomotor jarayon emasligini yana bir bor dalillaydi.

Agrammatik disgrafiyaga xos xatolar respondent yozma ishlarida ikkala bosqichda ham saqlangan. Gaplarning tugallanmasligi, so‘z birikmalarining tushirib qoldirilishi, mustaqil sodda gaplarning qo‘shib yozilishi kabi holatlar yozma nutqning sintaktik tashkil etilishida qiyinchilik mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, uchinchi respondentda disgrafiyaning aralash turi yaqqol namoyon bo‘ladi. Kuzatuvning keyingi bosqichida motor komponentlar nisbatan yaxshilangan bo‘lsa-da, fonetik-fonologik, artikulyar-akustik, optik va agrammatik xatolar saqlanib qolgan. Demak, disgrafik xatolar vaqt o‘tishi bilan faqat kamayish shaklida emas, balki matn murakkablashgani sari yanada murakkab lingvistik darajalarda namoyon bo‘lishi ham mumkin.

3-jadval

Respondent - 3	1-kuzatuv yili (12 yosh)	3-kuzatuv yil (14 yosh)
Fonetik-fonologik disgrafiyaga xos xatolar	a) so‘z tarkibidagi undosh harflarni tushirib qoldirish: maktabga – makabta; b) so‘z tarkibiga ortiqcha harf kiritish: yigirma – yigizgama; c) bir nechta harflarni yoki bo‘g‘inni tushirib yozish: toshga yozgani – tashgani; d) so‘z tarkibini buzib yozish: istayman – ishgarma, binolar – bitnalam, burglar – basdalar, sarg‘ayadi – sahrg‘azadi.	a) so‘z tarkibini buzib yozish: Vatan – vatangan, ona – anam, allasidan – allasidng, ko‘ngilochar – dandir ochay; negaki – nengagi, boshlaymiz – boshlar bar, haqiqiy – hadin; b) so‘z tarkibidagi unli harflarni tushirib qoldirish: narsalar – nasrsalr.

Artikulyar-akustik disgrafiyaga xos xatolar	a) z tovushlari o‘rniga sh talaffuz qilish va shunday yozish: maza – masha, boramiz – boramish; b) g tovushi o‘rniga d talaffuz qilish va shunay yozish: yozgani – yordani.	a) g tovushi o‘rniga d tovushini talaffuz qilish va shunday yozish: vatanga – vatanda, go‘shamiz – do‘zamiz; b) z, s tovushlari o‘rniga sh talaffuz qilish va shunday yozish: qalbimizga – qalbimishga, olisroqda – olishyaqda, qolsak – qolshad; c) r tovushi o‘rniga y harfini yozish yoki so‘z tarkibida mazkur harfni tushirib qoldirish: quvontira – quvandiya, kengliklariga – kenglidlaga, ruhlarini – yuhlari.
Optik disgrafiyaga xos xatolar	a) o‘xshash elementli harflarning chalkashtirilishi: nutq – mutq, olmosh – olnosh, hikoya – kuhoya, sentabr – semtabr, turkum – tuzkum; b) so‘z tarkibidagi bir harfni bir necha bor yozish: turkumlarini – turkumlaarrinni; c) harflarning vizual tasvirida noaniqlik kuzatilishi.	a) harflarga ortiqcha elementlar qo‘shib yozish; b) harf elementlarini tushirib qoldirish; c) so‘zlarni bir necha bor takrorlash; d) so‘z tarkibidagi bir tovushni bir necha bor yozish.
Motor disgrafiyaga xos xatolar	a) satr chizig‘idan og‘ish; b) harflar hajmining nomutanosibligi; c) «qaltiroq» qo‘l yozuvi.	Kuzatilmadi
Agrammatik disgrafiyaga xos xatolar	a) ikkita alohida so‘zning qo‘shib yozilishi: toshga yozgani – tashgani; b) gaplarning tugallanmasligi.	a) so‘z birikmalarining tushirib qoldirilishi; b) gaplarning tugallanmasligi.

Tajriba natijalaridan xulosalash mumkinki, disgrafiya yozma nutq faoliyatining samaradorligini cheklovchi, o‘z-o‘zidan bartaraf bo‘lmaydigan, murakkab kognitiv muammo. Disgrafiyaga xos xatolar bola rivojlanishining ma’lum bosqichlarida nisbatan kamayishi mumkin, lekin muammoni to‘liq bartaraf etish uning og‘irlik darajasiga, tuzatish ishlarining to‘g‘ri va o‘z vaqtida tashkil etilishiga bog‘liq. Ayniqsa, og‘zaki nutqdagi muammolar yozma nutqda doimiy saqlanib qolishini hisobga olgan holda, ilk bolalik davrlaridayoq og‘zaki nutq muammolarini befarq qoldirmaslik zarur. Umuman olganda, og‘zaki nutqning yetarlicha rivojlanganligi yozuv o‘zlashtirish jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydigan asosiy omil sanaladi.

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar yozma nutqidagi disgrafiyaga xos xatoliklarni kuzatish yozuv o‘zlashtirish jarayonining mexanizmlarini tushunish, disgrafiyani erta boshqichda aniqlash va zaruriy tuzatish ishlarini tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Shunga qaramay, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kuzatiladigan aksariyat xatolarning «fiziologik» ekanligini ham hisobga olish kerak.

Rezyume. Mazkur maqolada disgrafik xatolarning yoshga bog‘liq dinamikasi neyrolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida respondentlarning turli yillarda bajargan yozma ishlari (diktant va ijodiy matn) qiyosiy o‘rganilib, fonetik-fonologik, artikulyar-akustik, optik, motor va agrammatik disgrafiyaga xos xatolarning namoyon bo‘lish xususiyatlari hamda vaqt davomida kuzatilgan o‘zgarishlar aniqlanadi. Tahlillar natijasida ayrim grafomotor va vizual ko‘nikmalarda nisbiy ijobiy siljishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, fonetik-fonologik va agrammatik xatolar ko‘pchilik respondentlarda saqlanib qolishi, ayrim hollarda esa yanada murakkablashishi qayd etildi. Olingan natijalar disgrafik qiyinchiliklarning yosh o‘tishi bilan o‘z-o‘zidan bartaraf bo‘lmasligini, aksincha, yozma nutq faoliyatiga qo‘yiladigan talablar murakkablashgan sari ularning yanada yaqqol namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari disgrafiyani erta aniqlash, uning neyrolingvistik mexanizmlarini chuqurroq tushunish hamda samarali korreksion-pedagogik dasturlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Abstract. This article analyzes the age-related dynamics of dysgraphic errors from a neurolinguistic perspective. The study is based on a comparative analysis of respondents’ written productions collected over different years, with particular attention to the manifestation and longitudinal changes of phonetic-phonological, articulatory-acoustic, optical, motor, and agrammatic dysgraphic errors. The findings indicate that although certain graphomotor and visual skills showed relative improvement over time, phonetic-phonological and

agrammatic errors persisted in the majority of respondents and, in some cases, became more pronounced and complex. The results suggest that dysgraphic difficulties do not resolve spontaneously with age; rather, they may become more evident as the linguistic and cognitive demands of written language increase. The findings have important theoretical and practical implications for the early identification of dysgraphia, a deeper understanding of its neurolinguistic mechanisms, and the development of effective corrective and pedagogical intervention programs.

Резюме. В данной статье анализируется возрастная динамика дисграфических ошибок с нейролингвистической точки зрения. В ходе исследования на основе сравнительного анализа письменных работ респондентов, выполненных в разные годы (диктанты и творческие тексты), были выявлены особенности проявления фонетико-фонологических, артикуляторно-акустических, оптических, моторных и аграмматических дисграфических ошибок, а также изменения, наблюдаемые в их динамике с течением времени. Результаты анализа показали, что, несмотря на относительное улучшение некоторых графомоторных и зрительных навыков, фонетико-фонологические и аграмматические ошибки у большинства респондентов сохранялись, а в отдельных случаях становились ещё более выраженными и сложными. Полученные результаты свидетельствуют о том, что дисграфические трудности не исчезают самостоятельно с возрастом; напротив, по мере усложнения требований, предъявляемых к письменной речи, они могут проявляться ещё более отчётливо. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для раннего выявления дисграфии, более глубокого понимания её нейролингвистических механизмов, а также разработки эффективных коррекционно-педагогических программ.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ТЕРМИНЫ-ЭПОНИМЫ В ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ БЛОГ-ДИСКУРСАХ

Калдыгозова С.Е.,
кандидат педагогических наук,
доцент кафедры русского языка и литературы
Южно-Казахстанского университета им. М. Ауэзова,
Шымкент, Казахстан

Объектом исследования в данной работе выступают терминологические эпонимные единицы, функционирующие в современной русскоязычной психологической блогосфере. В ходе анализа эпонимной терминосистемы, представленной в материалах психологических интернет-ресурсов, было выявлено 205 эпонимных терминов, составивших эмпирическую базу исследования. Источником фактического материала послужили публикации, размещённые на интернет-платформе b.17.psychologi.ru. Для решения поставленных задач использовались следующие методы исследования: метод наблюдения и обобщения языковых фактов; метод сплошной выборки; метод формально-структурного анализа; метод количественного анализа и статистической обработки данных; метод сопоставления дефиниций.

Понятие «эпоним» в современной лингвистической науке является широко распространённым и представляет значительный исследовательский интерес в различных областях знания. Изучение эпонимических единиц связано с анализом процессов терминообразования, особенностей номинации научных понятий, а также функционирования имён собственных в структуре специализированных терминосистем. Теоретическую базу исследования составляют работы Г. О. Винокура, поднявшего вопрос о разграничении терминологических и номенклатурных единиц[1] А. А. Реформатского, предложившего критерий для их разграничения на основе функционального назначения: термин обозначает общие понятия, номен этикетирует отдельные объекты[2] В. М. Лейчика[3], разработавшего современное понимание термина как сложной трехслойной единицы; А. В. Суперанской, изучавшей проблемы ономастики и представившей в своих трудах классификацию имен собственных[4]. Особое внимание в изучении эпонимии уделяется работам В.М. Лейчика, который рассматривает эволюцию понятия «эпоним» в рамках двух исторических этапов, оказавших влияние на формирование его современного значения. В данном контексте О.С. Ахманова[5] [5] определяет эпоним как лицо, имя которого послужило основой для наименования определённых объектов. В.Д. Стариченок[6] выделяет процесс образования слов от имён собственных, обозначая его термином «эпонимия». В свою очередь, Н.В. Подольская рассматривает эпоним как лицо, имя которого послужило основой для образования имени собственного[7]. Значительный вклад в изучение эпонимов и принципов их систематизации внесла А.А. Суперанская[8]. В рамках своей общей теории имени собственного она предложила подход к классификации эпонимных терминологических единиц, основанный на происхождении исходного онима и характере его трансформации в термин. По ее мнению, эпонимы - терминологические единицы могут классифицироваться по нескольким основаниям: **антропонимические**

[1] Винокур Г. О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии (1939) // Татаринов В. А. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: очерк и хрестоматия. – М.: Московский лицей, 1994. – С. 218-284.

[2] Реформатский А. А. Что такое термин и терминология (1959/1961) // Татаринов В. А. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: очерк и хрестоматия. – М.: Московский лицей, 1994. – С. 299-314.

[3] Лейчик В.М. Люди и слова: Как рождаются и живут слова в русском языке/ Отв. ред Г.В.Степанов. 2-е изд., испр. и доп. – М., Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009.

[4] Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М.: URSS, 2007. – 366 с.

[5] Ахманова О.С.Словарь лингвистических терминов. – М., Сов. энциклопедия, 1966.

[6] Стариченок В. Д. Большой лингвистический словарь / В. Д. Стариченок. – Ростов н/Д: Феникс, 2008. – С. 716.

[7] Словарь русской ономастической терминологии / Н.В. Подольская. – М: Наука, 1978.

[8] Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М.: URSS, 2007. – 366 с.

эпонимы, образованные от личных имен исследователей, изобретателей, учёных (например, «ньютоновский», «ампер»); **топонимические эпонимы**, восходящие к географическим названиям (например, «каспийский», «парижский эффект»); **мифонимические эпонимы**, связанные с именами мифологических персонажей (например, «нарциссизм», «тантал» в терминологическом употреблении); **литературные и культурные эпонимы**, происходящие от имен персонажей художественных произведений (например, «донкихотство»). Ученые-исследователи А.А. Гаранин, Р.М. Гаранина [8] выделяют 5 номинативных моделей образования эпонимических терминов: номинации по имени автора, впервые совершившего научное открытие, описавшего болезнь и ее признак(синдром Дауна), номинации, образованные от названия географического или архитектурного объекта, где впервые описано явление, выделен возбудитель болезни (*Порсмута синдром*), номинации по имени какого-либо легендарного героя, божества, мифического существа, известной исторической личности, героя литературных произведений *(проклятье Ундины*), наименования по названию возбудителя, получившего, в свою очередь, название эпонима(дальтонизм), номинации по имени пациентов, у которых впервые было выявлено данное заболевание (*Кауден синдром*).

Исследование терминов-эпонимов в современной русскоязычной психологической блогосфере в количестве 205 единиц позволило выявить их формально-структурные типы и основные тематические группы, в номинации которых они участвуют. Таких групп оказалось 6. В качестве источников материла выступили публикации, размещённые на интернет-платформе b17психологи.ru.

1.**Психические расстройства и заболевания**. К категории «Психические расстройства и заболевания» были отнесены эпонимические единицы, обозначающие нарушения психической деятельности, оказывающие негативное воздействие на когнитивные процессы, эмоциональное состояние и поведенческие реакции человека. В терминологической сочетаниях этой группы ядерными компонентами выступают терминологические единицы: *Агасфера синдром, Балинта синдром, боваризм, мания, пигмалионизм, Пуэрториканский синдром* и др. *Например: пигмалионизм* обозначает специфическую форму эмоционально-психологической привязанности, при которой объектом влечения выступают женские скульптурные изображения. Термин восходит к древнегреческому мифу о скульпторе Пигмалионе, создавшем статую женщины исключительной красоты и впоследствии влюбившемся в собственное творение. В современной интерпретации понятие используется для описания феномена идеализации искусственно созданного образа. В эту группу входит 7,3% от общего количества рассмотренных терминологических единиц, а именно 15.

2. **Психические состояния, психологические феномены, эффекты, схемы и модели поведения.** К данной номинативной категории были отнесены терминологические эпонимы, описывающие когнитивные, аффективные и поведенческие процессы: когнитивные процессы связаны с механизмами познания, мышления, восприятия, памяти, внимания, воображения и речи, аффективные процессы отражают эмоциональные переживания личности, включая такие состояния, как радость, печаль, гнев, страх, удивление, стыд, отвращение и чувство вины, поведенческие компоненты охватывают совокупность сознательных и неосознанных реакций человека на окружающую действительность, проявляющихся в действиях, привычках и формах активности. В терминологической сочетаниях этой группы ядерными компонентами выступают термины: *эффект Дидро, эффект Раншбурга, донжуанизм, иллюзии Эймса, интроверсия по Айзенку, макиавеллизм, Панума феномен, феномен Ауберта.* Например, *Эффект Дидро* - психологический феномен, когда покупка одной новой вещи вызывает цепную реакцию, приводя к приобретению множества других предметов ради создания гармоничного образа или стиля. Данная группа насчитывает 31,2 % терминов выборки и содержит 64 терминологические единицы.

3. Номинативная категория **«Психологические теории, концепции, законы»**. К категории «Психологические теории, концепции и законы» отнесены эпонимы, обозначающие общепризнанные и теоретически обоснованные положения, которые не предполагают сомнения или критической переоценки в рамках устоявшейся научной традиции. Данные эпонимы фиксируют результаты научной деятельности известных психологов и исследователей, внесших значительный вклад в развитие психологической науки. В качестве примеров могут быть приведены: *теория личности Г. С. Салливена, теория моральной ответственности Ж. Пиаже, закон Йеркса–Додсона, биосоциальная концепция утомления Шпильрейн, гипотеза Хогланда, парадигма Стернберга, структура интеллекта по Х. Гарднеру , типология творческих личностей Д. Прайса, концепция профессионального развития Д. Сьюпера* и

др. Структурно указанные эпонимы представляют собой устойчивые терминологические сочетания, включающие фамилию (или имя и фамилию) ученого в сочетании с категориальным термином, обозначающим тип научного построения, таким как «концепция», «теория», «гипотеза», «парадигма» , «закон», «структура», «типология». Например: *закон Йеркса—Додсона* описывает зависимость между уровнем стресса и продуктивностью деятельности. Эта группа является самой многочисленной, насчитывает 82 термина, что составляет 40% процентов от общего количества исследованных единиц.

4. Номинативная категория **«Психологические эксперименты, методы, методики, системы и техники»**. К номинации «Психологические эксперименты, методики, техники, системы, задачи» отнесены термины-эпонимы, обозначающие практико-ориентированную направленность психологии как научной дисциплины. Данные единицы описывают совокупность исследовательских и прикладных подходов, включающих методы, техники и системы, направленные на восстановление психического здоровья, а также на развитие когнитивных процессов: мышления, речи, памяти, внимания и других психических свойств. В качестве примеров могут быть приведены *эксперимент Дж. Стреттона, Хоторнский эксперимент, техника Куна, система Монтессори, система Тейлора, парадигма Стернберга, методы Лурии* и др. Структурно рассматриваемые эпонимы, как правило, состоят из имени учёного и номинативного компонента, обозначающего тип научного или практического подхода (например, «эксперимент», «методы», «система», «парадигма», «техника»). Например, в 1957 году психолог *Мюллер-Хегеманн* предложил модифицированную версию техники аутотренинга. В основе его подхода лежали данные о наличии в коре головного мозга обширных зон, связанных с проекционными представительства́ми различных органов и систем организма. Конец формы

Эта группа насчитывает 22 термина, что составляет 10,7% процентов от общего количества исследованных единиц.

5. К следующей номинативной категории терминологических эпонимов относятся «**Психологические тесты**», представляющие собой стандартизированные методики, направленные на измерение и анализ человеческого поведения, когнитивных процессов и эмоциональной сферы. Их основная цель заключается в получении количественных и качественных данных о личности, способностях, мотивации, предпочтениях и иных психологических характеристиках индивида. Например, *тест Бине – симона, шкала Векслера, тест Равена, тест Х. Хекхаузена, Шкала Лайкерта, Шкала Озерецкого, Шкала Апгар*. *Тест Х. Хекхаузена* представляет собой психодиагностическую методику, направленную на оценку мотивации достижения. *Шкала Векслера* предназначена для измерения интеллекта у детей и взрослых. В категории «Психологические тесты», составляющей 16 от выборки, что составляет 7,8% процентов от общего количества исследованных единиц

6. В группу «**Психологические школы**» включена небольшая совокупность эпонимов, обозначающих международные научные направления в психологии с указанием их географического происхождения и локализации. В рамках данной категории выделяются следующие школы: *Вюрцбургская школа , Колумбийская школа, Лейпцигская школа, Парижская школа гипнотизма, Харьковская психологическая школа и Чикагская школа.* Всего к указанной категории отнесено 6 эпонимов. Например, Деятельность представителей Харьковской психологической школы была направлена на развитие идей Л. С. Выготского. Эта группа насчитывает 6 терминов, что составляет 3,0% процентов от общего количества исследованных единиц. Количественное распределение терминов-эпонимов по моделям представлено в табл. 1.

Таблица 1 **- Распределение эпонимических терминов психологической блогосферы по номинативным моделям**

Номинативная модель	Примеры	Количество	Доля %
Психические расстройства и заболевания	*Агасфера синдром, Балинта синдром*	15	7,3%
Психические состояния, феномены	*эффект Раншбурга, донжуанизм*	64	31,2%
Психологические теории, концепции, законы.	*теория личности Г. С. Салливена, теория моральной ответственности Ж. Пиаже*	82	40%

Психологические эксперименты, методы, системы	*техника Куна, система Монтессори, Хоторнский эксперимент*	22	10,7%
Психологические тесты	*тест Х. Хекхаузена, Шкала Лайкерта*	16	7,8%
Психологические школы	*Колумбийская школа, Лейпцигская школа*	6	3,0%
Всего		205	100%

Таким образом, результаты анализа типологии терминов-эпонимов свидетельствуют о том, что наиболее продуктивным источником формирования эпонимических единиц в психологической блогосфере являются антропонимы. Эпонимические терминологические единицы оказывают существенное влияние на процесс познания мира в исторической перспективе и выступают важнейшим источником информации о учёных и исследователях, внёсших значительный вклад в развитие психологической науки. В ходе исследования были выявлены 6 формально-структурных типов и основные тематические группы: «Психические расстройства и заболевания», «Психические состояния, психологические феномены», «Психологические теории, концепции, законы», «Психологические эксперименты, методы, системы», «Психологические тесты», «Психологические школы». В качестве источников материла выступили публикации, размещённые на интернет-платформе b17психологи.ru.

Изученные экстралингвистические особенности эпонимных терминов, связанные с историей появления эпонима в языке психологической блогосфере, раскрывают ценность эпонимного компонента, в котором закодирована информация об открытии явления, о роли отдельных ученых-психологов в истории отрасли.

Резюме. В статье рассматриваются типы имен собственных, входящих в состав психологических эпонимных единиц, представленных в блог-дискурсах, выделяются основные тематические группы понятий, осуществляется формально-структурный анализ эпонимных терминологических единиц, исследуется история возникновения отдельных эпонимных наименований.

Rezyume. The article examines the types of proper names that are part of psychological eponymous units in blog discourse, identifies the main thematic groups of concepts, performs a formal and structural analysis of eponymous terminological units, and explores the history of the emergence of individual eponymous names.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

PREVENTIV NUTQIY AKTLARNING LINGVOPRAGMATIK VA SOTSIOPRAGMATIK JIHATLARI

Asadov Alisher Bahodirovich,
Buxoro davlat tibbiyot instituti
o'zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili kafedrasi assistenti

Nutq insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi eng asosiy faoliyat shakllaridan biridir. Har qanday muloqot jarayonida so'zlovchi faqat ma'lumot yetkazish bilan cheklanmaydi, balki tinglovchiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi, uni biror harakatga undaydi, ayrim harakatlardan qaytaradi, ogohlantiradi yoki ehtiyotkorlikka chaqiradi. Shu jihatdan nutqiy aktlar nazariyasi til birliklarining faqat grammatik yoki semantik tomonini emas, balki ularning real kommunikativ vaziyatdagi vazifasini ham o'rganishga imkon beradi. Ayniqsa, preventiv nutqiy aktlar muloqotning oldini olish, saqlash, ogohlantirish va ehtiyotkorlikka undash kabi vazifalarini ifodalashi bilan alohida ahamiyatga ega.

Preventiv nutqiy aktlar kundalik hayotda juda faol qo'llanadi. Masalan, «Ehtiyot bo'ling», «Shoshilmang», «Bu ishni qilmasangiz yaxshi bo'ladi», «Yo'lni kesib o'tishda avval chap va o'ng tomonga qarang», «Bunday gapni aytmaganingiz ma'qul», «Sovuq suv ichmang, tomog'ingiz og'rib qoladi» kabi birliklar oddiy ogohlantirish ko'rinishida bo'lsa-da, ularning zamirida murakkab pragmatik maqsad yotadi[1]. Bunday aktlar orqali so'zlovchi adresatning kelajakdagi xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi, uni ehtimoliy salbiy oqibatdan saqlashga harakat qiladi. Demak, preventiv nutqiy aktning asosiy belgisi uning kelajakdagi ehtimoliy holatga yo'naltirilganligidir[2].

Zamonaviy pragmalingvistika va sotsiopragmatika doirasida preventiv nutqiy aktlarni o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chunki bu turdagi nutqiy aktlar faqat lingvistik shakl bilan emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimi, madaniy me'yorlar, axloqiy qadriyatlar va kommunikativ strategiyalar bilan bevosita bog'liqdir. Bir xil mazmundagi ogohlantirish turli vaziyatlarda turlicha ifodalanishi mumkin. Masalan, ona farzandiga «Yiqilib tushasan, yugurma» desa, shifokor bemorga «Mazkur dorini shifokor tavsiyasisiz qabul qilish tavsiya etilmaydi» deydi. Har ikkala holatda ham preventiv ma'no mavjud, ammo nutqiy shakl, ohang, ijtimoiy masofa va ta'sir mexanizmi turlicha namoyon bo'ladi.

Preventiv nutqiy aktlarning sotsiopragmatik tahlili, avvalo, ularning ijtimoiy kontekstda qanday ishlashini aniqlashga qaratiladi. Sotsiopragmatika til birliklarining jamiyatdagi qo'llanish qoidalarini, nutq ishtirokchilarining o'zaro munosabatini, ijtimoiy maqom va madaniy qadriyatlarning muloqotga ta'sirini o'rganadi. Shu sababli preventiv aktlarni tahlil qilishda faqat «nima deyildi?» savoli emas, balki «kim aytdi?», «kimga aytdi?», «qanday vaziyatda aytdi?», «qanday maqsadda aytdi?» va «bu ifoda adresat tomonidan qanday qabul qilindi?» kabi savollar ham muhim hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi preventiv nutqiy aktlarning sotsiopragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning o'zbek tilidagi ifodalanish shakllari va kommunikativ vazifalarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun preventiv aktlarning mohiyati, ularning bevosita va bilvosita ko'rinishlari, ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi, xushmuomalalik strategiyalari va milliy-madaniy xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda pragmatik tahlil, kontekstual tahlil, tavsifiy usul va diskursiv yondashuvdan foydalanildi. Material sifatida kundalik muloqot namunalari, rasmiy ogohlantirish matnlari, pedagogik va tibbiy muloqotga xos ifodalar hamda ommaviy kommunikatsiyada uchraydigan preventiv birliklar tanlab olindi.

Preventiv nutqiy aktlar mazmunan keng hodisa bo'lib, ular ogohlantirish, maslahat, tavsiya, buyruq, taqiq, iltimos, ogoh etish, ehtiyotkorlikka chaqirish kabi bir necha nutqiy harakatlar bilan yaqin aloqada namoyon bo'ladi. Biroq ularning umumiy birlashtiruvchi belgisi shundaki, so'zlovchi adresatni ehtimoliy xavf yoki noxush oqibatdan saqlashni ko'zlaydi[3]. Masalan, «Bu yerga kirmang» ifodasida taqiq kuchli bo'lsa, «Bu yerga kirish xavfli bo'lishi mumkin» ifo-

[1] Остин Дж. Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1986. – Вып. 17. – С. 22–129.
[2] Сёрль Дж. Р. Речевые акты: очерк философии языка. – М.: Прогресс, 1986. – 285 с.
[3] Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.

dasida ogohlantirish va ehtiyotkorlikka chaqirish ustun turadi. «Yaxshisi, hozir bormaganingiz ma’qul» shaklida esa maslahat va preventivlik birgalikda namoyon bo‘ladi.

1-jadval. **Preventiv nutqiy aktlarning asosiy pragmatik ko‘rinishlari**

Preventiv akt ko‘rinishi	Misol	Pragmatik maqsad	Ijtimoiy vaziyat
Ogohlantirish	Ehtiyot bo‘ling, yo‘l sirpanchiq.	Xavfni oldindan bildirish	Kundalik muloqot
Taqiq	Bu hududga kirish mumkin emas.	Harakatni cheklash	Rasmiy ogohlantirish
Maslahat	Bunday qilmaganingiz ma’qul.	Noxush oqibatning oldini olish	Do‘stona yoki hurmatli muloqot
Tavsiya	Sovuqda issiqroq kiyining.	Sog‘liqni asrash	Oilaviy, tibbiy muloqot
Iltimos orqali ogohlantirish	Iltimos, hujjatlarni vaqtida topshiring.	Kechikishning oldini olish	Rasmiy-ish yuritish muloqoti

Preventiv nutqiy aktlar yagona grammatik shakl bilan chegaralanmaydi. Ular turli nutqiy janr va vaziyatlarda har xil shaklda yuzaga chiqadi. Masalan, oilaviy muloqotda preventivlik ko‘pincha mehr, g‘amxo‘rlik va tashvish ohangi bilan ifodalanadi. Rasmiy muloqotda esa u ko‘proq norma, qoida va majburiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Tibbiy muloqotda preventiv aktlar sog‘liqni saqlash, kasallikning oldini olish yoki davolash tartibiga rioya qilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Pedagogik muloqotda esa ular tarbiya, intizom va ijtimoiy xatti-harakat me’yorlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Preventiv aktlarning sotsiopragmatik xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri ijtimoiy maqomdir. So‘zlovchi va adresat o‘rtasidagi maqom farqi nutqiy aktning shakliga kuchli ta’sir ko‘rsatadi[1]. Masalan, rahbar xodimga «Hisobotni kechiktirmang» deb bevosita murojaat qilishi mumkin. Ammo xodim rahbarga nisbatan «Hisobotni bugun ko‘rib chiqish imkoningiz bo‘lsa, yaxshi bo‘lardi» kabi bilvosita va muloyim shakldan foydalanadi. Bu yerda preventiv ma’no saqlanadi, chunki xodim muayyan ishning kechikib ketmasligini nazarda tutadi, biroq ijtimoiy maqom farqi sababli nutqiy shakl yumshatiladi.

O‘zbek nutq madaniyatida yoshi katta kishiga, rahbarga, ustozga yoki hurmat qilinadigan shaxsga bevosita buyruq ohangida murojaat qilish ijtimoiy jihatdan noqulay hisoblanadi. Shu sababli preventiv aktlar ko‘pincha «ma’qul bo‘lardi», «yaxshi bo‘lardi», «ehtimol», «iloji bo‘lsa», «tavsiya qilardim» kabi modal birliklar yordamida yumshatiladi. Masalan, «Buni qilmang» ifodasi qat’iy va keskin eshitilsa, «Buni qilmaganingiz ma’qul bo‘lardi» shakli ijtimoiy jihatdan muloyimroq qabul qilinadi. Demak, preventiv aktning samaradorligi faqat uning mazmuniga emas, balki qanday ifodalanganiga ham bog‘liq.

Kommunikativ masofa ham preventiv nutqiy aktlarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Yaqin munosabatdagi shaxslar o‘rtasida ogohlantirish qisqa, bevosita va emotsional bo‘lishi mumkin: «To‘xta!», «Borma!», «Qo‘lingni tekkizma!», «Yugurma!». Bunday birliklar ayniqsa xavf darajasi yuqori bo‘lgan vaziyatlarda samarali hisoblanadi[2]. Aksincha, rasmiy yoki notanish kishilar o‘rtasidagi muloqotda preventivlik odatda neytral, muloyim va me’yoriy shaklda beriladi: «Xavfsizlik nuqtai nazaridan ushbu hududga kirish tavsiya etilmaydi», «Iltimos, belgilangan tartibga rioya qiling». Bunda so‘zlovchi adresatning «ijtimoiy yuzi»ga zarar yetkazmaslikka intiladi.

Preventiv nutqiy aktlarning yana bir muhim belgisi ularning bevosita va bilvosita shakllarda namoyon bo‘lishidir. Bevosita preventiv aktlarda maqsad ochiq, aniq va keskin ifodalanadi. Bunday holatda adresatdan muayyan harakatni bajarish yoki bajarmaslik talab qilinadi. Bilvosita preventiv aktlarda esa ogohlantirish yashirinroq, muloyimroq yoki maslahat shaklida beriladi. Masalan, «Derazani ochmang» bevosita taqiq bo‘lsa, «Xona sovib ketishi mumkin» bilvosita preventiv ogohlantirishdir. Ikkinchi holatda so‘zlovchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq bermaydi, ammo adresatga derazani ochmaslik kerakligini anglatadi.

[1] Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
[2] Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2003. – 502 p.

2-jadval. **Bevosita va bilvosita preventiv nutqiy aktlarning qiyosiy tavsifi**

Belgilar	Bevosita preventiv akt	Bilvosita preventiv akt
Ifoda shakli	Qat'iy, aniq, buyruq yoki taqiq ohangida	Yumshoq, maslahat yoki ishora shaklida
Misol	Buni qilmang.	Buni qilmasangiz yaxshi bo'lardi.
Pragmatik kuch	Yuqori	O'rtacha yoki yashirin
Qo'llanish vaziyati	Xavfli, tezkor, nazorat talab qiladigan vaziyat	Rasmiy, hurmatli yoki nozik muloqot
Sotsiopragmatik vazifasi	Harakatni darhol cheklash	Adresatga bosimni kamaytirib ta'sir qilish

Bevosita preventiv aktlar ko'pincha favqulodda, xavfli yoki vaqt tanqis bo'lgan vaziyatlarda qo'llanadi. Masalan, bola yo'lga yugurib chiqayotgan paytda «To'xta!» deyish eng samarali nutqiy harakatdir. Bunday vaziyatda muloyimlikdan ko'ra xavfning oldini olish ustuvor bo'ladi. Ammo oddiy suhbatda, ayniqsa kattalar yoki ijtimoiy maqomi yuqori shaxslar bilan muloqotda bilvosita shakllar afzal hisoblanadi. Chunki bunday shakllar muloqotdagi ziddiyatni kamaytiradi va adresatning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini saqlaydi.

Preventiv nutqiy aktlarda xushmuomalalik tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Xushmuomalalik faqat odob belgisi emas, balki kommunikativ strategiyadir. So'zlovchi ogohlantirishni juda keskin ifodalasa, adresatda qarshilik, norozilik yoki himoyalanish reaksiyasi paydo bo'lishi mumkin[1]. Shu sababli o'zbek tilida preventiv aktlar ko'pincha yumshatish vositalari bilan birga keladi. «Iltimos», «marhamat», «yaxshisi», «agar imkon bo'lsa», «ehtiyot bo'lsangiz», «tavsiya qilamiz» kabi birliklar preventiv ma'noni yumshatib, muloqotning ijobiy ruhda davom etishiga xizmat qiladi.

Masalan, «Telefoningizni o'chirib qo'ying» ifodasi oddiy buyruq sifatida qabul qilinishi mumkin. «Iltimos, telefoningizni ovozsiz rejimga o'tkazib qo'ysangiz» shaklida esa shu mazmun muloyimroq tarzda ifodalanadi. Har ikkala holatda ham preventiv maqsad mavjud: muloqot, yig'ilish yoki dars jarayonining buzilishining oldini olish. Biroq ikkinchi shakl ijtimoiy jihatdan maqbulroq va kommunikativ jihatdan samaraliroqdir.

O'zbek tilida preventiv aktlarning milliy-madaniy xususiyatlari ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Milliy nutq madaniyatida kattaga hurmat, kichikka izzat, maslahatni muloyim berish, tanbehni bevosita emas, balki ishora bilan yetkazish an'anasi kuchli. Shu sababli preventivlik ko'pincha maqol, ibora, kinoya, yumshoq ogohlantirish yoki tajriba asosidagi maslahat shaklida ifodalanadi. Masalan, «Shoshgan qiz erga yolchimas», «Etti o'lchab, bir kes», «Avval o'yla, keyin so'yla» kabi xalqona birliklar ham preventiv mazmunga ega. Ular bevosita «bunday qilma» demaydi, lekin ehtiyotsizlik, shoshqaloqlik yoki o'ylamasdan harakat qilishning salbiy oqibatini eslatadi.

Preventiv nutqiy aktlar tibbiy muloqotda juda muhim vazifani bajaradi. Shifokor bemorga «Dorilarni o'z vaqtida iching», «Muolajani to'xtatib qo'ymang», «O'zbilarmonlik bilan antibiotik qabul qilmang», «Agar holatingiz og'irlashsa, darhol murojaat qiling» kabi ifodalar orqali kasallikning asoratlanishini oldini olishga harakat qiladi. Tibbiy diskursda preventiv aktlar ko'pincha maslahat va tavsiya ko'rinishida beriladi, chunki bemorga haddan tashqari keskin buyruq berish muloqot samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bilan birga, xavf yuqori bo'lgan holatlarda shifokor qat'iy ogohlantirishdan foydalanadi: «Bu dorini me'yoridan ortiq qabul qilish mumkin emas».

Pedagogik muloqotda preventiv nutqiy aktlar tarbiyaviy va nazorat vazifasini bajaradi[2]. O'qituvchi o'quvchiga «Darsga kechikmang», «Uy vazifasini vaqtida bajaring», «Imtihonga tayyorgarliksiz kelmang», «Boshqalarning fikrini bo'lmang» kabi ogohlantirishlar orqali nafaqat intizomni ta'minlaydi, balki o'quvchining kelajakdagi xatti-harakatini tartibga soladi. Bunda preventiv aktning pragmatik maqsadi faqat hozirgi vaziyatga emas, balki kelajakdagi muayyan natijaga qaratilgan bo'ladi. Ya'ni o'qituvchi o'quvchini yomon baho, intizomiy chora, tushunmovchilik yoki kommunikativ noqulaylikdan saqlashni nazarda tutadi.

Oilaviy muloqotda preventiv nutqiy aktlar g'amxo'rlik va emotsional yaqinlik bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ota-ona farzandiga «Sovuqda yupun yurma», «Begona odam bilan ketma», «Telefonni ko'p ishlatma», «Issiq choyni ehtiyot bo'lib ich» kabi ifodalar orqali uni himoya qilishga intiladi. Bunday aktlarda ijtimoiy nazorat bilan birga mehr,

[1] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 300 б.
[2] Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. – Тошкент: Фан, 2013. – 196 б.

tashvish va mas’uliyat hissi ham mavjud bo‘ladi. Shu sababli oilaviy preventiv aktlar ba’zan keskin shaklda ifodalansa ham, adresat tomonidan g‘amxo‘rlik sifatida qabul qilinadi.

Rasmiy diskursda preventiv aktlar ko‘proq normativ xarakterga ega bo‘ladi. Masalan, «Chekish taqiqlanadi», «Begona shaxslarning kirishi man etiladi», «Xavfsizlik qoidalariga rioya qiling», «Hujjatlarni belgilangan muddatda topshiring» kabi birliklar muayyan tartibni saqlashga xizmat qiladi. Bu yerda so‘zlovchi shaxsiy munosabat bildirmaydi, balki tashkilot, muassasa yoki ijtimoiy institut nomidan ogohlantiradi. Rasmiy preventiv aktlarning kuchi ularning institutsional maqomi bilan belgilanadi.

3-jadval. **Preventiv nutqiy aktlarning turli diskurslardagi namoyon bo‘lishi**

Diskurs turi	Preventiv ifoda namunasi	Asosiy vazifa	Pragmatik xususiyat
Tibbiy diskurs	Dorini shifokor tavsiyasisiz qabul qilmang.	Sog‘liqni asrash	Tavsiya va taqiq uyg‘unligi
Pedagogik diskurs	Darsga kechikmang.	Intizomni ta’minlash	Nazorat va tarbiya
Oilaviy diskurs	Sovuqda yupun yurma.	G‘amxo‘rlik qilish	Emotsional yaqinlik
Rasmiy diskurs	Begona shaxslarning kirishi man etiladi.	Tartibni saqlash	Institutsional taqiq
Ommaviy axborot diskursi	Firibgarlardan ehtiyot bo‘ling.	Jamoatchilikni ogohlantirish	Ijtimoiy xavfsizlik

Har bir diskursda ularning maqsadi umumiy — salbiy oqibatning oldini olish bo‘lsa-da, ifoda shakli va pragmatik kuchi turlicha bo‘ladi. Tibbiy diskursda ular tavsiya va ehtiyotkorlik bilan, pedagogik diskursda nazorat va tarbiya bilan, oilaviy diskursda mehr va g‘amxo‘rlik bilan, rasmiy diskursda esa norma va taqiq bilan bog‘lanadi. Demak, preventiv aktlarni faqat til shakli asosida emas, balki qo‘llanish sohasi va ijtimoiy vazifasi asosida ham tahlil qilish zarur.

Preventiv nutqiy aktlarning kommunikativ samaradorligi adresat tomonidan qanday qabul qilinishiga bog‘liq. Agar ogohlantirish haddan tashqari keskin bo‘lsa, u qarshilik uyg‘otishi mumkin. Agar juda yumshoq bo‘lsa, adresat uni jiddiy qabul qilmasligi ehtimoli mavjud. Shuning uchun so‘zlovchi vaziyatga mos nutqiy strategiyani tanlashi kerak. Masalan, xavfli vaziyatda «Iltimos, imkon bo‘lsa, to‘xtab turing» deyish yetarli bo‘lmasligi mumkin; bunday holatda «To‘xtang!» shakli samaraliroq. Aksincha, rasmiy yozishmada «Buni darhol qiling» deyish keskin eshitiladi; «Belgilangan muddatda bajarishingiz so‘raladi» shakli esa maqbulroqdir.

Preventiv nutqiy aktlar yuzaga kelishida milliy madaniyat bilan bir qatorda individual kommunikativ tajriba ham muhimdir. Har bir shaxs ogohlantirishni o‘z tajribasi, tarbiyasi, ijtimoiy muhiti va nutqiy odatlariga ko‘ra ifodalaydi. Ba’zi kishilar preventiv aktlarni keskin va qisqa shaklda qo‘llasa, boshqalar yumshoq, izohli va maslahatga yaqin shakldan foydalanadi. Bu farq shaxsning kommunikativ uslubi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ijtimoiy muhit va madaniy me’yorlar uni tartibga solib turadi.

Preventiv nutqiy aktlar ko‘pincha konfliktning oldini olish vazifasini ham bajaradi. Masalan, «Bu masalada ehtiyotkorroq gapirganimiz ma’qul», «Hozir bu mavzuni ko‘tarmay turganimiz yaxshi», «Bu fikr noto‘g‘ri tushunilishi mumkin» kabi ifodalar bevosita xavf emas, balki kommunikativ ziddiyatning oldini olishga qaratilgan. Bunday holatda preventiv akt ijtimoiy munosabatlarni saqlash, muloqotdagi noqulaylikni kamaytirish va taraflar o‘rtasidagi muvozanatni ushlab turishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, preventiv nutqiy aktlar sotsiopragmatik jihatdan murakkab, ko‘p vazifali va ijtimoiy jihatdan muhim hodisadir. Ular orqali so‘zlovchi adresatni ehtimoliy xavf, noxush oqibat yoki ijtimoiy nomuvofiqlikdan ogohlantiradi. Preventiv aktlarning shakli ijtimoiy maqom, kommunikativ masofa, nutq vaziyati, madaniy me’yorlar va xushmuomalalik tamoyillariga bog‘liq holda o‘zgaradi. O‘zbek tilida bu aktlar ko‘pincha muloyim, bilvosita, hurmatga asoslangan va izohli shakllarda namoyon bo‘ladi. Bevosita preventiv aktlar xavfli va tezkor vaziyatlarda samarali bo‘lsa, bilvosita aktlar rasmiy, hurmatli va nozik muloqot sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, preventiv nutqiy aktlarni o‘rganish nafaqat pragmalingvistika, balki sotsiopragmatika, diskurs tahlili, madaniyatlararo kommunikatsiya va nutq madaniyati uchun ham muhimdir. Chunki bunday aktlar tilning ijtimoiy boshqaruv, muloqotni muvofiqlashtirish va insonlararo munosabatlarni tartibga solish imkoniyatlarini

yaqqol namoyon etadi. Kelgusida preventiv nutqiy aktlarni turli tillar materialida qiyosiy o‘rganish, ularning gender, yosh, kasbiy diskurs va ommaviy kommunikatsiyadagi xususiyatlarini tahlil qilish mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitadi.

Rezyume. Mazkur maqolada preventiv nutqiy aktlarning sotsiopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Preventiv nutqiy aktlar adresatni ehtimoliy xavf, noxush oqibat, ijtimoiy nomuvofiqlik yoki kommunikativ ziddiyatdan ogohlantirishga xizmat qiluvchi nutqiy birliklar sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda preventiv aktlarning ogohlantirish, maslahat, ehtiyotkorlikka chaqirish, taqiqlash, ogoh etish va muayyan harakatdan tiyilishga undash kabi pragmatik vazifalari yoritiladi.

Resume. This article analyzes the sociopragmatic features of preventive speech acts. Preventive speech acts are interpreted as communicative units aimed at warning the addressee about possible danger, undesirable consequences or social discomfort. The article examines the direct and indirect forms of preventive speech acts, their pragmatic force and communicative effectiveness.

Резюме. В статье анализируются социопрагматические особенности превентивных речевых актов. Превентивные речевые акты рассматриваются как коммуникативные единицы, направленные на предупреждение адресата о возможной опасности, нежелательных последствиях или социальном дискомфорте. В статье рассматриваются прямые и косвенные формы превентивных речевых актов, их прагматическая сила и коммуникативная эффективность.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QO‘LYOZMALARDA KOTIBLARNING (NUSXA KO‘CHIRUVCHILARNING) ENG MUHIM AMALLARI

Erimmatova Zuxra Azimboyevna,
O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti
arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Matnshunoslik nazariy planda matnlarni ilmiy tadqiq etishning umumiy qonuniyatlari, turli tarixiy bosqichlarda ularning o‘zgarib borish xususiyatlari, barqarorlashgan asosiy tushunchalari va matnni qayta tiklash prinsiplari kabi masalalarni tartibga soladi[1].

Uning dastxat, nusxa, qoralama, oqqa ko‘chirma nusxa(kopiya), arxetip, variant kabi muammoli masalalari va asosiy tushunchalari; atributsiya, sanasini belgilash, sharxlash, konyektura (buzilgan, xiralashgan eski yozuvni taxmin bilan tuzatish, tiklash), kotib yo‘l qo‘ygan xatolarni o‘rganish kabi umumiy metod va usullar bo‘yicha yuzaga kelgan umumiy mezonlar va me’yorlarni tartibga soladi.

Bir vaqtning o‘zida manbashunoslik jihatidan qaraladigan bo‘lsa, nazariy manbashunoslik yo‘nalishi amaliy manbashunoslik tajribasini umumlashtiradi, yozma manbalarning vujudga kelishi va ularning real tarixiy sharoitni o ‘zida aks ettirish qonuniyatlari, manbalarni izlab topish, turkumlash, tavsifga olish, tartibga solish asoslarini ishlab chiqadi va ularni ilmiy muomalaga kiritishning, amaliy o‘rganishning eng

[1] Маҳмуд Ҳасаний,Алимулла Ҳабибуллаев. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. O’quv qo’llanma. – Toshkent, 2012. – B. 13.

maqsadga muvofiq asosiy usul va yo‘llarini aniqlaydi va amaliyotga tavsiya etadi[1].


Amaliy matnshunoslik muayyan asar matni tarixi va uning manbalarini o‘rganish, muallifi, yozilish davri, joyi va boshqa o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash (atributsiya) yo‘li bilan muallif varianti yoki unga yaqin eng ishonchli variantni tanlab, shu variant asosida matnni tiklaydi. Bu jarayon matn tarixida matn tuzuvchi kotiblar yoki noshirlar tomonidan asar matniga kiritilgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, asarning turli nusxalarini o‘zaro taqqoslash va ishonchli ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash tarzida amalga oshiriladi. Matnga bunday yondashuv yozma yodgorlikning tanqidiy tahliliga va keyingi ilmiy tadqiqotlarga ishonchli asos bo‘ladigan matnini nashr etish uchun kerak. Matnshunoslik amaliyotining oxirgi natijasi bo‘lib ana shu nashr xizmat qiladi[2].

Amaliy manbashunoslik yo‘nalishi bevosita yozma manbalarni nazariy manbashunoslik tavsiyasiga binoan o‘rganish, izlab topish, tavsif etish va o‘zi topgan, mavzu uchun yangi va kerakli ma’lumotlarni ilmiy muomalaga olib kirishni nazarda tutadi. Amaliy manbashunoslikda tadqiqotchi o‘zi uchun biror mavzuga oid manbalarni tanlab olgandan keyin ularning har birini tashqi yoki moddiy tcxnik belgilari va ichki mazmuniga ko‘ra guruhlarga ajratib ilmiy tahlil etishi lozim[3].

Qo‘lyozma bu inson qo‘li bilan yozilgan manba bo‘lib, kompyuter orqali yozilgan aniq yozuvdan farqlanib turadi. Ba’zi harflar yoki so‘zlar bir-biriga kiritilib yozilishi yoki harflarning nuqtalari qo‘yilmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Qo‘lyozmani yozishdagi imlo qoidalar hozirgi zamonda mavjud imlo qoidalardan farq qilish holatlari uchraydi, misol uchun نامیلس so‘zida, ba’zi xattotlar orasida alif so‘z o‘rtasida kelib qolsa yozmaslik holati keng tarqalgan.

Shu sababdan xattotlar ishida kuzatiladigan, bir qancha bosqichlar mavjud. Ular quyidagilar:


1) اللَّحَقُ (matnga qo‘shimcha qilish) – nusxalovchi kotib asl matnni keltiradi va uning atrofiga hoshiya sifatida qo‘shimcha kiritadi. Har kiritilgan qo‘shimcha ajratilib turiladi. Eng mashhur shakli matn oxiriga \ص صح yoki صح uch marotaba qayta yozilish holati ham kuzatiladi. Agar hoshiyada shunday yozilgani ko‘rilsa, ushbu qo‘shimcha asl matnning tarkibi emas balki kiritma ekanligini ifodalaydi. Bundan tashqari أصل yoki متن deb yozib qo‘yilgan shakllari ham uchraydi. Kiritma qilinadigan so‘z doim bitta to‘liq so‘z emas, bir-ikkita harf bo‘lishi ham mumkin.



[1] Abdumajid Abduraimov, Gavhar Fuzailov. Manbashunoslik. Darslik. – Toshkent, 2008. – B.11.


[2] Маҳмуд Ҳасаний,Алимулла Ҳабибуллаев. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. O’quv qo’llanma. – Toshkent, 2012. B. 13.

[3] Abdumajid Abduraimov, Gavhar Fuzailov. Manbashunoslik. Darslik. – Toshkent, 2008. – B.14.




2) الضَّرْبُ (tuzatish) – satrlarda tushib qolgan qo‘shimchani keyingi satrda qo‘shib ketishdir. Bunga alomat sifatida o‘sha tuzatishga ham alohida belgi ص [sod] mamduda so‘zni ustiga qo‘yiladi. Bu ba’zan qo‘yilgan, ba’zan esa qo‘yilmagan. Boshqa holatda esa matn tagiga havola sifatida yozilib ketiladi.

Shuningdek, tuzatiladigan gap ustiga tekis chiziq tortilgan.




Tuzatishlar faqat chiziqlar orqali emas, boshqa shakllardan ham foydalanilgan, avvalida birinchi so‘zni oxirida esa ikkinchi so‘zni yozib qo‘yishgan quyidagicha ko‘rinishda:




3) التقديم والتأخير بالنص (matndan farqli holda oldin yoki keyin keltirish) – xattot asl matnda biror so‘zni asl o‘rniga ko‘ra oldinlatishi yoki keyin keltirib ko‘shirishidir. Misol uchun matnda أحمد ومحمد deb kelgan bo‘lsa, xattot ko‘chirganda محمد وأحمد shaklida ko‘chirishi kabi. Bunga ishora sifatida bir qancha harflardan belgi sifatida qo‘yilib ketilgan, har ikkitasi ustiga yozilgan: أ-أ, م-م (مقدم-مؤخر), ق-خ (تقديم-تأخير), خ-م (تأخير-مقدم), (أول-آخر).


4) البَيَانُ (matnga tuzatish kiritish) – bitta so‘zning harfida xatolik sodir bo‘lsa, misol uchun, in مصطفى shaklida xato ko‘chirilsa, to‘g‘irlangan variantini hoshiyada berilib, صواب deb yoziladi va bayon ekanligiga quyidagicha boshqa alomatlar qo‘yilib ketiladi: بيان – ن – بدل – ل


5) التَّضْبِيبُ (matnda kelgan bir so‘zni o‘zgartirishlarsiz shubhali deb topish) – xattot asl matnda nimani qanday holda topsa shu holda ko‘chiradi. Ma’no jihatidan o‘sha so‘z to‘g‘ri kelmasa ham omonotdorlikdan ham o‘sha so‘zni saqlab ko‘chiradi va unga maxsus belgi qo‘yib ketadi.





6) مَعًا\خَفَّ (6 belgilari – bitta so‘z bir harakatdan ortiq holatda o‘qish mashhur bo‘lganda, ikkita harakat qo‘yiladi va ustiga معا qo‘yiladi, bu noto‘g‘ri emasligini ifodalaydi.خَفَّ esa o‘sha so‘zning tashdiddan xoli holatda o‘qilishi mashhurligi bildiradi.





7) علامات الإهمال(nuqtasiz harf-»muhmal») – bunda shakli bir xil, nuqtalar bilan farqlanuvchi ر-ز، ف-ق kabi harflar nazarda tutiladi. Qo‘lyozmalarda ba’zi nuqtali so‘zlar o‘qilishida tushunmovchilik kelib chiqmasligi uchun maxsus belgilar yoziladi. Bunga esa harf, maxsus tirnoq shakliga o‘xshash belgi va nuqtalar bilan ifodalanadi.

8) Nusxalar ixtilofi – bir qo‘lyozmaning turli nusxalarida uchraydigan so‘z yoki iboralardagi farqlardir. Shuning uchun bir nusxa boshqa nusxa bilan muqobala qilinadi, ya’ni taqqoslab tekshiriladi. Buning maqsadi matndagi xatolarni aniqlash, noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni tuzatish va matnning eng ishonchli shaklini tiklashdir. Boshqa nusxalar bilan solishtirish natijasida nusxaning ilmiy qiymati oshadi va uni asosiy nusxa sifatida tanlash osonlashadi. Bu jarayon qo‘lyozmani o‘qish va tahqiq qilishdan oldingi muhim bosqich hisoblanadi. Nusxalardagi farqlarga ham maxsus ishoralar qo‘yilib ketiladi: خ\خـ، نخ، نخة، نسخة

9) الدَّارَةُ(الدَّائِرَة) – bu matnda qo‘lyozmalarda va hadis kitoblarida ishlatiladigan doira (○) belgisi bo‘lib, ba’zi kitoblarda hadis yoniga doira qo‘yiladi. Agar doira ichida nuqta bo‘lsa, bu hadis tekshirilgan va muqobala qilinganini bildiradi. Agar doira ichida nuqta bo‘lmasa, bu hadis hali to‘liq tekshirilmaganini anglatadi.

Qo‘lyozma manbalar bilan ishlashda kotiblar (nusxa ko‘chiruvchilar)ning faoliyati matnshunoslikning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ularning matnni ko‘chirish jarayonida amalga oshiradigan اللَّحَقُ (qo‘shimcha kiritish), اَلبَيَانُ (tuzatish) va اَلتَّضْبِيبُ (shubhali matnni o‘zgartirmasdan saqlash) kabi amallari qo‘lyozma matnlarning shakllanishi va keyingi avlodlarga yetkazilishida muhim rol o‘ynaydi.

Kotiblar tomonidan kiritilgan o‘zgarishlar ba’zan matnni boyitgan bo‘lsa, ba’zan uning asl mazmunini aniqlashda qiyinchiliklar ham tug‘diradi. Shu sababli matnshunoslikda turli nusxalarni solishtirish, variantlarni tahlil qilish va ilmiy-tanqidiy matnni tiklash zaruriy jarayon hisoblanadi.

Umuman olganda, kotiblarning amaliy faoliyati yozma yodgorliklarning saqlanishi, rivojlanishi va ilmiy o‘rganilishida asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy matnshunoslik uchun ishonchli manba yaratishga xizmat qiladi.

Rezyume. Ushbu mavzu qo‘lyozma manbalar bilan ishlash jarayonida kotiblar (nusxa ko‘chiruvchilar) tomonidan amalga oshiriladigan eng muhim amallarni matnshunoslik nuqtai nazaridan yoritadi. Unda matnshunoslikning nazariy va amaliy yo‘nalishlari, qo‘lyozma matnlarning tarixiy rivoji, variantlar va ularni tiklash prinsiplari haqida umumiy tushunchalar beriladi. Shuningdek, qo‘lyozma nusxalarda uchraydigan xatolar, qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar, ularni belgilash usullari hamda kotiblar tomonidan qo‘llaniladigan اللّحَقُ (qo‘shimcha kiritish), اَلبَيَانُ (tuzatish kiritish) va اَلتَّضْبِيبُ (shubhali so‘zni o‘zgartirmasdan ko‘chirish) kabi amaliy jarayonlar tahlil qilinadi.

Resume. This topic examines, from a textual criticism perspective, the most important procedures carried out by scribes (copyists) when working with manuscript sources. It provides a general overview of the theoretical and practical aspects of textual criticism, the historical development of manuscript texts, as well as textual variants and the principles of their reconstruction. The study also analyzes errors, additions, and alterations found in manuscript copies, the methods used to mark them, and the practical techniques employed by scribes, such as al-laḥq (the insertion of additions), al-bayān (the introduction of corrections), and al-taḍbīb (the transmission of a doubtful word without altering it).

Резюме. Данная тема с точки зрения текстологии освещает наиболее важные операции, выполняемые писцами (переписчиками) в процессе работы с рукописными источниками. В ней даётся общее представление о теоретических и практических направлениях текстологии, историческом развитии рукописных текстов, а также о вариантах текста и принципах их восстановления. Кроме того, анализируются ошибки, дополнения и изменения, встречающиеся в рукописных копиях, способы их обозначения, а также такие практические приёмы, применяемые писцами, как اللَّحَقُ (внесение дополнений), اَلبَيَانُ (внесение исправлений) и اَلتَّضْبِيبُ (переписывание сомнительного слова без его изменения).

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NORMATIV MATN TALQINIDA SINTAKTIK QAMROVNING O'RNI

Elova Dilrabo Qudratillayevna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Huquqiy matnlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish masalasi keyingi yillarda yurislingvistika, sud lingvistikasi (forensic linguistics) hamda huquqiy diskurs tadqiqotlarida faol muhokama qilinayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Normativ matnni talqin qilish jarayoni ko'pincha alohida so'zlarning lug'aviy ma'nosini aniqlash yoki grammatik shakllarni tavsiflash bilangina cheklanmaydi. Ayniqsa, soliq va boshqa qonunchilik normalarida gaplarning sintaktik qurilishi, bog'lovchilarning qo'llanishi, havola qiluvchi birliklarning aniqligi hamda xatboshi chegaralari huquqni qo'llash amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Huquqiy matn yuqori darajadagi normativ yuklama bilan tavsiflangani sababli, undagi kichik sintaktik tafovut yoki havolaviy noaniqlik turlicha talqinlarga imkon beradi. Bunday vaziyatlar, ayniqsa, huquqiy diskursda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Chunki soliq majburiyati, imtiyoz yoki javobgarlik bilan bog'liq norma noto'g'ri talqin qilinganda uning oqibati nafaqat lingvistik, balki iqtisodiy va huquqiy xarakter ham kasb etadi.

Sud lingvistikasi an'analarida huquqiy matnning semantik noaniqligi, sintaktik murakkabligi va talqin moslashuvchanligi masalalari uzoq vaqtdan beri o'rganib kelinadi. P.Tiersma huquqiy tilning arxaik va ko'p qatlamli sintaktik tabiati talqinni murakkablashtirishini qayd etadi[1]. M.Coulthard sud-lingvistik ekspertizada matnni obyektiv talqin qilish muammosiga e'tibor qaratadi[2]. Grice konsepsiyasi esa qonun matnida to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan ma'nolar qanday shakllanishini tushuntirishga yordam beradi[3]. Diskursning ichki bog'lanishlari va kogerentligi haqidagi qarashlar esa T. van Dijk tadqiqotlarida keng yoritilgan[4] .

O'zbek tilshunosligida yuridik matnlarni lingvistik ekspertiza qilish masalalari asosan leksik-semantik, terminologik yoki stilistik yo'nalishda tadqiq etib kelinmoqda. So'nggi yillarda sud-lingvistik ekspertiza, konfliktli matn va yurislingvistika bo'yicha ayrim izlanishlar paydo bo'lgan bo'lsa-da, normativ matnni formal mantiq va inferensial pragmatika bilan bog'liq holda tizimli o'rganish hali yetarlicha shakllanmagan. Ayniqsa, soliq qonunchiligidagi sintaktik qamrov, anaforik bog'lanish va presuppozitsion noaniqliklarning normativ talqinga ta'siri hamda ular bilan bog'liq interpretativ kolliziyalar hali yetarlicha o'rganilmagan. «Lingvo-mantiqiy ekspertiza» normativ matnni chuqurroq tushunishga xizmat qiluvchi yondashuv sifatida qo'llanilib, unda gaplarning sintaktik qurilishi, mantiqiy bog'lanishi va kontekstual ma'nolari o'zaro aloqada ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370-377-moddalarini lingvistik va mantiqiy jihatdan tahlil qilish orqali ulardagi ayrim talqin noaniqliklari, sintaktik qamrov bilan bog'liq muammolar hamda matn ichidagi bog'lanishlarning huquqni qo'llash amaliyotiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun jismoniy shaxslarning daromad turlarini ifodalovchi normalarning sintaktik qurilishi va qamrovi tahlil qilindi. Shuningdek, normativ matndagi bog'lovchilar, havola qiluvchi birliklar hamda yashirin semantik asoslarning norma talqiniga ta'siri ko'rib chiqildi. Ayrim moddalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mantiqiy va kontekstual kolliziyalar tahlil qilinib, qonun matnining lingvistik shakli bilan uni amaliy qo'llash o'rtasidagi ayrim tafovutlar yoritildi.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga oid 370–377-moddalari tanlandi[5]. E'tibor, asosan, ushbu moddalardagi gap qurilishi, matn ichidagi bog'lanishlar hamda ayrim sintaktik birliklarning norma talqiniga qanday ta'sir qilishiga qaratildi. Shu bilan birga, normativ matnda yuzaga keladigan yashirin ma'no, kontekstual xulosa va ling-

[1] Tiersma P. M. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1999.
[2] Coulthard M., Johnson A. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. – London: Routledge, 2010.
[3] Grice H. P. Studies in the Way of Words. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989.
[4] van Dijk T. A. Discourse and Power. – New York: Palgrave Macmillan, 2008.
[5] O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ–599-son Qonuni (amaldagi tahrir).

vo-mantiqiy xususiyatlar ham tadqiqot predmetini tashkil etdi.

Tadqiqot davomida semantik va diskurs tahlili usullariga murojaat qilindi. Ayrim moddalarda gaplarning ichki mantiqiy qurilishini ko‘rish uchun propozitsional modellashtirish elementlari ham qo‘llandi. Ba’zi hollarda esa norma tarkibidagi bog‘lovchi yoki istisno bildiruvchi birlik o‘zgartirilganda ma’no qanday yo‘nalishga siljishini kuzatish maqsadida kontrfaktual interpretatsiya usulidan foydalanildi.

Formal mantiq ushbu ishda normativ matnni «to‘g‘ri» yoki «noto‘g‘ri» deb qat’iy baholovchi vosita sifatida emas, ko‘proq matn ichidagi yashirin bog‘lanishlar, sintaktik qamrov va talqin bilan bog‘liq ehtimoliy xavfni ko‘rsatishga yordam beruvchi tahlil vositasi sifatida qo‘llandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, Soliq kodeksining ayrim normalari o‘zbek yurislingvistikasi doirasida faqat leksik-semantik jihatdan emas, gap qurilishi, sintaktik qamrov va matn ichidagi mantiqiy bog‘lanishlar nuqtai nazaridan ham tahlil qilinganida ko‘rinadi. Ish davomida ayrim norma shakllari turlicha talqin qilinishi mumkinligi, matn ichidagi noaniq bog‘lanishlar esa huquqni qo‘llash amaliyotida bahsli talqinlarga sabab bo‘lish ehtimoli kuzatildi.

Huquqiy matnni talqin qilish masalasi tilshunoslik, mantiq va huquq tutashadigan murakkab sohalardan biridir. Ayniqsa, normativ matnning gap qurilishi bilan uning amaliy qo‘llanishi bir-biriga to‘liq mos kelmagan holatlarda oddiy leksik izoh yetarli bo‘lmay qoladi. Shu sababli keyingi yillarda sud lingvistikasi va huquqiy diskurs yo‘nalishlarida normativ matn faqat so‘z ma’nosi yoki grammatik shakl doirasida emas, balki yashirin ma’no, kontekstual talqin va matn ichidagi mantiqiy bog‘lanishlar nuqtai nazaridan ham o‘rganilmoqda.

Xorijiy tadqiqotlarda huquqiy tilning murakkabligi ko‘pincha uning sintaktik strukturalari bilan bog‘lanadi. P. Tiersma huquqiy tilning tarixiy qatlamlari saqlanib qolishi natijasida normativ matnlar oddiy kommunikativ nutqdan sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatadi[1]. Ayrim hollarda huquqiy tilning ana shu murakkab va murakkab va an’anaviy gap qurilishi normaning turlicha talqin qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin. M. Coulthard sud-lingvistik ekspertizada matnni yagona va mutlaq ma’no asosida emas, balki bir necha talqin imkoniyatiga ega hodisa sifatida ko‘rib chiqish kerakligini ta’kidlaydi[2]. Deborah Cao esa huquqiy diskursda noaniqlikning turli ko‘rinishlarini farqlab, ularning normani qo‘llash amaliyotiga bir xil ta’sir ko‘rsatmasligini qayd etadi[3].

Ushbu maqolada pragmatik yondashuv ham alohida o‘rin tutadi. H. P. Grice tomonidan ishlab chiqilgan implikatura konsepsiyasi normativ matnda ochiq ifodalanmagan, biroq kontekst orqali anglashiladigan ma’nolarni tushuntirish imkonini beradi[4]. Soliq qonunchiligida aynan shu yashirin ma’no qatlami ayrim hollarda normaning turlicha talqin qilinishiga sabab bo‘ladi. Masalan, norma matnida chegarasi aniq belgilanmagan havola qiluvchi birlik yoki bog‘lovchi amaliyotda kengroq talqin qilinishi mumkin.

Diskurs tahliliga oid ayrim yondashuvlar ham tadqiqot metodologiyasida muhim o‘rin tutdi. T. van Dijk matnning yaxlitligi faqat grammatik bog‘lanish bilan emas, balki uning ichki semantik izchilligi bilan ham bog‘liq ekanini ta’kidlaydi[5]. Soliq qonunchiligida esa ana shu izchillik ayrim hollarda yuzaki saqlangandek ko‘rinsada, amaliy talqinda turli noaniqliklarni yuzaga chiqarishi mumkin. Shu sababli qonun matni bu yerda faqat normativ ko‘rsatma sifatida emas, balki ma’no va talqin bir-biri bilan kesishadigan murakkab tizim sifatida ko‘riladi.

Tadqiqot davomida argumentativ pragmatika bilan bog‘liq ayrim yondashuvlarga ham murojaat qilindi. O. Ducrotning lingvistik argumentatsiya haqidagi qarashlari ayrim bog‘lovchi va sintaktik shakllarning matnda yashirin talqin yo‘nalishini hosil qilishi mumkinligini tushuntirishda foydali bo‘ldi[6]. Masalan, qonun matnidagi *«va», «yoki», «bundan mustasno», «shu jumladan»* kabi birliklar ayrim hollarda oddiy grammatik vosita bo‘lib qolmay, normaning amaliy qamroviga ham ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida yurislingvistika bilan bog‘liq izlanishlar keyingi yillarda asta-sekin shakllanib bormoqda. Mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi sud amaliyotida uchraydigan konfliktli nutq, lingvistik ekspertiza obyektlari hamda muallif identifikatsiyasi bilan bog‘liq masalalarga qaratilgan. Xususan, K.Musulmonova lingvistik ekspertizaning nazariy va amaliy asoslarini yoritgan bo‘lsa[7], B. Ashurov sud-ekspertiza lingvistikasining huquqiy nizolarni hal etishdagi o‘rniga e’tibor qaratadi[8]. Ayrim ishlarda esa yozma nutq ekspertizasi va lingvistik identifikatsiya masalalari tahlil qilingan.

[1] Tiersma P. M. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1999.
[2] Coulthard M., Johnson A. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. – London: Routledge, 2010.
[3] Cao D. Translating Law. – Clevedon: Multilingual Matters, 2007.
[4] Grice H. P. Studies in the Way of Words. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989.
[5] van Dijk T. A. Discourse and Power. – New York: Palgrave Macmillan, 2008.
[6] Ducrot O. Dire et ne pas dire: Principes de sémantique linguistique. – Paris: Hermann, 1972.
[7] Мусулмонова К. Лингвистик экспертиза назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Академнашр, 2022.
[8] Ашуров Б. Ўзбекистонда лингвистик низоларни ҳал этишда суд-экспертиза лингвистикасининг ўрни // Xorijiy filologiya. – Самарқанд, 2023.

Shunga qaramay, normativ-huquqiy matnni gap qurilishi, sintaktik qamrov va norma talqini bilan bog‘liq yashirin ma’no qatlamlari asosida o‘rganish masalasi hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, soliq qonunchiligi matnining lingvo-mantiqiy xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida kam murojaat qilingan yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Rus yurislingvistikasining ayrim yondashuvlari, xususan, A. Baranov va K.Galyashina ishlari orqali ekspertiza metodlari o‘zbek ilmiy muhitiga ham kirib kelgan[1]. Biroq normativ-huquqiy matnni gap qurilishi, mantiqiy bog‘lanish va kontekst asosida yuzaga keladigan ma’nolar bilan birgalikda tahlil qilish hali yetarlicha shakllanmagan. Ayniqsa, soliq qonunchiligidagi talqin bilan bog‘liq noaniqliklar lingvistik nuqtai nazardan kam o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi bir necha o‘zaro bog‘liq tahlil yo‘nalishlariga tayandi. Avvalo, semantik tahlil orqali normativ birliklarning ma’no chegaralari va ularning kontekstga qarab qanday o‘zgarishi ko‘rib chiqildi.

Tadqiqotda semantik, pragmatik va mantiqiy tahlil elementlari birgalikda qo‘llanildi. Shu orqali Soliq kodeksining 370–377-moddalarida uchraydigan ayrim talqin noaniqliklari va matn ichidagi bog‘lanishlar bilan bog‘liq muammolarni tavsiflash imkoniyati paydo bo‘ldi.

Ushbu tadqiqotda normativ matn faqat grammatik birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki gap qurilishi, kontekst va yashirin ma’no bir-biri bilan bog‘lanadigan murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Shu sababli tahlilda bir-birini to‘ldiruvchi bir necha lingvistik va mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370-377-moddalari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bilan bog‘liq normalarni tartibga soladi. Ushbu moddalarning matni tahlil qilinganda ayrim sintaktik noaniqliklar, gap ichidagi mantiqiy bog‘lanishlar hamda talqin bilan bog‘liq murakkab holatlar ko‘zga tashlanadi. Bunday holatlar har doim ham ochiq ziddiyat shaklida namoyon bo‘lavermaydi. Ayrim hollarda norma matnining o‘zi turlicha talqin qilish imkonini beruvchi yashirin mexanizmlarni yuzaga chiqaradi. Natijada normaning amaliy qamrovi kengayishi yoki, aksincha, torayishi mumkin.

370-modda. Jami daromad tarkibi. 370-moddada jami daromad tarkibi mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar hamda boshqa daromadlar orqali tasniflanadi. Tashqi ko‘rinishda bu norma daromad turlarini umumiy guruhlarga ajratishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, modda matnida ushbu toifalarning o‘zaro chegarasi har doim ham aniq ko‘rinmaydi. Ayrim hollarda bir daromad turi bir nechta kategoriya bilan kesishishi mumkinligi ehtimoldan xoli emas.

Ayniqsa, *«boshqa daromadlar»* birikmasi ochiq mazmunga ega bo‘lgan kategoriya sifatida ishlaydi. Qonun matnini tuzishda bunday usul ayrim hollarda zarur bo‘lishi mumkin, chunki barcha amaliy vaziyatlarni oldindan to‘liq sanab chiqish qiyin. Biroq soliq majburiyati bilan bog‘liq normalarda ochiq shakldagi bunday birliklar keyinchalik kengroq talqinga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu jihatdan 370-modda jami daromad tarkibini umumiy tasnif shaklida belgilaydi. Lekin *«boshqa daromadlar»* kategoriyasining chegarasi aniq ko‘rsatilmagani sababli norma amaliyotda turlicha talqin qilinishi ehtimoli saqlanib qoladi.

371-modda. Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar. 371-moddada *«hisoblangan va to‘lanadigan har qanday to‘lovlar»* birikmasi qo‘llangan. Norma matnida mehnat shartnomasi asosida bajarilgan ishlar uchun *«hisoblangan va to‘lanadigan»* to‘lovlar daromad tarkibiga kiritiladi. Yuzaki qaralganda bu yerda *daromadning hisoblanganligi* va *uning real to‘langanligi* birgalikda qo‘llanmoqda

Amaliyotda ushbu ikki holat har doim ham bir vaqtda yuz bermasligi mumkin. Masalan, korxona ish haqi summasini hisoblagan bo‘lishi, biroq moliyaviy sabablar tufayli uni hali to‘lamagan bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, soliq amaliyotida ko‘pincha hisoblangan summaning o‘zi asos qilib olinadi.

Shu nuqtada norma matnining grammatik shakli bilan uning amaliy qo‘llanishi o‘rtasida ma’lum tafovut paydo bo‘ladi. Gapning sintaktik qurilishi ikki holatning birgalikda mavjudligini anglatgandek ko‘rinsada, amaliy talqinda ulardan biri ustuvor qo‘llanadi. Natijada muammo ochiq ziddiyat shaklida emas, balki talqin va qo‘llashdagi farq ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Lingvo-mantiqiy jihatdan asosiy masala bog‘lovchining gap ichidagi qamrovi bilan bog‘liq. Aynan shu qamrov ayrim hollarda normaning torroq yoki kengroq talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

372-modda. Rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar. 372-moddada *«377-moddaning 10-bandida ko‘rsatilmagan moddiy yordam»* kabi havola shakli qo‘llanadi. Bu yerda norma ma’nosi bevosita tavsif orqali emas, balki istisno asosida aniqlanmoqda. Ya’ni 377-modda doirasiga kirmagan moddiy yordam boshqa huquqiy kategoriya tarkibiga o‘tkaziladi.

Bunday usul normativ matnni ixchamlashtirish nuqtai nazaridan qulay bo‘lishi mumkin. Shunga qa-

[1] Баранов А. Н. Лингвистическая экспертиза текста. – Москва: Флинта, 2007., Галяшина Е. И. Судебная лингвистическая экспертиза. – Москва: Юрайт, 2021.

ramay, matnning ichki mantig‘i ayrim savollarni yuzaga chiqaradi. Xususan, istisnoga kirmagan har qanday moddiy yordam avtomatik ravishda rag‘batlantirish yoki qo‘shimcha daromad sifatida talqin qilinishi kerakmi?

Norma matnining o‘zida bu chegarani aniqlashtiruvchi mezon yetarli darajada ochib berilmagan. Chunki moddiy yordamning ayrim shakllari rag‘batlantirishdan ko‘ra ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarakteriga ega bo‘lishi mumkin.

Shu jihatdan 372-moddadagi inkor asosida qurilgan havola moddiy yordamning huquqiy tabiatini aniqlashda qo‘shimcha talqin mezonlariga ehtiyoj tug‘diradi.

373-modda. Kompensatsiya to‘lovlari. 373-moddada *«oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymatini qoplash.»* kabi ifoda qo‘llanadi. Bu yerda *«yoki»* bog‘lovchisi bir-biriga yaqin ko‘ringan ikki holatni ajratib turadi. Biroq ushbu birliklar iqtisodiy va huquqiy mazmuniga ko‘ra har doim ham bir xil emas.

Bir holatda shaxsga ma’lum naf berilishi mumkin bo‘lsa, boshqa holatda avval sarflangan xarajat qoplanadi. Shu sababli norma matnida daromad bilan kompensatsiya o‘rtasidagi chegara muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday xarajatni qoplash holatini avtomatik ravishda daromad sifatida baholash ehtiyotkorlikni talab qiladi. Ayrim vaziyatlarda bu xizmat vazifasini bajarish bilan bog‘liq xarajatlarni tiklash shakli bo‘lishi mumkin.

Shu jihatdan 373-moddadagi *«yoki»* bog‘lovchisi norma doirasini ajratishga xizmat qilsa-da, u bilan bog‘langan birliklarning huquqiy tabiati bir xil emasligi ko‘rinadi. Natijada norma amaliyotda turlicha talqin qilinishi ehtimoli saqlanib qoladi.

374-modda. Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash. 374-moddada *«xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun to‘lov»* daromad tarkibiga kiritiladi. Bir qarashda bu holat ma’lum darajada paradoksal ko‘rinishi mumkin. Xodim ish bajarmagan, biroq unga haq to‘lanmoqda.

Biroq mehnat huquqi nuqtai nazaridan bu yerda mutlaq ziddiyat mavjud emas. Chunki xodimning aybisiz yuzaga kelgan bekor turib qolish holati ko‘pincha ish beruvchining tashkiliy yoki ishlab chiqarish bilan bog‘liq majburiyatlari doirasida yuz beradi. Shunday vaziyatda to‘lov bajarilgan ish uchun emas, balki saqlanib qolayotgan mehnat munosabati hamda xodimning aybdor emasligi bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Shu jihatdan norma matni *«ishlangan vaqt uchun haq»* va *«mehnat munosabati saqlanganligi sababli to‘lanadigan haq»* o‘rtasidagi farqni ajratib ko‘rsatishni talab qiladi. Aks holda ushbu birliklar bir xil iqtisodiy mazmunga ega degan tasavvur paydo bo‘lishi mumkin.

Demak, 374-modda doirasida asosiy masala ochiq mantiqiy zidlikda emas, balki mehnat harakati bilan mehnat munosabatidan kelib chiqadigan to‘lovlar o‘rtasidagi semantik chegarani aniqlashtirishda namoyon bo‘ladi.

375-modda. Mulkiy daromadlar. 375-moddada mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar mulkiy daromad sifatida ko‘rsatiladi. Bir qarashda ushbu norma nisbatan aniq va tushunarli ko‘rinadi. Shunga qaramay, uni amaliy qo‘llashda ayrim savollar yuzaga kelishi mumkin. Xususan, jismoniy shaxs tomonidan mulkni ijaraga berish qaysi holatlarda oddiy mulkiy daromad sifatida baholanishi, qaysi vaziyatlarda esa tizimli iqtisodiy faoliyat belgisi sifatida talqin qilinishi masalasi ochiq qoladi.

Norma matnining o‘zida bu chegarani belgilovchi mezonlar batafsil ochib berilmagan. Albatta, har bir amaliy holatni modda tarkibida alohida sanab o‘tishning imkoni yo‘q. Biroq tahlil shuni ko‘rsatadiki, *«mulkiy daromad»* kategoriyasi ayrim vaziyatlarda boshqa iqtisodiy faoliyat shakllari bilan tutashib ketishi mumkin.

Ayniqsa, faoliyatning muntazamligi, takroriyligi yoki daromad olishning tizimli xarakteri bilan bog‘liq holatlar norma talqinida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan 375-modda mulkiy daromadning umumiy doirasini belgilab bersa-da, ayrim amaliy vaziyatlarda qo‘shimcha normativ aniqlikka ehtiyoj sezilishi mumkin.

376-modda. Moddiy naf tarzidagi daromadlar. 376-moddada moddiy naf tarzidagi daromadlar tarkibida *«soliq agentining soliq to‘lovchi daromadi bo‘lgan boshqa xarajatlarini to‘lash»* kabi ifoda qo‘llanadi. Ushbu jumlaning sintaktik qurilishi nisbatan murakkab bo‘lib, uning mazmuni bir qarashda darhol anglashilmaydi.

Asosiy masala shundaki, norma xarajatning nima sababdan daromad sifatida baholanishini alohida izohlab bermaydi. Aksincha, u avvaldan «daromad bo‘lgan xarajat» sifatida taqdim etiladi. Shu sababli birlikning semantik chegarasi matnning o‘zida yetarlicha ochilmay qoladi.

Bu holatni to‘liq taftologiya sifatida baholash to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Shunga qaramay, norma matnidagi ifoda lingvistik jihatdan murakkabligi sababli adresat zimmasiga qo‘shimcha talqin yukini yuklaydi. Ayniqsa, *«xarajat»* va *«daromad»* tushunchalari bir konstruktsiya ichida kesishib ketgani norma mazmunini darhol anglashni qiyinlashtiradi.

Shu jihatdan 376-moddadagi *«daromad bo‘lgan boshqa xarajatlar»* birikmasi moddiy naf chegarasini aniqlashda qo‘shimcha izoh va ehtiyotkor talqinga ehtiyoj tug‘dirishi mumkin.

377-modda. Boshqa daromadlar. 377-mod-

da 371–376-moddalar doirasiga kirmagan boshqa daromadlarni qamrab oladi. Bunday qoldiq kategoriya qonunchilikda tez-tez uchraydi va odatda asosiy guruhlarga kiritilmagan holatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, soliq huquqida bunday ochiq shakldagi kategoriyalar ehtiyotkor qo‘llanishni talab qiladi. Chunki *«boshqa daromadlar»* birikmasining chegarasi norma matnining o‘zida yetarlicha aniq belgilanmasa, uning qamrovi amaliy talqinda kengayib ketishi mumkin. Natijada iqtisodiy mazmuni turlicha bo‘lgan ayrim tushumlarni ham ushbu toifaga kiritish ehtimoli paydo bo‘ladi.

Ayniqsa, norma qo‘llanayotgan paytda daromadning manbasi, huquqiy tabiati va soliq solish obyekti bilan bog‘liq mezonlar bir xil qo‘llanmasa, talqindagi tafovutlar yuzaga kelishi mumkin.

Shu jihatdan 377-modda qoldiq kategoriya sifatida ma’lum normativ vazifani bajaradi. Biroq uning amaliy qo‘llanish chegaralari qo‘shimcha mezonlar orqali aniqroq belgilanishi ehtiyojini saqlab qoladi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Soliq kodeksining 370-377-moddalarida asosiy murakkablik terminlarning lug‘aviy ma’nosida emas. *«Daromad», «to‘lov», «moddiy naf», «kompensatsiya», «mulkiy daromad»* kabi birliklar umumiy mazmunda tushunarli hisoblanadi. Masala ko‘proq ularning norma matni ichida qanday bog‘lanishi, qaysi birlikning boshqasiga havola qilishi va buning amaliy talqinda qanday natijaga olib kelishi bilan bog‘liq.

Oddiy leksik-semantik tahlil bunday holatlarni har doim ham to‘liq ochib bera olmaydi. Chunki u asosan so‘z va termin ma’nosiga tayansa, lingvo-mantiqiy yondashuv gapning ichki qurilishi, bog‘lovchilarning ishlashi, matn ichidagi bog‘lanishlar hamda norma asosida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xulosalarni ham hisobga oladi.

Shu bilan birga, formal mantiqni huquqiy matn ustidan qat’iy hukm chiqaruvchi yagona mezon sifatida tushunish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu yerda u ko‘proq yordamchi tahlil vositasi vazifasini bajaradi. Ayniqsa, normativ matnni tahlil qilishda tabiiy tilning kontekstga bog‘liqligi, ma’no moslashuvchanligi va huquqiy maqsadi e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Shu asosda quyidagi tahlil modeli taklif qilinadi (1-jadval).

1-jadval. Normativ matnni lingvo-mantiqiy tahlil qilish bosqichlari

Bosqich	Mazmuni
Norma	Tahlil uchun qonun matnidagi muayyan birlik yoki norma olinadi
Lingvistik belgi	Bog‘lovchilar, havola qiluvchi birliklar, anaforik bog‘lanish va gap qamrovi ko‘rib chiqiladi
Mantiqiy bog‘lanish	Norma ichidagi konyunktiv, dizyunktiv yoki shartli munosabatlar tahlil qilinadi
Pragmatik talqin	Matnning kontekst asosida qanday qo‘shimcha ma’no yoki talqin hosil qilishi aniqlanadi
Huquqiy oqibat	Ushbu talqinning soliq majburiyati va norma qo‘llanishiga ta’siri baholanadi
Ekspert tavsifi	Aniqlangan noaniqlik yoki talqin bilan bog‘liq ehtimoliy muammo ehtiyotkor shaklda ifodalanadi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370-377-moddalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, huquqiy matnni o‘rganishda mantiqiy yondashuv muhim yordamchi vosita bo‘la oladi. Ayniqsa, sintaktik qamrov, ochiq kategoriyalar, inkor asosida qurilgan havolalar hamda qoldiq shakldagi normalar soliq majburiyatini talqin qilishda qo‘shimcha aniqlikni talab qiladi.

Umuman olganda, lingvo-mantiqiy yondashuv huquqiy matnni matematik mantiqqa to‘liq bo‘ysundirishni maqsad qilmaydi. U ko‘proq norma matnida til, kontekst va mantiq bir-biri bilan kesishadigan nuqtalarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noaniqliklarni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shu jihatdan bu yondashuv o‘zbek yurislingvistikasida istiqbolli tahlil yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Rezyume. Maqolada normativ-huquqiy matnlarni talqin qilishda sintaktik qamrovning o‘rni O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370–377-moddalari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda muayyan grammatik va sintaktik vositalar, bog‘lovchilar hamda havola qiluvchi birliklarning norma qamrovini o‘zgartirishi va turlicha talqinlarga imkon yaratishi ko‘rsatib berilgan. Tahlillar asosida normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini to‘liq baholashda lingvistik tavsif bilan bir qatorda lingvo-mantiqiy yondashuvning metodologik imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Resume. This article examines the role of syntactic scope in the interpretation of legal texts, using Articles 370–377 of the Tax Code of the Republic of Uzbekistan as the research material. The findings show that cer-

tain grammatical and syntactic devices may expand or restrict the scope of a legal norm and, in some cases, give rise to different interpretations. On this basis, the article discusses the possibilities of a linguo-logical approach alongside traditional linguistic description in the analysis of legal documents.

Резюме. В статье анализируется роль синтаксического охвата в толковании нормативно-правовых текстов на примере статей 370–377 Налогового кодекса Республики Узбекистан. На основе анализа положений кодекса показано, как конкретные грамматические и синтаксические средства, союзы и отсылочные конструкции могут изменять объем нормы и допускать двоякое толкование. На этом основании обсуждаются методологические возможности лингво-логического подхода в сочетании с традиционным лингвистическим описанием юридических документов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK SHEVALARIDA LEKSIK TANLOVNING YOSH OMILI: AVLODLARARO QATLAMLANISH

Normo‘minov Sherzod To‘ychiyevich,
Samarqand davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik yo‘nalishi tilni uning egasi, shaxs bilan mushtaraklikda o‘rganishni talab qiladi. Bu yondashuvda har bir so‘zlovchi o‘z nutqida ijtimoiy mansubligini, hududiy kelib chiqishini va avlodlararo tajribasini namoyon etadi. Dialektal lisoniy shaxs ana shu belgilarning yig‘indisi sifatida shakllanadi va uning tavsifi bir necha ijtimoiy o‘lchov orqali amalga oshiriladi.

Sotsiolingvistikada yosh so‘zlovchining lisoniy tanlovini belgilovchi asosiy o‘zgaruvchilardan biri sanaladi. U.Labov tadqiqotlari nutqiy variativlik yosh guruhlari bo‘yicha izchil taqsimlanishini, har bir avlod o‘z davrining til holatini saqlashini o‘z tadqiqotlarida ta'kidlagan[1]. P.Ekert esa variativlikni ijtimoiy ma'no ifodasi sifatida talqin qilib, yosh omilini guruh o‘zligi bilan bog‘lagan[2]. Bu qarashlar bir jamoaning turli avlodlari nutqini qiyoslash orqali dialektning ichki dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbek dialektologiyasida shevalar asosan an'anaviy struktura, ya'ni hududiy va tarixiy-genetik mezonlar asosida tasniflangan, leksik qatlam ko‘pincha statik holatda o‘rganilgan. So‘zlovchining yoshi leksik tanlovga qanday ta'sir qilishi alohida tadqiqot predmeti bo‘lmagan. Holbuki dala kuzatuvlari bir qishloq doirasida ham avlodlar nutqi sezilarli farqlanishini ko‘rsatadi. Ayrim leksik birliklar faqat keksalar nutqida saqlanadi, boshqalari esa yoshlar nutqida ko‘proq uchraydi. Maqolaning maqsadi Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlaridan to‘plangan dala materiallari asosida uch avlod nutqidagi leksik qatlamlarni qiyoslab, yosh omilining dialektal lisoniy shaxs tavsifidagi o‘rnini aniqlash hisoboblanadi.

Til va jamiyat munosabatlarini o‘rganuvchi sotsiolingvistika fani XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil yo‘nalish sifatida shakllandi. U.Labovning shahar aholisi nutqi bo‘yicha tadqiqotlari lisoniy variativlik tasodifiy emasligini, u so‘zlovchining ijtimoiy belgilariga muvofiq tartiblanishini ko‘rsatdi. Olim ayni bir hududda yashovchi turli avlod vakillari nutqini qiyoslab, til o‘zgarishini real vaqt kechishini kutmasdan aniqlash mumkinligini asoslagan. Bu usul keyinchalik «ko‘rinma vaqt» tamoyili nomini oldi. Turli yoshdagi so‘zlovchilar nutqi bir paytning o‘zida tilning ketma-ket bosqichlarini aks ettiradi.

Lisoniy shaxs nazariyasi til birligini uni qo‘llovchi

[1] Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – P. 178–180.
[2] Eckert P. Three Waves of Variation Study // Annual Review of Anthropology. – 2012. – Vol. 41. – P. 87–90.

subyekt orqali o‘rganadi. Y.Karaulov lisoniy shaxsning uch sathini, verbal-semantik, lingvokognitiv va motivatsion sathlarni ajratgan[1]. Yosh omili motivatsion sath bilan bevosita bog‘lanadi, chunki so‘zlovchining qadriyatlari va nutqiy odatlari uning avlodlararo tajribasidan kelib chiqadi. Tadqiqot materiali Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlarining qishloq va shahar aholisi nutqidan narrativ-biografik intervyu va ishtirokchi kuzatuv usulida to‘plandi. Informantlar uch yosh guruhiga ajratildi: keksa avlod (60 yosh va undan katta), o‘rta avlod (40–59 yosh) va yosh avlod (39 yosh va undan kichik).

Shevaning barqaror qatlamlari keksa avlod nutqida to‘liq namayon bo‘lishini dala tadqiqotlarimizda kuzatdik. Bu guruhda adabiy tilda uchramaydigan yoki juda kam qo‘llaniladigan leksik birliklar, shuningdek an’anaviy muloqotga xos qoliplashgan iboralar salmoqli o‘rin egallaydi. Quyidagi namunalar shu xususiyatni ko‘rsatadi.

[*Qoo, Rosiyadan keptima?*]. (Voy, Rossiyadan kelibdimi*?). |Inf: SM-P | 73 yosh, erkak, bog’bon |.*

Qoo undov so‘zi kutilmagan xabar eshitilganda ajablanish ma’nosini ifodalaydi. Bu birlik yosh avlod nutqida deyarli uchramaydi. Uning o‘rnini adabiy tildagi yoki o‘zlashma hissiy undovlar egallagan. Undov so‘zlarning avlodlar bo‘yicha almashinuvi nutqning emotsional qatlamida ham yosh tafovuti borligini ko‘rsatadi.

[*Bugun bormay qo‘yag‘ay, jo‘n o‘tir*]. (Bugun bormay qo‘ya qol, tinch o‘tir). |*Inf: SD-U | 77 yosh, erkak, chorvador |.*

Jo‘n o‘tir iborasi «tinch o‘tir, bezovta qilma» ma’nosini bildiradi. *Jo‘n* so‘zining bu vazifadagi qo‘llanishi keksa avlod nutqiga xos; o‘rta va yosh avlod ayni ma’noni boshqa birliklar bilan ifodalaydi. Bunday farq leksemaning avlodiy chegaralanishini ko‘rsatadi.

[*O‘tirikchi bo‘ma, tuvrisini ayt*]. (Yolg‘onchi bo‘lma, to‘g‘risini ayt). |*Inf: JZ-G‘ | 83 yosh, ayol, uy bekasi |.*

O‘tirikchi - «yolg‘onchi» ma’nosidagi dialektal birlik hisoblanadi. Bu so‘z adabiy tildagi *yolg‘onchi* leksemasi bilan sinonim sifatida muloqotdan chiqib bormoqda va asosan keksa avlod nutqida saqlanmoqda. Birlikning iste’moldan chiqib borishi adabiy til ta’sirida dialektal leksikaning torayish jarayonini aks ettiradi.

An’anaviy nutqning alohida belgilardan biri diniy-axloqiy mazmunli qoliplashgan iboralar faol va doimiy qo‘llanadi. *Ollohga shukur*, *xudo deb o‘tiribmiz*, *esanlik-tuvallik bo‘sin*, *boshing omon bo‘sin* kabi iboralar bu guruhda muntazam takrorlanadi va hol-ahvol so‘rashish, tilak bildirish, rozilik ifodalashning an’anaviy qolipini tashkil etadi. Bu iboralar shunchaki leksik birlik emas, balki keksa avlodning dunyoqarashi va muloqot odobini ifodalovchi nutqiy markerlar sanaladi. Yosh avlod nutqida bu kabi iboralar deyarli uchramaydi, ba’zan qisqargan yoki neytral shakllar bilan almashtiriladi. Keltirilgan misollar keksa avlod nutqida «yo‘qolish diskursi» yuzaga kelishini ko‘rsatadi. So‘zlovchilar ayrim birliklarni «ilgari shunday derdik» izohi bilan tilga oladi va ularning iste’moldan chiqayotganini o‘zlari ham sezadi.

O‘rta avlod nutqi keksa va yosh qatlamlar orasidagi oraliq holatni egallaydi. Bu guruh shevaning an’anaviy negizini saqlagan holda, ish faoliyati va kundalik turmush orqali kirib kelgan o‘zlashmalarni faol qo‘llaydi. Natijada ularning nutqida hududiy sheva va o‘zlashma qatlam qorishgan aralash kod yuzaga keladi. O‘zlashmalar mahalliy sheva fonetikasiga bo‘ysunib, o‘zgargan talaffuz shaklida o‘rnashadi.

[*Elektrik kep qoldi, uchorchikti tekshirib ketti*]. (Elektr inspektori kelib qoldi, elektron hisoblagichni tekshirib ketdi). |*Inf: QD-YB | 46 yosh, erkak, o‘qituvchi |.*

Bu nutqda ruscha kasb va texnika atamalari alohida o‘rin tutadi. *Elektrik (*elektr inspektori*)*, *shopir* (haydovchi), *uchorchik* (elektron hisoblagich), *duxtir* (shifokor) kabi birliklar mehnat faoliyati bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi va so‘zlovchining ish tajribasini ko‘rsatadi. Bu so‘zlar adabiy tildagi muqobillari (*haydovchi*, *shifokor*) bilan yonma-yon yashaydi, ammo kundalik muloqotda ko‘pincha o‘zlashma shakl ustun keladi.

O‘zlashmalarning bu qatlamdagi asosiy belgisi, fonetik moslashuv. *Shopir* shaklida ruscha so‘zning urg‘usiz unlisi shevaga xos talaffuzga, *duxtir* shaklida undosh birikma mahalliy artikulyatsiyaga moslashgan. *Uchorchik* esa asl so‘zning bo‘g‘in tuzilishini sheva tovush tizimiga muvofiq qayta shakllantirgan. Bunday moslashuv o‘zlashma so‘z xorijiy til birligi sifatida emas, sheva tarkibiga singgan birlik sifatida qo‘llanishini ko‘rsatadi. Keksa avlodda o‘zlashmalar nisbatan kam, yosh avlodda esa ularning o‘rnini zamonaviy jargon egallay boshlaydi. Shu jihatdan o‘rta avlod nutqi dialektal leksikaning o‘tish bosqichini namoyish etadi.

Yosh avlod nutqi shevaning eng harakatchan qatlamini tashkil etadi. Bu guruh arxaik birliklardan uzoqlashib, zamonaviy ijtimoiy muhit, ta’lim va raqamli muloqot ta’sirida yangi leksik birliklarni faol yaratadi va o‘zlashtiradi. Ularning nutqida jargon, sleng va metaforik ko‘chish asosida yasalgan birliklar ustunlik qiladi.

[*Bu prikol-ku, vauu, chotki bo‘pti*]. (Bu qiziq-ku, voy, ajoyib bo‘libdi). |*Inf: SM-S | 19 yosh, erkak, talaba |.*

[1] Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – С. 36–38.

Yosh avlod jargonining bir qismi kundalik so‘zlarga yangi ma’no yuklash orqali shakllanadi. *Muzlatmoq* fe’li dastlabki «sovutib qotirmoq» ma’nosidan «biror ishni vaqtincha to‘xtatish» ma’nosiga ko‘chgan. Bunday birliklar guruh ichida tez tarqaladi va yosh avlod muloqotining belgisiga aylanadi.

Bu qatlamning o‘zlashmalari ikki manbadan oziqlanadi. Birinchi guruh rus va xalqaro so‘zlashuv nutqidan kirgan: *prikol* («qiziq, kulgili holat»), *chotki* («ajoyib, zo‘r»), *vauu* (hayrat undovi) hissiy baho va munosabat ifodalaydi. Ikkinchi guruh inglizcha birliklar va shaklning faollashuvi bilan bog‘liq: *trend* («ommalashgan yo‘nalish») to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashma bo‘lsa, *yorivoreyshin* o‘zbekcha *yorib yubormoq* iborasini inglizcha so‘zga o‘xshatib talaffuz qilish orqali yasalgan til o‘yinidir. Bu birlik chet so‘zni emas, ona til negizini chet til qolipiga solib, yumoristik ta’sir yaratadi.

Avlodlar kesimida o‘zlashma manbalarining taqsimlanishi muayyan tarixiy va ijtimoiy omillarning ta’sirini aks ettiradi. Keksa avlod diniy-axloqiy iboralarni, o‘rta avlod ruscha kasb atamalarini saqlagan bo‘lsa, yosh avlod so‘zlashuv va ijtimoiy tarmoqlar birliklarini o‘zlashtiradi. *Krutoy* va *chotki* kabi baho birliklarining tez tarqalishi yoshlar nutqi avlodlararo uzatish orqali emas, guruhlararo va hududlararo aloqada shakllanishini ko‘rsatadi. Yangi ma’nolar ko‘pincha jismoniy harakat yoki holatdan ijtimoiy bahoga ko‘chish yo‘li bilan hosil bo‘ladi. Bu jarayon dialektal leksikaning yangilanish qobiliyatini, ayni paytda yosh avlodning til ijodkorligini ko‘rsatadi.

Uch yosh guruhi nutqidan olingan materiallar leksik tanlovning izchil farqlanishini ko‘rsatadi. Quyidagi jadval bu farqlarni umumlashtiradi.

1-jadval. **Avlodlar bo‘yicha leksik qatlamlanish**

Avlod guruhi	Ustun leksik qatlam	Tipik birliklar	Ijtimoiy-psixologik asos	Dialektal bosqich
Keksa avlod (60+)	Arxaik leksika, qoliplashgan marker	*qoo, jo‘n o‘tir, o‘tirikchi, ollohga shukur*	An’anaviy dunyoqarash, muloqot odobi	Saqlanish
O‘rta avlod (40–59)	Aralash kod, moslashgan o‘zlashma	*elektrik, shopir, duxtir, uchorchik*	Mehnat tajribasi, ijtimoiy faollik	O‘tish
Yosh avlod (39−)	Jargon, sleng, til o‘yini	*muzlatmoq, prikol, chotki, yorivoreyshin*	Guruh o‘zligi, raqamli muloqot, til ijodkorligi	Yangilanish

Jadvaldan ko‘rinadiki, yosh ulg‘ayishi bilan leksik tanlov innovatsion qatlamdan barqaror qatlamga qarab siljiydi. Har bir avlod nutqi muayan davrning lisoniy manzarasini o‘zida mujassamlashtiradi. Keksa avlod nutqi shevaning o‘tmish holatini, yosh avlod nutqi uning hozirgi yo‘nalishini aks ettiradi. Shu sababli bir jamoaning uch avlodi sinxron holatda dialektning uch ketma-ket bosqichini namoyish etadi. Bu kuzatuv U.Labov asoslagan «ko‘rinma vaqt» tamoyilining o‘zbek dialektal materialidagi tasdig‘idir[1].

O‘zbek shevalarida leksik tanlov so‘zlovchining yoshiga muvofiq izchil farqlanadi. Keksa avlod nutqida arxaik leksika va qoliplashgan-axloqiy marker, o‘rta avlodda aralash kod va moslashgan o‘zlashmalar, yosh avlodda jargon hamda metaforik yangilanish ustunlik qiladi. Tahlil yosh omilini dialektal lisoniy shaxs tavsifining mustaqil o‘lchovi sifatida belgilash mumkinligini ko‘rsatdi. Bir jamoaning uch avlodi nutqini qiyoslash shevaning ichki dinamikasini, qaysi birliklar yo‘qolayotgani, qaysilari endi paydo bo‘layotganini aniqlash imkonini beradi. Avlodlararo qatlamlanish dialektal leksikaning statik tizim emas, doimiy yangilanuvchi jarayon ekanini dalillaydi. Olingan natijalar «til va shaxs mushtarakligi» prinsipining yosh omilidagi ifodasini ochib beradi. So‘zlovchining lisoniy tanlovi uning qaysi avlodga mansubligini bevosita aks ettiradi.

Rezyume. Maqolada o‘zbek shevalarida leksik tanlovni belgilovchi yosh omili sotsiolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan to‘plangan dala materiallari uch yosh guruhi nutqida o‘zaro farqli leksik qatlamlarni ko‘rsatadi: keksa avlodda arxaik leksika va formulaik iboralar, o‘rta avlodda aralash kod, yosh avlodda jargon hamda metaforik yangilanish ustunlik qiladi. Tadqiqot bir jamoaning uch avlodi sinxron holatda dialektning uch tarixiy bosqichini namoyish etishini asoslaydi va yosh omilini dialektal lisoniy shaxs tavsifining mustaqil o‘lchovi sifatida belgilaydi.

[1] Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – 344 P.

Resume. The article analyses the age factor determining lexical choice in Uzbek dialects from a sociolinguistic perspective. Field materials from the Samarkand, Jizzakh, Kashkadarya and Surxandarya regions reveal distinct lexical strata in the speech of three age groups: archaic vocabulary and formulaic expressions in the older generation, mixed code in the middle generation, and jargon with metaphorical renewal in the younger generation. The study demonstrates that three generations of a single community synchronically represent three historical stages of the dialect, establishing the age factor as an independent parameter for describing the dialectal linguistic personality.

Резюме. В статье анализируется возрастной фактор, определяющий лексический выбор в узбекских говорах, с социолингвистической точки зрения. Полевые материалы из Самаркандской, Джизакской, Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей выявляют различные лексические пласты в речи трёх возрастных групп: архаичная лексика и формульные выражения у старшего поколения, смешанный код у среднего, жаргон и метафорическое обновление у молодого. Исследование обосновывает, что три поколения одного сообщества синхронно представляют три исторических этапа развития говора, что позволяет определить возрастной фактор как самостоятельный параметр описания диалектной языковой личности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

OKSYUMORONNING SINTAKTIK-STILISTIK VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

(Shavkat Rahmon she'riyati misolida)

Saminov Abdumalik Inomjonovich,
Farg'ona davlat unversiteti
tilshunoslik kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Insonning nutqiy faoliyati barcha ijtimoiy sohalarda lisoniy vositalarni tanlash va qo'llash imkoniyatlarining rang-barangligi bilan xarakterlanadi. Umumxalq tili doirasida mavjud bo'lgan leksik, grammatik va sintaktik vositalarning muayyan maqsadlar asosida tanlanilishi nutqda xilma-xil funksional uslublarning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Nutqning shakllanishida ishtirok etadigan leksik vositalarining o'zaro birikishi, eng avvalo, muayyan sintaktik qonun-qoidalarga bo'ysungan holda yuzga chiqadi. Biroq, til jonli va harakatdagi sistema sifatida faqatgina qotib qolgan qat'iy qoliplardan iborat emas. Bu haqida X.Abdurahmonov va N.Mahmudov kabi mashhur tilshunos olimlar «So'z estetikasi» asarida ta'kidlab o'tganidek, «So'zlarni to'g'ri qo'llash uchun ularning konkret ma'nolarinigina bilishning o'zi yetarli emas»[1]. Badiiy matnda muallif nutqining induvidualligi eng yuqori darajaga ko'tariladi. Ijodkor o'z nutqi orqali kitobxon ruhiyatiga yanada kuchliroq ta'sir ko'rsatish, nutqning o'ziga xos emotsional-ekspressiv bo'yog'ini oshirish uchun so'zlarning o'z leksik ma'nosidan boshqa, tubdan farq qiluvchi ko'chma ma'nolarda qo'llash hamda sintaktik jihatdan esa anomal, g'ayriodatiy konstruksiyalar tuzish uchun imkoniyatlarini to'lalaigicha qo'llaydi.

Badiiy uslubda adresant va adresat o'rtasidagi o'ziga xos estetik muloqotni ta'minlovchi, an'anaviy man-

[1] Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.

tiqiy qoliplardan chekinish orqali o‘zgacha semantika, o‘zining fikrini o‘quvchiga yangicha yetkazish usulini yaratuvchi sintaktik-stilistik vositalardan foydalanadi. Bunday sintaktik-stilistik vositalardan biri **oksyumorondir**. Bu haqida Aristotel asarida va boshqa manbalarda keltirilishicha, «Oksyumoron» termini dastlab «grekcha – oxymoron» sifatida Maurus Servius Honoratusda (taxminan eramizdan avvalgi 400 yilda) keltirilgan[1], Oksyumoron yunon tildan tarjima qilinganda, «aqlli ahmoq», «zakiy nodon» degan ma’nolarni anglatadi. Oksyumoron so‘zining struktur-semantik mohiyatiga nazar solinadigan bo‘lsa, ushbu leksemaning o‘zi ham bu hodisaga lisoniy dalil bo‘la oladi, chunki oksyumoron yunoncha «oxsús, ózus – o‘tkir, keskin, uchli (ijobiy ma’nodagi leksema)», «moros – zerikarli, ahmoq (salbiy ma’nodagi leksema)»[2] leksik ma’noli so‘zlarning birikishidan yuzaga chiqqan.

Demak, oksyumoron (yunoncha *oxymoron* – «aqllilik bilan aytilgan ahmoqona gap, zakiy nodon») – mantiqan bir-birini inkor etuvchi, zid tushunchalarni ifodalovchi tushuncha hamda so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘lgan sintaktik konstruksiyadir. Shunday ekan, oksyumoronning lisoniy tabiati, sintaktik aloqa imkoniyatlari va ularning lingvopoetik funksiyalarini badiiy matnda to‘laligicha namoyon qiladi.

O‘zbek tilshunosligida g‘ayriodatiy birikmalar, shuningdek, aynan oksyumoron hodisasi bir qator olimlar tomonidan badiiy nutqning ekspressiv imkoniyatlarini ta’minlovchi muhim uslubiy vosita sifatida tadqiq etilgan. Xususan, X.Abdurahmonov va N.Mahmudovlarning «So‘z estetikasi» asarida g‘ayriodatiy birikmalar badiiy tafakkurning mahsuli sifatida talqin qilinadi. Ushbu mualliflarning ta’kidlashicha, badiiy asar ijodkori voqelikning bevosita mohiyatini emas, balki uning estetik jihatdan mukammal ifodasini yaratishga intiladi. Shu maqsadda tilning yangi imkoniyatlarini izlaydi va o‘zaro bog‘lanishi «taqiqlangan» so‘zlarni biriktirish orqali ekspressivlik, emotsionallik hamda o‘ziga xos ma’no nozikliklarini yuzaga chiqaradi. Bunday birliklar shartli ravishda g‘ayriodatiy birikmalar deb nomlanadi[3].

Tadqiqotchilar g‘ayriodatiy birikmalarning tarixiylik tabiatiga ham e’tibor qaratadilar. Ularning fikricha, bunday birliklar dastlab yangilik va noodatiylik belgilarini saqlagan holda yuqori ekspressivlik kasb etadi. Biroq vaqt o‘tishi bilan ular xalq tilida faol qo‘llanib, odatiy birikmalarga aylanishi va dastlabki obrazlilik xususiyatini qisman yo‘qotishi mumkin. Masalan, *qattiq gap, shirin uyqu, shirin xotira, achchiq tashvish* kabi birikmalar bugungi kunda til egalari tomonidan tabiiy qabul qilinadi[4].

Shu bilan birga «So‘z estetikasi» asarida ma’nolari o‘zaro zid bo‘lgan leksemalarning birikishi natijasida yuzaga keladigan yuqori darajadagi ekspressiv birliklar ham alohida ko‘rib chiqilib, ular oksyumoron sifatida baholanadi[5]. Demak, mazkur yondashuvda oksyumoron g‘ayriodatiy birikmalarning maxsus ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. Mualliflar g‘ayriodatiy birikmalarda kuzatiladigan semantik mavhumlashishi va nomoddiylashuv jarayonlari natijasida yuzaga keladigan ekspressiv-emotsional ta’sirning ko‘pincha individual-uslubiy xarakter kasb etishini ham ta’kidlaydilar[6].

A.Nurmonov oksyumoronning shakllanishida leksemalar o‘rtasidagi semantik muvofiqlik masalasiga alohida urg‘u beradi. Olimning fikricha, sintagmatik munosabatga kirishayotgan birliklar o‘rtasida semik uyg‘unlik, muvofiqlik bo‘lmasa, noodatiy bog‘lanish yuzaga keladi va bu hodisa oksyumoron sifatida namoyon bo‘ladi. Olim oksyumoronlarni adib individual nutqining mahsuli, obrazlilik va ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida baholab, *shirin o‘lim, yashil sabo, qizil qor, yalpizga suyanmoq, kiprikka o‘tirmoq* kabi misollarni keltiradi[7]. Ushbu yondashuvda oksyumoron tushunchasi keng talqin qilinib, semantik jihatdan mos kelmaydigan birliklarning birikishi asosiy mezon sifatida belgilanadi.

M.Yo‘ldoshev esa oksyumoron hodisasining terminologik va nazariy talqinlariga e’tibor qaratadi. Olimning qayd etishicha, adabiyotlarda bu hodisa «okkazional birikmalar», «noodatiy birikmalar» yoki «g‘ayriodatiy birikmalar» nomlari bilan ham yuritiladi[8]. Tadqiqotchi oksyumoronni mazmunan bir-birini inkor etuvchi tushunchalarning birikishi sifatida izohlaydi va uni antitezaning bir ko‘rinishi deb baholaydi. *Sokin hayqiriq, otashin muz, yong‘inli daryo, oppoq tun, so‘zsiz suhbat* kabi misollar ushbu hodisaning badiiy-estetik imkoniyatlarini namoyon etadi[9]. Shu bilan birga, olim istalgan qarama-qarshi ma’noli so‘zlarning oddiy birikishi oksyumoron hosil qilmasligini, bunday birliklar yozuvchining badiiy tafakkuri mahsuli ekanligini alohida ta’kidlaydi.

---

[1] https://books.google.co.uz/books?id=F5UDDgAAQBAJ&pg=PA143&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false

[2] https://en.wikipedia.org/wiki/Oxymoron#cite_note-4: “oxymoron |accessdate 26 February 2013”. Oxford English Dictionary.

[3] Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.

[4] Абдураҳмонов Ш. Ўзбек бадиий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар: Фил.фан.ном. дисс. Автореф. – Тошкент, 1997. – 23 б

[5] Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.

[6] Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.

[7] Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли 3-жилд, – Тошкент: Академнашр, 2012. – 156 б

[8] Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2009. – 313 б.

[9] Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2009. – 313 б.

Tilshunos olim S.Karimov ham oksyumoronni antitezaning bir ko‘rinishi sifatida talqin qiladi[1]. Biroq antiteza va oksyumoron o‘rtasidagi umumiylik faqat kontrastlik tamoyiliga asoslanadi. Antitezada qarama-qarshilik ko‘proq sintaktik va kompozitsion sathda namoyon bo‘lsa, oksyumoronda mazkur zidlik sintaktik jihatdangina ko‘rinadi.

Sh.Abdurahmonov oksyumoron hodisasiga matn lingvistikasi nuqtayi nazaridan yondashadi. Uning fikricha, oksyumoron matn birliklarida ifodalangan axborotlarning mazmunan bir-birini inkor etishi natijasida yuzaga keladi[2]. Ushbu yondashuv oksyumoronning nafaqat so‘z birikmasi doirasida, balki gaplar va yirik matn birliklari o‘rtasidagi semantik qarama-qarshilik asosida ham shakllanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

M.Qurbonova va M.Yo‘ldoshevlar oksyumoronga, avvalo, estetik hodisa sifatida yondashish zarurligini ta’kidlaydilar[3]. Ularning fikricha, oksyumoronning mohiyati mantiqiy nomuvofiqlikda emas, balki badiiy-estetik ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiluvchi uslubiy imkoniyatlarda namoyon bo‘ladi. Xuddi shunday qarashlar H.Do‘smatov va N.Bazarbayeva tadqiqotlarida ham uchraydi. Ular oksyumoronni inson ruhiy olamidagi murakkab va ziddiyatli holatlarning badiiy ifodasi sifatida baholab, uning ekspressivlik va emotsionallikni kuchaytiruvchi estetik vosita ekanligini qayd etadilar.

Shunday qilib, o‘zbek tilshunosligida oksyumoron va g‘ayriodatiy birikmalar masalasi turli nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilgan bo‘lsa-da, aksariyat tadqiqotchilar ularni badiiy nutqning obrazlilik, ekspressivlik va estetik ta’sirchanligini ta’minlovchi muhim uslubiy vositalardan biri sifatida e’tirof etadilar.

Demak, oksyumoron usulining yuzaga chiqishida mantiqsizlikka asoslanganlik uning yetakchi nazariy asosi hisoblanadi. Lingvistik nuqtayi nazardan, bu hodisa so‘zlarning valentlik (birikuvchanlik) imkoniyatlarini ataylab kengaytirish orqali yuzaga keladi. Oddiy normal nutqda komponentlar orasida semantik muvofiqlik talab etilsa, badiiy uslubda aynan semantik nomuvofiqlik fikr ifodalashning asosiy quroliga aylanadi.

Oksyumoron ijodkorning an’anaviy lisoniy dalillar va tasvir vositalaridan zerikishi hamda tilda yangi shakl orqali yangicha mazmun bayon qilishga intilishidan tug‘iladi. Masalan, tilda tez-tez takrorlanib, siyqasi chiqqan tavtologik takrorlar (bir fikrni o‘xshash so‘zlar bilan ortiqcha takrorlash) o‘quvchida estetik zerikish uyg‘otishi mumkin. Oksyumoron birikmalar (*qayg‘uli shodlik, qora chaqmoq, jodugar navo*) esa nutq birligiga e’tiborni darhol tortadi, chunki ular inson miyasidagi tayyor mantiqiy zanjirni «buzib», uni tahlil qilishga va matn ostida joylashgan o‘ziga xos ma’nosini qidirishga majbur qiladi.

Oksyumoron yaratishda muallif o‘quvchining ushbu zidlik ortiga yashiringan majoziy ma’noni tushunib yeta olish layoqati va kognitiv salohiyatini oldindan hisobga oladi. Shu bois, ushbu vosita lingvopoetikaning eng intellektual figuralaridan biri sanaladi. Ushbu maqolada she’riyatida qo‘llanilgan dalillar asosida uning sintaktik-semantik hamda lingvopoetik qirralarini ko‘rsatishni maqsad qilganmiz.

Tadqiqot materiali sifatida Shavkat Rahmon she’riy to‘plamlaridan ajratib olingan konseptual g‘ayriodatiy sintaktik birikmalar va ularning matn ichidagi valentlik (birikuvchanlik) imkoniyatlari asos qilib olindi.

Yuqoridagi fikrlar hamda badiiy matn tahlili shuni ko‘rsatadiki, oksyumoron shunchaki ikki so‘zning tasodifiy birikuvi emas, balki chuqur o‘ylangan estetik va lisoniy hodisadir. Masalan, Shavkat Rahmon she’riyatida mantiqiy nomutanosiblikka asoslangan quyidagi sintaktik qurilmalarni kuzatishimiz mumkin:

Tongda ot yetaklab o‘tib borar kim,
***Qop-qora olovday** lovillar yollar.*

Ushbu misrada keltirilgan «**qop-qora olov»** birikmasi o‘ziga xos oksyumorondir. Tabiatda olov yorug‘lik va issiqlik manbai bo‘lib, vizual jihatdan qizil-sariq, sariq yoki olovrang semalariga ega. «Qora» leksemasi esa uning aksidir. Shoir ushbu zidlikni bitta sintaktik qurilmaga birlashtirish orqali tasvirning ichki kuchlanishini va dramatizmini mislsiz darajada oshirgan.

Yana bir yorqin namuna:

Eng baxtiyor lahzalarda ham
*Uning **sokin isyoni** so‘nmas.*

Sintaktik jihatdan tobe va hokim so‘z munosabatida shakllangan **«sokin isyon»** birikmasi o‘z ichiga chuqur lingvopoetik va badiiy mazmunni qamrab oladi.

«Sokinlik» – tinchlik, harakatsizlik semasini anglatsa;

«Isyon» – portlash, to‘polon, keskin harakat komponentlaridan iborat.

Ushbu ikki ters holat oddiy mantiqda bir qozonda qaynamaydi. Biroq, shoir shaxsiyati va u yaratgan lirik qahramon ruhiyatida bu ikki tushuncha uyg‘unlashib, yangicha semantik modallik kasb etadi. Oksyumoron-

[1] Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 1994. – 292 б.

[2] Абдураҳмонов Ш. Ўзбек бадиий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар: Фил.фан.ном. дисс. Автореф. – Тошкент, 1997. – 23 б

[3] Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2009. – 313 б.

ning she’riy matndagi asosiy turlari va funksiyalarini tizimli ravishda quyidagi jadval orqali ko‘rsatish mumkin:

Oksyumoristik birikmalarning semantik-funksional tasnifi

T/r	Oksyumoron	Komponent qismlarining semantik zidligi	Lingvopoetik funksiyasi / Estetik maqsad
1.	*Sokin isyon*	Tinchlik (harakatsizlik) // o‘ziga xos portlash, shovqin (harakat)	Lirik qahramonning ichki ruhiy muvozanati va to‘xtovsiz kurashini ifodalash.
2.	*Sukunat shivirlar*	Mutloq jimlik // ovozli, shovqinli nutq harakati	Tabiat obyektlariga jonlantirish orqali sirli muhit yaratish.
3.	*Qop-qora olov*	Qorong‘ulik/harorat // zulmat/ shaffoflik	Tasvirning vizual ta’sirchanligini, ekspressivligini favqulodda oshirish.
4.	*Soqov qichqiriq*	Ovozsizlik, tovushsizlik //Maksimal yuqori balandlikdagi ovoz	Inson ichki dunyosidagi iztirob, dard va chorasizlikning eng yuqori nuqtasini ko‘rsatish.

Shoirning yana bir she’riy parchasida oksyumoronning predikativ muvofiqlashuv asosida kelishi ham kuzatiladi:

Odam uxlayapti, Uyg‘otmang uni!
Sukunat shivirlar quloqlariga...

Bu yerda «**sukunat shivirlar»** sintaktik birligi subyekt va predikat munosabatidadir. Sukunat har qanday tovushning yo‘qligini anglatsa, shivirlash ma’lum bir chastotadagi dinamik ovozli harakatdir. Muallif an’anaviy ifoda usullaridan qochgan holda, o‘zining ideostiliga xos bo‘lgan konstruksiyalar asosida yangi g‘ayriodatiy semantik holat yaratgan.

O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Oksyumoron – shunchaki mantiqiy xato emas, balki badiiy matnda individuallik va ta’sirchanlikni ta’minlovchi tizimli sintaktik-stilistik vositadir. Shavkat Rahmon she’riyatida oksyumoronlar lirik qahramonning murakkab ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari va tabiat hodisalarining noodatiy holatlarini chizishda asosiy stilistik figura vazifasini o‘tagan. Oksyumoron an’anaviy lisoniy qoliplarni va tavtologik bir xillikni bartaraf etib, o‘zbek tilining leksik-sintaktik birikuvchanlik imkoniyatlarini yanada oshiradi, shuningdek, uni naqadar keng ekanligini isbotlaydi.

Rezyume. Ushbu maqolada oksyumoronning o‘ziga xos tomonlari hamda ularning lingvopoetik xususiyatlari, so‘zlovchining maqsadini yoritishdagi muhim roli haqida fikrlar yoritilgan.

Резюме. В данной статье рассматриваются специфические аспекты оксюморонов, их лингвопоэтические свойства и важная роль в прояснении намерений говорящего.

Resume. This article discusses the specific aspects of oxymorons, their linguopoetic properties, and their important role in clarifying the speaker’s intent.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

AXLOQIY-HISSIY KONSEPTLAR: SOF HISSIY VA SOF AXLOQIY KONSEPTLARDAN FARQLANISH MEZONLARI

Fayziyeva Aziza Anvarovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda hissiy konseptlar tadqiqi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylangan. Z.Kövecses hissiy konseptlarning konseptual metafora va metonimiyalar orqali tuzilishini ko'rsatib, ularning katta qismi inson tanasidagi fiziologik jarayonlarga asoslangan universal asosga ega ekanligini ta'kidlaydi[1]. A.Vyerjbitska esa, aksincha, hissiyotlarni ifodalovchi leksemalar tildan tilga to'g'ridan to'g'ri o'tkazib bo'lmaydigan madaniy ssenariylar bilan bog'liqligini, inglizcha hissiyot nomlarini universal tahlil tili sifatida qabul qilish metodologik xato ekanligini yozadi[2].

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida «uyat», «nomus», «hayo» va «andisha» kabi axloqiy-hissiy tushunchalar doirasida qator lingvomadaniy va pragmatik izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, G.N. Xolmurodova «uyat» leksik-semantik maydonining asosiy birliklarini ingliz tilidagi «shame» tushunchasi bilan qiyosiy-etimologik jihatdan tahlil qilib, o'zbek tilidagi «uyat» asosan jamoaviy madaniyat, ingliz tilidagi «shame» esa ko'proq individualizm bilan bog'liqligini asoslab berdi[3]. M. Maxmudova esa «uyat» konseptining o'zbek maqol va iboralaridagi obrazli, tushunchaviy hamda qadriyat bilan bog'liq jihatlarini deontik va emotsional yondashuvlar doirasida tadqiq etdi[4].

Shuningdek, ushbu axloqiy konseptlarning ijtimoiy-pragmatik xususiyatlari ham olimlar diqqat markazida bo'ldi. G. Yo'ldosheva «or-nomus» konseptini nutqiy aktlar nazariyasi, ya'ni lokutsion, illokutsion va perlokutsion aktlar doirasida o'rganib, uning ijtimoiy axloqiy me'yorlarni targ'ib qilishdagi rolini ochib berdi[5]. O. Sirojiddinova o'zbek frazeologik birliklarida «hayo» konseptining lingvomadaniy ifodalanishini tahlil qilib, uni insonning ichki axloqiy nazorati va milliy mentalitetning uzviy belgisi sifatida e'tirof etdi[6].

Biroq, ana shu chuqur o'rganishlarning beqiyos ahamiyatiga qaramay, mazkur leksemalarning sof hissiyot va ijtimoiy-axloqiy me'yor kesishuvida joylashgan «oraliq» freym strukturasi aniq farqlovchi mezonlar, xususan, norma sloti, kuzatuvchi sloti, o'z-o'zini baholash va fiziologik korrelyat asosida hozirga qadar qiyosiy-tipologik modellashtirilmagan. Zamonaviy ilmiy adabiyotda uyat, nomus, hayo va andisha kabi konseptlar odatda alohida tahlil qilinib, ularni yagona freym tizimida o'zaro bog'lab, qiyosiy aspektda modellashga qaratilgan tadqiqotlar hozircha yetarlicha emas.

Biroq ana shu boy an'anada bir kategoriya, hissiyot va axloq kesishuvida joylashgan oraliq konseptlar, tilshunoslik nuqtayi nazaridan yetarlicha chegaralanmagan. O'zbek tilidagi *uyat, nomus, hayo, andisha*, ingliz tilidagi *shame, guilt, remorse* kabi birliklar bir tomondan boshdan kechiriluvchi his sifatida, ikkinchi tomondan ijtimoiy-axloqiy me'yor bilan uzviy bog'liq qadriyat sifatida konseptuallashadi. Mazkur maqolaning maqsadi ana shu axloqiy-hissiy konseptlarni sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlovchi mezonlarni freym slotlari darajasida ishlab chiqish va ularni ingliz hamda o'zbek tillari materialida sinab ko'rishdir.

[1] Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

[2] Wierzbicka A. Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

[3] Xolmurodova G.N. «Uyat» leksik-semantik maydonining asosiy leksik birliklari qiyosiy tahlili: etimologik va semantik asoslar // The Lingua Spectrum. – 2025. – Vol. 3. – B. 214-218.

[4] Makhmudova M. O'zbek frazeologizmlarida «uyat» konseptining ifodalanishi // In Science: Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. – 2024. – № 2(4). – B. 196-201.

[5] Yuldasheva G. «Or-nomus» konsepti orqali tilning ijtimoiy va axloqiy funksiyasini tadqiq etish // O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari. – Toshkent, 2025. – № 1/9. – B. 314-316.

[6] Sirojiddinova O. O'zbek frazeologik birliklarida «hayo» konsepti // O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari. – Toshkent, 2026. – № 2. – B. 332-333.

Axloqiy hissiyotlar kategoriyasi dastlab psixologiyada asoslangan. J.Haydt axloqiy hissiyotlarni jamiyat yoki boshqa shaxslar manfaati bilan bog‘langan hissiyotlar sifatida ta’riflab, ularning ikki belgisini ajratadi: qo‘zg‘atuvchining shaxsiy manfaatdan xoliligi va ijtimoiy foydali harakatga undovchi tendensiya[1]. J.Tangniy va R.Diring *shame* va *guilt* konseptlarini chuqur qiyoslab, birinchisida baho subyektning yaxlit «men»iga, ikkinchisida muayyan xatti-harakatga qaratilishini ko‘rsatgan[2]. J.Treysi va R.Robins ushbu hissiyotlarni o‘z-o‘zini anglovchi hissiyotlar (self-conscious emotions) sifatida modellashtirib, ular uchun subyektning o‘zi haqidagi tasavvurlari va o‘z-o‘zini baholash jarayoni zarurligini, bunday hissiyotlar ontogenezda kechroq shakllanishini va bazaviy hissiyotlardagi kabi universal mimik ifodaga ega emasligini asoslaydi[3]. J.Tangniy va hammualliflari esa axloqiy hissiyotlarni axloqiy standartlar bilan real xulq o‘rtasidagi bog‘lovchi mexanizm deb baholaydi[4]. Ushbu psixologik xulosalar tilshunoslik uchun tayyor mezon bera olmaydi, ammo ular lingvistik mezonlar quriladigan konseptual asosni ta’minlaydi: agar axloqiy-hissiy konseptlar psixologik jihatdan alohida sinf bo‘lsa, bu o‘ziga xoslik tilda – leksik birliklarning freym tuzilishida, birikuvchanligida va frazeologiyasida – iz qoldirishi lozim.

Tadqiqotning lingvistik instrumenti sifatida Ch. Fillmorning freym semantikasi tanlandi. Unga ko‘ra, so‘z ma’nosi alohida olingan belgilar yig‘indisi emas, balki muayyan tajriba sxemasi – freym fonida tushuniladi: bir leksemani anglash uchun butun freymni, undagi ishtirokchilar va slotlarni faollashtirish talab etiladi[5]. Demak, konseptlar turkumini farqlash vazifasini freym slotlari darajasiga ko‘chirish mumkin: ikki konsept bir kategoriyaga mansubligi yoki mansub emasligi ularning freymlarida qaysi slotlar majburiy, qaysilari fakultativ ekanligi bilan tekshiriladi. Ushbu yondashuv mavjud adabiyotdagi taassurotga asoslangan farqlashlardan («uyat his-tuyg‘u, adolat esa tushuncha») tekshiriluvchi, takrorlanuvchi tahlil protseduralariga o‘tish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatli (kvalitativ) xarakterga ega. Material sifatida O‘zbek tilining izohli lug‘ati[6] va Sh.Rahmatullayevning izohli frazeologik lug‘atidagi[7] tegishli lug‘aviy maqolalar, ingliz tilining nufuzli izohli lug‘atlari hamda badiiy matnlardan olingan illyustrativ misollar xizmat qildi. Qiyos uch turdagi konseptlar o‘rtasida o‘tkazildi: sof hissiy konseptlar (*qo‘rquv / fear, quvonch / joy*), sof axloqiy konseptlar (*adolat / justice, burch / duty*) va farazimizga ko‘ra oraliq mavqega ega axloqiy-hissiy konseptlar (*uyat, nomus, hayo, andisha; shame, guilt*). Har bir konsept to‘rt mezon bo‘yicha tekshirildi.

Birinchi mezon – norma sloti. Axloqiy-hissiy konsept freymida ijtimoiy-axloqiy me’yor majburiy element hisoblanadi: *uyat* holati norma buzilishisiz konseptuallasha olmaydi, shuning uchun tilda u norma mazmunli ifodalar bilan erkin birikadi (*bunday qilish uyat; uyat emasmi?*). Sof hissiy konseptda norma sloti fakultativ: *qo‘rquv* uchun xavf stimulining o‘zi yetarli, hech qanday me’yor talab etilmaydi. Sof axloqiy konseptda esa norma markaziy o‘rin tutadi, biroq u boshdan kechiriluvchi holat slotisiz mavjud: *adolat* his qilinmaydi, balki o‘rnatiladi, talab qilinadi, buziladi.

Ikkinchi mezon – kuzatuvchi sloti, ya’ni freymda real yoki tasavvurdagi «ijtimoiy ko‘z»ning mavjudligi. O‘zbek lingvomadaniyatida bu slot *el nima deydi, odamlar oldida, el-yurt oldida* kabi turg‘un ifodalarda yorqin verballashadi va *uyat* freymining yadrosiga kiradi. Inglizcha *shame* freymida ham kuzatuvchi sloti faol bo‘lib, u ichki – internallashgan kuzatuvchi ko‘rinishida ham to‘ldirilishi mumkin. *Guilt* freymida esa bu slot kuchsizlangan: subyekt hech kim bilmagan xatti-harakati uchun ham *guilt* his qilishi tabiiy konseptuallashadi[8]. Ayni shu farq mezonning ichki differensiyalovchi quvvatini ko‘rsatadi: u nafaqat kategoriyani tashqi sinflardan ajratadi, balki kategoriya ichidagi tiplarni ham farqlaydi.

Uchinchi mezon – o‘z-o‘zini baholash sloti. J.Treysi va R.Robins modeliga muvofiq, o‘z-o‘zini anglovchi hissiyotlar subyektning o‘zini yoki o‘z xatti-harakatini muayyan standart asosida baholashini taqozo etadi[9]. Tilda bu slot baho semantikali konstruktsiyalarda

[1] Haidt J. The moral emotions // Davidson R.J., Scherer K.R., Goldsmith H.H. (eds.). Handbook of Affective Sciences. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – P. 852–870.

[2] Tangney J.P., Dearing R.L. Shame and Guilt. – New York: Guilford Press, 2002.

[3] Tracy J.L., Robins R.W. Putting the self into self-conscious emotions: A theoretical model // Psychological Inquiry. – 2004. – Vol. 15. – No. 2. – P. 103–125.

[4] Tangney J.P., Stuewig J., Mashek D.J. Moral emotions and moral behavior // Annual Review of Psychology. – 2007. – Vol. 58. – P. 345–372.

[5] Fillmore Ch.J. Frame semantics // The Linguistic Society of Korea (ed.). Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – P. 111–137.

[6] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik / A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

[7] O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn] : lug‘at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.

[8] Tangney J.P., Dearing R.L. Shame and Guilt. – New York: Guilford Press, 2002.

[9] Tracy J.L., Robins R.W. Putting the self into self-conscious emotions: A theoretical model // Psychological Inquiry. – 2004. – Vol. 15. – No. 2. – P. 103–125.

namoyon bo‘ladi: *o‘zidan uyaldi, qilgan ishidan or qildi*. Sof hissiy konseptlarda baho yo‘nalishi tashqariga qaratilgan (*ilondan qo‘rqdi* – baho xavf manbasiga beriladi), sof axloqiy konseptlarda esa baho shaxsdan tashqari obyektlarga – harakat, qaror, institutga – berilishi mumkin (*adolatli hukm, adolatsiz jamiyat*).

To‘rtinchi mezon – fiziologik-xulqiy korrelyat va uning tildagi metonimik ifodasi. Z.Kövecses ko‘rsatganidek, hissiy konseptlarning til ifodasida fiziologik reaksiyalar metonimiya manbasi bo‘lib xizmat qiladi[1]. Axloqiy-hissiy konseptlar uchun bunday korrelyatlar yuz qizarishi, bosh egish, ko‘z olib qochishdir; ular tilda *yuzi qizardi, yerga qaradi, boshini egdi* kabi freym ko‘rsatkichlarini hosil qiladi, bu esa konseptni atovchi leksema qatnashmagan kontekstlarda ham uni identifikatsiya qilish imkonini beradi. Sof axloqiy konseptlarda bunday korrelyat mavjud emas: *burch* yoki *adolat*ning tana belgisi yo‘q. Mezonlar tizimini umumlashtirgan holda quyidagi jadvalda berish mumkin (1-jadval):

Mezon (freym sloti)	Sof hissiy konsept qo‘rquv / fear	Sof axloqiy konsept adolat / duty	Axloqiy-hissiy konsept uyat / shame, guilt
Norma sloti (ijtimoiy-axloqiy me’yorning freymda majburiyligi)	– fakultativ: xavf stimulining o‘zi yetarli	+ markaziy element	+ majburiy: norma buzilishi sabab slotini to‘ldiradi
Kuzatuvchi sloti (real yoki tasavvurdagi «ijtimoiy ko‘z»)	–	–	+ / ± uyat, shame tipida kuchli; guilt tipida kuchsiz
O‘z-o‘zini baholash sloti (subyektning o‘zini norma asosida baholashi)	– baho tashqi obyektga – xavfga qaratiladi	– baho harakat, holat yoki institutga beriladi	+ majburiy
Fiziologik-xulqiy korrelyat (tana belgisi va uning til metonimiyasi)	+ titroq, yurak urishi	–	+ yuz qizarishi, bosh egish, ko‘z olib qochish
Boshdan kechiriluvchi his sifatida konseptuallashuvi («his qilmoq» bilan birikuvi)	+	–	+

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, axloqiy-hissiy konseptlar har ikki qo‘shni sinfning belgilarini o‘zida birlashtiradi, ammo ularning hech biriga to‘liq singib ketmaydi: ular sof hissiy konseptlardan norma va o‘z-o‘zini baholash slotlarining majburiyligi bilan, sof axloqiy konseptlardan esa boshdan kechiriluvchi holat va fiziologik korrelyatning mavjudligi bilan farqlanadi. Shu o‘rinda mezonlarning chegaralovchi quvvatini inglizcha *embarrassment* misolida tekshirish o‘rinli: bu konseptda kuzatuvchi sloti va fiziologik korrelyat faol, ammo norma sloti kuchsiz – noqulay vaziyat axloqiy me’yor buzilishini talab etmaydi. Demak, *embarrassment* kategoriyaning periferiyasida joylashadi, bu esa kategoriya prototipik tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi: *uyat* va *shame* yadroviy, *embarrassment* chekka a’zo sifatida talqin etiladi.

Ishlab chiqilgan mezonlar o‘zbek tilidagi axloqiy-hissiy konseptlar guruhining ichki tabaqalanishini ham ochib beradi. To‘rt leksema bir freymning to‘rt xil profilini beradi: ular norma, kuzatuvchi va o‘z-o‘zini baholash slotlariga birdek ega, biroq vaqt o‘qi va subyekt sloti bo‘yicha mehnat taqsimotiga kirishadi (2-jadval):

Leksema	Freymdagi dominant slot	Til ko‘rsatkichlari (lug‘aviy va frazeologik diagnostika)
uyat	reaktiv: norma buzilgandan keyingi holat; kuzatuvchi sloti faol	*uyatga qolmoq, uyat qilmoq, el oldida uyalmoq; yuzi qizardi, yerga qaradi*
hayo	dispozitsional: shaxs fazilati sifatidagi preventiv to‘siq	*hayoli, hayosiz, hayo pardasi; baho sifatlovchi sifatida shaxsga beriladi*
andisha	prospektiv-deliberativ: harakatdan oldin oqibat va boshqalar idrokini o‘ylash	*andisha qilmoq, andishali, andishaning oti qo‘rqoq emas; aqliy jarayon fe’llari bilan birikadi*
nomus	kollektiv-qadriyat: subyekt sloti oila, urug‘, jamoaga kengayadi	*nomusi bor, nomusini saqlamoq, nomusga tegmoq; egalik va himoya konstruksiyalari*

[1] Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

Bunday tabaqalanish ingliz tilida boshqa o‘q bo‘ylab kechadi: *shame – guilt* juftligi reaktivlik-dispozitsionallik bo‘yicha emas, balki baho obyekti (yaxlit «men» yoki muayyan xatti-harakat) va kuzatuvchi slotining faolligi bo‘yicha qarama-qarshi qo‘yiladi[1]. Ikki til tizimidagi ana shu assimetriya – o‘zbek tilida temporal-subyektiv, ingliz tilida baho-obyektiv tabaqalanish – A.Vyerjbitska ogohlantirgan muammoni[2] yaqqol namoyon etadi: *uyat*ni *shame* bilan, *nomus*-ni *honour* bilan oddiy ekvivalent sifatida tenglashtirish konseptlarning freym tuzilishidagi jiddiy farqlarni yashiradi. Bu kuzatish mazkur tadqiqotning istiqbolli davomini belgilaydi: axloqiy-hissiy konseptlarning badiiy tarjimada qayta konseptuallashuvi alohida tadqiq etilishi lozim bo‘lgan masaladir.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy-hissiy konseptlar sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanuvchi alohida kategoriyani tashkil etadi va bu farq freym slotlari darajasida obyektiv tekshiriluvchi to‘rt mezon, ya’ni norma slotining majburiyligi, kuzatuvchi slotining mavjudligi, o‘z-o‘zini baholash sloti va fiziologik-xulqiy korrelyat orqali aniqlanadi. Mezonlar tizimi, bir tomondan, kategoriyani tashqi sinflardan chegaralaydi, ikkinchi tomondan, uning ichki – prototipik va tillararo nosimmetrik – tuzilishini ochib beradi. O‘zbek tilida ushbu kategoriya to‘rt leksemali mukammal tabaqalangan tizim sifatida namoyon bo‘lishi uning milliy lingvomadaniyatda alohida salmoqqa ega ekanligidan dalolat beradi va keyingi bosqichda har bir konseptning freym-semantik tuzilishini badiiy matn materialida monografik tahlil etishni taqozo qiladi.

Rezyume. Ushbu maqolada axloqiy-hissiy konseptlarning sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari freym semantikasi asosida ishlab chiqilgan. Norma sloti, kuzatuvchi sloti, o‘z-o‘zini baholash sloti va fiziologik-xulqiy korrelyatdan iborat to‘rt mezon ingliz va o‘zbek tillari materialida sinab ko‘rilib, o‘zbek tilidagi *uyat, nomus, hayo, andisha* leksemalarining ichki tabaqalanishi hamda ikki til tizimidagi nosimmetriya ko‘rsatilgan.

Resume. This article develops frame-semantic criteria for distinguishing moral-emotional concepts from purely emotional and purely moral concepts. Four criteria – the obligatoriness of the norm slot, the presence of the observer slot, the self-evaluation slot, and the physiological-behavioural correlate – are tested on English and Uzbek material, revealing the internal differentiation of the Uzbek lexemes *uyat, nomus, hayo, andisha* and the asymmetry between the two language systems.

Резюме. В данной статье на основе фреймовой семантики разработаны критерии разграничения морально-эмоциональных концептов от чисто эмоциональных и чисто моральных концептов. Четыре критерия – облигаторность слота нормы, наличие слота наблюдателя, слот самооценки и физиолого-поведенческий коррелят – апробированы на материале английского и узбекского языков; показаны внутренняя дифференциация узбекских лексем *uyat, nomus, hayo, andisha* и асимметрия двух языковых систем.

[1] Tangney J.P., Dearing R.L. Shame and Guilt. – New York: Guilford Press, 2002.

[2] Wierzbicka A. Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«MAONIY AN-NAHV» KITOBIDA «NA’TI MAQTU’» (UZILGAN SIFAT) HODISASI

Abdullayev Davronbek Dilmurod o‘g‘li,
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi o‘qituvchisi

Arab tili grammatikasi (nahv) tizimida sifat (na’t) o‘zidan oldingi ismga (man’utga) e’rob jihatidan to‘liq ergashishi (itbo‘) qat’iy qoida hisoblanadi. Biroq, mumtoz arab tilida e’tibor qaratishga loyiq bo‘lgan qiziq bir hodisa mavjud bo‘lib, bu «qirqish» yoki «uzish» (القطع) deb ataladi. Bunda sifatlanmish marfu’ (bosh kelishik) bo‘lsa, uning sifati mansub (tushum kelishigi) da kelishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin. Hozirgi nutq uslublaridan deyarli yo‘qolib ketgan ushbu hodisa aslida tilning ulkan balog‘ati va ta’sirchanligini namoyish etadi. Ushbu maqolaning maqsadi na’ti maqtu’ hodisasining grammatik qoidalari va mohiyatini tahlil qilishdir.

Tadqiqot manbasi sifatida arab nahvshunosligi va balog‘at ilmining mumtoz asarlari xizmat qildi. Xususan, Sibavayhning «Al-Kitob», Ibn Hishomning «At-Tasrih», Forisiyning «Mu’tarak ul-aqron», shuningdek, «Sharh ar-Roziy ala al-Kafiya», «Sharh Qatr an-Nado», «Al-Komil» va Qur’oni Karim tafsiriga oid «Al-Kashshof» kabi asarlardagi na’ti maqtu’ga oid qoidalar va misollar (oyat va she’rlar) material qilib olindi.

Ishda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy va semantik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Mumtoz grammatik asarlarda keltirilgan qoidalar umumlashtirilib, e’rob o‘zgarishlarining (raf’dan nasbga yoki majrurdan raf’ga o‘tish) gapning umumiy ma’nosiga va pragmatik maqsadiga qay darajada ta’sir qilishi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qirqish (uzish) uslubi faqatgina odatiy ergashish bilan ado etib bo‘lmaydigan nozik ma’noni beradi. E’robning kutilmaganda o‘zgarishi tinglovchi diqqatini tortuvchi «qizil chiroq» vazifasini o‘taydi. Natijalarga ko‘ra quyidagi asosiy xulosalar olindi:

1) Uzish faqatgina sifatlanuvchi shaxs aynan shu sifat bilan hammaning og‘ziga tushgan, hammaga ma’lum bo‘lgandagina qo‘llaniladi. Agar sifat shunchaki ismni ajratish (tamyiz) uchun bo‘lsa, uzish qat’iyan man etiladi.

2) Nasb holatida uzish «men ko‘zda tutyapman, maqtayapman, yomonlayapman» kabi fe’llar yashiringanini (أعني, أمدح, أذم) bildiradi.

3) Raf’ holatida uzish «U» (هو) olmoshi yashiringanini bildirib, ismiy jumla shaklida xususiyatning barqarorroq va doimiy ekanligini ifodalaydi.

4) Bog‘lovchilar (atflar) orasida qirqish ham ma’lum bir amalning (masalan, sabr yoki namozning) boshqa amallardan afzalligini ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

Taniqli olim Fozil Samirroiyning «Ma’oniy an-nahv» asarida keltirilgan «Na’ti maqtu’» (Uzilgan sifat) hodisasi va uning sintaktik-semantik xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi[1]. Muallifning e’tirof etishicha, arab tilida e’tibor qaratishga loyiq bo‘lgan qiziq bir hodisa mavjudki, bu «(القطع)» (qirqish, uzish) hodisasidir. Asar tahlili orqali ma’lum bo‘ladiki, bu uslub bilan na’t (sifat) ning e’rob (kelishik shakli) da sifatlanmishga (man’utga) mos kelmasligi va undan farq qilishi nazarda tutiladi. Qachonki sifatlanmish marfu’ (bosh kelishikda) bo‘lsa, uning sifati mansub (tushum kelishigida) bo‘lishi mumkin. Shuningdek, man’ut nasbda bo‘lib, sifati raf’da kelishi, yoxud man’ut majrur (qaratqich/jo‘nalish kelishigi) da bo‘lib, uning sifati raf’ yoki nasbda kelishi ruxsat etiladi. Masalan: «(مررت بمحمدٍ وأكرميُ الكريمِ)» (Karamli Muhammadning oldidan o‘tdim / الكريمِ َمي ُ yoki الكريمَ tarzida o‘qib). Sifatda bunday qirqish juda ko‘p yuz beradi va u atf (bog‘lovchi) da ham uchrashi mumkin. Bunga Fozil Samirroiy Baqara surasining 177-oyatini va Niso surasining 162-oyatlarini misol qilib, marfu’ (raf’dagi ism)ga nisbatan nasb holati bilan bog‘lanish (atf) qilinganini ko‘rsatib beradi. Garchi bu kabi hodisa hozirgi nutq uslublaridan allaqachon yo‘qolib ketgan bo‘lsa-da, u til taraqqiyotida kuchli ifoda vositasi bo‘lgan.

«Ma’oniy an-nahv» asari tahlilidan kelib chiqadiki, qirqish (القطع) faqatgina odatiy ergashish (الإتباع) bilan ado etib bo‘lmaydigan nozik ma’noni berish uchun qo‘llaniladi. U tinglovchining diqqatini darhol uzilgan sifatga qaratadi va uni hushyor torttiradi. Odatiy ergashishda esa bunday xususiyat yo‘q, chunki na’tning asli qoidasi o‘zidan oldingi ismga ergashishdir.

[1] as-Sāmarrāʾī, Fāḍil Ṣāliḥ. Maʿānī an-Naḥw. ʿAmmān: Dār al-Fikr, 1420 h. / 2000 m. 4/193–199.

Muallifning ta’kidlashicha, agar siz ular o‘rtasidagi kelishikni ataylab farqli qilsangiz, aqlni ogohlantirasiz va uni g‘ayrioddiy bir narsa tomon harakatlantirasiz. Bu holat xuddi yo‘ldagi e’lonlar taxtasi yoki qizil chiroqqa o‘xshaydiki, u butun diqqatni tortib, nima sababdan bu yerga o‘rnatilganini o‘ylab ko‘rishga majbur qiladi. Bu uslub tinglovchini hushyor qilishga qaratilgan bo‘lib, u mavsufning mazkur xususiyat bilan xarakterlanishi diqqatni tortmay qolmaydigan eng yuqori nuqtaga yetganiga dalolat qiladi.

Fozil Samirroiy o‘z tahlilida turli klassik manbalarni umumlashtiradi. «Xoshiyatu Yasin ala at-Tasrih»dagi Sa’dning fikrlariga ko‘ra, e’robning farq qilishi va odatiy yo‘ldan burilishi san’atida (iftinon) tinglovchi uchun ko‘proq ogohlantirish, uni uyg‘otish, va eshitishga bo‘lgan ishtiyoqini junbushga keltirish xususiyati bor[1]. Ayniqsa, fe’l yoki mubtadoni tushirib qoldirish yuz berganda bu narsa yanada oshadi, chunki bu muayyan ishga eng katta e’tibor berish dalilidir. «Irshad al-aql as-salim» asaridagi Abu Alining izohlariga tayanib aytiladiki, muayyan ma’no uzra yo‘naltirilgan gapning birdan o‘zgarishi gapiruvchi tarafidan yuzaga chiqqan mutlaqo yangi muhim e’tiborni ko‘rsatadi. «Mu’tarak ul-aqron»da Forisiy aytganidek, madh yoki zam o‘rnida ketma-ket sifatlar kelsa, ularning kelishiklarini turlicha qilish eng chiroyli uslubdir, chunki kelishiklar bir xil qolaversa faqat bitta monoton tur saqlanib qoladi. Farra ta’kidlaganidek, arablar go‘yoki nasb qilingan sifatni so‘zning avvaliga mutlaqo aloqasi yo‘q bo‘lgan, ergashtirilmagan yangi madh sifatida ajratib chiqarishni iroda qiladilar.

Asar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qirqish (uzish) sodir etilganda, bu tinglovchi sifatlanuvchining shu xususiyatga egaligini huddi gapiruvchining o‘zi singari juda yaxshi bilishini e’tiborga olish demakdir. «(القطع)» na’ti maqtu’ – sifatlangan shaxs aynan shu sifat bilan hammaning og‘ziga tushganiga asoslanadi, shu sabab bu gap bilan unga yangilik bildirilmaydi. Masalan, «(مررت بهم الكريمِ)» deb (e’robni ergashtirib) aytilganda maqsad faqatgina uni boshqalardan farqlab olish bo‘lsa, uni uzib aytganda bu shaxs qanday ekani hammaga ma’lum ekanligini iddao qilish bo‘ladi, bu esa eng kuchli madh hisoblanadi. Alloh taolo Masad surasida: «{حمالة الحطبِ امرأته}» deb aytganida ham sifat nasb bo‘lib keldi, chunki U ayolni barcha biladigan sifatda keltirdi, qolaversa buni mubolag‘a siyg‘asi orqali zammiga aylantirib, qirqish yordamida bu xunuk ishning hech kimga sir emasligini ma’lum qildi.

Fozil Samirroiy shuningdek, uzishning qat’iy cheklovlarini ham sanab o‘tadi[2]. Agar sifat faqat nomni oydinlashtirish va sifatlanmishni boshqalardan ajratib turish (tamyiz) uchun xizmat qilsa, uni qat’iyan qirqib bo‘lmaydi. «Zero ehtiyoj/zarurat bor joyda qirqish mumkin emas». Ibn Molik va «At-Tasrih» asarlariga muvofiq, «(مررت بهم الرجالَ الكرامَ)» kabi gaplarda mavsufni ajratish uchun uchala na’t orqali ajratilmagunicha ajrim yuz bermasa, hammasida e’rob (kelishik) da ergashish shart bo‘ladi. Lekin faqat ulardan ba’zisi orqaligina bu narsa ta’minlansa, qolgan ehtiyojsiz sifatlarida uchala ehtimoliy ish ham joizdir. Agar man’ut nakira bo‘lsa, uning birinchi na’tida ergashish majburiy, ma’rifa esa bundan mustasno bo‘lib, matbu’dan qirqilishiga ruxsat etiladi.

«Ma’oniy an-nahv» asarida ta’kidlanishicha, «Sharh ar-Roziy ala al-Kafiya», «At-Tasrih», «Sharh Qatr an-Nado» va «Al-Komil» asarlari yakdil xulosa qiladiki, uzishning ruxsat etilishi na’tning mutlaqo ta’kid uchun bo‘lmasligi hamda tinglovchining bu xislatdan xabardor bo‘lishi bilan shart qilinadi[3]. Sibavayhning «Al-Kitob» asarida ham aytilganidek, bu o‘rindagi nasb go‘yoki fe’l borligi taxminida qilinadi: «Ahlini esla» yoki «Qo‘poruvchilarni esla»[4]. Ular bu narsani faqatgina faxr va iftixor manbai qilib olganlar, yoki aksincha, tinglovchilarga ayon bo‘lgan haqiqat bilan ularni fosh etish maqsadida so‘kish o‘rnida qo‘llaganlar. «Sharhi As-Siyrofiy» buni yana ikki omilga bog‘laydi: ehtirom etilayotgan zot aynan ta’zimga munosib kishi bo‘lishi va tinglovchilar orasida juda mashhur bo‘lishi.

Muallif o‘z tahlilida e’rob o‘zgarishlaridagi nozik farqlarga e’tibor qaratadi. Raf’ (bosh kelishik) ga qarab qirqish anchayin pishiq, mustahkam va keng tarqalgan uslubdir. Chunki nasbdagi uzilish odatda fe’liy jumlalarga tobe bo‘ladi (ya’ni, «Men buyukni e’tibor qilyapman»), raf’da esa u to‘g‘ridan to‘g‘ri ismga («U» azimdir) ma’nosiga ega bo‘lib, ism fe’ldan ko‘ra qat’iyatliroq va umri uzoqroqdir. Bog‘lovchilar (atflar) orasida qirqishning berilishi ham bejiz emas. «Al-Kashshof» va «Sharhi Shuzur az-Zahab» da kelganidek, sabr qiluvchilar yoki namozni ado etuvchilarning boshqa o‘rinlarda nasb holida kelishi — bu sifatlarning boshqa amallardan ustun ekanligi hamda qat’iy bajarilishi afzalligini bayon etish uchundir. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Fozil Samirroiy o‘zining «Ma’oniy an-nahv» asarida bu qoidaning tilshunoslikda mubolag‘a va balog‘atning ajralmas qismi ekanligini mukammal tahlil qilib bergan.

Xulosa qilib aytganda, «Na’ti maqtu’» (uzilgan sifat) arab tilining naqadar boy va moslashuvchan

[1] Ḥāshiyat Yās ʿalā at-Taṣrīḥ (2/117): Ḥāshiyah ʿalā Sharḥ at-Taṣrīḥ li-sh-Shaykh Yās ibn Zayn ad-Dīn al-ʿAlīmī al-Ḥimṣī. Ṭubiʿat maʿa Sharḥ at-Taṣrīḥ.

[2] as-Sāmarrāʾī, Fāḍil Ṣāliḥ. Maʿānī an-Naḥw. ʿAmmān: Dār al-Fikr, 1420 h. / 2000 m. 4/193–199.

[3] as-Sāmarrāʾī, Fāḍil Ṣāliḥ. Maʿānī an-Naḥw. ʿAmmān: Dār al-Fikr, 1420 h. / 2000 m. 4/193–199.

[4] Kitāb Sībawayh (1/248–250 va 1/252): Kitāb Sībawayh, muṣawwar ʿalā Ṭabʿat Būlāq. Nashr Maktabat al-Muthannā bi-Baghdād.

ekanligini ko‘rsatuvchi muhim sintaktik-uslubiy vosit-adir. Bu hodisa shunchaki grammatik qoidabuzarlik emas, balki so‘zlovchining tinglovchi ruhiyatiga ta’-sir o‘tkazish, mudroqlikdan uyg‘otish hamda madh yoki zamni eng yuqori balog‘at cho‘qqisida yetkazish san’atidir. Bu uslubning o‘rganilishi Qur’on oyatlari va mumtoz arab adabiyotidagi yashirin ma’nolarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Rezyume. Ushbu maqola arab tili grammatikasidagi o‘ziga xos va noyob sintaktik hodisalardan biri – «na’ti maqtu’» (uzilgan sifat) mavzusiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda sifat va sifatlanmish o‘rtasidagi e’rob (kel-ishik) moslashuvining ataylab buzilishi, ya’ni qirqish (القطع) hodisasining lingvistik va uslubiy maqsadlari tahlil qilinadi. Maqolada bu uslubning tinglovchi diqqatini jalb qilish, kuchli madh yoki zam (yomonlash) ma’nolarini ifodalashdagi balog‘at xususiyatlari yoritib berilgan.

Resume. This article is devoted to one of the distinctive and unique syntactic phenomena of Arabic grammar, namely naʿt al-maqṭūʿ (detached adjective). The study analyzes the deliberate disruption of the case agreement between the adjective and the noun it modifies, a phenomenon known as qaṭʿ (detachment), and examines its linguistic and stylistic functions. The article highlights the rhetorical features of this construction in attracting the listener’s attention and in conveying strong meanings of praise or blame.

Резюме. Данная статья посвящена одному из своеобразных и уникальных синтаксических явлений арабской грамматики — на‘т аль-макту‘ (отделённое определение). В исследовании анализируется преднамеренное нарушение падежного согласования между определением и определяемым словом, известное как явление аль-кат‘ («отсечение», «разрыв»), а также рассматриваются его лингвистические и стилистические функции. В статье раскрываются риторические особенности данного приёма, связанные с привлечением внимания слушателя и выражением усиленных значений похвалы или порицания.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ONA TILI BOYLIGI – MADANIY NUTQNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITA

Babaxanova Dilarom Axmatxanovna,
Namangan davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

O'zbek tilida emotsional-ekspressivlikni hosil qilishda metafora, metonimiya, sinekdoxa kuchli uslubiy vositalardandir. Undan o'rinli foydalanish mazmunni kuchaytiradi, nutqning ta'sirini orttiradi, nutqqa jo'shqinlik baxsh etadi. O'zbek tilida so'zni ko'chma ma'noda qo'llash orqali ham emotsiohal-ekspressivlik hosil qilish mumkin. So'zlovchi fikr ifodalash jarayonida narsa va hodisalarning turli xususiyat va belgilarini bo'rttirish, tinglovchida yanada aniqroq, ta'sirliroq tushuncha hosil qilish, shu bilan unda emotsional tuyg'u uyg'otish maqsadida so'zni ko'chma ma'noda qo'llaydi. Bunda predmet, jonivor va hodisalarga xos bo'lgan xususiyat-belginiing isondagi shunga o'xshash belgi –xususiyatga, harakatga qiyoslaydi. Shunday qilib, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z uslubiy bo'yoq oladi va tinglovchida fikr obyekti haqida aniq tasavvur hosil qiladi. Masalan: toshyurak, «Lola»da ovqatlandik kabi.

O'zbek tilshunosligida tilning tasviriy vositalariga oid bir qator ilmiy ishlar yaratilgan, maqolalar yozilgan. Bu borada doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari ham himoya qilingan. Jumladan, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev[1], I.Qo'chqortoyev[2], M. Mukarramov[3], A.Shomaqsudov[4] va boshqalarning ilmiy maqolalari, monografiya va risolalari nutqning ifodali va ta'sirli bo'lishida tasviriy vositalarning o'rni masalasi tahlil qilingan.

Mazkur maqolada diaxron tahlil, qiyosiy tahlil, semantik tahlil, stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Metafora (gr.metafora) narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zni ko'chma ma'noda ishlatishdir. O'zbek tiliga oid barcha manbalarda polisemantik so'zlar ham metafora usuli bilan ko'chish deb talqin qilinadi.[5] Lekin polisemantik so'zlarda ma'no ko'chishi sezilmas holga kelib qolgan bo'ladi va ularning har biri nominatsiya vazifasini bajaradi. Shu sababli ularni metaforalar sirasiga qo'shish to'g'ri emas. Metafora ma'lum so'zning nutqda gap tarkibida boshqa ma'no uchun vaqtincha xizmat qilishidir! Olmos qilich dastimda (Asqad Muxtor), O'zbekiston oq oltin diyori (Gazetadan).

Kumush choyshab yopib dala, qir
Qor qo'ynida uxlab yotadi.
Ufqlarga qizil xol tashlab
Zar soch tarab quyosh botadi. (Uyg'un).

Metaforalar nutqni obrazli qiladi, kishida emotsiya, estetik zavq uyg'otadi, obraz yaratishga xizmat qiladi, ona tilimizning inson faoliyati tabiat hodisalarining eng nozik nuqtalarigacha bo'lgan barcha tomonini nafis ifoda eta olishga qodir bo'lgan rango-rang serjilo vositalari mavjudligini ong-shuurimizda ravshan namoyon etadi.

Metonimiya (gr. metonumia) narsa va hodisalarni boshqa nom bilan atash demakdir. Metonimiyada mantiqan o'zaro bog'langan ikki so'zdan birining vazifasi ikkinchisiga yuklanadi, so'zning ko'chma ma'nosi esa tushunchalar o'rtasidagi munosabatga asoslanadi. Masalan: Navoiyni o'qidim, zal kuladi. «Nargiz»da ovqatlandim (Og'zaki nutqdan) kabi.

Metonimiya badiiy tasvir vositalaridan bo'lib, so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarda keng qo'llanadi, nutqiy ixchamlik, fikriy lo'ndalik, musiqiylik, tasviriy kuchachaytirish uchun xizmat qiladi, poeziyada asarga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Misollar: bir stakan ichdim (suv), bir kosani tushirdim (ovqat), «G'ayrat»da tushaman (bekat), Navoiyni o'qidim (to'plam, bayoz), paxtazorda zangori kema suzadi, shahar oyoqqa turdi, zal jim bo'ldi kabilar.

Sinekdoxa (gr.sinekdoha) metaforaning bir turi bo'lib, predmetning miqdori tushunchasi bilan bog'liq. So'zlovchi o'z nutqining ta'sirini kuchaytirish, fikrni bo'rttirish, tinglovchida fikr obyektiga nisbatan kuchli munosabat tug'dirish maqsadida butun o'rnida qism yoki aksincha, ko'plik o'rnida birlik yoki ak-

[1] Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: O'qituvchi, 1992. – B. 160.
[2] Qo'chqortoyev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. – T.: Fan, 1977. – B. 167.
[3] Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. – T.: Fan, 1984. – B. 160.
[4] Shomaqsudov A. O'zbek tili stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1983. – B. 248.
[5] Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T.: Fan.1983. – B. 88.

sincha ma’no anglatuvchi so‘z yoki shaklni qo‘llaydi. Masalan: tirnoqqa zor, tuyoq oldim. Boshda gul undirdi. Uyda kim bor? (hovlida deyilmoqchi?) Ey, mard dehqon, bugun hosiling taqdiri hal bo‘layotir (Gazetadan).

Ko‘rinadiki, sinekdoxa kuchli uslubiy vositadir. Undan o‘rinli foydalanish mazmunni kuchaytiradi, nutqning ta’sirini orttiradi, nutqqa jo‘shqinlik baxsh etadi.

Emotsional-ekspressiv leksika nutq vazifaviy uslublarining shakllanishida ta’sir etadi hamda nutqda ta’sirchanlikni yuzaga keltiradi.

1. Umumiste’moldagi odam, uy, daraxt, yaxshi, oq, qora, men, sen, yur, ber kabi so‘zlar uslubiy neytral so‘zlar bo‘lib, barcha nutq uslublarida ishlatilaveradi.

2. Bir qator so‘zlar leksik – semantik jihatdan ayrim olinganda ham yo salbiy, yo ijobiy jilo bera oladi: chehra, jamol, ruxsor – ijobiy; bet, aft, bashara, turq – salbiy; bosh – neytral, kalla – salbiy kabi[1].

Bundan tashqari, ayrim so‘zlar guruhi badiiy uslubga xos bo‘lsa, (sabo, oraz, chehra, jamol, qalb, tabassum, tamanno, tasanno kabi), ayrimlari ko‘tarinkilikni ifodalaydi va tantanali nutqqa xos bo‘ladi. (navqiron, istiqbol, mag‘rur, muqaddas, muhtasham, muazzam, azim, ajabtovur, hayratomuz, kabi).

Salbiy munosabat bildiruvchi so‘zlar qatoriga siyosiy publitsistikada ishlatiladigan qora guruh, iblis devori, irqchilar, bosqinchilar, soxtalashtiruvchilar kabi so‘z va iboralar ham kiradi. Ularni nutqda qo‘llash orqali xalq, vatan dushmanlariga, bosqinchi to‘da va boshqalarga g‘azab, nafrat hissi kuchaytiriladi.

Evfemizmlar (yunoncha euphemismos eu – yaxshi, phemi-gapiraman) yumshoq, yoqimli, madaniy so‘z – iboralardir. Ular, ko‘pincha, aytish noqulay bo‘lgan so‘z (iboralar) o‘rnida qo‘llanadi va bu bilan fikr obyektiga ham, tinglovchiga ham hurmat-ehtirom ifoda etiladi: ikkiqat // og‘ir oyoq // yukli, tug‘di // ko‘z yordi; kar // qulog‘i og‘ir, ko‘r // ko‘zi ojiz, semiz // to‘laroq, erim, xotinim // turmush o‘rtog‘im, duduq // chuchuk til kabi.

Evfemizmlar nutqni go‘zal, ifodani ravon, vaziyatni qulay, tinglovchini shod qiladi, kishining madaniyat darajasini ko‘rsatadi.

Tabular ham evfemizmning bir turidir. Tabular insonlarning yovuz kuchlar haqidagi afsonaviy latifa to‘qimalari, shuningdek o‘rinsiz vahimalari tufayli yuzaga kelgan. Masalan, «bo‘ri**» o‘rnida qashqir, «qizamiq» o‘rnida gul; «chayon» o‘rnida eshak, otiyo‘q deb ishlatilishi kabi.**

Ijobiy munosabat ifodalovchi so‘zlar ham, ma’no e’tibori bilan evfemizmlarga yaqin turadi. Gap tarkibida ularning bo‘yog‘i aynan bo‘lmasa ham, bir xil sinonimdir, lekin farqi shundaki, evfemik so‘z bir nomni boshqa nom bilan ataydi.

Kakofemizmlar vulgar so‘zlarning bir turidir.Lekin ular frazeologik ibora ekanligi bilan ajralib turadi.

Frazeologizmlar ma’lum bir so‘zning nominativ ma’nosini uslubiy – ekspressiv bo‘yoq, salbiy yoki ijobiy munosabat, ko‘tarinki ruh, mag‘rurlik yoki achinish ottenkalari bilan ifodalaydi. Ular uslubiy – ekspressivlik jihatdan sinonimlar bilan bir qatorda, tasviriy – obrazlilik jihatdan ulardan ustun turadi.

Frazeologizmlar barcha nutq uslublariga uchraydi. Masalan, o‘qqa tutmoq kabilar harbiy sohaga, haqing ketmaydi, qo‘ling dard ko‘rmasin, misi chiqdi, tuyog‘ini shiqillatdi, loy bo‘ldi, paytavasi chiqdi, o‘mbaloq oshdi kabilar so‘zlashuv uslubiga; qo‘l ko‘tarmoq, ovozga qo‘ymoq, qo‘l qo‘ymoq, imzo chekmoq kabilar rasmiy nutqqa xosdir.

Frazeologizmlarda ham sinonimiya, antonimiya hodisalari mavjud: tepa sochi tikka bo‘ldi – osmonga sachradi, og‘zi qulog‘ida – boshi osmonga yetgan, hafsalasi pir bo‘ldi – tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi, boshi g‘ovladi – miyasi vang‘ bo‘ldi (sinonimiya), to‘g‘ri yo‘lga soldi – yo‘ldan ozdirdi, tepa sochi tikka bo‘ldi – boshi osmonga yetdi, dili ochildi – ta’bi xira bo‘ldi, oralaridan qil o‘tmaydi – oralaridan mushuk o‘tgan (antonimiya).

Ko‘p ma’nolilik frazeologizmlarda ham uchraydi: ovozi o‘chdi: 1) jim bo‘ldi (gapirmadi), 2) kelmay qo‘ydi, 3) harakatdan to‘xtadi kabi.

Frazeologizmlar nutqni ifodali qiladi, fikrni obrazli va bo‘rttirib ifoda etadi, obrazlar xarakterini chizishda, tinglovchiga salbiy yoki ijobiy ta’sir etishda, nutq ta’sirchanligini oshirishda, nutq obyektini muayyan paytdagi ahamiyatini ta’kidlashda so‘zlovchiga keng imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun ham badiiy nutqda, xalq og‘zaki ijodida, jonli so‘zlashuvda ulardan keng foydalaniladi.

Obrazlilik darajasi jihatdan ham sinonimik frazeologizmlar farq qiladi: boshiga yetmoq – boshini yemoq, og‘zi qulog‘ida – boshi osmonga yetdi kabilarning keyingisida ma’no kuchliroq, obrazliroqdir.

Frazeologizmlar ixchamlik va lo‘ndalik uchun ham xizmat qiladi. Bir frazeologik butunlik ifodalagan mazmunni boshqa hech bir ibora, gap bilan berish mumkin emas. Biroq rasmiy ish uslubida qo‘llanuvchi ayrim frazeologik butunliklar nominativ vazifa bajarishi monosemantik xarakterga ega bo‘lgani sababli, ularning sinonimini qo‘llash – «tarjima» qilish mumkin: imzo chekmoq – imzolamoq, qo‘l ko‘tarmoq – tasdiqlamoq // rozi bo‘lmoq kabi. Bunday frazeologik birikmalarda uslubiy bo‘yoq bo‘lmaydi, yoki bo‘lsa

[1] No‘monov T., Babaxonova D., Saidova M. Maqol va hikmatlar ona tilimiz dur-u javohirlaridir. – Namangan: 2003. – B. 140.

ham juda kuchsiz.

Hazil-mutoyibalar metafora va metonimiyalarga o‘xshaydi va maxsus leksik vositasi yo‘q: istalgan so‘z, ibora, gap nutq sharoitiga ko‘ra hazil uchun xizmat qilishi mumkin.

Ma’lumki, kulgi uzoq umr, vaqtichog‘lik, salomatlik va mehnat unumdorligi garovidir. Shuning uchun xalqimiz uzoq o‘tmishdan hazil va askiyaga ahamiyat berib kelgan. Qayerda askiya, nafis hazil bo‘lsa, o‘sha yerda kulgu, xursandchilik, ruhiy tetiklik, jismoniy bardamlik, dillarning ravshanligi, ishning unumi, og‘irlikning yengillashuvi va ulkan ishga ishtiyoq, g‘alabaga ishonch bor. Shuning uchun bo‘lsa kerakkim, qayerda, qaysi kasb orasiga kirmang, jozibador askiyalar, ko‘ngilochar hazil – mutoyibalarni eshitmay qolmaymiz.

Ulug‘ kishilar, rahbar xodimlarning hazili g‘oyat katta tarbiya-ta’sir kuchiga ega.

Hazil-mutoyibalar yumoristik hamda chandish shaklida bo‘lishi mumkin. Bu turlar badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodida ham mavjud.

Har qanday hazil uslubiy rangdorlik, ekspressiya bilan bog‘liq bo‘lgan biror maqsad (samimiylik, vaziyatni yumshatish, yengil tanqid, yengil kulgi va boshqalar) ni nazarda tutadi. Masalan: Muxbir janoblari, bu savolga siz javob bering! (Umumiy kulgu, chapaklar, (Izzat Sulton.) Zuhraning so‘zini Marasul tanqid va kulgini nazarda tutib takrorlaydi: Tulki xotinsiz! (Abdulla.Qahhor.)

«O‘rtoqlik hazillari», «Yangi yil hazillari» va boshqalar ham kishida zavq-shavq uyg‘otadi, ayrim zafarlarga chorlaydi, so‘zlovchining xolis orzu-istagini ifoda etadi.

Hayotda shundayki, ayrim kishilar oddiy munosabatlarda ham maqol, matal va hikmatli so‘zlardan, ayrimlari esa she’rlardan, ayrimlari tantanavor so‘zlardan ko‘p foydalanadi.[1] Badiiy va publitsistik uslubda ham xuddi shunday holni ko‘ramiz. Bunda yozuvchilar o‘z nutqlarini obrazli, shirali qilish bilan birga personajlarga nutqiy xarakteristika berishni ham ko‘zda tutadilar. A.Qodiriy, Oybek, G‘.G‘ulom, A.Qahhor asarlarida maqol, matal va hikmatli so‘zlar ko‘p uchraydi. Yolg‘iz otning yo‘rg‘asidan chiqarmi chang (G‘afur.G‘ulom.) Lekin ularni buzib, noto‘g‘ri ishlatish («sichqonga don qayg‘u, qassobga jon» deganlaridek) asrlar davomida yaratilgan xalq boyligiga e’tiborsizlik bilan qarash oqibatidir.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslik tezkor globallashuvi jarayonida milliy-madaniy o‘ziga xoslikni anglash va uni saqlash muammolariga jiddiy e’tibor qaratilganligi hamda tilimiz boyigani bilan harakterlanadi.[2]

Demak, til tasviriy vositalarining nutq madaniyatidagi o‘rni va ahamiyati juda katta. O‘zbek tilida nutqni to‘g‘ri, aniq, ta’sirchan, ifodali va mazmunli bayon qilishda metafora, metonimiya, sinekdoxa, so‘zni kochma ma’noda qo‘llash muhim o‘rin tutadi. Ular nutq mazmunini kuchaytirib, uni tinglovchiga tushinarli holda yetkazishda kuchli uslubiy vositalardan hisoblanadi. Shuningdek, maqol-matal va hikmatli so‘zlar bayon qilinayotgan fikrning gultoji bo‘lib, so‘zlovchining nutqini o‘tkir va ta’sirli qiladi, badiiy ko‘rkini oshiradi. Ularda chuqur mazmun, falsafiy mushohadaga boy xulosalari, asr – asrlarga teppa – teng daxldor bo‘lgan qimmatbaho fikr xazinalari gavdalanadi.

Maqollar, matal va hikmatli so‘zlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga aloqador bo‘lib, ularni o‘z o‘rnida ishlatmoq darkor.

Rezyume. Ishda o‘zbek tilida emotsional – ekspressivlikni hosil qilishda metafora, metonimiya, sinekdoxaning kuchli vositalar ekanligi ko‘rsatilgan. Ulardan o‘rinli foydalanish mazmunni kuchaytirishi, nutqni ta’sirchan qilishi misollar asosida ifodalangan. Bundan tashqari, so‘zlarni ko’chma ma’nolarda qo‘llash orqali ham nutqda emotsional – ekspressivlik hosil qilinishi bayon etilgan.

Resume. Strong importance metaphor, metonymic and synecdoche in the production of emotional expressiveness in Uzbek language is demonstrated. Also. The usage of those necessarily can raise the meaning and making the speech sensitive are described. Apart from that, it is also highlighted that utilization of words in a portable meaning may work in the creation of emotional expressiveness.

Резюме. Статья посвящена вопросам образования эмоционально – экспрессивности речи, путём применения метафор, метонимий, синекдох, Умелое использование этих средств придаёт речи чувственность, усиливает содержательность речи, В статье освещены вопросы придачи речи путём переносного значения слов и образования эмоционально – экспрессивности.

[1] Iminov M., No‘monov T., Babaxanova D. O‘zbek tili uslubiyati masalalari. – Namangan: Namangan, 2007. – B. 110.

[2] Xolmonova Z., Valiyeva G., Muhammadaliyeva D. O‘zbek tilidagi paremiyalar tadqiqi. – T.: Mahalla va oila, 2022. – B. 183.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ПОНЯТИЕ И ФУНКЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ РЕКЛАМЫ В ОБЩЕСТВЕ

Исломова Дилноза Уйгун кизи,
учитель-ассистент Навоийский государственный университет,
кафедра английского языкознания

В условиях XXI века реклама превратилась в один из важнейших инструментов массовой коммуникации, оказывающий существенное влияние на социальные, культурные и экономические процессы. Она не только способствует продвижению товаров и услуг, но и активно участвует в формировании общественных установок, моделей поведения и ценностных ориентиров. В современном обществе реклама стала мощным средством информационного воздействия, охватывающим практически все сферы человеческой жизни.

Реклама – это платное однонаправленное и неличная форма коммуникации, направленная на привлечение внимания к товару, услуге или бренду, информирование о них и убеждение потребителей совершить целевое действие. Она распространяется любым способом и через любые средства (ТВ, интернет, наружная реклама) для формирования интереса и увеличения продаж[1].

Под рекламой принято понимать форму целенаправленного информационного воздействия, направленную на привлечение внимания аудитории к определённому объекту и формирование интереса к нему. Традиционно реклама ассоциируется с коммерческой деятельностью, однако её функции значительно шире. Наряду с экономическими задачами реклама может выполнять просветительскую, воспитательную и социально ориентированную функции.

В связи с этим, особую актуальность приобретает социальная реклама. Распространение информации в ключе социальной рекламы является неотъемлемой частью современного общества и современного мира, так как собственно социальная реклама служит прямым путём для достижения данной цели. Социальная реклама зачастую направлена на осведомление и решение актуальных проблем в той или иной сфере жизни. Единственная задача социальной рекламы – это обратить внимание общества на проблемы и всевозможные решения актуальных и острых проблем в той или иной сфере жизни общества. Стоит отметить, что основная идеология социальной рекламы не обогащение за счёт продаж продуктов через рекламу

Анализ литературы. В научной литературе социальная реклама рассматривается в связи с процессами массовой коммуникации, глобализации, модернизации общества и формирования общественного сознания. С. Ю. Малков подчёркивает значение модернизации и новых механизмов общественного взаимодействия, что позволяет рассматривать социальную рекламу как средство связи между обществом, государством и социальными институтами. В. П. Веряскина связывает человеческое развитие с глобальными процессами, что важно для понимания социальной рекламы как инструмента повышения социальной ответственности и гражданской осознанности. А. А. Джиоева обращает внимание на языковые особенности глобальной коммуникации, что имеет значение для анализа рекламного текста и его воздействия на аудиторию. М. С. Стычинский подчёркивает роль культурных различий в условиях глобализации; данный подход важен, поскольку социальная реклама должна учитывать культурные нормы и ценности целевой аудитории.

В существующих исследованиях социальная реклама в основном рассматривается как средство информирования общества о социальных проблемах. Однако её многофункциональная роль в формировании общественного сознания, нравственных ценностей, социальных норм и ответственного поведения изучена недостаточно полно.

Статья активно использует описательный, сравнительный и функционально-аналитический методы. Описательный метод раскрывает сущность социальной рекламы и определяет её базовые признаки. Далее следует сравнительный метод, который применяется для сопоставления коммерческой и некоммерческой аспектов

[1] Дейян А. Реклама. – М.: Прогресс-Универс, 1993. – С. 124.

социальной рекламы. Функциональный анализ, в свою очередь, использовался для раскрытия информационной, воспитательной, идеологической, социо-интегративной и социокультурной функций социальной рекламы.

Основным материалом для исследования данной темы послужили концептуальные основы социальной рекламы и социальной коммуникации, наряду с этим внесли свой вклад обобщенные примеры социальных рекламных кампаний, которые зачастую направлены на формирование здорового образа жизни, укрепление моральных поведенческих установок и общественных ценностей граждан, профилактики насилий разного вида, упрочение экологической ответственности у общества.

Социальная реклама представляет собой особый вид маркетинговой коммуникации, ориентированный на формирование у общества нравственных установок, ценностных ориентиров и социально ответственных моделей поведения. Её основное назначение заключается в привлечении внимания широкой общественности к наиболее значимым и актуальным социальным проблемам. Наряду с этим социальная реклама рассматривается как инструмент трансляции государственных идей и как средство воздействия власти на общественное сознание и поведенческие установки граждан[1].

Потребность в социальной рекламе особенно усилилась после Первой мировой войны, когда в условиях острых общественных противоречий, кризисных явлений и конфликтных ситуаций возникла необходимость в их широком освещении и оперативном поиске решений. В научной литературе представлены две основные версии возникновения социальной рекламы. Согласно первой из них, становление социальной рекламы было связано с развитием гражданского права в странах Европы и США. Утверждение принципа равенства граждан перед законом способствовало росту общественного внимания к социальным проблемам и, как следствие, формированию соответствующих коммуникативных механизмов. Сторонники второй точки зрения полагают, что социальная реклама возникала не как результат поступательного общественного развития, а, напротив, в периоды кризиса, когда государственная власть особенно нуждалась в обратной связи с обществом и в воздействии на массовое сознание посредством распространения информации социального характера[2].

Так или иначе, истоки социальной рекламы чаще всего связывают с Соединёнными Штатами Америки. Социальная реклама выполняет ряд важных функций, среди которых выделяются информационная, идеологическая, социо-интегративная, воспитательная и социокультурная.

Информационная функция связана прежде всего с распространением общественно значимой информации и актуализацией тех проблем, которые требуют своевременного осмысления и практического решения. Идеологическая функция направлена на распространение определённых идей, ценностей и мировоззренческих установок; в этом аспекте социальная реклама нередко выступает как связующее звено между государством и обществом.

Социо-интегративная функция выражается в объединении различных социальных групп на основе общих проблем, ценностей и целей, а также в формировании общественного диалога через коммуникацию и обратную связь со стороны социальных институтов и организаций.

Воспитательная функция социальной рекламы заключается в распространении воспитательных инициатив, формировании положительных поведенческих установок и повышении уровня социальной осведомлённости граждан. Социокультурная функция, в свою очередь, ориентирована на сохранение национальной идентичности, культурного наследия, традиций и языка, а также на укрепление духовных основ общества[3].

С учётом перечисленных функций социальная реклама относится к сфере некоммерческой рекламы. Однако, несмотря на принципиально иную мотивацию и общественную направленность, она в отдельных случаях может пересекаться с коммерческой рекламой или становиться её составной частью. Так, обращение к социальной проблематике в рамках отдельных кампаний может сопровождаться продвижением товаров или услуг, которые, по замыслу их создателей, способны способствовать решению обозначенных общественных проблем[4].

Согласно функциям, упомянутым ранее, она

[1] Пейсахова Д. Э. Социальная реклама как контрольная функция в обществе // «Учет и контроль». 2020. № 9. С 78.

[2] Ильина В. В. Особенности российской социальной рекламы // Коммуникология: электронный научный журнал. 2018. №4. – С. 57.

[3] Абрарова З.Ф., Абраров И.И. Социальная реклама в России: формирование позитивных социальных установок // Евразийский юридический журнал. 2018. № 10 (125). – С. 506.

[4] Кашуро И.А., Мартюшев А.М., Розанов А.С. Роль энергетических ресурсов в современном мире / Вестник Московского университета. Серия 27: Глобалистика и геополитика. 2015. № 1-2. – С. 77.

относится к некоммерческой рекламе. Но несмотря на совершенно другой мотив, социальная реклама может соприкасаться с коммерческой или быть неотъемлемой частью. Например, через проблему общества определенные кампании могут продавать продукты, которые могут поспособствовать решению этих кейсов.

К тому же, социальную рекламу от других коммерческих реклам отличает то, что мотив предельно прост и он направлен только на пропаганду социальных норм и ценностей. Однако, существуют отдельные виды социальных реклам, которые совмещают в себе характеристики коммерческих реклам и всё же ориентируется на популяризацию тем нуждающихся разглашению среди общества.

Необходимо упомянуть, что важной отличительной чертой является то, что социальная реклама зарождается в обществе, но её масштабы достигают мировые величины и распространяются на все слои общества мира. Также, социальная реклама может способствовать государству конструировать свой имидж через такие трансляцию общественно значимых ценностей, демонстрацию социальной ответственности власти, а также укрепление доверия граждан к государственным институтам[1].

Важной составляющей социальной рекламы является общественная проблема, обусловленная социальным противоречием и мотивация на решение данных противоречий посредством поведенческих установок.

Социальная реклама представляет собой особую форму общественной коммуникации, ориентированную не на извлечение прибыли, а на воздействие на ценностные установки, общественное сознание и модели поведения. Её ключевое назначение состоит в актуализации значимых социальных проблем, формировании моральных ориентиров и стимулировании ответственного отношения человека к обществу, государству и окружающей среде. В ряде случаев социальная реклама рассматривается и как инструмент взаимодействия государства с обществом, поскольку через неё могут транслироваться идеи, нормы и приоритеты, имеющие общественно-политическое значение.

Усиление роли социальной рекламы обычно связывают с переломными историческими периодами, когда общество особенно остро нуждалось в массовом информировании и консолидации. Одним из таких этапов стал период после Первой мировой войны, когда многочисленные социальные противоречия, кризисные явления и последствия военных событий потребовали не только публичного обсуждения, но и поиска механизмов общественного воздействия. Именно в такие периоды возрастает значение коммуникационных средств, способных мобилизовать общественное внимание и повлиять на массовое поведение.[2]

В научных подходах к вопросу происхождения социальной рекламы можно выделить две основные позиции. Первая связывает её становление с развитием гражданского общества и утверждением принципов правового равенства в странах Европы и США. В рамках данного подхода социальная реклама рассматривается как результат общественного прогресса, при котором проблемы различных групп населения становятся предметом публичного обсуждения и требуют системного освещения. Вторая позиция исходит из того, что социальная реклама особенно активно формируется не в условиях стабильного развития, а в периоды общественных кризисов, когда государство испытывает потребность в обратной связи с населением и в инструментах влияния на общественное сознание. Несмотря на различия в интерпретации, большинство исследователей сходятся в том, что важнейшие предпосылки развития социальной рекламы наиболее отчётливо проявились в Соединённых Штатах Америки.

Функциональный потенциал социальной рекламы достаточно широк. Прежде всего она выполняет информационную функцию, поскольку распространяет сведения о проблемах, требующих общественного внимания и своевременного реагирования. Не менее важной является идеологическая функция, связанная с трансляцией определённых ценностей, норм и установок, поддерживаемых государством или социальными институтами. Социо-интегративная функция проявляется в способности социальной рекламы объединять различные группы общества вокруг общих задач, формировать атмосферу диалога и усиливать чувство сопричастности к решению общественно значимых вопросов. Воспитательная функция выражается в формировании у аудитории социально одобряемых моделей поведения, нравственных ориентиров и гражданской ответственности. Наконец, социокультурная функция направлена на сохранение культурной памяти, национальной идентичности, языка и традиций,

[1] Белянин А. Б. Социальная реклама как коммуникативный ресурс управления: Автореф. дис. канд. социол. наук. – М., 2007. – С. 28.

[2] Пейсахова Д. Э. Функции социальной рекламыв обществе // Хроноэкономика. 2020. № 4. – С. 78.

что особенно важно в условиях глобализации и трансформации общественных ценностей.

Содержательно социальная реклама охватывает широкий круг тем. К числу её наиболее распространённых направлений относятся пропаганда здорового образа жизни, профилактика зависимостей, предупреждение насилия, обеспечение безопасности дорожного движения, развитие экологического сознания, а также формирование социальной активности, осознанности и ответственности. Тематическое разнообразие социальной рекламы свидетельствует о её глубокой вовлечённости в решение ключевых проблем современного общества. При этом она может быть ориентирована как на изменение индивидуального поведения, так и на укрепление коллективных ценностей и социальных норм.

Отдельного внимания заслуживает вопрос о месте социальной рекламы среди смежных видов некоммерческой коммуникации. В исследовательской литературе часто разграничиваются некоммерческая, общественная, государственная и собственно социальная реклама. Однако на практике их границы нередко оказываются подвижными. Социальная реклама, как правило, относится к некоммерческой сфере, поскольку не преследует прямой экономической выгоды. Вместе с тем в ряде случаев она может пересекаться с коммерческой рекламой. Это происходит тогда, когда социально значимая проблематика используется в рамках кампаний, одновременно продвигающих определённые товары или услуги, позиционируемые как средство содействия решению той или иной общественной проблемы. Таким образом, несмотря на различие целей, коммерческий и социальный компоненты в современной медиасреде могут взаимодействовать и взаимно дополнять друг друга.[1]

Если рассматривать социальную рекламу в более широком контексте, следует отметить, что её воздействие не ограничивается единичным информированием. Она формирует общественные установки, способствует социализации личности, укрепляет солидарность и в долгосрочной перспективе влияет на ценностную структуру общества. Именно поэтому социальная реклама выступает не просто каналом передачи информации, а важным механизмом социального регулирования и культурного воздействия.

Таким образом, социальная реклама, являясь некоммерческим средством распространения информации, установки той или иной идеологии зачастую помогает государству и другим организациям расширению своего влияния. Так начинает формироваться гражданское общество, что очень важно для развития качества жизни населения того или иного государства. Развиваясь, социальная реклама становится сильным инструментом решения и предотвращения проблем социума, формирования осознанности и моральных установок требующее современный образ жизни.

Резюме. В статье раскрывается концептуальная основа социальной рекламы, включая основные её виды и функции.

Resume. Maqolada ijtimoiy reklamaning konseptual asoslari, ijtimoy reklamaning asosiy turlari va uning funksiyalari haqida bayon qilingan.

Resume. The article describes conceptual basics of social advertisements, including their main types and functions.

[1] Фомина А. В. Социальная реклама: понятие, особенности, способы оценки // Мировая наука.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TIL BIRLIKLARINING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI: INFORMEMA VA PRAGMEMA OPPOZITSIYASIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'RNI

Asatulloyeva Muhayyo Alisher qizi
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Til insonlar o'rtasidagi muloqot vositasi bo'lib, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. An'anaviy tilshunoslikda nutq hodisalari ko'pincha faqat grammatik va leksik ma'no doirasida o'rganilgan. Biroq zamonaviy tadqiqotlar tilning ijtimoiy va pragmatik funksiyalarini tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Pragmalingvistika til birliklarining nutq jarayonidagi qo'llanishini, ularning kommunikativ niyat va kontekst bilan aloqasini o'rganadi. Shu nuqtayi nazardan sintaktik birliklar tarkibi ikki asosiy komponentga ajratiladi: **informema** va **pragmema**. Bu ikkisi nutqda bir-birini to'ldiradi va tilning funksional boyligini ta'minlaydi.

Jahon tilshunosligida til va jamiyat munosabatlari masalasi sotsiolingvistik doirada keng o'rganilgan. Xususan, V. Labov[1] tilning ijtimoiy differensiyasi va nutq variantlarining jamiyatdagi tabaqalanish bilan bog'liqligini ilmiy asoslab bergan. Kommunikativ kompetensiya nazariyasini ishlab chiqqan D. Hymes[2] esa nutqni ijtimoiy kontekst bilan bog'liq holda talqin qilgan. Jahon tilshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichida til va jamiyat, til va madaniyat munosabati, inson ruhiyatining tilga ta'siri, tildan inson bilimlarining voqelanishi kabi masalalar o'rganish ustivor vazifalardan biri sanaladi. Bugungi taraqqiyot bosqichida til va jamiyat, til va madaniyat munosabati, inson ruhiyatining tilga ta'siri, tildan inson bilimlarining voqelanishi kabi masalalar o'rganish ustivor vazifalardan biri sanaladi. Til hodislarini o'rganishga antroposentrik yondashuv badiiy matn tadqiqida ham yangi qarashlarni yuzaga keltirdi. Xarakterli jihati shundaki, tilshunoslikda eng ko'p badiiy matn o'rganishga e'tibor qaratildi. Badiiy matn dastlab kommunikativ, stilistik-funksional aspektlarda, keyinchalik boshqa yo'nalishlarda tadqiq etildi. Jumaladan, rus tilshunosligida G.I. Bogin, Y.A. Chijova, V.P. Belyanin, L.N. Churilina, I.A. Ashirova, N.S. Bolotnova, T.I. Suran, A.A. Yevtyugina, M.V. Shpilman, O.V. Suxareva, D.A. Shukina, Y.N. Karaulov va boshqalarning tadqiqotlari fikrimiz isbotidir.

O'zbek tilshunosligida ham antroposentrik paradigmaning turli fanlar hamkorligida yuzaga kelgan lingvokulturologiya, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada D. Xudoyberganovaning «O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida badiiy matnning lingvokulturologik, psixolingvistik, lingvokongnitiv xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, pragmatika doirasida informema va pragmem**a** tushunchalari olim M.Hakimov[3] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ilmiy jihatdan asoslab berilgan va rivojlantirilgan. Tadqiqotchining yondashuviga ko'ra, informema nutq jarayonida uzatilayotgan axborotning eng kichik semantik-pragmatik birligi sifatida talqin qilinadi va u, asosan, xabar berish, ma'lumot yetkazish funksiyasini bajaradi. Pragmema esa kommunikativ aktning ijtimoiy-maqsadga yo'naltirilgan, kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'lgan pragmatik birligi sifatida qaraladi hamda unda so'zlovchining niyati, baholash munosabati va adresatga ta'sir o'tkazish strategiyasi mujassam bo'ladi.

Ma'lumki, tabiiy fanlarda tadqiqot obyekti sifatida «ideal obyektlar» deb nomlanadigan mavhum nazariy qurilmalar tanlansa, tilshunoslikda ham til tizimining turli sathlariga oid va shu sathlarning asosiy birliklarga bo'la oladigan turli emik birliklarni («fonema, «morfema, «leksema», «sintaksema» hamda «semema», «pragmema», «tekstema») misol sifatida keltirish mumkin[4].

Til aloq-aralshuv vositasi sifatida kishilar o'rtasidagi sotsial munosabatlarni yo'lga soladi. Ayni paytda til birliklarini lingvopragmatik yo'nalishda o'rganish uchun nutqiy akt tushunchasining o'zi yetarli hisoblanmaydi. Nutqiy ta'sir etish va nutqiy kom-

[1] Labov, W. 1966. The Social Stratification of English in New York City. Washington: Center for Applied Linguistics, pp. 240-450.
[2] Hymes, D. 1972. On Communicative Competence. In: J.B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin Books, pp. 269-293.
[3] Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. –Toshkent, 2020. –363 b.
[4] Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Toshkent, 2008. – 222 b.

munikatsiya nazariyasining funksional asosga ega bo‘lishiga ko‘ra sintaktik birliklardagi axborot tarkibi til birligi sifatida ikkiga ajratiladi: 1. Informema. 2. Pragmema. Bular pragmalingvistik birliklar sanaladi. Pragmalingvistik birliklar til birliklari bilan funksional til maydonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri zidlanishda ko‘rinadi[1]. Ya’ni pragmalingvistik nuqtayi nazardan sintaktik birliklar tarkibidagi axborot ikki asosiy komponentga – informema va pragmemaga ajratiladi. Informema nutqning faktik, denotativ mazmunini ifodalasa, pragmema esa nutqning kommunikativ niyati, ta’sir kuchi, baholovchi va ijtimoiy yo‘naltirilgan jihatlarini namoyon etadi. Mazkur jarayonda ***frazeologik birliklar (frazemalar)*** alohida o‘rin tutadi. Badiiy asarda personajlarning nutqini boyitadigan, ta’sirchaniligini ta’minlaydigan asosiy verbal birliklardan biri frazeologizmlardir. Lingvistik jihatdan ikki va undan ortiq leksema o‘z ma’no mustaqilligini yo‘qotgan holda bir umumiy ma’no markaziga bo‘ysunadi. Frazemadan anglashiladigan ma’no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma’nolarning oddiy yig‘indisi bo‘lmay, umumlashma, ustma’no , shu bilan birga ko‘chma ma’no sifatida gavdalandi. Masalan, *jonini jabborga bermoq* frazemasi «*bor kuchini safarbar qilmoq*» ma’nosini anglatadi, ya’ni bu ma’no *jon, jabbor, bermoq* leksemalari anglatadigan ma’nolarning oddiy yig‘indisi emas, balki ma’lum obrazga asoslanadigan umumlashma ko‘chma ma’nosidir[2].

Frazeologik birliklar ham xuddi leksemalar kabi oldindan lisonimizda mavjud va bizga ajdodlarimizdan muayyan o‘zgarmaydigan struktura holda yetib kelgan. Frazeologizmlar ikki yoqlama lisoniy birlik va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmning shakliy tomoni so‘z (leksema emas) tashkil topadi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma’nodir. Frazeologik ma’no o‘ta murakkab tabiatli, leksema ma’nosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo‘ladi. Frazeologizmlar tilning turg‘un, ko‘chma ma’noli birliklari bo‘lib, ular ko‘pincha nafaqat axborot uzatadi, balki kuchli ekspressivlik, baholash va ijtimoiy munosabatni ham ifodalaydi. Shu sababli ular pragmema sifatida faol namoyon bo‘lish xususiyatiga ega. Masalan, – *Gaplaringizdan* ***yer yorilmadi, yerga kirmadik.*** *Axir,* ***yeganingiz oldingizda, yemaganingiz ketingizda****-ku.* (U.Hamdam. Muvoznat) Ushbu jumlada frazeologik birlik nafaqat voqelikni tasvirlaydi, balki kuchli emotsional holatni ifodalaydi. Bu yerda «*yer yorilmadi, yerga kirmadik*» iborasi «*uyaltirmoq*», «*yeganingiz oldingizda, yemaganingiz ketingizda*» iborasi «hich narsaga zoriqmaydi» ma’nosida informativ qatlam bilan birga ekspressiv pragmema ham yuzaga chiqqan. Frazeologik birliklarning pragmalingvistik xususiyati ayniqsa sotsiopragmatik kontekstda yaqqol ko‘rinadi. Masalan, – ***Peshonam sho‘r*** *bo‘lmasa,kelib-kelib sizga tegamanmi?..* (U.Hamdam. Muvozanat). Ushbu parchada qo‘llangan ibora **baholovchi pragmema** hisoblanib, so‘zlovchining ***achinish, hamdardlik yoki salbiy bahosi***ni bildiradi, bu esa ijtimoiy munosabatni ifodalovchi baholovchi pragmema hisoblanadi. Shuningdek, «*yuzini yorug‘ qilmoq*» kabi frazeologizmlar milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular orqali jamiyatdagi axloqiy mezonlar va kollektiv tasavvurlar ifodalanadi. Shu jihatdan frazeologik birliklar nafaqat leksik-semantik birlik, balki kuchli pragmatik potensialga ega bo‘lgan vosita sifatida qaraladi. Ular nutq jarayonida informemani boyitadi va pragmemani kuchaytiradi, ya’ni oddiy axborotni ijtimoiy, emotsional va ta’sir jihatdan boyitilgan kommunikativ birlikka aylantiradi. Shunday qilib, frazeologik birliklar pragmalingvistik tizimda muhim o‘rin egallaydi. Ular informema va pragmema oppozitsiyasida ko‘pincha pragmatik komponentni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi va nutqning sotsiopragmatik ta’sirchanligini oshiradi. Shu sababli ularni pragmema sifatida tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Sotsiopragmatik jihatdan frazeologik birliklarning ijtimoiy xoslanishi yosh jihatdan chambarchas bog‘liqdir. Bunda turli yosh guruhlaridagi shaxslarning frazeologik birliklarni qo‘llashda tafovutlar ko‘zga tashlanadi. Xususan, jamiyatda turli sohalarda faol bo‘lgan o‘rta yosh vakillarining nutqida ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda frazeologik birliklarning keng qo‘llanishi uchraydi. Masalan,

– Muddaoga o‘ting endi, nima bo‘ldi? Ertalabdan beri ***ichim qiziydi*** *nima gap ekan deb, – qoshiqni qo‘yib so‘radi Solijon. – taklif tushdi, – dedi O‘lmas* ***gapning po‘stkallasiga*** *ko‘chib.*

– Yozish qaroriga shuncha tez kelish mumkinmi? – Ha, nima qilasiz o‘ylab? ***Oshig‘iz olchi*** *bo‘ladi keyin, shuni o‘ylayapsizmi? Faqat* ***qalovini topib*** *yozish kerak-da.*

– Borgan sari rais jo‘shib, ishning ***xamirdan qil sug‘urganday*** *kechayotganini ko‘rib,* ***og‘zi qulog‘ida*** *ikkinchi choponni olib, O‘lmasga qarab kela boshladi.*

Maskur parchada qo‘llangan frazeologik birliklar sotsiopragmatik jihatdan o‘rta yosh vakilllarining nutqidan olingan bo‘lib, ularning kommunikativ faoliyati bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Ushbu qatlam vakillari jamiyatda faol bo‘lganligi bois, ularning nutqida voqelikka nisbatan baholovchi munosabatni ifodalovchi frazeologizmlar faol qo‘llanadi. Xususan,

[1] Hakimov M., M.Gaziyeva. Pragmalingvistika asoslari. –Toshkent, 2020. –363 b.

[2] Турсунов У., Мухторов А. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон. – 1992. – 193 b.

parchada uchraydigan **«ichim qiziydi»**, **«gapning po‘stkallasi»**, **«xamirdan qil sug‘urganday»**, **«oshig‘iz olchi bo‘ladi»**, **«og‘zi qulog‘ida»** kabi birliklar ish jarayoniga oid vaziyatlarni baholash, ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat bildirish vazifasini bajaradi.

Bu frazeologizmlar orqali nutq subyekti nafaqat axborot yetkazadi, balki o‘zining subyektiv pozitsiyasini ham aniq ifodalaydi. Natijada, mazkur parchadagi frazeologik birliklar o‘rta yosh vakillarining nutqiga xos bo‘lgan pragmatik, ya’ni ish jarayonidagi voqeliklarga nisbatan tezkor, aniq va baholovchi munosabat bildirish xususiyatini ifodalaydi. Informatik va pragmatik jihatdan esa informema – qahramonning ruhiy holati haqida ma’lumot bergan, pragmema – tinglovchiga hissiy ta’sir o‘tkazadi, qahramonning ichki hayajoni va bezovtaligini tasvirlagan. Bu esa frazeologizmlarning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-pragmatik ahamiyatini ham yaqqol namoyon etadi.

1-chizma

Frazema	**Informema**(axborot)	**Pragmema**(ta’sir)	**Ustun jihat**
Ichi qizib	Personajning qiziqish va bezovtalik holati	Personajning qiziqish va bezovtalik holatini hissiy-eksoressiv ifodalash	Pragmema
Gapning po‘stkallasini aytganda	Asosiy masalaga o‘tishni bildiradi	Obrazlilik va nutqiy ta’sirchanlikni kuchaytiradi	Informema

Katta yoshdagi shaxslar nutqida esa an’anaviy paremiologik birliklar – maqol, matal va aforizmlarning ustunligi ko‘zga tashlanadi. Bunday birliklar ularning nutqida nafaqat kommunikativ vosita, balki ijtimoiy-madaniy tajriba va kollektiv donishmandlikni ifodalovchi muhim element sifatida xizmat qiladi.

*– Ha, «**qizbola – palaxmon toshi**»*, degan naql rosa topib aytilgan rost gap ekan. O‘qib yurib, tanishib, farg‘onaligu namanganlik yigitlarga turmushga chiqishdiyamki, ***borgan joylarida tosh qotishdi*** *ular.*

– Sayfi Safoyev yubordi meni. «O‘lmasga ayting, indamay ariza yozib ketaversin, o‘ziga yaxshi bo‘ladi», – dedi. ***Elchiga o‘lim yo‘q,*** *– kuldi Mahmud Mirzo, – O‘lmas, vaziyatni to‘g‘ri baholang, tushuning, kurashish – befoyda.*

Asardan olingan mazkur maqollar katta yoshdagi shaxslar nutqiga xos bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni ifodalaydi: an’anaviylik va paremiologik boylikka tayanish, hayotiy tajriba asosida umumlashgan hukm chiqarish, muloqotda didaktik va maslahat beruvchi ohangning ustunligi, kommunikativ vaziyatni yumshatish va ijtimoiy muvozanatni saqlashga intilish. Shu tariqa, ushbu frazeologik birliklar nafaqat semantik mazmunni, balki katta yoshdagi nutq subyektlarining ijtimoiy-pragmatik pozitsiyasi, dunyoqarashi va kommunikativ strategiyasini ham ifodalaydi.

Yoshlar nutqida qo‘llanadigan zamonaviy frazeologizmlar shundayki, ular yangicha semantik yuklamaga ega bo‘lgan hamda tilning yangicha birliklari faol qo‘llanadigan birliklaridir. Bu esa yosh avlodning dinamik ijtimoiy muhitga moslashuvchanligi, global kommunikativ tendensiyalarga ochiqligi hamda lingvistik kreativlikka moyilligi bilan bog‘liqdir.

*– **Oydan tushganmisiz** deyman, nima balo?.. – O‘lmas norozi qarab qo‘yib, mashinasi tomon ildam yurib ketdi podpolkovnik.*

*– O‘zingiz boshqarayotgan tashkilotning internetdagi hisob-kitobi bo‘yichayam men boshqarayotgan jurnal eng ko‘p o‘qilayotgan nashr bo‘lib turibdi. Bular nima, **havodan olingan gaplarmi**?..* Sotsiopragmatik jihatdan ushbu iboralar yoshlar nutqining quyidagi xususiyatlarini aks ettirishi bilan izohlanadi: yuqori darajadagi emotsionallik va ekspressivlikni ifodalash, kinoya va istehzo orqali tinglovchisiga ta’sir o‘tkazish, tezkor va to‘g‘ridan-to‘g‘ri kommunikatsiyaga kirishish, muloqotda o‘z pozitsiyasini faol himoya qilishga intilish kabi baho semalariga egadir. Shu bois, mazkur frazeologik birliklar yoshlar nutqida nafaqat axborot yetkazish, balki ijtimoiy-psixologik munosabatni ifodalash, baholash va ta’sir o‘tkazishning muhim pragmatik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Sotsioprgamatik jihatdan frazemalarni gender omil asosida tahlil qilganimizda ayollar nutqida frazeologik birliklar va iboralar qo‘llanishini ko‘proq ko‘rishimiz mumkin. Chunki ayollar muloqotida emotsionallik, ekspressivlik va o‘z suhbatdoshiga yaqinlikka intilish nuqtayi nazaridan izohlanadi. Natijada, frazemalar nafaqat axborot uzatish vositasi, balki nutqning ta’sirchanligini oshirish, baholovchi munosabatni ifodalash hamda muloqotning ijtimoiy-pragmatik maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim lingvistik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

U.Hamdam romanlari tadqiqida shuni ko‘rishimiz mumkinki, asar qahramonlari turli kasb egalari bo‘lib gavdalanganligi sababli, ko‘proq jamiyat bilan bog‘liq voqeliklar tasvirlanganligi bois frazemalarni erkaklar muloqotida ham ko‘plab kuzatishimiz mumkin. Sotsi-

opragmatik jihatdan asosan ziyoli qatlam nutqida va yoshi katta erkak personajlar muloqotida ko‘rishimiz mumkin.

– *Xudo xayrinigizni bersin, og‘a, bo‘lib-bo‘lib shivirlamasdan, borini dasturxonga qo‘ying endi! – ovozini ko‘tarib tabiatdan dangal O‘lmas. – Tishshsh!..* ***Devorning ham qulog‘i bor,*** *O‘lmas, sekin.* (U. Hamdam. To‘rtko‘cha, 64-b) Ushbu parchada qo‘llangan «*devorning ham qulog‘i bor*» iborasi so‘zlovchining o‘z kasbdoshiga ehtiyot bo‘lib gapirishi haqida ogohlantirmoqda va o‘zi bajaroytgan vazifada tajribali ekanligini ko‘rsatgan.

– *Rozi bo‘lib, ishni qonuniy hal qilaman desa ham, qimmatga aylanishi ehtimoli juda katta. Chunki qo‘lyozma muhim, hatto o‘ta muhim desayam bo‘laveradi. Buni u bachchag‘ar biladi. Sotvoldiga o‘xshagan yosh xodimlar esa imi-jimida* ***xamirda qil sug‘urgandek bajaradi qo‘yadi.*** *Qarabsizki,* ***six ham kuymaydi, kabob ham.*** *Siz bilan menga o‘xshab biri ikki bo‘lmay qarz-havola bilan kunini ko‘rib yurgan olim-u fuzalolar ham bahonada uch-to‘rt tanga ishlab olishadi…* (U. Hamdam. To‘rtko‘cha, 65-b)

Ushbu parchada qo‘llangan «*xamirdan qil sug‘urganday*», «*six ha kuymaydi, kabob ham kuymaydi*» iboralari gapning informatik ma’nosiga qo‘shimcha ishni xushyor va hech kimga ozor bermagan holda tez bajarishi haqidagi pragmatik ma’no yuklamoqda.

Xulosa sifatida shuni aytuish mumkinki, XuloXX-til birliklarining pragmalingvistik tabiati ularning nafaqat axborot uzatish, balki kommunikativ maqsad, nutqiy ta’sir va ijtimoiy-madaniy mazmunni ifodalash imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, informema va pragmema oppozitsiyasi tilning semantik hamda pragmatik qatlamlari o‘rtasidagi munosabatlarni ochib beruvchi muhim nazariy model sifatida namoyon bo‘ladi. Informema voqelik haqidagi neytral axborotni yetkazishga xizmat qilsa, pragmema kommunikativ vaziyat, nutq subyekti intensiyasi, adresatga ta’sir ko‘rsatish maqsadi va baholovchi munosabatni ifodalovchi birlik sifatida xarakterlanadi. Maqolada shuni ko‘rishimiz mumkinki, frazeologik birliklar mazkur oppozitsiyada alohida o‘rin egallashini ko‘rsatdi. Chunki frazeologizmlar denotativ ma’no bilan bir qatorda kuchli konnotativ, ekspressiv va baholovchi semalarni mujassamlashtiradi. Ular nutqda informativ vazifadan ko‘ra ko‘proq pragmatik vazifani bajarib, kommunikativ ta’sirchanlikni oshirish, emotsional-ekspressiv munosabatni ifodalash va adresatning idrokiga maqsadli ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shu sababli aksariyat frazeologik birliklar pragmema xususiyatlarini namoyon etuvchi til birliklari sifatida tavsiflanadi. Natijada, informema–pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklar informativ va pragmatik komponentlarning sintezi sifatida namoyon bo‘lsa-da, ularning dominant xususiyati pragmatik yo‘nalganlik ekanligi aniqlandi. Bu esa frazeologik birliklarni pragmalingvistika nuqtai nazaridan o‘rganish tilning antropotsentrik mohiyatini, nutq subyektining kommunikativ niyatlarini hamda milliy-madaniy tafakkurning lingvistik ifodasini chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur yondashuv frazeologiyaning semantik-pragmatik tabiatini yoritish, til birliklarining kommunikativ potensialini baholash hamda zamonaviy pragmalingvistika nazariyasini rivojlantirishda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Rezyume. Ushbu maqolada frazeologik birlik va maqollarning tilning informema-pragmema oppozitsiyasi kontekstida roli o‘rganiladi. Informema nutqda faktik axborotni yetkazadi, pragmema esa kommunikativ va ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Frazeologik birliklar o‘zining ko‘chma va turg‘un tabiati bilan nutqda pragmatik qatlamni boyitadi.

Resume. This article examines the role of phraseological units (idioms) in the context of the informema–pragmem**a** opposition in language. An informema conveys factual information in speech, whereas a pragmem**a** performs communicative and social functions. Due to their figurative and fixed nature, phraseological units enrich the pragmatic layer of discourse.

Резюме. В данной статье рассматривается роль фразеологических единиц (фразем) в контексте оппозиции информема–прагмема в языке. Информема передаёт фактическую информацию в речи, тогда как прагмема выполняет коммуникативные и социальные функции. Благодаря своей переносной и устойчивой природе фразеологические единицы обогащают прагматический слой дискурса.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV HIKOYALARIDA MILLIY-MADANIY BIRLIKLAR TARJIMASI: MILLIY KOLORITNI SAQLASH STRATEGIYALARI

Murodullayeva Sarvinoz Yorqin qizi,
Navoiy davlat universiteti assistent o'qituvchisi

Badiiy asar tarjimasi, ayniqsa, bolalar va xalqona ruhdagi hikoyalar tarjimasi oddiy mazmun ko'chirishdan yoki so'zma-so'z tarjima qilishdan iborat emas. Har qanday tilda yozilgan asar o'sha tilning o'ziga xos milliy xotira, madaniy tajriba, urf-odat, ijtimoiy munosabat va etnik dunyoqarashini aks ettiradi. Tarjima nazariyasi doirasida madaniyat omili markaziy ahamiyatga ega bo'lib, badiiy tarjima faqat til emas, balki butun bir madaniy tizimlararo ko'chirish jarayoni sifatida qaraladi[1]. Shu nuqtayi nazardan, milliy-madaniy birliklarning badiiy matnda qanday namoyon bo'lishi va tarjima jarayonida qanday qayta ifodalanishi muayyan yozuvchi ijodi misolida o'rganilganda yanada aniqroq ko'zga tashlanadi. Bu jihatdan Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalari milliy-madaniy birliklarning tarjimada berilishini tahlil qilish uchun muhim badiiy material vazifasini bajaradi.

Xudoyberdi To'xtaboyev o'zbek bolalar adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biri bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yosh avlod tarbiyasiga xizmat qiluvchi sermahsul asarlari bilan e'tirof etilgan yozuvchidir[2]. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari yumorga boyligi, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos tabiati xususiyatlari ruhiy kechinmalari nihoyatda jonli, qiziqarli va bolalarga mos yo'sinda mahorat bilan tasvirlanishi jihatidan ajralib turadi[3]. Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalari o'zbek milliy hayoti, xalqona tafakkur, ijtimoiy muomala, qarindoshlik, mehmondo'stlik va axloqiy qadriyatlarni yorqin aks ettiradi. Masalan, hikoyalar to'plamidagi – «bozor», «duosini olmoq», «Tiyin – pul birligi», «dadasi, onasi», «qumtaka o'ynash», «qiyiq», «belbog'«, «Barakallo», «Otaxon», «o'choqboshi» kabi milliy-madaniy birliklar tarjimasi oddiy tarjimadan biroz farq qilib, tarjimaning boshqa usul va strategiyalaridan foydalanishni talab etadi. Bunday leksik birliklarni tarjima qilishda bir qator muammolar yuzaga chiqadi. Ularning boshida – ekvivalent yetishmasligi, semantik ko'lamdagi tafovutlar, kontekstga mos kelmaydigan tarjimalar, ma'no va madaniy yuklamaning to'liq uzatilmasligi turadi. Shuningdek, ba'zi birliklar tarjima qilinganida o'z semantik chuqurligini yoki estetik ta'sir kuchini yo'qotadi. Shu sababli tarjimon nafaqat til bilimdoni, balki madaniyatlararo vositachi sifatida ham faoliyat yuritishi kerak bo'ladi[4]. Shu bois uning hikoyalarini ingliz tiliga tarjima qilishda milliy-madaniy birliklarni qay tarzda berish masalasi alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Tarjimon bir tomondan maqsad til o'quvchisi uchun matnni tushunarli qilishga intilsa, ikkinchi tomondan asliyatdagi milliy ruhni ham imkon qadar saqlashi lozim. Bu esa tarjimada domestikatsiya va forenizatsiya strategiyalari o'rtasidagi tanlovni dolzarb qiladi[5].

Mazkur maqolada, Xudoyberdi To'xtaboyevning tanlangan hikoyalaridagi milliy-madaniy birliklar va ularning inglizcha tarjimalari tahlil qilingan bo'lib, ushbu birliklarni tarjima qilishda qo'llangan lingvistik va tarjima strategiyalari, milliy-madaniy birliklar aniqlanib tahlil qilinadi hamda leksik-semantik jihatdan tasniflanadi. Shuningdek, ushbu birliklarning ingliz tilidagi tarjimasida qay usulda ifodalangani tahlil qilinib, asliyatdagi milliy koloritning tarjima matnida saqlanish darajasi baholanadi.

Tarjimashunoslikda madaniy birliklar ma'lum bir xalq hayoti, urf-odati, moddiy va ma'naviy madaniyatiga mansub bo'lgan, boshqa tilda to'liq tayyor muqobili bo'lmagan birliklar sifatida talqin etiladi. Tarjimada realiyalar – muayyan madaniyatga xos

[1] Bassnett S. Translation studies (4th ed.). – London: Routledge. New Accents, 2013.

[2] Raximova R. Adabiyotshunoslikda Xudoyberdi To'xtaboyev ijodining Umarali Normatov tomonidan baholanishi. // Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. 61-son 2-to'plam. May-2025. – B. 275-278.

[3] Bo'riyeva D. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarining bolalar adabiyotidagi o'rni. // Journal of universal science research. 6.03.2023. – B.399-403.

[4] Jo'raqulova R. O'zbek va ingliz tillaridagi milliy-madaniy semali leksik birliklarni tarjima qilish muammolari. // Tamaddun nuri jurnali. 30.06.2025. – B. 329-331.

[5] Venuti L. The translator's invisibility: A history of translation. Routledge. (2nd edition) (Original work published 1995), 2008. – P. 20-24.

moddiy unsurlarni ifodalovchi so‘z va iboralardir. Realiya so‘zi «lotin» tilidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab «haqiqiy narsalar», ya’ni mavhum tushunchalardan farqli ravishda moddiy narsalar ma’nosini anglatgan[1]. P.Newmark[2] bunday birliklarni «cultural words» sifatida baholab, ularni tarjima qilishda oddiy lug‘aviy moslik so‘zma-so‘z tarjima yetarli bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Bolgariyalik tarjimonlar S.Vlahov va S.Florin[3] realiyalarni chuqur o‘rgangan dastlabki tadqiqotchilar bo‘lib, ushbu atamaning zamonaviy ma’nosini ilmiy muomalaga kiritganlar. Ularning ta’kidlashicha, realiyalar kuchli mahalliy koloritga ega bo‘lgani sababli, ular tarjimada ko‘pincha muayyan qiyinchilik tug‘diradi. M.Baker[4] bunday holatlarni so‘z darajasidagi noekvivalentlik bilan bog‘laydi va madaniy tafovutlar tarjimon oldiga maxsus strategik tanlov vazifasini qo‘yishini ta’kidlagan.

Milliy-madaniy birliklar tarkibiga nafaqat an’anaviy buyumlar yoki ovqat nomlari, balki qarindoshlik atamalari, murojaat shakllari, maqolona ifodalar, marosim birliklari, ijtimoiy-tarixiy tushunchalar va folklor namunalari ham kiradi. Aynan shu qatlam badiiy matnda milliy koloritni yaratadi. Milliy kolorit esa asarning milliy ruhini, ijtimoiy muhitini, ma’naviy atmosferasini va xalqona tafakkurini aks ettiruvchi uslubiy-madaniy qatlamdir.

I.G‘afurov, O.Mo‘minov va N.Qambarov[5] tarjimani madaniyatlararo hodisa sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, tarjima jarayonida tarjimon nafaqat til birliklari, balki xorijiy madaniyat bilan ham yuzlashadi va shu madaniy tushunchani tarjima tilida tushunarli izohlab berishlari kerak. Shu sababli tarjimaning muvaffaqiyati tarjimonning boshqa xalq madaniyatini qanchalik chuqur anglashiga bog‘liq bo‘ladi.

Tarjimada bunday milliy-madaniy birliklarni berishda ko‘pincha quyidagi strategiyalar qo‘llanadi:

- transliteratsiya;
- transkripsiya;
- tavsifiy tarjima;
- funksional muqobil;
- umumlashtirish;
- almashtirish;
- tushirib qoldirish;
- izoh berish.

Domestikatsiya asarni maqsad til madaniyatiga yaqinlashtirsa, forenizatsiya asliyatning madaniy begonaligini saqlab qoladi. Realiyalar faqat alohida so‘zlar bilan cheklanmaydi, balki milliy xususiyatga ega frazeologik birliklarda ham namoyon bo‘ladi. I.G‘afurov, O.Mo‘minov va N.Qambarov[6] ayrim frazeologik birliklarning boshqa tillarda to‘liq mos muqobili bo‘lmasligini qayd etib, bunday birliklarni so‘zma-so‘z, analogik yoki tasviriy usulda tarjima qilish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

E.Nida[7] ekvivalentlik masalasini qabul qiluvchi auditoriyaning reaksiyasi masalasini muammo markaziga qo‘yadi. Bu yondashuv, ayniqsa, bolalar adabiyoti tarjimasida muhim, chunki tarjimon ko‘pincha mazmuniy ravshanlikni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Biroq bunday yondashuv ayrim hollarda asliyatning etnomadaniy chuqurligini pasaytirishi mumkin. Bolalar adabiyoti ham aslida madaniy qadriyatlarni uzatuvchi maydon bo‘lib, undagi har bir lokal birlik identitet va xotira bilan chambarchas bog‘liqdir[8]. Shunday qilib, ushbu maqolada tarjima sifati ikki mezon asosida baholanadi: birinchisi, semantik aniqlik, ikkinchisi, milliy-madaniy ma’noni saqlash darajasi.

Yuqoridagi nazariy tahlillarga asoslanib, Xudoyberdi To‘xtaboyevning «Qaylardasan bolaligim» hikoyalar to‘plamidagi o‘zbekcha hikoyalarning inglizcha tarjimasi bilan qiyosiy taqqoslanib chiqildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarjimoning asosiy tendensiyasi bolalalar adabiyotiga xos ravonlikni saqlash maqsadida kommunikativ moslashtirishni qo‘llashdan iborat bo‘lgan. Natijada, o‘quvchi uchun tushunarlilik oshgan, biroq o‘zbek nutq etiketi, affektiv suffikslar, folklor namunalari va ayrim tarixiy-institutsional realiyalarning milliy kolorit darajasi pasaygan. Tahlil jarayonida eng barqaror saqlangan qatlam *an’anaviy buyumlar va maishiy predmetlar* bo‘ldi. Ularga quyidagilar misol bo‘ladi: *hassa, behi tayoq, loydan yaslagan uycha, o‘choq boshidagi to‘nka.*

Yuqoridagi leksik birliklar tarjimada ko‘pincha tavsifiy yo‘l bilan muvaffaqiyatli berilgan. Eng zaif qatlam esa folklor turg‘un birliklaridir. *Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qissadan hissa, tilingdan o‘rgilay, suyunchi bering* singari birliklarda funksional ma’no qisman o‘tgani bilan, lokal nutq madaniyati va obrazli etnopragmatika yumshatilgan.

Qarindoshlik va murojaat birliklarida semantik asos saqlangan, ammo

-jon, -aka, -amaki, -xola kabi ijtimoiy-affektiv in-

[1] https://en.wikipedia.org/wiki/Main_Page

[2] Newmark P. A textbook of translation. – Prentice Hall, 1988. – P. 94-95.

[3] Влахов С. и Флорин С. Непереводимое в переводе. “Реалии” в фильме Бруно Осимо. “Мануал переводчика, второе издание”. – Хоупли, 2004. – С. 63

[4] Baker M. In other words: A coursebook on translation (3rd ed.). – Routledge, 2018.

[5] G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2012. – B. 26-31.

[6] G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2012. – B. 26-31.

[7] Nida E. Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating. – Brill Archive, 1964.

[8] Nikolajeva M. Children’s literature comes of age: Toward a new aesthetic. – Routledge, (Original work published 1996), 2015.

dekslar to‘liq ko‘chmagan.

Taom va mehmondo‘stlikka oid birliklarda *suyunchi, piyola limmo-lim sut, qatiq* tipidagi birliklarda esa izoh yetishmasligi yoki madaniy moslashtirish milliy tasvirni susaytirgan. Milliy o‘ziga xos so‘zlar quyida bir necha yo‘nalishlarga ajratilgan holda izohlandi:

I. *Qarindoshlik atamalari va murojaat shakllari.* Xudoyberdi To‘xtaboyev hikoyalarida asliyat matnida qarindoshlik atamalari faqat biologik munosabatni emas, balki hurmat, yaqinlik va ijtimoiy muomala me’yorlarini ham ifodalaydi. Masalan, **«Do‘stlik»** hikoyasida *Shodmon bobo* birikmasi inglizchada **«Grandfather Shodmon»***, Stepan amaki* esa **«Uncle Stepan»** tarzida berilgan. Bu yerda funksional muqobil strategiyasi qo‘llangan. Tarjima ma’noni umumiy jihatdan to‘g‘ri yetkazadi, ammo o‘zbek tilidagi *amaki*, *bobo* kabi birliklari faqat qarindoshlik emas, ijtimoiy hurmat va samimiyat ifodasi sifatida qo‘llaniladi. Ammo inglizcha tarjimada qarindoshlik so‘zlari aynan o‘zbek tilidagi ma’noni anglatmaydi.

«Ona allasi» hikoyasida *onajon* so‘zi **«mother»** tarzida berilgan. Semantik jihatdan mos bo‘lsa-da, *-jon* qo‘shimchasidagi mehr, erkalash hamda hissiy yaqinlik tarjima matnida to‘liq ifodalanmagan. Demak, bu yerda mazmun saqlangan, ammo emotsional-ekspressiv kayfiyat beruvchi affiks tarjima qilinmaganligi uchun emotsionallik darajasi pasaygan.

«Podshoh va kampir» hikoyasidagi *kampir* leksemasi **«old woman»** tarzida berilib, izohda uning o‘zbek madaniyatidagi hurmat va donishmandlik timsoli ekani tushuntirilgan. Bu yechim nisbatan samarali, chunki asosiy matndagi soddalashtirish izoh vositasida qisman kompensatsiya qilingan. Biroq «old woman» iborasi ingliz tilida ba’zan neytral yoki hatto salbiy semantik tus olishi mumkin. *Kampir* esa xalqona hikoyatda axloqiy haqiqatni ayta oladigan hikmat egasi sifatida yangraydi.

II. *An’anaviy buyumlar va ro‘zg‘or predmetlari.* Milliy koloritni yuzaga chiqaruvchi muhim qatlamlardan biri moddiy madaniyat birliklaridir. **«Ona allasi»** hikoyasidagi *mis choynak* va *chinni kosa* birikmalari inglizchaga **«copper teapot»** va **«porcelain bowls»** tarzida tavsifiy tarjima qilingan. Bu usul predmetlarning moddiy xususiyatini saqlab qoladi va o‘quvchiga aniq tasavvur bera oladi. Shu bilan birga, ularni o‘zbek maishiy muhitining ichki bir qismi sifatida emas, balki shunchaki buyum sifatida qabul qilish ehtimoli kuchayadi.

«Podshoh va kampir» hikoyasidagi *xurjin* so‘zi **«saddlebags»**, *chopar* esa **«herald»** yoki izohda **«messenger / courier»** tarzida berilgan. *Xurjin* uchun tanlangan muqobil yetarli darajada muvaffaqiyatli, chunki u ko‘chma hayot va ot bilan yurish madaniyatini ifodalaydi. Ammo *chopar*ning «herald» orqali berilishi ayrim hollarda o‘zbek tarixiy muhitidan ko‘ra Yevropa saroy an’analarini eslatishi mumkin. *Qo‘rg‘oncha* leksemasining **«small fortress»** shaklida tarjima qilinishi esa uning tashqi funksional belgisini beradi, ammo mahalliy koloritni va tarixiy aniqlikni tasvirlay olmaydi.

III. *Mehmondo‘stlik, dasturxon va noz-ne’matlar.* O‘zbek madaniyatining eng yorqin ko‘rsatkichlaridan biri mehmondo‘stlikdir. **«Podshoh va kampir»** hikoyasida *dasturxon*, *noz-ne’matlar*, meva tortish, sharbat siqish va yo‘lga ozuqa solib yuborish kabi detallarda aynan shu madaniyat ifodalanadi. *Noz-ne’matlar* birligi inglizchada **«delicacies / rich foods»** tarzida izohlangan. Bu ma’lum ma’noda to‘g‘ri bo‘lsa-da, *noz-ne’matlar* so‘zidagi «baraka», «izzat-hurmat bilan tortilgan ne’mat» ma’nosi ancha torayib qolgan va ushbu tushuncha tarjima matnida asliyat matnidagi to‘liq ma’noni yetarlicha chiqara olmagan.

Milliy birliklardan *dasturxon* birligi, ayniqsa, markaziy ahamiyatga ega. O‘zbek madaniyatida u shunchaki ovqat qo‘yiladigan joy emas, balki ijtimoiy birlik, hurmat, to‘kinlik va mehmondo‘stlik semalarini ifodalaydi. Tarjimadagi tegishli izoh noto‘g‘ri berilgani bu birlikning madaniy yukini deyarli yo‘qqa chiqarishi mumkin. Bu esa tarjimada madaniy izohlarning to‘g‘riligi naqadar muhim ekanini yana bir bor isbotlaydi.

«Do‘stlik» hikoyasida Shodmon boboning belbog‘idan mayiz, o‘rik, shaftoliqoqi chiqarib berishi, kuzda do‘stiga olma yuborish sahnalari ham milliy, maishiy-madaniy muhitni yaratadi. Inglizcha tarjimada ushbu mevalar tavsifiy tarzda berilgan bo‘lsa-da, asliyatdagi ota-bobo mehrining xalqona shakli va bog‘dorchilik madaniyatining ichki ruhi biroz susayganligini ko‘rishimiz mukin.

IV. *Folklor formulalari va maqol, iborali ifodalar.* Milliy-madaniy birliklarning eng murakkab turi maqol, matal va folklor formulalaridir, chunki ular nafaqat ma’no, balki obraz, ritm va xalqona tafakkurni ham o‘zida mujassamlashtiradi. **«Do‘stlik»** hikoyasidagi *«Sabr qilsang, g‘o‘radan halvo bitar»* iborasi inglizchada **«If you wait patiently, good things will come from the orchard»** tarzida berilgan. Tarjima maqolning umumiy pragmatik ma’nosini saqlagan, biroq asliyatdagi jonli metaforik obrazni yo‘qotgan. Ushbu holatda birlikni ma’noviy tarjimasidan ko‘ra unga ekvivalent keladigan ibora yoki maqolni ishlatish ham maqsadga muvofiq bo‘lardi. Bundan tashqari, matndagi izohda *g‘o‘ra* noto‘g‘ri sharhlangan. Natijada tarjima mazmunni qisman yetkazgan bo‘lsa-da, xalqona tasavvur va obrazlilikni saqlay olmagan.

«Podshoh va kampir» hikoyasidagi *qissadan hissa* iborasi **«moral of the story»** tarzida berilishi esa funksional jihatdan samarali yechim bo‘lgan.

Garchi bu domestikatsiya bo‘lsa-da, iboraning matndagi vazifasi to‘g‘ri saqlangan. Xuddi shunday, *bir bor ekan, bir yo‘q ekan* formulasining **«once upon a time»** tarzida berilishi ingliz o‘quvchilari uchun matnni tushunarli qiladi, chunki odatda ingliz tilidagi ertaklar shu shaklda boshlanadi. Biroq bu kabi tarjima o‘zbek tilidagi milliylik, oziga xoslikni to‘liq ochib bermaydi.

Ijtimoiy-tarixiy realiyalar. Madaniy birliklarning yana bir turi tarixiy va ijtimoiy tuzum bilan bog‘liq bo‘lgan realiyalardir. **«Do‘stlik»** hikoyasidagi *kolxoz* so‘zining **«collective farm»** tarzida berilishi funksional jihatdan maqbul bo‘la oladi, chunki bu tarjima sovet davri qishloq xo‘jaligi tizimini ingliz o‘quvchisiga anglatadi va ortiqcha izoh talab qilmaydi.

«Podshoh va kampir» hikoyasidagi *o‘lpon* birligi esa **«tax / tribute»** sifatida izohlanadi va bu yechim nisbatan muvaffaqiyatli bo‘ladi. Chunki u tarixiy-hokimiyat munosabatini saqlaydi va matndagi ijtimoiy adolat g‘oyasi bilan uyg‘unlashadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, hikoyalarning tarjima matnida asosan ingliz o‘quvchisi uchun ravshanlik va soddalikni ta’minlashga qaratilgan strategiyalar anchagina ustun. Tavsifiy tarjima va funksional muqobillar ko‘plab hollarda asar voqealarini tushunarli yetkazishga xizmat qilgan va bu jihatdan tarjimalar kommunikativ vazifani bajaradi.

Biroq X.To‘xtaboyev hikoyalari oddiy syujetli matnlar emas. Ular o‘zbek milliy dunyoqarashi, ijtimoiy muomala va hissiy xotira qatlamlarini ifodalaydi. Shu sababli *alla*, *dasturxon*, *onajon*, *kampir* kabi birliklarning neytrallashuvi yoki noto‘g‘ri izohlanishi asliyatdagi etnomadaniy yukni kamaytiradi.

Shu bilan birga, har bir madaniy birlikni ham albatta, transliteratsiya qilish shart emas. Masalan, *qissadan hissa* yoki b*ir bor ekan, bir yo‘q ekan* kabi birliklarni funksional muqobil bilan berish o‘zini oqlaydi. Demak, eng samarali yo‘l – selektiv yondashuv. Markaziy milliy ramzlarni saqlash, ikkilamchi yoki strukturaviy birliklarni esa maqsadli, til imkoniyatlariga mos tabiiy shaklda berishdir.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning «Qaylardasan bolaligim» to‘plamidagi hikoyalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, milliy-madaniy birliklar ushbu asarlarning badiiy va g‘oyaviy mohiyatini belgilovchi asosiy qatlamlardan biridir. Shu bilan bir qatorda, ular qarindoshlik, mehmondo‘stlik, marosim, xalqona hikmat, ro‘zg‘or buyumlari va ijtimoiy-tarixiy hayot orqali o‘zbek xalqining milliy ruhini shakllantiradi. I.G‘afurov, O. Mo‘minov va N.Qambarov[1] realiyalarni tarjima qilish tarjimon uchun alohida nazariy va amaliy tayyorgarlikni talab etishini ta’kidlaydi. Chunki joy nomlari, ismlar, idora nomlari, milliy iboralar va urf-odatga oid birliklar oddiy lug‘aviy tarjima, so‘zma-so‘z tarjima usuli bilan to‘liq ochilmaydi. Bunday birliklar asliyat, xalqining madaniy tajribasi va milliy koloritini ifodalagani sababli, ularni tarjima qilishda mazmun, vazifa va madaniy kontekstni hisobga olish zarur. Bu tarjimada alohida yondashishni talab qiladi. Bu usullar tarjimonda asliyatdagi milliy koloritni saqlash yoki uni tarjima tili o‘quvchisiga tushunarli shaklda yetkazish imkonini beradi.

Inglizcha tarjimalarda ushbu birliklarni ifodalashda funksional muqobil, tavsifiy tarjima, umumlashtirish, izoh berish va ba’zan transliteratsiya strategiyalaridan foydalanilgan. Muvaffaqiyatli tarjimalar odatda ma’no bilan birga madaniy ko‘rinishni ham saqlagan. Biroq ayrim hollarda soddalashtirish, noto‘g‘ri izohlash, so‘zma-so‘z tarjima qilish yoki tushirib qoldirish natijasida asliyatdagi milliy kolorit ochilmagan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Xudoyberdi To‘xtaboyev hikoyalarini tarjima qilishda eng maqbul yo‘l – tushunarlilik va milliylik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashdir. Ayniqsa, *alla*, *dasturxon*, *kampir*, *onajon* kabi markaziy madaniy birliklarni imkon qadar asliyatga yaqin shaklda, zarur bo‘lsa qisqa izoh bilan berish maqsadga muvofiq desak adashmagan bo‘lamiz. Ana shundagina tarjima nafaqat syujetni, balki o‘zbek madaniyatining ichki ruhini ham yetkazishga qodir bo‘la oladi.

Rezyume. Mazkur maqolada Xudoyberdi To‘xtaboyevning «Qaylardasan bolaligim» hikoyalar to‘plamidagi hikoyalarning inglizcha tarjimalari misolida milliy-madaniy birliklarni tarjimasidagi asosiy muammolar tahlili amalga oshirildi. O‘zbek xalqining turmush tarzi, qarindoshlik munosabatlari, mehmondo‘stlik madaniyati, an’anaviy buyumlarini ifodalovchi madaniy birliklarning inglizcha tarjimada qay tarzda ifodalanishi tadqiqotning asosiy obyekti sifatida olindi. Ushbu maqolada Xudoyberdi To‘xtaboyev hikoyalarini tarjima qilishda tushunarlilik va milliy koloritni saqlash o‘rtasidagi muvozanat muhim ekani asoslab beriladi.

Резюме. В данной статье анализируются основные проблемы перевода национально-культурных единиц на материале английских переводов рассказов из сборника Худойберди Тухтабаева «Қайлардсан, болалигим». Основное внимание в исследовании уделяется способам передачи в английском переводе культурно маркированных единиц, отражающих образ жизни узбекского народа, родственные

[1] G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2012. – B. 26-31.

отношения, культуру гостеприимства, а также традиционные предметы быта. В статье обосновывается, что при переводе рассказов Худойберди Тухтабаева особую значимость приобретает соблюдение баланса между обеспечением понятности текста для иноязычного читателя и сохранением национального колорита оригинала.

Resume. This article analyzes the major problems of translating national-cultural units on the basis of the English translations of stories from Khudoyberdi Tukhtabayev's story collection «Qaylardasan, bolaligim». The study focuses on the ways in which culturally marked units reflecting the lifestyle of the Uzbek people, kinship relations, the culture of hospitality, and traditional household items are rendered in English translation. The article argues that, in translating Khudoyberdi Tukhtabayev's stories, it is essential to maintain a balance between ensuring the comprehensibility of the text for the target reader and preserving the national colouring of the original.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SUD-TIBBIY EKSPERTIZA MATNLARINING DISKURSIV XUSUSIYATLARI

O'roqova Muborak,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasi o'qituvchisi

Zamonaviy lingvistika matnni endilikda faqat statik, struktur birlik sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy-madaniy sharoitda yuzaga keladigan va ma'lum bir kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan murakkab diskursiv faoliyat sifatida talqin etmoqda. Shu jihatdan qaralganda, sud-tibbiy ekspertiza matnlari o'zining ko'p qatlamli, funksional tabiati bilan alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Diskursiv tahlil metodologiyasi tilning ijtimoiy, madaniy va huquqiy kontekstdagi ishlashini o'rganishda muhim vosita sifatida katta ahamiyatga ega[1]. Sud-tibbiy ekspertiza matnlari tibbiy faktlarning aniqligi, huquqiy talablarning qat'iyligi hamda rasmiy kommunikatsiya normalarining me'yoriyligi uyg'unlashgan holda, o'ziga xos va murakkab diskurs turini shakllantiradi. Shu bilan birga, amaliy materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur matnlar bir vaqtning o'zida bir nechta kommunikativ vazifani bajaradi va aynan shu jihat ularning diskursiv murakkabligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Sud-tibbiy ekspertiza xulosasi o'zida bir necha murakkab funksiyani mujassamlashtiradi: u ham ilmiy hujjat, ham huquqiy dalil, ham institutsional kommunikatsiya vositasi, ham jamiyat uchun mas'uliyatli axborot manbaidir. Shu sabab bu matn turining lingvistik tuzilishi, kommunikativ strategiyalari va pragmatik xususiyatlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'ta muhimdir.

Matnlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sud-tibbiy ekspertiza xulosalari nafaqat sof huquqiy, balki sof tibbiy diskurs doirasiga ham to'liq sig'maydi; aksincha, ular har ikki sohaning muhim belgilarini o'zida mujassam etgan gibrid matn turini tashkil etadi. Bunday sintez natijasida mazkur matnlar bir vaqtning o'zida ham ilmiy aniqlikni, ham huquqiy asoslanganlikni ta'minlovchi murakkab kommunikativ birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu hodisa Mixail Baxtin tomonidan ilgari surilgan «heteroglossia» tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda turli nutq uslublari va ijtimoiy tillarning bir matn doirasida uyg'unlashuvi

[1] Teun A. van Dijk T. A. (1997). Discourse as Social Interaction. London: Sage Publications, pp. 1-37.

ta'kidlanadi[1]. Shuningdek, bu holat zamonaviy diskursologiyada keng qo'llanilayotgan «janriy gibridlik» (generic hybridity) konsepsiyasi bilan hamohang bo'lib, u Vijay K. Bhatia tomonidan turli diskurs va janr xususiyatlarining o'zaro qo'shilishi sifatida izohlanadi[2]. Bizning tahlilimizga ko'ra, sud-tibbiy ekspertiza matnlarida ushbu gibridlik nafaqat terminologik darajada, balki sintaktik va pragmatik darajalarda ham yaqqol namoyon bo'ladi, bu esa ularni oddiy institutsional matnlardan ajratib turadi.

Sud-tibbiy ekspertiza matnlar qat'iy reglamentlangan kompozitsion tuzilma, rasmiy uslubiy me'yorlarga bo'ysunish hamda maksimal darajadagi obyektivlikka intilish bilan tavsiflanadi. Institutsional diskurs nazariyasiga ko'ra, «har qanday rasmiy kommunikatsiya shakli ijtimoiy rollar va statuslar bilan belgilangan bo'lib, unda nutq subyektlari erkin emas, balki tizim talablariga muvofiq harakat qiladi»[3]. Shu ma'noda, sud-tibbiy ekspertiza matnlarida muallif – ekspert va adresat – sud yoki tergov organlari o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar ierarxik xarakter kasb etadi hamda qat'iy funksional yo'naltirilganlik bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, ushbu turdagi matnlar individuallikdan xoli bo'lib, muallifning shaxsiy pozitsiyasini emas, balki institutsional nuqtayi nazarni ifodalaydi. Bu holat Norman Ferklou tomonidan ta'kidlanganidek, «institutsional diskurslarda nutq subyekti ko'proq muayyan tizimning vakili sifatida namoyon bo'ladi va uning nutqi shu tizimning ideologik hamda funksional talablarini aks ettiradi»[4]. Natijada sud-tibbiy ekspertiza matni nafaqat axborot beruvchi hujjat, balki ijtimoiy-huquqiy tartibni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ekspertning shaxsiy pozitsiyasi maksimal darajada neytrallashtirilishi ushbu matn turining asosiy diskursiv talablardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining leksik-semantik qatlami yuqori darajada terminologiyalashganligi bilan ajralib turadi. Unda, avvalo, tibbiy terminologiya (anatomik nomlar, fiziologik va patologik holatlarni ifodalovchi birliklar) hamda huquqiy terminlar (jarohat darajasi, sababiy bog'liqlik, javobgarlik mezonlari va boshqalar) o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanadi. Bunday terminologik sintez matnning aniqligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ilmiy diskurs xususiyatlariga ko'ra, «terminlar tizimi bilimni aniq va bir ma'noli ifodalashning asosiy vositasi hisoblanadi»[5], shu sababli sud-tibbiy matnlarda leksik tanlov maksimal darajada standartlashtirilgan bo'ladi.

Masalan, ekspertiza xulosalarida quyidagi kabi aniq va standartlashgan ifodalar uchraydi: «jabrlanuvchining chap yelka sohasida 3 sm uzunlikdagi kesilgan yara aniqlangan», «jarohat o'rtacha og'irlik darajasiga mansub deb baholandi», «o'lim sababi – bosh miya yopiq shikastlanishi natijasida yuzaga kelgan intrakranial qon ketish». Bu misollarda har bir termin (masalan, «kesilgan yara», «o'rtacha og'irlik darajasi», «intrakranial qon ketish») aniq tibbiy-huquqiy tushunchani bildiradi va ularning o'rnini erkin sinonimlar bilan almashtirish mumkin emas. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, aynan terminlarning bunday qat'iyligi ekspert xulosalarining noto'g'ri talqin qilinish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Mazkur matnlarda sinonimik variantlar deyarli qo'llanilmaydi, chunki har bir termin qat'iy semantik chegaraga ega. Masalan, oddiy nutqda «urilgan», «zarba yegan», «lat yegan» kabi variantlar ishlatilishi mumkin bo'lsa, ekspert matnida faqat «to'qimalarning lat yeyishi (kontuziya)» kabi aniq termin qo'llanadi. Xuddi shuningdek, ko'p ma'nolilik (polisemiya) imkon qadar cheklanadi: kundalik tildagi «og'ir» so'zi turli ma'nolarda ishlatilsa, ekspertizada u faqat «og'ir tan jarohati» kabi huquqiy mezon bilan bog'langan holda qo'llanadi.

Shu bilan birga, neytral va bahosiz leksikaning ustunligi kuzatiladi. Masalan, «jabrlanuvchi ayanchli holatda edi» kabi subyektiv baholovchi ifodalar o'rniga «jabrlanuvchining umumiy holati *og'ir deb baholandi»* kabi obyektiv formulalar ishlatiladi. Bu jihat Roman Jakobson ta'kidlagan referensial funksiyaning ustuvorligi bilan izohlanadi, ya'ni til birliklari, avvalo, voqelikni aniq va xolis aks ettirishga xizmat qiladi[6]. Bu holat ilmiy va rasmiy diskursga xos bo'lib, «nutqning asosiy maqsadi – haqiqatga mos va tekshiriladigan axborotni yetkazishdir»[7], degan pragmatik tamoyil bilan uyg'unlashadi.

Natijada sud-tibbiy ekspertiza matni yuqori darajadagi aniqlik, terminologik izchillik va semantik birma'nolilikka asoslangan maxsus leksik tizimni namoyon etadi; bu esa uning huquqiy va ilmiy ishonchliligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Sud-tibbiy ekspertiza matnlari sintaktik jihatdan

[1] Mikhail Bakhtin M. M. (1981). The Dialogic Imagination: Four Essays. Austin: University of Texas Press, pp. 259-422.

[2] Vijay K. Bhatia V. K. (2004). Worlds of Written Discourse: A Genre-Based View. London: Continuum, pp. 57-78.

[3] Teun A. van Dijk T. A. (1997). Discourse as Social Interaction. London: Sage Publications, pp. 1-37.

[4] Herbert Paul Grice H. P. (1975). Logic and Conversation. In: Cole, P., Morgan, J. (eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3. New York: Academic Press, pp. 41-58.

[5] Ruth Wodak R. (2009). The Discourse of Politics in Action: Politics as Usual. London: Palgrave Macmillan, pp. 19-42.

[6] Teun A. van Dijk T. A. (1997). Discourse as Social Interaction. London: Sage Publications, pp. 1-37.

[7] Roman Jakobson R. (1960). Linguistics and Poetics. In: Sebeok, T. A. (ed.), Style in Language. Cambridge, MA: MIT Press, pp. 350-377.

murakkabligi va qat'iy mantiqiy izchilligi bilan ajralib turadi. Ushbu matnlarda fikr ifodasi ko'pincha qo'shma gaplar orqali berilib, sabab-oqibat munosabatlarini aniq ko'rsatishga xizmat qiluvchi konstruktsiyalar keng qo'llanadi. Masalan: «Jabrlanuvchining bosh sohasiga yetkazilgan zarba natijasida bosh miya shikastlanishi yuzaga kelganligi sababli o'lim sodir *bo'lgan*» kabi gaplar voqea va uning oqibatini uzviy bog'liq holda ifodalaydi. Bu esa sabab-oqibat munosabatlarining maksimal darajada aniq ifodalanishini ta'minlaydi va xulosaning ishonchliligini kuchaytiradi. Bunday sintaktik qurilish ilmiy diskursga xos bo'lib, unda «mantiqiy aloqadorlik va izchillik matnning asosiy tashkil etuvchi tamoyillaridan biri hisoblanadi»[1].

Shuningdek, mazkur matnlarda passiv konstruktsiyalar ustunlik qiladi, bu esa bayonning obyektivligini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan: «jarohat aniqlangan», «tekshiruv o'tkazildi», «xulosa berildi» kabi shakllar subyektni ikkinchi darajaga surib, e'tiborni natija va faktlarga qaratadi. Bu holat ilmiy va rasmiy uslubga xos xususiyat bo'lib, muallifning shaxsiy ishtirokini minimallashtiradi.

Bundan tashqari, sud-tibbiy ekspertiza matnlarida standartlashtirilgan iboralar va qoliplar (klishelar) faol qo'llanadi. Jumladan: «tekshiruv natijalariga ko'ra», «yuqoridagilardan kelib chiqib», «mazkur holatni inobatga olib», «xulosa qilinadi» kabi formulalar matnning rasmiyligini va yagona uslubiy standartga mosligini ta'minlaydi. Bu esa Vijay K. Bhatia ta'kidlagan janriy konvensiyalar bilan bog'liq bo'lib, har bir institutsional matn o'ziga xos qoliplarga tayangan holda shakllanadi.

Diskursiv nuqtayi nazardan qaralganda, sud-tibbiy ekspertiza matnlari interdiskursivlik xususiyatiga ega, ya'ni ular bir vaqtning o'zida tibbiy va huquqiy diskurs elementlarini o'zida mujassam etadi. Masalan, «yopiq bosh miya shikastlanishi» (tibbiy termin) va «og'ir tan jarohati sifatida baholanadi» (huquqiy baholash) kabi birliklarning bir matnda qo'llanishi ushbu uyg'unlikni yaqqol namoyon etadi. Bu jarayon Norman Ferklou ta'kidlagan interdiskursivlik tushunchasi bilan izohlanadi, unda turli diskurslarga xos elementlarning birlashuvi orqali yangi kommunikativ shakl yuzaga keladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aynan ushbu interdiskursiv xususiyat sud-tibbiy ekspertiza matnlarini boshqa rasmiy hujjatlardan farqlovchi asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, bunday matnlar adresatga yo'naltirilganligi bilan ham ajralib turadi. Ya'ni ekspert xulosasi, avvalo, tibbiy mutaxassis bo'lmagan sud yoki tergov organlari uchun tushunarli bo'lishi zarur. Shu sababli murakkab tibbiy terminlar ko'pincha izohli yoki kontekst orqali anglashiladigan tarzda beriladi. Masalan: «intrakranial qon ketish (bosh miya ichida qon yig'ilishi*)»* kabi izohli konstruksiyalar qo'llanadi.

Bundan tashqari, ishonchlilik strategiyasi sud-tibbiy diskursning markaziy komponentlaridan biri hisoblanadi. Har bir xulosa dalillar, kuzatuvlar va ilmiy asoslangan mulohazalar bilan mustahkamlanadi: «tekshiruv natijalariga ko'ra aniqlanishicha…», «eksperimental va klinik ma'lumotlarga asoslanib…», «yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilinadi…» kabi formulalar aynan shu strategiyaning lingvistik ifodasidir. Natijada sud-tibbiy ekspertiza matnlari pragmatik aniqlik, diskursiv uyg'unlik va yuqori darajadagi ishonchlilikka yo'naltirilgan murakkab kommunikativ tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, sud-tibbiy ekspertiza matnlari murakkab va ko'p qatlamli diskursiv tizim sifatida tibbiy hamda huquqiy diskurslarning kesishgan nuqtasida shakllanadi. Ular o'zining institutsional xarakteri, yuqori darajadagi terminologik aniqligi, sintaktik jihatdan murakkab va izchil qurilishi hamda pragmatik obyektivlikka yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur xususiyatlar ushbu matnlarning nafaqat ilmiy, balki huquqiy jihatdan ham ishonchliligini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, sud-tibbiy ekspertiza matnlarini lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqotlar orqali ekspert xulosalarining aniqligi va tushunarliligi oshiriladi, terminologik izchillik ta'minlanadi hamda sud-huquq tizimidagi kommunikativ samaradorlik kuchaytiriladi. Natijada bunday yondashuv nafaqat lingvistika rivojiga, balki sud-amaliyotda adolatli va asosli qarorlar qabul qilinishiga ham xizmat qiladi. Demak, sud-tibbiy ekspertiza matnlarini faqat rasmiy hujjat sifatida emas, balki huquqiy haqiqatni lingvistik jihatdan shakllantiruvchi va bilimni strukturallashtiruvchi murakkab diskursiv mexanizm sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Rezyume. Maqolada sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari, shuningdek, ularning tibbiy va huquqiy diskurs sohasidagi lingvistik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu matnlarning institutsional, leksik-semantik, sintaktik va pragmatik jihatlari haqida ma'lumot berilib, ularning murakkab kommunikativ birlik sifatidagi gibrid diskursiv tuzilishi izohlangan.

[1] George Lakoff G., & Mark Johnson M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, pp. 3-32.

Resume. The article reveals the discursive features of forensic medical examination texts, as well as their linguistic characteristics in the field of medical and legal discourse. It also provides information on the institutional, lexical-semantic, syntactic, and pragmatic aspects of these texts and explains their hybrid discursive structure as complex communicative units.

Резюме. В статье раскрываются дискурсивные особенности текстов судебно-медицинской экспертизы, а также их лингвистические характеристики в сфере медицинского и юридического дискурса. Также представлена информация об институциональных, лексико-семантических, синтаксических и прагматических аспектах этих текстов и объясняется их гибридная дискурсивная структура как сложных коммуникативных единиц.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY MATNDA SHARQONA MULOQOT ETIKETI VA NUTQIY STRATEGIYALAR

Tursinbayeva Shaxloxon Alimbayevna,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Zamonaviy tilshunoslikda tilni faqatgina aloqa vositasi emas, balki millat madaniyati, ruhiyati va tarixini o'zida saqlovchi hamda avloddan-avlodga uzatuvchi jonli xazina sifatida o'rganish yetakchi o'ringa chiqdi. Bu borada lingvokulturologiya sohasi millatning dunyoqarashi tilda qanday aks etishini tadqiq etishda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Milliy madaniyat va mentalitetning eng yorqin ko'rinishlaridan biri esa, shubhasiz, – muloqot xulqi va nutqiy etiketdir. Nutqiy etiket har bir xalqning o'ziga xos tarbiyasi, ijtimoiy kelib chiqishi va axloqiy me'yorlarini ifodalaydi. Tarixiy jarayonlarni, xususan, milliy davlatchiligimiz poydevori bo'lgan Amir Temur va temuriylar davri muhitini badiiy gavdalantirishda nutqiy etiket vositalarining o'rni beqiyosdir. Muhammad Alining «Ulug' saltanat»[1] epopeyasi nafaqat tarixiy voqelikni aniq tasvirlagani, balki o'sha davr o'zbekona muloqot xulqining eng nozik qirralarini lisoniy birliklar orqali mahorat bilan ko'rsatib bera olgani bilan ham ahamiyatlidir. Ushbu maqolada asardagi qahramonlar nutqini lingvokulturologik prizma orqali tahlil qilish, davr muloqot madaniyatining til qatlamlaridagi aksini aniqlash maqsad qilingan.

Nutqiy muloqot madaniyati, muloqot xulqi va nutqiy etiket masalalari zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi doirasida, xususan, lingvokulturologiya va pragmalingvistika sohalarining diqqat markazida turadi. Muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy-madaniy qiyofasi, milliy mentaliteti va jamiyatdagi mavqeyi uning nutqiy strategiyalarida namoyon bo'ladi.

Xalqaro miqyosda muloqot etiketining umumnazariy asoslari va xushmuomalalik tamoyillari g'arb tilshunoslari J.Lich (J.Leech) hamda P.Braun va S.Levinson (P.Brown, S.Levinson)[2] tadqiqotlarida keng yoritilgan. J.Lich[3] o'zining xushmuomalalik

[1] Muhammad Ali. Ulug' saltanat. – Toshkent: Sharq, 2013. – 450 b.
[2] Brown, P., Levinson, S. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
[3] Leech, J. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.

maksimalarida (kamtarlik, rozilik, xayrixohlik maksimasi) so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan lisoniy hurmatini saqlashi muloqotning muvaffaqiyatini ta’minlovchi bosh mezon ekanligini asoslaydi.

Rus tilshunosligida muloqot xulqi va lingvokulturologiyaning nazariy poydevori V.Maslova[1], V.Teliya[2] va N.Formanovskaya kabi olimlar tomonidan yaratilgan. Xususan, N.Formanovskaya[3] nutqiy etiketni *«jamiyat tomonidan belgilangan va barqarorlashgan, muloqotni yo‘lga qo‘yuvchi lisoniy markerlar tizimi»* sifatida baholaydi va uning milliy-madaniy xususiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

O‘zbek tilshunosligida muloqot xulqi va milliy etiket me’yorlarining tadqiqi professor N.Mahmudov nomi bilan uzviy bog‘liq. N.Mahmudov[4] o‘zining lingvokulturologik izlanishlarida o‘zbekona muloqotning o‘ziga xos jihatlari, jumladan, andisha, kattaga hurmat, til cheklovlari (tabu) va evfemizmlarning xalq mentalitetini ochib berishdagi o‘rnini mukammal tahlil qilgan. Shuningdek, muloqotning pragmatik va sotsiolingvistik jihatlari M.Hakimov[5], aylanma nutqiy ifodalar (perifrazalar) tizimi A.Mamatov[6], o‘zbek muloqot xulqining etnomadaniy xususiyatlari esa R.Rasulov, Sh.Safarov[7] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Badiiy matn, xususan, tarixiy romanlar tilida nutqiy etiket tamoyillarining namoyon bo‘lishi o‘sha davr ijtimoiy iyerarxiyasini va xalqning o‘tmishdagi madaniy qiyofasini tiklashda muhim manba hisoblanadi. Biroq tilshunoslikda Muhammad Alining «Ulug‘ saltanat» epopeyasi leksikasi, frazeologiyasi va lakunalari alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, asardagi Amir Temur va temuriylar davri saroy hamda oilaviy muloqot strategiyalari, sharqona andishaning lisoniy in’ikosi tizimli ravishda maxsus lingvokulturologik tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Bu esa ushbu maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Muhammad Alining «Ulug‘ saltanat» epopeyasida o‘zbekona muloqot xulqi va nutqiy etiket normalarini tadqiq etishda tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasiga xos bo‘lgan bir qator zamonaviy usul va metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini til va madaniyat yaxlitligini, lisoniy birliklarning pragmatik vazifalarini tizimli o‘rganish tamoyillari tashkil etadi.

Ishda quyidagi ilmiy metodlar majmuyidan foydalanildi:

– *Lingvokulturologik tahlil metodi:* asar matnidagi milliy-madaniy xususiyatga ega bo‘lgan nutqiy etiket shakllari, murojaat birliklari va evfemizmlarning xalq mentaliteti hamda davr dunyoqarashi bilan bog‘liqligini aniqlashda qo‘llanildi.

– *Pragmalingvistik va kontekstual tahlil metodi:* qahramonlar o‘rtasidagi dialogik nutqda qo‘llanilgan nutqiy strategiyalar (kamtarlik, ulug‘lash, andisha) va uslublarning muayyan muloqot vaziyatidagi (saroy etiketida, oilaviy muhitda) o‘ziga xos pragmatik vazifalarini va so‘zlovchi niyatini ochib berish uchun xizmat qiladi.

– *Ta’riflash va sotsiolingvistik guruhlash metodi:* «Ulug‘ saltanat» romanidan ajratib olingan muloqot xulqiga oid komponentlarni lingvistik jihatdan tavsiflash hamda ularni ijtimoiy muhitiga ko‘ra (rasmiy-diplomatik va norasmiy-oilaviy) guruhlarga ajratishda foydalanildi.

Ushbu tadqiqotda o‘n bitta konseptual matn namunasi asosida sharqona muloqot etiketining sotsiolingvistik, pragmatik va lingvokulturologik tabiati o‘rganildi. To‘plangan empirik materiallar tahlili orqali o‘zbek milliy nutqiy strategiyasiga xos bo‘lgan andisha, iyerarxik muvozanat va evfemizatsiya qonuniyatlari ilmiy-badiiy jihatdan yoritib berildi.

Evfemizatsiya va ijtimoiy tabu. Sharq madaniyma’rifiy muhitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon etilishi noqulaylik yoki ruhiy og‘riq chaqiradigan voqeliklarni bilvosita ifodalash – diskursiv andishaning bosh mezoni sanaladi. Amir Temur xonadonidagi oilaviy muloqot tizimi buning lisoniy tasdig‘idir. Xususan, farzandning xastalik holatini tasvirlashda quruq tibbiy tushunchalar o‘rnini *«ichi chiroq yoqsa yorishmasdi»* singari obrazli, ruhiy holatni matnlashgan simvollar egallaydi. Bu o‘rinda inson tushkunligi o‘zbek dunyoqarashiga xos bo‘lgan *«yorug‘lik va zulmat»* qarama-qarshiligi asosida, ya’ni ichki olamning qorong‘ulashishi tarzidagi madaniy kod bilan ko‘rsatilgan.

Muloqotda faol qo‘llangan *«farzandi dilbandim»* va *«jigarporam»* kabi birliklar shunchaki munosabat shakli emas, balki sharqona oila falsafasining lisoniy shakllanishidir. Forscha *«dilband»* (qalbi bog‘langan) hamda o‘zbekona *«jigarpora»* (jigarning bir bo‘lagi) metaforalari somatik (tana a’zolariga oid) qadriyat hisoblanib, ona va farzand o‘rtasidagi nafaqat biologik, balki chuqur metafizik uzviylikni ifodalaydi. Shunga ko‘ra, so‘zlovchi voqelikni bayon etishda shunchaki axborot uzatmaydi, balki tinglovchining ruhiy dax-

[1] Maslova V. A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001. – 208 s.
[2] Teliya V. N. Pervoocherednie zadachi lingvokulturologii. – Moskva: Nauka, 1996. – 320 s.
[3] Formanovskaya N. I. Rechevoy etiket i kultura obsheniya. – Moskva: Visshaya shkola, 1989. – 159 s
[4] Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017. – 142 b.
[5] Hakimov M. O‘zbek tilshunosligida pragmalingvistika masalalari. – Toshkent: Fan, 2013. – 176 b.
[6] Mamatov A. O‘zbek tili perifrazalari tizimi. – Toshkent: Fan, 2009. – 120 b.
[7] Rasulov R., Safarov Sh. Etnomadaniy tilshunoslik va muloqot xulqi xususiyatlari. – Toshkent / Samarqand: SamDU nashri, 2012. – 144 b.

lsizligini asrashga intiladi. Bu esa o‘zbek lingvomadaniyatida andisha va etnomadaniy takt (andisha mezoni) naqadar yuqori bo‘lganini dalillaydi.

O‘lim va yo‘qotish semantikasi ijtimoiy tabu sifatida. Har qanday jamiyatda o‘lim va yo‘qotish fenomenlari ijtimoiy hamda lisoniy tabularni yuzaga keltirishi bilan xarakterlanadi. Sharq madaniy makonida ushbu og‘ir voqelik keltiradigan ruhiy zarbni yumshatish uchun pragmatik nutqiy strategiyalardan keng foydalanilgan. Xususan, matndagi *«dunyoning ishi shu ekan-da!»* konstatatsiyasi shunchaki tasalli iborasi emas, balki foniylik falsafasiga tayanuvchi o‘zbekona eksiztensial koddir. Bu formula orqali so‘zlovchi shaxsiy fojiani borliqning umumiy qonuniyatiga singdirib yuboradi va tinglovchining ruhiy yukini kamaytirishga erishadi.

Shahzoda Jahongir Mirzoning vafotidan so‘ng uning farzandiga unvon berilish jarayonida *«yetimlik»* atamasining chetlab o‘tilishi ham o‘ta nozik etnomadaniy takt samarasidir. Mazkur vaziyatda ijtimoiy tushkunlikni ifodalovchi tushunchalar *«saltanat bog‘ining guli»* va *«Hazrat Sohibqiron diydasining nuri»* kabi yuksak poetik evfemizmlar bilan modifikatsiya qilinadi. Bu yerda *«bog‘»* (davlat/saltanat) hamda *«nur»* (vorislik/umid) metaforalari faollashib, bolaning jamiyat iyerarxiyasidagi o‘rni himoya ostiga olingan. Bunday nutqiy yondashuv sharq davlatchilik etiketi hamda lingvomadaniyatida bolaning ijtimoiy-ruhiy daxlsizligini ta’minlash eng oliy qadriyat bo‘lganini ko‘rsatadi.

Muloqotda lisoniy hurmat va iyerarxiya. Muhammad Alining «Ulug‘ saltanat» epopeyasida harbiy-siyosiy va diplomatik muloqot tizimidan tashqari, kundalik oilaviy muloqotda ham g‘oyat yuksak sharqona etiket elementlari ko‘zga tashlanadi. Muallif qahramonlar tilidagi lisoniy birliklar orqali o‘zbek xalqiga xos andisha va lisoniy nomus tushunchalarini mahorat bilan ochib bergan. Ayniqsa, hukmdorlar va saroy a’yonlari o‘rtasidagi rasmiy muloqotlarda pragmatik strategiyalarning qo‘llanilishi, nafaqat subyektning ijtimoiy maqomini, balki o‘sha davr davlatchilik madaniyatining naqadar yuqori bo‘lganini ham isbotlaydi. Bu esa badiiy matn lingvokulturologiyasini yanada chuqurroq o‘rganish zaruriyatini belgilaydi.

Sharq xalqlari etnomadaniy muloqot tizimida lisoniy hurmat va ijtimoiy hokimiyat tamoyillari nutqiy birliklarning tanlanishini belgilovchi yetakchi omil sanaladi. Qutlug‘ Turkon-oqaning o‘z farzandidek bo‘lgan Jahongir Mirzo bilan muloqotida oilaviy munosabatlar va siyosiy iyerarxiya (hukmdor-fuqaro) o‘rtasidagi nozik muvozanat ko‘zga tashlanadi. Ammaning nufuzini *«so‘zi tosh bosadigan enasining zimmasiga yuklamoqchi»* iborasi orqali ifodalanishi o‘zbekona oila modelida keksa avlod, xususan, Amir Temurga ham onadek aziz bo‘lgan opa so‘zining ijtimoiy-siyosiy salmog‘ini, uning o‘ziga xos hakamlik maqomini ko‘rsatadi. Bu yerda *«tosh bosish»* metaforasi so‘zning shunchaki vaznini emas, balki qarorlarning qat’iyati va muqaddasligini anglatuvchi an’anaviy o‘lchov simvolidir.

Shu bilan birga, badiiy diskursda qo‘llangan *«Bo‘yingizdan aylanayin, bo‘yingizdan!»* kabi emotsional-ekspressiv olqishlar o‘zbek lingvomadaniyatidagi qurbon bo‘lish, fido bo‘lish shakliga tayanadi va ijtimoiy iyerarxiya keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan rasmiy masofani onalik mehri bilan muvozanatga soladi.

Oilaviy-sulolaviy muloqotda ham yuksak etiket saqlanadi. Sharq davlatchilik va oila an’analarida sulolaviy muloqot tizimi o‘ta qat’iy, shakllangan ijtimoiy-madaniy etiket me’yorlariga bo‘ysunadi. Bu tizimda oilaviy munosabatlar va siyosiy maqomlar kesishuvi o‘ziga xos lisoniy muvozanatni yuzaga keltirgan. Farzandning otaga murojaatida aks etgan; *«Vaalaykum assalom! O‘zingizga ham muborak bo‘lg‘ay, shahzodam!»* replikasi shunchaki rasmiy muloqot shakli emas, balki g‘ayritabiiy tuyilgan ijtimoiy hurmat shaklidir. Bu o‘rinda otaning o‘z farzandiga *«shahzodam»* deya ijtimoiy mavqe orqali murojaat qilishi va unga javoban yuksak hurmat ko‘rsatishi sharqona saltanat diskursda shaxsiy emotsiyalarning davlat boshqaruviga bo‘ysundirilganini anglatadi. Ya’ni muloqot subyektlari bir-birlarini oilaviy mavqe (ota-bola) qolipida emas, balki saltanat taqdirini belgilovchi siyosiy institutlar sifatida idrok etadi va hurmat ko‘rsatish jarayoni o‘zaro simmetriklik kasb etadi.

Badiiy diskursdagi *«Qulluq! Qulluq!»* shaklidagi takroriy replikalar esa sharqona muloqotni davom ettiruvchi muloqotning yaqqol etnomadaniy namunasidir. O‘zbek lingvomadaniyatida minnatdorchilik bildirishning ushbu an’anaviy lisoniy kodi iyerarxik masofani, itoatkorlik va sadoqat qadriyatlarini mustahkamlaydi. Mazkur replikaning takroriy shaklda kelishi esa hissiy munosabatning lisoniy kuchliligini ta’minlab, so‘zlovchining suhbatdosh ijtimoiy maqomiga bo‘lgan cheksiz ehtiromini ifodalaydi. Shunga ko‘ra, sulolaviy muloqotda nutqiy birliklar shunchaki axborot almashishga emas, balki mavjud ijtimoiy va siyosiy hokimiyatning lisoniy daxlsizligini saqlashga xizmat qiladi.

Rasmiy maktub uslubida muloqot etiketi oliy nuqtaga chiqadi. Epistolyar diskursda rasmiy muloqot etiketining eng oliy mezonlari namoyon bo‘lib, u diplomatik nutqning strategik muvozanatini ta’minlashga xizmat qiladi. Matnda keltirilgan *«Malik Husayn hazratlarining halol va oqil ekanlariga sira shubhamiz yo‘qdur...»* replikasi lingvistik pragmatika hamda muloqot strategiyasidagi «maqtov maksimasi» (approbasyon) talablariga to‘liq mos keladi. Bir-

oq sharqona rasmiy maktubchilik an'anasida ushbu aksioma shunchaki suhbatdoshga xushomad qilish emas, balki g'arazsizlik va mutlaq ishonch muhitini yaratishga qaratilgan diplomatik usul hisoblanadi.

Bu yerda subyektning ijobiy ijtimoiy qiyofasini asrash hamda qarama-qarshiliksiz muloqot maydonini shakllantirish bosh maqsad qilib olingan. Maktubda qo'llangan «halol» va «oqil» tushunchalari islomiy-falsafiy konseptual maydonga mansub bo'lib, subyektning nafaqat dunyoviy intellektini, balki uning ma'naviy-axloqiy daxlsizligini ham kafolatlaydi. Shunga ko'ra, mazkur lisoniy konstruksiya muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi rasmiy masofani saqlagan holda, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklarning oldini oluvchi va pragmatik hamkorlikni ta'minlovchi lisoniy himoya filtri vazifasini bajaradi.

Gender muloqot etiketi. Gender muloqot diskursiv tahlilida madaniy me'yorlar va ijtimoiy rollarning o'zaro dinamikasini ochib beruvchi eng faol maydonlardan biridir. Saroymulkxonim va Amir Temur munosabatida ustuvor simvolika va muloqot etiketining o'zaro vazifaviy sintezi kuzatiladi. Matndagi *«to'nning uzunligidan oyoqlari ko'rinmas...»* tasviri shunchaki tashqi ko'rinish bayoni emas, balki o'zbek etnomadaniyatida ayol latofati va ijtimoiy maqomini belgilovchi vizual etiket elementidir. Ushbu vizual kod an'anaviy jamoatchilik ongida ayol kishining iffati, andishasi va yuksak tabaqaga mansubligini lisoniy matnlashgan modelidir.

Hukmdorning *«Malikani bizning g'arib chodirimizga olib kirsunlar!»* deya murojaat qilishi g'arb pragmatikasidagi «kamtarlik maksimasi» doirasiga tushsa-da, sharqona etnomadaniy muhitda kamtarinlik sifatining bir pog'ona yuqori shakli bo'lib, yuksak ehtirom etikasini, ya'ni o'z hukmronlik qudratini ayol sha'ni va nufuzi oldida lisoniy pasaytirish (kamtarlik) strategiyasini namoyon etadi.

Saroymulkxonimning og'ir inqirozli vaziyatlarda eriga tasalli berish nutqi esa o'zining konseptual chuqurligi bilan ajralib turadi. Uning *«Amir Sohibqiron hazratlari... nuri diydamiz shirin donasini, birinchi nabiramizni... O'z qo'limizda... Ko'z oldimizda...»* tarzidagi nutqdagi to'xtam va uzilishlarga boy replikasi gender muloqotning psixolingvistik qirralarini ko'rsatadi. Bu yerda bir tomondan ayollarga xos andisha va ruhiy titroq verbalizatsiya qilingan bo'lsa, ikkinchi tomondan, motam diskursidagi og'ir ruhiy yukni er-xotin sifatida birga taqsimlash, ya'ni suhbatdoshni strategik qo'llab-quvvatlash funksiyasi yetakchilik qiladi. Mazkur nutqiy uslub oilaviy uzvlarni saqlash va eng og'ir dramatik vaziyatda ham sulolaviy hokimiyatni ma'naviy jihatdan barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Harbiy-siyosiy kengashlardan keyingi muloqot ritual fotiha va duolar. Sharqona harbiy-siyosiy diskursning o'ziga xos pragmatik xususiyati shundaki, rasmiy majlis va kengashlar faqat qaror qabul qilish bilan yakunlanmaydi, balki muloqot mantiqan fotiha va duolar marosimi orqali yopiladi. Matnda keltirilgan *«Ilohi, o'zi qo'llasun!»*, *«G'anim yuzini teskari etsun!»*, *«Tangri ko'mak bersun!»*, *«Xudo yor! Xudo yor!»* kabi pragmatik birliklar shunchaki an'anaviy nutqiy yakun emas, balki qabul qilingan siyosiy-harbiy qarorlarni ma'naviy-madaniy jihatdan qonuniylashtirish mexanizmidir.

O'zbek lingvomadaniyatida harbiy harakatlar oldidan ilohiy kuchga suyanish va undan madad so'rash shaklining qo'llanishi so'zlovchi va tinglovchilar zimmasidagi ijtimoiy-siyosiy mas'uliyatni metafizik darajaga ko'taradi. Mazkur duolarda faollashgan «g'anim» (dushman) hamda «ko'mak/yor» (ilohiy himoya) ramzlarining uyg'unlashuvi muloqot ishtirokchilarida psixologik daxldorlik va umummilliy birdamlik hissini shakllantiradi. Replika tarkibidagi *«Xudo yor!»* birligining takrorga uchrashi esa nutqiy aktning ta'sir quvvatini oshirib, yakuniy qaror atrofida lisoniy va ruhiy birlashishni ta'minlaydi. Shunga ko'ra, marosim birliklari diskursning pragmatik muvozanatini yakunlovchi va uning sotsial-psixologik qat'iyatini kafolatlovchi eng muhim etnomadaniy marker vazifasini o'taydi.

Insoniy fazilatlar va xatti-harakatlarni baholashda milliy etiket. Shaxsning ijtimoiy xulq-atvori va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini aksiologik nuqtayi nazardan tavsiflashda milliy etiket shartlari yetakchi mezon hisoblanadi. Matnda keltirilgan *«Yaxshilikning ibtidosi sharmdur»* aforistik strukturasi o'zbek lingvomadaniyatining konseptual asosi bo'lgan «andisha» va «uyat» tushunchalarini borliq falsafasiga oid darajaga ko'taradi. Mazkur maksimada sharm shunchaki axloqiy mezon emas, balki shaxs muloqot tizimi va hayotiy strategiyasining bosh boshqaruvchi filtri – etnik mentalitetning tayanch kodi sifatida belgilangan.

Ikkinchi tomondan, jasorat va qahramonlik kabi ijobiy etnik sifatlarni ulug'lashda qo'llangan *«Alpomish yanglig'»* qiyosiy konstruksiyasi sof etnolingvistik etalon hisoblanadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi epik diskursiga mansub bo'lgan ushbu pretsedent birlik shaxs xarakterini tasvirlashda shunchaki metafora vazifasini bajarmaydi. U milliy ong ostida shakllangan mukammal qahramon timsolini faollashtiradi va lisoniy subyektning jamiyat oldidagi ijtimoiy salmog'ini eng oliy darajaga ko'taradi.

Yuqorida amalga oshirilgan lingvomadaniy va pragmatik tahlillar natijasiga tayanib, o'zbek muloqot tizimi o'ziga xos konseptual, iyerarxik va etnomadaniy qonuniyatlarga ega ekanligini ko'ramiz. Mazkur qonuniyatlar doirasida quyidagi sharqona

muloqot etiketlari va diskursiv strategiyalar tizimini umumlashtirish mumkin:

Pragmatik interpretatsiya: Sharqona muloqot tizimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot uzatishdan ko‘ra, ko‘chma va bilvositaviy maqsadlar ustunlik qiladi. Bu esa nutq tinglovchidan yuqori darajadagi lingvistik va madaniy kompetensiyani talab qiladi.

Madaniy barqarorlik: Tahlil qilingan leksik va frazeologik birliklar (olqishlar, duolar, evfemizmlar) o‘zbek xalqining milliy mentalitetini va ijtimoiy qadriyatlarini asrlar davomida o‘zgartirmasdan saqlab kelayotgan lingvokulturemalardir.

Strategik funksionallik: Nutqiy etiket shunchaki madaniyat belgisi emas, balki davlat boshqaruvi, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi universal regulyativ mexanizm vazifasini bajargan.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Alining «Ulug‘ saltanat» epopeyasi asosida olib borilgan tadqiqot sharqona muloqot etiketining o‘ziga xos sotsiolingvistik, pragmatik va lingvokulturologik qonuniyatlarini ochib beradi. Mazkur diskursda sof axborot uzatishga qaraganda, suhbatdoshlar o‘rtasida ijtimoiy masofani belgilash hamda iyerarxik muvozanatni saqlash funksiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Milliy nutqiy strategiyaning o‘zagini tashkil qiluvchi andisha va kamtarlik maksimasi muloqot ishtirokchilarining bir-biriga bo‘lgan yuksak ehtiromini ifodalaydi. Jamiyatdagi og‘ir, noxush yoki tabu hisoblangan voqeliklarni bevosita emas, balki metaforik evfemizmlar orqali uzatish tizimi tinglovchini ruhiy jarohatlardan asrashga xizmat qiladi. Matnlarda faol qo‘llanilgan duo, olqish va oq fotiha kabi lisoniy vositalar asrlar davomida o‘zgarmasdan kelayotgan barqaror lingvokulturemalar hisoblanadi. Umuman olganda, badiiy diskursda aks etgan ushbu nutqiy taktikalar o‘zbek xalqining yuksak muloqot madaniyati va boy lisoniy imkoniyatlaridan dalolat beradi.

Rezyume. Maqolada Muhammad Alining «Ulug‘ saltanat» epopeyasi misolida badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar masalalari yoritilgan. Muallif o‘zbek milliy mentalitetini aks ettiruvchi lisoniy hurmat, andisha va ijtimoiy iyerarxiya markerlarini tahlil qilgan. Pragmatik va lingvokulturologik tahlillar asosida qahramonlarning muloqot xulqi xususiyatlari ochib berilgan.

Резюме. В статье рассматриваются восточный речевой этикет и речевые стратегии в художественном тексте на примере эпопеи Мухаммада Али «Великое царство». Автор анализирует языковые маркеры вежливости, уважения и социальной иерархии, отражающие узбекский национальный менталитет. На основе прагматического и лингвокультурологического анализа раскрываются особенности коммуникативного поведения героев.

Resume. The article examines Eastern speech etiquette and speech strategies in a literary text based on Muhammad Ali’s epic «The Great Kingdom». The author analyzes linguistic markers of politeness, respect, and social hierarchy that reflect the Uzbek national mentality. Based on pragmatic and linguacultural analysis, the features of the communicative behavior of the characters are revealed.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

IJTIMOIY REKLAMA DISKURSIDA TIL, MA'NO VA MADANIYAT MUNOSABATI

Xaliqulova Musharraf Egamnazar qizi,
Navoiy davlat universiteti, o'qituvchi

Reklama jamiyatda biron bir mahsulot yoki ijtimoiy dolzarb masala to'g'risida ommaga axborot yetkazish uchun xizmat qiladi. Shu vazifasiga ko'ra, reklamaning asosiy elementi til hisoblanadi. Odatda, reklama matnlari tili boshqa ommaviy axborot nashrlari tilidan ancha farq qiladi. Chunki reklama kontekstida, ayniqsa ijtimoiy reklamalarda til birliklari faqatgina ma'lumot yetkazish uchun emas, balki ommani harakatga undash, fikrga ta'sir o'tkazish uchun xizmat qiladi. Ta'sirli xabarlarni yaratishda esa reklama yaratilayotgan jamiyat til va madaniyatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ijtimoiy reklama matnlarini tahlil qilar ekanmiz, uning ham kommunikativ, ham ijtimoiy, ham lingvomadaniy hodisa ekanligiga guvoh bo'lamiz. Reklama orqali ma'lum ijtimoiy, ma'rifiy yoki madaniy qadriyatlarni uzatishga erishish mumkin. Zero, reklama o'zida aks ettirayotgan davlat fuqarolarining ruhi, psixologiyasi, mentaliteti, shuningdek, madaniyatini ham o'zida mujassamlashtiradi. Reklama matnini o'rganishda nafaqat konseptual, balki diskursiv yondashuv ham talab etiladi. Chunki reklama matni lingvistik hamda kulturologik jihatlar, qadriyatlar bilan hamohang tarzda yaratiladi.

Ijtimoiy reklama matnlarini lingvistik, lingvomadaniy, semantik va diskursiv jihatdan o'rganish zamonaviy tilshunoslikning faol rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada bir qator xorijiy va mahalliy olimlar muhim tadqiqotlar olib borgan. Semantika va ma'no nazariyasi doirasida ingliz tilshunosi J. Lich so'z ma'nolarini denotativ, konnotativ, ijtimoiy, effektiv, reflektiv, kollokativ va tematik turlarga ajratib o'rganadi.[1] Uning ishlari reklama matnlaridagi ma'no qatlamlarini tahlil qilishda asosiy nazariy baza sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy lingvomadaniy tadqiqotlarda V. Maslova va V. Krasnix kabi olimlar til birliklarining madaniy kodlar bilan bog'liqligini chuqur tahlil qilgan.[2] Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy reklama matni lingvistik birlik sifatida nafaqat semantik ma'no, balki ijtimoiy va madaniy kodlarni ham o'zida mujassam etadi.

Mazkur tadqiqotda ijtimoiy reklama matnlarining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash maqsadida semantik hamda diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida ekologiya, bolalar huquqlari, gender tengligi, sog'lom turmush tarzi va zo'ravonlikka qarshi kurash mavzulariga oid ingliz tilidagi ijtimoiy reklama namunalari tanlab olindi. Jumladan, «Save the Planet», «No Child Marriage», «Stop Domestic Violence», «Say No to Drugs» kabi xalqaro ijtimoiy kampaniyalar reklama matnlari tahlil qilindi.

Tadqiqot materiallari xalqaro tashkilotlar va ijtimoiy kampaniyalarning rasmiy internet sahifalari hamda ommaviy media platformalaridan olindi. Xususan, Save the Children, UNICEF, World Health Organization va UN Women tomonidan e'lon qilingan ijtimoiy reklama materiallaridan foydalanildi. Shuningdek, reklama namunalari YouTube, Instagram va ijtimoiy kampaniyalar arxivlaridan yig'ildi.

Tahlil jarayonida reklama matnlaridagi til birliklari J.Lichning ma'no turlari nazariyasi asosida denotativ, konnotativ, ijtimoiy, effektiv, reflektiv, kollokativ va tematik ma'nolar nuqtai nazaridan o'rganildi. Tadqiqot davomida reklama matnlarining kommunikativ samaradorligi, emotsional ta'siri hamda madaniy xususiyatlari aniqlab berildi.

Ijtimoiy mavzudagi reklamalar alohida uslubiy yondashuv talab etadi, chunki ular jamoatchilik fikrini shakllantirish, xulq-atvorni o'zgartirish va ijtimoiy muammolarga e'tiborni jalb qilishga qaratiladi. Bunda lingvistik va nolingvistik vositalar bir-biri bilan o'zaro bog'liq, biri ikkinchisini to'ldiruvchi xususiyatga ega. Reklama matnlarida aks etuvchi barcha so'z, rasm, shartli belgi va simvollar o'zaro yaxlit holda umumiy ma'noni tinglovchi/tomoshabinga yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Ya'ni, reklama matni semantikasini to'g'ri tushunish lingvistik va nolingvistik birliklar tanlanishidagi mutanosiblikka bog'liq hisoblanadi.

[1] Leech G. English in advertising: A linguistic study of advertising in Great Britain (English Language Series). London: Longman, 1972. – P. 109.

[2] Красных В.В. Некоторые базовые понятия лингвокультурологии // Русский язык: Исторические судьбы и современность. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2010. – С. 659–660.

Ingliz tilshunos olimi J.Lich so‘z ma’nolari turlarga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi.[1] Tilshunosning ta’kidlashicha, so‘z kontekstga ko‘ra turli ma’nolarda qo‘llanilishi mumkin, so‘z ma’nosini turlarga ajratish tahlil qilish uni to‘g‘ri tushunishda, tilning murakkab va ko‘p qatlamli tabiatini yaxshiroq anglashda yordam beradi. U tilshunoslikda so‘z ma’nolarini yettita turga ajratib o‘rganadi.

Denotativ ma’no (Denotative meaning) bu so‘zning to‘g‘ridan-to‘g‘ri, lug‘aviy, ya’ni asl ma’nosi, kontekst tarkibidan ajratib olinganda o‘zida saqlab qoladigan ma’no hisoblanadi. Ba’zi manbalarda so‘zning konseptual ma’nosi deb ham yuritiladi. Denotatsiya so‘zni bilgan har bir kishi uchun bir xil bo‘ladi. Misol uchun «qush» so‘zi bu «uchadigan va tuxum qo‘yadigan hayvon» ni anglatadi.

Konnotativ ma’no (Connotative meaning) – so‘zni ishlatishda unga qo‘shilgan qo‘shimcha ma’nolar yoki tasavvurlar, so‘zning birdan ortiq ma’noga ega bo‘lishi, ya’ni konseptual ma’nodan tashqari, kontekstda anglab olinadigan ma’nosidir. Bu ma’no, asosan, hissiy, madaniy yoki shaxsiy qarashlardan kelib chiqadi. Masalan, «qizil» rangining konnotativ ma’nosi bu rang ba’zi madaniyatlarda muhabbat, ehtiros, xavf yoki qasosni anglatishidir. Bunda «qizil» rangining asosiy (denotativ) ma’nosi bilan birga, turli kontekstlarda qo‘shimcha ma’nolari (konnotatsiyalar) hosil bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Ijtimoiy ma’no (Social meaning) so‘z yoki ifodaning auditoriya yoki tilni ishlatishning maqsadiga qarab o‘zgarishi hisoblanadi. Bu ma’no turi tilning ijtimoiy status, guruh yoki ma’lum bir madaniyatga oidligini bildiradi, jamiyatdagi qadriyatlar, me’yor va normalarni aks ettiradi. Ijtimoiy ma’no so‘zning ijtimoiy kontekstda qanday qabul qilinishi va uning funksiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, «people» (odamlar) so‘zining denotativ ma’nosi biologik mavjudotni ifodalasa, ijtimoiy ma’nosi odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni, hurmat va tenglikni aks ettiradi. «When we make things accessible, we make things possible for all people» degan jumlada esa ijtimoiy darajasi, shaxsiy qobiliyatlaridan qat’i nazar jamiyat vakillari teng va bir xil huquq-majburiyatlarga ega ekanligini ta’kidlaydi. «Ayol» va «erkak» so‘zlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu so‘zlar faqat jinsga oid emas, balki ijtimoiy rollarni, o‘zaro munosabatlarni ham belgilaydi. «Ayol» va «erkak» so‘zlari ma’lum bir yosh va jinsdagi ijtimoiy rollarni anglatsa-da, ularning ijtimoiy ma’nosi jamiyatdagi qarashlar va me’yorlarga qarab farq qiladi. Misol uchun, ‘Be a real man’ (Haqiqiy erkak bo‘ling!) kabi iboralar ijtimoiy normativ va qadriyatlarni ifodalaydi.

Effektiv ma’no (Effective meaning) so‘z yoki iboralar orqali ifodalangan hissiy holat yoki tuyg‘ularni anglatadi. So‘zlarning affektiv ma’nosi odatda gapiruvchining hissiyotlari yoki ruhiy holatini aks ettiradi. Masalan, «Bu juda yomon!» iborasi effektiv ma’nosi orqali gapiruvchining noroziligi yoki g‘azabini bildiradi. Bu ma’no so‘zlovchi ovozining ohangi va intonatsiyasiga bog‘liq.

Reflektiv ma’no (Reflective meaning) so‘z yoki ifodaning ikki yoki undan ortiq ma’nolarni anglatishi va bu ma’nolarning bir-birini tasdiqlashidir. Reflektiv ma’no tilni ishlatishda semantik ko‘pma’nolilikni ko‘rsatadi. Bunda bir ma’no ikkinchi ma’noni keltirib chiqaradi. Aniqroq qilib aytganda, bir narsa ikkinchi narsaga ta’sir o‘tkazadi. Misol uchun «yorug‘lik» so‘zini olaylik, bir tomondan «nurlanish»ni anglatsa, boshqa tomondan «bilish yoki tushunish»ni anglatadi. Bu ma’nolar bir-birini reflektiv ravishda to‘ldiradi. Bundan tashqari, so‘z yoki iboraning individual yoki ijtimoiy tajriba asosida bog‘langan qo‘shimcha tasavvurlarini anglatishi ham reflektiv ma’noga kiradi. Bu ma’no biror so‘zning boshqa narsalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligiga ishora qiladi. Masalan, «yashil» rangining assotsiativ ma’nosi «tabiat», «bahor» yoki «yangi boshlanishlar» bilan bog‘lanishi mumkin.

Kollokativ ma’no (Collocative meaning) bu so‘zlarning birgalikda ishlatilishidagi tabiiylik va o‘rinliligini anglatadi. So‘zlarning boshqa so‘zlar bilan birikib, hosil qiladigan ma’nosi hisoblanadi. Bunda bir so‘z boshqa bir so‘z bilan o‘zaro munosabatga kirishib, ma’noli va ta’sirli gap hosil qiladi. So‘zlar o‘rtasidagi muntazam tabiiy kombinatsiyalar tilga xos bo‘lib, bular ijtimoiy kontekstlarda, ayniqsa reklama matnlarida, muhim rol o‘ynaydi. Kollokatsiyalar reklama xabarlarida ko‘pincha maqsadli auditoriya bilan samarali muloqot qilish uchun ishlatiladi, chunki ular ehtiyotkorlik bilan tanlangan so‘zlar yordamida ma’lumotni aniq va esda qolarli tarzda yetkazadi. Reklama matnlarida kollokativ ma’no orqali ijtimoiy mavzularni ilgari surish ko‘pincha tomoshabinlarning hissiyotlarini uyg‘otish va ularning e’tiborini tortish uchun ishlatiladi. Misol uchun «Save the planet» (Sayyorani saqlang) jumlasini olaylik. «Save» va «planet» so‘zlari ko‘pincha birga ishlatiladi va bu kombinatsiya ekologik kampaniyalar uchun keng tarqalgan kollokatsiya hisoblanadi. Bu so‘zlar birgalikda tabiiy va odatiy eshitiladi, shuning uchun auditoriya ular orqali ekologik masalalarga bo‘lgan e’tiborni jalb qiladi.

Tematik ma’no (Thematic meaning) matndagi asosiy mavzu yoki g‘oyani anglatadi, suhbatning umumiy mazmuni va yo‘nalishini ko‘rsatadi. «Protect the nature» (Tabiatni himoya qiling) rekla-

[1] Leech G.N. Semantics: The Study of Meaning, Harmondsworth, Middlesex, England; New York, N.Y., U.S.A.: Penguin. 1981, -P.42.

masi ekologik muammolarga e’tibor qaratadi va atrof-muhitni saqlash, tabiiy resurslarni himoya qilish kabi muhim g‘oyalarni ilgari suradi.

Xulosa qilib aytganda, J.Lichning ma’no turlari tilshunoslikda tilning o‘zgaruvchan va murakkab xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Har bir ma’no turi tilning turli jihatlarini, masalan, hissiy holatlar, ijtimoiy kontekstlar, reflektiv va assotsiativ bog‘lanishlar kabi aspektlarni ko‘rsatadi. Bu turlarni o‘rganish, tilning semantik va pragmatik nuqtayi nazardan yanada chuqur tushuncha hosil qilishga yordam beradi. Tadqiqot davomida ijtimoiy reklamalarda qo‘llanilgan til birliklari auditoriyani muayyan ijtimoiy muammolarga e’tibor qaratishga, fikrlashga va harakat qilishga undashi aniqlandi. J. Lichning ma’no turlari nazariyasi asosida olib borilgan tahlil reklama matnlarida ma’nolar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, konnotativ va affektiv ma’nolar reklama xabarining emotsional ta’sirchanligini oshirishda muhim rol o‘ynashi kuzatildi.

Ijtimoiy reklama matnlarida lingvistik va nolingvistik vositalarning birgalikda qo‘llanishi reklama samaradorligini ta’minlaydi. Reklama matnlari orqali ma’lum bir jamiyatning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy me’yorlari va mentaliteti aks etishi tadqiqotning lingvomadaniy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy reklama matnlarini semantik, diskursiv va lingvomadaniy jihatdan o‘rganishda nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, kelgusida reklama tilini tadqiq etishga oid ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

[3] Dryden John. The Indian Emperour; or, The Conquest of Mexico by the Spaniards. London: J. M. for Henry Herringman, 1667. – P.19–20.

[4] Hansen, Christiane. Heroic Drama between Passions and Politics // helden. heroes. héros. – 2016. – Vol. 4. – No. 1. – P. 50.

[5] Dryden John. The Indian Emperour; or, The Conquest of Mexico by the Spaniards. London: J. M. for Henry Herringman, 1667. – P.47.

ly. Their importance lies in their ability to reveal that heroic masculinity depends on being believed.

Lyndaraxa treats love as a market of political possibilities. Her irony exposes the exchange concealed beneath the language of devotion, but she also participates in that exchange. She wants to “live without control” and therefore measures suitors by their capacity to provide sovereignty. The phrase mirrors the heroic male desire for independence. Dryden gives a woman the same absolutist aspiration voiced by warriors, and the parallel is ironic: male ambition is conventionally named honour, whereas female ambition is more quickly recognized as calculation.

Nourmahal’s sarcasm performs a different function. She attacks the double standard that permits royal male appetite to describe itself as liberty while condemning female resistance as pride or changeability. Her verbal victories do not make her morally stable, but they make the Emperor’s self-exemption impossible to ignore. She turns age, desire, and hypocrisy into counterarguments against prerogative.

Indamora’s irony is more restrained and ethical. She repeatedly distinguishes love from force and praise from possession. By accepting the Emperor’s vocabulary temporarily and then redirecting it toward Aureng-Zebe’s merit, she forces the ruler to confront the contradiction between paternal and erotic roles. Her wit protects moral boundaries without relying on open insult. In this respect, Dryden presents irony as a form of agency available within constraint.

Gendered irony therefore complicates the heroic drama’s apparent concentration on male action. Battles and successions shape the plot, but interpretive power shapes the audience’s judgment. Women often decide whether the language of heroism will be received as noble, ridiculous, coercive, or false.

Irony is one of the principal means by which John Dryden gives intellectual complexity to heroic drama. The genre’s elevated style does not merely proclaim ideals; it creates a standard against which conduct can be measured. Verbal irony redirects the language of praise, virtue, liberty, and service. Dramatic irony reveals that characters who claim mastery are often governed by passions they cannot acknowledge. Situational irony transforms conquest into dependence, authority into ingratitude, and forced love into the proof that love has failed. Grotesque hyperbole exposes the moral disproportion of tyrannical desire, while political irony separates the universal claims of empire from its material motives.

Across The Conquest of Granada, Aureng-Zebe, Tyrannick Love, and The Indian Emperour, Dryden constructs heroic identity and subjects it to continuous testing. Almanzor’s natural freedom is magnificent but socially disruptive and emotionally incomplete. The Emperor’s prerogative is weakened by jealousy. Maximin’s absolute will becomes the most visible form of slavery to appetite. Spanish religious authority is challenged by its association with land, gold, and coercion. In each case, irony emerges from the distance between self-description and dramatic reality.

The role of female wit is especially significant. Lyndaraxa, Nourmahal, and Indamora demonstrate that those excluded from formal sovereignty may possess superior control over interpretation. Their replies expose the assumptions on which male heroic authority depends. As a result, Dryden’s heroic drama cannot be understood as simple praise of extraordinary rulers and lovers. It is a theatre of double vision: spectators are encouraged to feel the attraction of grandeur and, at the same moment, to recognize its instability. Irony preserves heroic energy while preventing heroic ideology from becoming unquestioned truth.

Resume: This article examines the principal ways in which irony is created in John Dryden’s heroic dramas. Although heroic drama publicly celebrates extraordinary love, valour, honour, and sovereign power, Dryden repeatedly places these ideals under pressure through verbal reversals, dramatic discrepancies, situational defeats, grotesque hyperbole, political contradiction, and female wit. The analysis focuses on The Conquest of Granada, Aureng-Zebe, Tyrannick Love, and The Indian Emperour. It argues that irony is not a decorative addition to the heroic mode but one of its main organizing principles: the elevated couplet announces grandeur, while plot, dialogue, and theatrical context expose the instability of heroic self-images.

Keywords: John Dryden, heroic drama, irony, verbal irony, dramatic irony, heroic couplet, political authority, gendered wit.

Резюме: В данной статье рассматриваются основные способы создания иронии в героических драмах Джона Драйдена. Хотя героическая драма публично воспевает необычайную любовь, доблесть, честь и суверенную власть, Драйден неоднократно подвергает эти идеалы давлению с помощью вербальных переворотов, драматических несоответствий, ситуационных поражений, гротескной гиперболы, политических противоречий и женского остроумия. Анализ сосредоточен на “Завоевании Гранады”, “Ауренг-Зебе”, “Тиранической любви” и “Индийском императоре” В ней утверждается,

что ирония является не декоративным дополнением к героическому ладу, а одним из его основных организующих принципов: возвышенный куплет возвещает о величии, в то время как сюжет, диалог и театральный контекст разоблачают нестабильность героических самообразов.

Ключевые слова: Джон Драйден, героическая драма, ирония, вербальная ирония, драматическая ирония, героический стих, политический авторитет, гендерный остроумие.

Rezyume: Ushbu maqolada Jon Draydenning qahramonlik dramalarida kinoya yaratilishining asosiy usullari ko‘rib chiqiladi. Garchi qahramonlik dramasi g‘ayrioddiy sevgi, jasorat, sharaf va suveren kuchni omma oldida ulug‘lasa-da, Jon Drayden bu ideallarni og‘zaki o‘zgarishlar, dramatik nomuvofiqliklar, turli vaziyatdagi mag‘lubiyatlar, grotesk mubolag‘alar, siyosiy ziddiyatlar va ayollar zukkoligi orqali qayta-qayta tasvirlaydi. Tahlil “Granadaning zabt etilishi”, “Aureng-Zebe”, “Zulmkor muhabbat” va “Hind imperatori” asarlariga qaratilgan. Asarlardagi kinoya qahramonlik usuliga dekorativ qo‘shimcha emas, balki uning asosiy tashkiliy tamoyillaridan biridir. Ko‘tarinki bayt ulug‘vorlikdan darak bersa, syujet, dialog va teatrlashtirilgan kontekst qahramonlarning o‘z-o‘zini tasvirlashidagi beqarorlikni fosh etadi.

Kalit so‘zlar: Jon Drayden, qahramonlik dramasi, kinoya, og‘zaki kinoya, dramatik kinoya, qahramonlik bayti, siyosiy hokimiyat, genderli hazil.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JADID LIRIKASIDA TARIXIY ANTROPONIMLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN ANTONOMAZIYALARNING LINGVOPOETIK VA KONSEPTUAL XUSUSIYATLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
Yozdonqulova Ozoda Zokirjon qizi
e-pochta: o.yozdonqulova@dtpi.uz
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-7082-0248

XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati o'zbek xalqining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlar yasagan muhim tarixiy jarayon hisoblanadi. Mazkur davr adabiyoti milliy uyg'onish g'oyalarining badiiy ifodasi sifatida shakllanib, til va uslub nuqtayi nazaridan o'ziga xos taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Jadid ijodkorlari milliy ongni uyg'otish, xalqni ma'rifat va taraqqiyot sari yetaklash maqsadida badiiy tasvir vositalaridan keng foydalandilar. Ana shunday vositalardan biri antonomaziya hisoblanadi.

Antonomaziya qadimiy poetik figura bo'lib, ma'lum bir shaxs, voqea yoki hodisaning nomi orqali boshqa bir tushuncha, sifat yoki belgini ifodalashga xizmat qiladi. U lingvopoetik nuqtayi nazardan badiiy matnning semantik qatlamini boyitish, ekspressivligini kuchaytirish hamda kitobxon ongida qo'shimcha assotsiativ maydon hosil qilish vazifasini bajaradi. So'nggi yillarda tilshunoslikda antropotsentrik paradigma rivojlanishi natijasida inson omili bilan bog'liq til birliklariga qiziqish kuchaydi. Xususan, antroponimlarning badiiy matndagi funksional imkoniyatlari, ularning lingvomadaniy xususiyatlari va intertekstual mohiyatini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylandi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – jadid lirikasi namoyandalari ijodida qo'llangan tarixiy antroponimlar asosidagi antonomaziyalarning leksik-semantik, lingvopoetik va konseptual xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida Sidqiy Xondayliqiy, Usmon Nosir, Cho'lpon va Abdulla Avloniy she'riyati tanlandi. Metodologik asos sifatida lingvopoetik tahlil, konseptual tahlil, pretsedent birliklar nazariyasi hamda intertekstual yondashuv qo'llanildi. Materialni tanlashda tarixiy antroponimning pretsedentlik darajasi, matndagi funksional yuklamasi va muallif individual uslubidagi o'rni inobatga olindi.

Antonomaziya masalasi jahon tilshunosligida uzoq tarixga ega. Uning ilk nazariy asoslari Aristotel va Kvintilian asarlarida uchraydi. Keyingi davrlarda bu hodisa stilistika, poetika va semantika doirasida keng tadqiq etildi. Rus tilshunosligida Yu.N.Karaulov pretsedent nomlarni milliy ongning muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Uning fikricha, ma'lum bir nomning pretsedentlik darajasi uning jamiyat a'zolari tomonidan qay darajada tanilishi va ma'lum axborotni uzata olish qobiliyati bilan belgilanadi[1]. V.V.Krasnix[2] esa pretsedent fenomenlarni lingvokulturologiyaning asosiy obyektlaridan biri sifatida ko'rib, ularni madaniy xotiraning muhim shakli deb talqin qiladi. Yu.S.Stepanov[3] va N.D.Arutyunova[4] ishlari madaniy kodlar va konnotativ semantikaga oid nazariy asoslarni boyitadi.

O'zbek tilshunosligida D.Xudoyberganova[5], N.Mahmudov[6], Sh.Safarov[7], M.Yo'ldoshev[8], N.Nor-

[1] Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 1987. – 264 с.
[2] Красных В. В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: курс лекций. – Москва: Гнозис, 2002. – 284 с.
[3] Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Академический проект, 2001. – 990 с.
[4] Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – 2-е изд., испр. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
[5] Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.; Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 44 б.; Худойберганова Д. С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015.
[6] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2012. – № 5.; Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
[7] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
[8] Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.; Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.

murodova[1] kabi olimlarning ishlari antropotsentrik tilshunoslik va lingvopoetika rivojida muhim o‘rin tutadi.

Shunga qaramay, jadid lirikasi tilida uchraydigan tarixiy antroponimlar asosidagi antonomaziyalarning lingvopoetik va konseptual xususiyatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda tarixiy antroponimlar oddiy stilistik figura sifatida emas, balki kognitiv-lingvokulturologik mexanizm sifatida tahlil qilinadi. Bu mexanizm ensiklopedik bilimning faollashuvi, assotsiativ maydonning shakllanishi va muallif individual niyatining yangi poetik ma’no hosil qilishi bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy tilshunoslikda antroponimlar faqat nominativ birlik sifatida emas, balki muayyan madaniy axborotni o‘zida mujassamlashtiruvchi lingvomadaniy birlik sifatida talqin qilinmoqda. Tarixiy shaxs nomlari jamiyatning kollektiv xotirasida saqlanadigan va avloddan-avlodga uzatiladigan bilimlar majmuasini ifodalashi bilan ajralib turadi. Jadid lirikasida uchraydigan Jamshid, Iskandar, Sulaymon, Mahmud G‘aznaviy, Nasimiy, Spartak kabi nomlar aynan pretsedent birliklar hisoblanadi. Ularning pretsedentlik darajasi quyidagi omillar bilan belgilanadi: a) tarixiy mashhurligi; b) milliy madaniyatdagi o‘rni; d) diniy va ma’naviy qadriyatlarga aloqadorligi; e) badiiy adabiyotdagi faolligi; f) ramziy ma’no hosil qila olish qobiliyati.

Tarixiy antroponimlarning badiiy matndagi funksional imkoniyatlarini quyidagi jadval asosida umumlashtirish mumkin:

Antroponim	Manbasi	Yetakchi sema	Lingvopoetik vazifasi
Jamshid	Eron mifologiyasi	adolat, qudrat	ideallashtirish
Doro	tarixiy hukmdor	saltanat	mubolag‘a
Sulaymon	diniy manba	hikmat	ramziylik
Iskandar	tarixiy-afsonaviy	g‘alaba	qiyoslash
Mahmud G‘aznaviy	tarixiy shaxs	hukmdorlik	didaktik ta’sir
Ayoz	tarixiy-afsonaviy	sadoqat	axloqiy ideal
Nasimiy	tarixiy shaxs	fidoyilik	emotsionallik
Spartak	antik tarix	ozodlik	ijtimoiy-siyosiy ramz

Jadvaldan ko‘rinadiki, antroponimning badiiy matnga kirishi bilan uning denotativ ma’nosi ikkilamchi planga o‘tadi. Asosiy semantik yuk tarixiy shaxs bilan bog‘liq ijtimoiy, madaniy, diniy va axloqiy tasavvurlar majmuasi hisobiga shakllanadi. Shu sababli jadid ijodkorlari tarixiy nomlardan foydalanishda nominativ vazifadan ko‘ra ko‘proq assotsiativ va konnotativ imkoniyatlarga tayanadilar. Natijada bitta tarixiy nom butun bir konseptual maydonni faollashtiruvchi lingvopoetik vositaga aylanadi.

Sidqiy Xondayliqiy lirikasida antonomaziya. Sidqiy Xondayliqiy she’riyatida tarixiy antroponimlardan foydalanish ko‘lami jihatidan jadid lirikasi vakillari orasida alohida ajralib turadi. Uning she’riy merosida Sharq va G‘arb tarixiga, Islom sivilizatsiyasiga, fors-tojik adabiyotiga, turkiy madaniyatga hamda Rossiya imperiyasi tarixiga oid yuzlab tarixiy nomlar uchraydi. Bu ijodkorning tarixiy tafakkuri kengligi va tarixiy obrazlarni badiiy tafakkur vositasiga aylantirish mahoratini ko‘rsatadi.

Sidqiy Xondayliqiy tarixiy antroponimlarni tasvir ob’ekti sifatida emas, balki estetik baholash vositasi sifatida qo‘llaydi. Bunda tarixiy shaxsning hayot yo‘li yoki xarakteriga oid eng muhim belgi umumlashtirilib, poetik matnning semantik markaziga aylantiriladi. Masalan, *“Doro-yu Jamdin kam”* shaklidagi jumlada Jamshid antroponimi tarixiy shaxsning o‘ziga emas, balki uning timsolida mujassam bo‘lgan ideal hukmdor modeliga ishora qiladi. Bu yerda antonomaziya tarixiy shaxs nomining metaforik kengayishi asosida yuzaga keladi. Jamshid obrazining yadrosini adolat, qudrat, davlat, bunyodkorlik va farovonlik semalari tashkil etsa, periferik qatlamida xalq xotirasida shakllangan afsonaviy tasavvurlar mujassamlashadi. Natijada kitobxon ongida tarixiy shaxs emas, balki ideal davlat timsoli jonlanadi.

Sulaymon antroponimi ham alohida lingvopoetik vazifani bajaradi. *“Murg‘u Sulaymon”* birikmasi orqali oshiqning iloji yo‘qligi, armon va hijronning cheksizligi badiiy jihatdan kuchaytiriladi. Bu holatda antroponim metaforik ko‘chish asosida yangi semantik yuklama kasb etadi. *Mahmud G‘aznaviy va Ayoz* obrazlari orqali esa sadoqat va kamtarlik timsoli zamonaviy ma’naviy mezonlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Nasimiy obrazi e’tiqod yo‘lidagi matonat, sobitlik va fidoyilik ramzi sifatida qo‘llanadi.

[1] Нормуродова Н. З. Антропоцентризм художественного дискурса: монография. – Тошкент: Навоий университети, 2019. – 227 б.; Нормуродова Н. З. Художественный дискурс и языковая личность в свете актуальных лингвистических направлений // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2015.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Sidqiy Xondayliqiy tarixiy antroponimlardan foydalanishda uch bosqichli lingvopoetik mexanizmni qo‘llaydi: 1) tarixiy shaxs haqidagi ensiklopedik bilim kitobxon ongida faollashadi; 2) shu bilim asosida assotsiativ semantik maydon yuzaga keladi; 3) muallifning individual badiiy niyati mazkur maydon bilan uyg‘unlashib, yangi poetik ma’no hosil qiladi. Shu sababli shoir she’riyatidagi tarixiy antonomaziyalarni faqat stilistik figura sifatida emas, balki murakkab kognitiv va lingvokulturologik hodisa sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Usmon Nosir lirikasida antonomaziya. Usmon Nosir tarixiy antroponimlarning semantik doirasini sezilarli darajada kengaytiradi. Uning ijodida Sharq adabiyoti bilan bir qatorda Yevropa uyg‘onish davri va antik dunyo madaniyatiga mansub tarixiy shaxslar ham faol qo‘llanadi. Dante, Petrarka, Shekspir, Vergiliy, Spartak, Kleopatra, Sezar singari antroponimlarning poetik matnga kirib kelishi jadid adabiyotining jahon madaniy makoni bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Spartak obrazi yangi semantik mazmun kasb etadi. Antik tarixda qullar qo‘zg‘oloni yetakchisi sifatida tanilgan Spartak shoir talqinida ozodlik, erk va mustaqillik uchun kurash konseptining poetik timsoliga aylanadi. *“Bulutlarning orasinda yurar Spartak”*[1] misrasida tarixiy shaxs real voqelik subyekti sifatida emas, balki abadiy davom etuvchi ozodlik g‘oyasining ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, tarixiy antroponim denotativ ma’nodan uzoqlashib, konseptual metafora darajasiga ko‘tariladi. Usmon Nosirning “Monolog” hamda “Nil va Rim” nomli she’rlarida yigirmadan ortiq pretsendent nom mavjud. Muallif she’r g‘oyasini kuchaytirishda ulardan o‘rinli foydalangan. Quyidagi jadvalda ikki she’rda uchraydigan tarixiy nomlarni jadval ko‘rinishida beramiz:

She’r	Pretsedent nom	Manbasi / izoh
“Nil va Rim”	Minis	Qadimgi Misr fir’avni (Menes)
“Nil va Rim”	Ramzes	Qadimgi Misr fir’avni (Ramses)
“Nil va Rim”	Kleopatra	Qadimgi Misr malikasi
“Nil va Rim”	Homer	Qadimgi yunon shoiri
“Nil va Rim”	Sezar	Rim imperatori (Yuliy Sezar)
“Nil va Rim”	Spartak	Qadimgi Rim qullar qo‘zg‘oloni rahbari
“Nil va Rim”	Aflotun	Qadimgi yunon faylasufi (Platon)
“Nil va Rim”	Vergiliy	Qadimgi rim shoiri (Vergiliy)
“Monolog”	Petrarka	Italyan uyg‘onish davri shoiri
“Monolog”	Sapfo	Qadimgi yunon shoirasi
“Monolog”	Tasso	Italyan shoiri (Torquato Tasso)
“Monolog”	Leonora	Tasso sevgilisi (Leonora d’Este)
“Monolog”	Beatriche	Dante sevgilisi (Beatrice)
“Monolog”	Dante	Italyan shoiri (Dante Alighieri)
“Monolog”	Hamlet	Shekspir dramasidagi qahramon
“Monolog”	Ofeliya	Hamlet dramasidagi qahramon
“Monolog”	Shekspir	Ingliz dramaturgi
Monolog	Dezdemona	Otello dramasidagi qahramon
Monolog	Otello	Shekspir dramasidagi qahramon

Usman Nosirning “Monolog”[2] she’ridan olingan *“Petrarkani o‘qiganim bor”*, *“Shekspirning yo‘qdir keragi”* kabi misralarda antonomaziya ijodkorning estetik pozitsiyasini ifodalovchi lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tarixiy antroponimlar muallifning adabiy qarashlarini ifodalash bilan birga, o‘zbek she’riyatining jahon adabiy tafakkuri bilan mushtarakligini ham ko‘rsatadi. Bu esa jadid adabiyotida intertekstuallikning yangi bosqichi shakllanganligini tasdiqlaydi. Agar Sidqiy Xondayliqiy tarixiy antroponimlar vositasida ko‘proq didaktik va axloqiy g‘oyalarni ilgari surgan bo‘lsa, Usmon Nosir ularni inson ruhiyati, erkinlik falsafasi va estetik idealni ifodalovchi poetik vosita darajasiga olib chiqadi.

Cho‘lpon va Abdulla Avloniy lirikasida antonomaziya. Cho‘lpon lirikasida tarixiy antroponimlarning

[1] https://tafakkur.net/nil-va-rim/usmon-nosir.uz
[2] https://tafakkur.net/monolog/usmon-nosir.uz

qo‘llanish tamoyili o‘ziga xos lingvopoetik xususiyatlarga ega. Shoir tarixiy shaxs nomlarini ko‘proq milliy ozodlik g‘oyasi, ma’rifatparvarlik va inson erkinligi konseptlari bilan bog‘laydi. Uning she’riyatida *Majnun* obrazi alohida semantik transformatsiya bilan berilgan. Mumtoz adabiyotda ishq timsoli sifatida shakllangan mazkur obraz jadid lirikasida Vatanga, millatga va ozodlik g‘oyasiga sadoqat konsepti bilan boyitiladi. *“Faqat Majnun bo‘lib elni suyamen”*[1] misrasida Majnun shaxsiy muhabbat emas, balki xalq muhabbati va milliy fidoyilik ramziga aylanadi. Demak, antonomaziya orqali mavjud madaniy stereotip yangi tarixiy sharoitga mos ravishda qayta talqin qilinadi. Azroil antroponimi ham kuchli ekspressiv vosita sifatida xizmat qiladi. Diniy tasavvurlarda jon oluvchi farishta sifatida qaraladigan Azroil obrazi shoir talqinida zulm va istibdodning muqarrar oqibatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Natijada diniy antroponim tarixiy voqelikni baholash vositasiga aylanadi. Bu antonomaziyaning baholovchi funksiyasi jadid lirikasida sezilarli darajada kuchayganligini ko‘rsatadi.

Abdulla Avloniy she’riyatida esa tarixiy va diniy antroponimlarning qo‘llanishi didaktik yo‘nalishning ustuvorligi bilan ajralib turadi. Shoir Luqmon, Nuh, Sulaymon, Muhammad Mustafo[2] kabi nomlarni axloqiy barkamollik mezonlarini ifodalovchi lingvomadaniy birliklar sifatida qo‘llaydi. Luqmon donishmandlikning, Nuh sabr va matonatning, Sulaymon esa hikmat va adolatning ramzi sifatida poetik matnning semantik markazini tashkil qiladi. Abdulla Avloniy mumtoz didaktik an’analarni davom ettirgan holda ularni jadid ma’rifatparvarligi ruhiga moslashtiradi. Natijada tarixiy nomlar zamonaviy jamiyatni tarbiyalash konsepsiyasining tarkibiy elementiga aylanadi. Bu antonomaziyaning pragmatik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadid lirikasida tarixiy antroponimlar asosidagi antonomaziyalar ijodkorlarning individual uslubiga qarab turlicha poetik vazifa bajaradi. Sidqiy Xondayliqiy ularni asosan axloqiy va didaktik mazmun yaratishga yo‘naltirgan bo‘lsa, Usmon Nosir estetik va falsafiy tafakkurni ifodalash vositasiga aylantiradi. Cho‘lpon milliy ozodlik g‘oyasini poetiklashtiradi. Abdulla Avloniy esa ma’rifatparvarlik va komil inson konsepsiyasini shakllantirishda ulardan samarali foydalanadi. Jadid lirikasida antonomaziya faqat stilistik figura emas, balki murakkab kognitiv, lingvomadaniy va pragmatik mexanizm ekanligidir. Tarixiy antroponimlar poetik matnda milliy madaniy xotirani faollashtiruvchi, intertekstual bog‘lanishlarni yuzaga keltiruvchi hamda muallifning individual konseptual olamini ifodalovchi universal lingvopoetik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu xususiyatlar jadid lirikasi poetikasida antonomaziyaning funksional-semantik salohiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Rezyume: Ushbu maqolada jadid lirikasida tarixiy antroponimlar asosida shakllangan antonomaziyalarning leksik-semantik, lingvopoetik va konseptual xususiyatlari tahlil qilingan. Tarixiy antroponimlarning pretsedent birlik sifatidagi tabiati, ularning badiiy matnda bajaradigan semantik va uslubiy vazifalari yoritilgan. Sidqiy Xondayliqiy, Usmon Nosir, Cho‘lpon va Abdulla Avloniy ijodida antonomaziyalarning lingvomadaniy hamda intertekstual imkoniyatlari tadqiq etilgan. Antonomaziya murakkab kognitiv-lingvokulturologik mexanizm sifatida baholangan.

Резюме: В статье анализируются лексико-семантические, лингвопоэтические и концептуальные особенности антономазий, образованных на основе исторических антропонимов в джадидской лирике. Освещается природа исторических антропонимов как прецедентных единиц, а также их семантические и стилистические функции в художественном тексте. Исследуются лингвокультурологические и интертекстуальные возможности антономазий в творчестве Сидкия Хандайлики, Усмана Насыра, Чулпана и Абдуллы Авлони. Антономазия оценивается как сложный когнитивно-лингвокультурологический механизм.

Resume: This article analyzes the lexical-semantic, linguopoetic and conceptual features of antonomasias formed from historical anthroponyms in Jadid poetry. It examines the nature of historical anthroponyms as precedent units and reveals their semantic and stylistic functions in literary texts. The linguocultural and intertextual potential of antonomasias in the works of Sidqiy Xondayliqiy, Usmon Nosir, Cho‘lpon and Abdulla Avloniy is investigated. Antonomasia is evaluated as a complex cognitive-linguocultural mechanism.

[1] Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 640 b.

[2] Авлоний А. Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи ислом. – Тошкент: «Мактаб» китобхонаси, 1913.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«DEVONU LUG'ATI-T-TURK» ASARIDAGI SHE'RIY UZINDILAR BADIIYATI

Rahmatova Gavhar Omonovna,
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sotvoldiyev Sirojiddin Maxammaddin o'g'li,
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi dotsenti v.b.

Sharq mumtoz poetikasida ma'naviy, lafziy va mushtarak atalmish she'r san'atlari poetik tasvirda turlicha vazifalarni ado etib, har xil uslubiy yo'nalishni hosil qiladi. Jiddiy e'tibor berilsa, butunlay boshqa-boshqa guruhga mansub san'atlar tamoyil jihatidan bir-biriga yaqin ekanligi ko'zga tashlanpdi. Binobarin, mavjud she'r satrlarini uslubiy vazifalari e'tibori bilan ham muayyan tabaqalarga ajratish mumkin.

«Badiiylik ilmi so'z rang-barangligi, ma'no darajalari va ifoda imkoniyatlari, gapda so'zlar kombinatsiyalari va ma'no o'zgarishlari, badiiy-tasviriy vositalari ta'sirida obrazlilikning kuchayishi, misralar munosabati, fikriy tanosib va tafovutlardan voqif etadi. Go'yo so'z va misra olmos va pichoq bo'ladi-yu, she'riy san'atlar esa ularni charxlaydi»[1].

Adabiyotshunoslik ilmining asosiy sohalaridan biri bo'lgan ilmi bade'ga doir dastlabki asarlar arab olimlari tomonidan yaratildi. Bu turdagi asarlarning fors tilida yaratilishi XI asrga borib taqaladi.

O'zbek adabiyotshunosligida mumtoz she'riy san'atlarni o'rganish, asosan, 1960 yillardan keyingi davrga to'g'ri keladi. O'zbek adabiyotshunosligiga bag'ishlangan yirik asarlar va ilmiy maqolalarda ba'zan she'riy san'atlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ularning ko'pchiligi Alisher Navoiy asarlari bilan bog'liq holda shoir mahoratini belgilash asosida o'rganilgan. Jumladan, «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali sahifalarida Yo.Ishoqovning «Mumtoz adabiyot poetikasidan ma'lumotlar» rubrikasi ostida e'lon qilingan 10 dan ortiq she'riy san'atlar haqidagi maqolalari, Maqsud Shayxzodaning «Ustod san'at xonasida» tadqiqotlari fikrimiz dalilidir[2].

Bizgacha yetib kelgan manbalar turkiy adabiyotda she'rning qadimdan mavjud ekanligini tasdiqlaydi. She'r o'ziga xos qonun-qoidalar asosida vujudga keladi. Uning yaratilishida badiiy tasvir vositalari ham muhim rol o'ynaydi. Badiiy tasvir vositalarining paydo bo'lishi bevosita she'r bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Demak, she'riyatning shakllanishi asta-sekin u haqidagi ilmiy tafakkurni yuzaga keltiradi. Biroq islomdan avvalgi davrdagi adabiyotshunoslik haqida bizgacha to'liq ma'lumot yetib kelmagan. Shu sababli qadimgi turkiy she'rlaridagi badiiy tasvir vositalarini tadqiq etish uchun o'rta asrlar adabiyotshunosligidagi atamalardan foydalanish, maqsadga muvofiq.

She'r san'atlari to'g'risida nazariy fikrlarni mukammal tadqiq etilishi islom davri adabiyotshunosligi bilan bog'liq. Shu bois qadimgi turkiy adabiyotdagi badiiy vositalarning nomlarinigina keyingi davr adabiyotshunosligi mahsuli deb qarash lozim. Badiiy tasvir vositalarining o'zi esa qadimgi turkiy she'riyatning ichki imkoniyatlari asosida vujudga kelgan va ularning shakllanishi islom davriga xos hodisa emas. Qadimgi turkiy og'zaki adabiyotdagi badiiy vositalarni tekshirish ularni turkiy adabiyotdagi tadrijiy taraqqiyotini o'rganish imkonini beradi.

«Devonu lug'ati-t-turk» orqali yetib kelgan she'riy parchalarda badiiy tasvir vositalari har bir she'rning mohiyatiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi. Ular badiiyatini tahlil etish natijasida she'riy san'atlarning qadimgi turk og'zaki she'riyati poetikasidagi o'rni ko'rish mumkin.

Badiiy tasvir vositalarining shakllanishi badiiy tafakkur taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Bu – poetik san'atlarning genezisi juda qadimda ekanligini bildiradi. «Devonu lug'ati-t-turk»dagi she'riy parchalarda qo'llanilgan badiiy san'atlarni qiyosiy o'rganish qadimgi turkiy adabiyotdagi mavjud badiiy vositalar ilk klassik davr adabiyotida ham davom etganligini ko'rsatadi. Bundan turkiy adabiyotning uzluksiz taraqqiyotda bo'lganligini sezish qiyin emas.

Asarda keltirilgan lirik she'riy uzindilarda bir qancha lafziy va ma'naviy san'atlarni uchratish mumkin. Misol uchun: **tajnis**.

Tajnis mumtoz she'riyatda eng ko'p qo'llaniladi-

[1] Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Ленинобод, 1972. – Б. 10.
[2] Исҳоқов Ё. Шеърий санъатлар. Ийҳом // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т. 1970. – № 1. – Б. 88.

gan badiiy tasvir vositalaridan biri hisoblanadi. Tajnis so‘zi «jinsdosh» degan lug‘aviy ma’noga ega. Shakli bir xil, ammo turli ma’nolarni bildiruvchi so‘zlarni qo‘llash va shu tariqa so‘z o‘yiniga asoslanish tajnis san’atining mohiyatini tashkil qiladi.

Asarda ko‘p uchraydigan tajnis turlaridan biri muzori’ tajnisdir. Unda «tajnis hosil qilayotgan lafzlardagi undosh tovushlardan biri orasida farq bo‘ladi va bu farq qiluvchi tovushlarning maxraji o‘zaro yaqin bo‘lishi shart»[1]. Quyidagi baytda muzori’ tajnis *bulnar* va *bulnap* so‘zlari oxiridagi *r-p* tovushlarida bo‘lyapti:

بُلْنارْ مِينِى أُولاسْ كُوزْ — ***Bulnar** meni ulas köz,*
قَراَ منْكِيزْ قِيزِيلْ يُوزْ — *Qara meŋiz qïzïl yüz.*
اَندِينْ تَمارْ تُوكالْ تُوزْ — *Andïn tamar tükäl tüz,*
بُلْنابْ يَنا أُول قَجارْ — ***Bulnap** yana ol qačar* (DLT.I.92).

Tarjimasi:
Maftun etar xumor ko‘z,
Qora xolli, qizil yuz.
Undan tomar tugal tuz,
Asir qilar-u qochar.

Asarda keltirilgan she’riy parchalarda **takrir** san’ati ham keng qo‘llanilgan. Takrir «takrorlash» ma’nosini ifodalovchi lafziy san’at bo‘lib, she’rda u yoki bu so‘zni takror qo‘llashni nazarda tutadi. Takrorlash vositasida so‘z ma’nosini, uning mohiyatini ta’kidlab ko‘rsatish ushbu san’atning asosiy xususiyati sanaladi[2]. Misol uchun:

اُوذِيک مِينى قُمتّى — *Üδik meni qumïttï,*
سَقِنْجْ اَنْكارْ يِمتّى — *Saqïnč **aŋar** yumïttï.*
كُونْكْلُومْ اَنْكارْ اَمِتّى — *Köŋlüm **aŋar** emitti,*
يُوزُمْ مَنِکْ سَرْغَرُورْ — *Yüzüm meniŋ sarğarur* (DLT.I.99).

Tarjimasi:
Sevgi dardi qo‘ymaydi,
Sog‘inch yana qiynaydi.
Ko‘nglim unga to‘ymaydi,
Yuzim mening sarg‘ayur (A. Qayumov tar.).

Ushbu parchada *aŋar,* ya’ni uni, unga ma’nolarini anglatuvchi so‘zi takrir san’atini hosil qilmoqda. She’rning asliyatida *aŋar* so‘zi shaklan bir xil ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, ma’nan bir-biriga yaqin tushunchalar bo‘lgan olmoshlar *uni* va *unga* mazmunida tarjima qilinadi. Ushbu jihatdan kelib chiqib bu so‘zlarning san’atlashuvini tajnis emas, takrir qilib belgiladik.

Yana bir misol:

قَيْغَشُبْ يَتْسا اَنِک يُوزِينْكا — *Qoyğašup yatsa anïŋ yüziŋä,*
اَلْسِقَرْ أُوكِنْ اَنِکْ سُوزِينْكا — *Alsïqar ökin anïŋ söziŋä,*
مِنْکْ كِشِى يُلُغِى بُلبْ أُوزِينكا — *Miŋ kiši yoluğï bolïp öziŋä,*
بِيرِكالَرْ أُذِنْ اَنکْ كُوزِينْكا — *Bergälär öδin anïŋ köziŋä* (DLT.I.245)

Tarjimasi:
Bag‘rida uning boqsa yuziga,
Yo‘qotar hushin uning so‘ziga,.
Ming kishi shaydo bo‘lib o‘ziga,
Fido bo‘larlar uning ko‘ziga.

Yuqoridagi misrada *anïŋ* so‘zining takror qo‘llanishi orqali takrir san’ati hosil qilingan. *Anïŋ* so‘zi tarjimada «uning» olmoshining ma’nosiga teng bo‘ladi. Bu so‘z she’rda uch o‘rinda qo‘llangan bo‘lib, undagi ohangdorlikni ta’minlabgina qolmay, ta’kid ma’nosini ham anglatib kelmoqda.

Yana bir misol:

[1] Ҳожиаҳмедов А. . Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ”, 1998. – Б. 70.
[2] Хожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: Шарқ”, 2001. – Б. 20.

يَلْڤِنْ اَنکْ کوزِی *Yalwïn anïŋ közi,*
يَلْکِنْ اَنِکْ اُوزِی *Yelkin anïŋ özi.*
تُولُنْ اَيِنْ يُوزِی Tolun ayïn yüzi,
يَرْدِی مَنِنکْ يُورَکْ *Yardï meniŋ yüräk* (DLT.III.40).

Tarjimasi:
Sehrgar uning ko‘zi,
Musofir uning o‘zi.
To‘lin oy kabi yuzi,
Yordi mening yuragim.

Anïŋ so‘zi bir qarashda yuqoridagi she’rda uslubiy hato qo‘llangandek tuyulishi mumkin, lekin uning qofiyalar oldidan kelishi o‘sha qofiyalarga nisbatan ta’kidni bildirib kelmoqda. Bu o‘rinda ham takrir san’atining mohirlik bilan qo‘llanganini ko‘rish mumkin.

«Devonu lug‘ati-t-turk»da mubolag‘ali misra, bayt yoki to‘rtliklarga ham duch kelish mumkin. Mubolag‘a usulidan yozma adabiyotda ham, xalq og‘zaki ijodida ham keng foydalanilgan. O‘tmishda, shuningdek, keyingi davrlarda yaratilgan mumtoz poetikaga oid tadqiqotlarda ham mubolag‘a to‘g‘risida fikrlar uchraydi. Jumladan, Atoulloh Husayniy bu tasvir vositasi haqida «… mubolag‘a andin iboratdurkim, so‘zlaguchi bir nimani vasf etarda aning kuchliligi yoki kuchsizligining ortiqlig‘in, ul ortiqliq odatdin tashqari yoki eshitkuchi ul vasf etuk ermas degan xayolga bormayturgan darajada, da’vo qilur», – deb yozsa, Fitrat «Adabiyot qoidalari» risolasida «Tuyg‘ulari-mizdan birining juda kuchli ekanin bildirmak, uni bo‘lg‘anidin bir oz orttirib ko‘rsatmakka mubolag‘a deymiz. Mubolag‘a chin (samimiy) bo‘lsa, judayam oshirib yuborilmasa, zo‘raki, yasama bo‘lmasa, tuyg‘ulardog‘i kuchlilik – o‘tkirlikni onglatishka katta yordam qiladir», - deb qayd etadi.

Asardagi lirik she’rlarda ko‘proq oshiqning iztirobli holatlarini bo‘rttirish yetakchi o‘rin tutadi:

اَقْلَبْ مَنِی قَيْمَنْکِزْ *Awlab meni qoymaŋïz,*
اَيِقْ اَيِبْ قَيْمَنْکِزْ *Ayïq ayïb qaymaŋïz,*
اَقَر کُزُمْ اُشْ تَنْکِزْ *Aqar közüm uš teŋiz,*
تَکْرا يُرا قُشْ اُجارْ *Tegrä yürä quš učar* (DLT.II.51)

Tarjimasi:
Avval asir qilmangiz,
So‘ngra tashlab qo‘ymangiz.
Ko‘z yoshlarim chun dengiz,
Tegrasida qush uchar (A. Qayumov tarj.).

Ma’shuqa va’dasiga vafo qilmaganligi sababli oshiqning ko‘zidan tinimsiz yosh oqadi. Shoir fikricha, bu yoshlar yig‘ilib, dengiz hosil qilyapti. Ko‘z yoshlaridan paydo bo‘lgan dengiz atrofida esa qushlar uchib yuribdi. Mubolag‘a usuli bu yerda oshiqning ma’shuqa dardidagi azoblarini kuchaytirayapti.

Mubolag‘a tablig‘, ig‘roq, g‘uluvv deb atalgan uch turga bo‘linadi[1]. «Devonu lug‘ati-t-turk»da keltirilgan parchalar ichida mubolag‘aning g‘uluvv turidan ham foydalanilgan. G‘uluvv – bu aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lmaydigan tarzda tasvirlash[2]. Misol uchun:

يُکُرْدِی کَڤَلْ اَتْ *Yügürdi käwäl at,*
جَقِلْدِی قِزِلْ اُتْ *Čaqïldï qïzïl ot,*
کُيُرْدِی اَرُتْ اُتْ *Küyürdi arut ot,*
سَجْرَبْ اَنِنْ اُرْتَنُورْ *Sačrab änin ortanur* (DLT.II.153).

[1] Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 10.
[2] Ўша китоб. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 11.

Ma’nosi: Dushman otini ta’riflaydi: uchar ot chopganda, tuyoqlaridan o‘tlar chaqnadi. Undan chaqnagan olov (sahro) xashaklarini kuydirib yubordi.

Bu parchada uchar ot chopganda, tuyoqlaridan o‘tlar chaqnaydi. Undan chaqnagan olov (sahro) xashaklarini kuydirib yuboradi. Bu baytga e’tibor bersak, unda g‘uluvv qo‘llanganiga ishonch hosil qilamiz. Zero, uchar ot chopganda, uning oyoqlari ostidan olov chiqib, sahro o‘t-o‘lanlarini kuydirishi mumkin emas.

«Devonu lug‘ati-t-turk»da so‘z san’ati – **istiora**-dan ham o‘rinli foydalanilgan. Istiorada so‘z yoki iboralar asl ma’nosida emas, balki boshqa ma’noda ishlatiladi va so‘zlarning ko‘chma ma’nosini tashbihiy bog‘lanish asosida yuzaga keladi. Demak, so‘zning ma’no ko‘chishiga asoslanish istioraning mohiyatini tashkil etadi:

بيرنک منکا سوز کينا *Berің meŋä söz-kiyä,*

منکللک قرا تز قيا *Meŋlig qara tuz-qïya.*

يلڤن تتار کز کينا *Yalwïn tutar köz-kiyä,*

منکم منک بلنکا *Muŋum meniŋ biliŋ-ä* (DLT.III.371).

Ma’nosi: Menga birgina so‘z ayt, va’da ber, ey qora xolli, yuzlari yoqimli, ey sehrli ko‘zlari bilan ovlaydigan go‘zal. Sevgidagi mening dardu alamlarimni tushun.

She’r tarjimasi quyidagicha:

Bergil menga so‘zgina,
Ey qorako‘z, boq qiyo.
Chehrang etdi mahliyo,
Holimni anglagil, ho (A. Qayumov tarj).

Mahmud Koshg‘ariy *meŋ* so‘ziga misol tariqasida keltirayotgan mazkur to‘rtlikda istiora mavjuddir. Chunki ikkinchi misradagi *meŋlig qara* birikmasi o‘z ma’nosida qo‘llanayotgani yo‘q, balki u orqali shoir mahbubaga murojaat etmoqda. Demak, bu yordagi birikma zamirida chiroyli qora xolli ma’shuqa tushunilayotganini sezish qiyin emas. Bu esa istioraning mahsulidir.

Navoiy asarlarida bu so‘z ikki xil ma’no kasb etgan. Navoiy o‘zining «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida *meŋ* so‘ziga quyidagicha ta’rif keltirib o‘tadi: «... Va husn ta’rifida ulug‘roq xolg‘akim, turklar *meng* ot qo‘yupturlar, alar (ya’ni forslar) ot qo‘ymaydurlar. Turk bu ta’rifni bu nav’ ado qilibdurkim,

bayt:

Aniŋ-kim, ol eŋindä meŋ yarattï,
Boyï birlä sačïnï teŋ yaratti[1].

Yana bir she’riy parcha shunday keladi:

قانِی اَقِبْ يُمُلْدِی *Qanï aqïb yümüldi,*

قابِی قَمُغْ تَشِلْدِی *Qabï qamuğ tešildi,*

اُلُکْ بِلا قُشُلْدِی *Ölük bilä qošuldï,*

تُغْمِشْ کُنِی اُشْ بَتارْ *Tuğmïš küni uš batar* (DLT.II.146).

Ma’nosi: O‘lgan narsa haqida yozadi: Huddi mesh yorilib, ichi to‘la suyuq narsa to‘lib oqqanday, uning qoni to‘lib-toshib oqdi. Hozir o‘likka yaqinlashdi. Uning tuqqan quyoshi, ya’ni baxtu davlati, hayoti endi botayotir.

Ushbu parchaning so‘nggi *tuğmïš küni uš batar* misrasi orqali umrni qayta nomlamoqda. Ya’ni uning quyoshi botmoqda deb, umr nazarda tutilmoqda.

She’rlarda yana boshqa ma’naviy san’atlar ham juda mohirlik bilan qo‘llanilgan. Misol uchun **tashbih** san’ati. Tashbih shunday san’atki, biror predmet yoki hodisaning belgi xususiyatini xuddi shunday belgi, xususiyatga ega bo‘lgan boshqa predmet, narsa yoki hodisa orqali ifodalash, solishtirish, o‘zaro qiyoslash va shu tariqa tasvirlanayotgan narsa, hodisa yoki voqeaning ayrim xususiyatlarini kitobxonga jonliroq, yorqinroq hamda ta’sirchan etkazib berish tashbih san’atining mohiyatini tashkil qiladi.

Tashbih o‘tmish adabiyotda qo‘llanilgan badiiy san’atlar ichida alohida o‘rinni egallaydi. Chunki shoirning mahorati, xususan, uning tasavvur va xayol olamining boy yoki qashshoqligi tashbih orqali namoyon bo‘ladi.

«Devonu lug‘ati-t-turk»dagi she’riy parchalarning mavzu doirasi rang-barangligi sababli undagi tashbihlarning qo‘llanishi ham keng qamrovlidir:

[1] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 16 том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 13.

يَلْڤِنْ اَنکْ کوزِی *Yalwïn anïŋ közi,*

يَلْکِنْ اَنِکْ اُوزِی *Yelkin anïŋ özi.*

تُولُنْ اَيِنْ يُوزِی Tolun ayïn yüzi,

يَرْدِی مَنِنکْ يُورَکْ *Yardï meniŋ yüräk* (DLT.III.40).

Mahmud Koshg‘ariy keltirgan she’riy parcha talqini shunday: she’rda bitiluvcha suyukli yorning, mahbubaning ko‘z qarashi shu qadar jon oluvchan, kishini bir ko‘rishdayoq o‘ziga tortadiki, shoir uni tashbeh asosida kishi ko‘nglini ovlaydigan sehrgarga mengzaydi. Yorning qadam bosib oshiq oldidan har mahal o‘tib turishini go‘yo, *musofir* kabidir, deb ataydi. Bu o‘rinda mahbubaning qo‘nimsizligi, diydorini juda oz fursat ko‘rsatishiga ishora etilmoqda.

Filolgiya fanlari doktori, professor Q.P. Sodiqov *yelkin* so‘zi ustida quyidagi fikrlarini aytib o‘tgan:

Yelkin so‘zi devonda o‘rnak uchun keltirilgan she’riy uzindilarda ham uchraydi. Tabiiyki, u yerda ishlatilgani ham arabcha tarjimada *musafir* deb o‘girilgan.

Asarning uyg‘urcha nashrida bu to‘rtlik shunday talqin qilingan:

[*Unïŋ közi sehirlik, unïŋ özi musapïrdur; yüzi tolun aydäk, (unïŋ beqišliri) meniŋ yürigimni yardï*].

Süyümlügini tarïplap šundaq däydü: unïŋ közliridä sehir bar, u šunïŋ bilän (meni) ovlaydu, özi musaqïrdür, yüzi tolun aydäk, beqišliri bilän meni etip, yürigimni yardï (DLTuyg‘ur.III.43).

Asarning qozoq olimlari tarafidan yaratilgan ruscha tarjimasida so‘z ma’nosi quyidagicha berilgan: «V glazax yego charы (on plenyayet), dusha yego – strannitsa, litso – polnaya luna. (On brosil na menya vzglyad,) i serdtse moye razbilos» (DLTkaz.776).

«Devonu lug‘ati-t-turk»ning inglizcha tarjimasida *yelkin* (*yelgin*) so‘zi ikki xil ma’noda izohlangan: biri *traveller* («sayohatchi, sayyoh»), ikkinchisi *horseman* («otliq») (DLT.engl.222). Bu tarjimada birinchisi so‘zma-so‘z o‘girilganda to‘g‘ri, lekin ikkinchisi qusurli. Chunki *horseman* «otliq» emas, *yelkin atlïğ,* ya’ni «otli musofir» – *horseman*[1].

Turkiy she’rda *yelkin* so‘zi arabcha tarjimada *musafir* (رفاسم) deb berilgan. Buni aynan o‘girilsa, ta’rifanayotgan kimsa chet ellik musofirday bo‘lib qoladi. Binobarin, bu o‘rinda *yelkin* biz bilganday «musofir» emas, balki «elday beqaror, ko‘zdan tezda yo‘qoluvchi, qo‘nimsiz» ma’nosidadir. Kelib chiqishi ham *yel* (yel, shamol) bilan bog‘lanadi[2].

Asarda keltirilgan she’rlarda **tashbihi mutlaq**dan ham foydalanilgan. Bu «Aniq o‘xshatish» ma’nosini ifodalovchi bu xil san’at *go‘yo, singari, - day, - dek* kabi so‘z yoki qo‘shimchalar (odobi tashbih) qo‘llangan tashbihni anglatadi[3]. Misol uchun:

اُبْکَمْ کَلِبْ اُغْرَدِمْ *Öpkam kelib oğradïm,*

اَرْسْلَنْ لَيوُ کُکْرَدِمْ *Arslanlayu kökrädim,*

اَلْبْ لاَرْ بَشِنْ تُغْرَدِمْ *Alplar bašïn toğradïm,*

اَمْدِی مَنِی کِيمْ تُتاَرْ *Emdi meni kim tutar* (DLT.I.145-146).

Ma’nosi: Dushmanga qarshi g‘azab bilan, nafrat bilan xezlandim, arslonlar kabi na’ra tortdim, botirlarning boshlarini tilmaladim, so‘ng ma’raka o‘rtasida, «emdi meni kim tuta oladi?» deb baqirdi.

Ushbu parchada *arslanlayu kökrädim* misrasida tashbihi mutlaq qo‘llanilgan.

She’riy baytlarda ma’no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san’ati **tanosub** deb ataladi[4]. Biz buni quyidagi parchada ko‘rishimiz mumkin:

[1] Содиқов Қ. “Девону луғатит турк”да кечган yelkin-elkin сўзи ва унинг шеърий узиндилардаги семантикаси // Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги куни ва келажаги. – Тошкент, 2014. – № 2. – Б. 25.

[2] Содиқов Қ. “Девону луғатит турк”да кечган *yelkin-elkin* сўзи ва унинг шеърий узиндилардаги семантикаси // Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги куни ва келажаги. – Тошкент, 2014. – № 2. – Б. 25.

[3] Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 18.

[4] Ўша китоб. –Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 18.

اَمْدِی اُوذنْ اُذُنْدِنْ اُذِنْدِی *Emdi uδïn uδundï,*

کیدِنْ تَلِمْ اُکُنْدِی *Kedin telim ökündi,*

اِیلْ بُلغالِ اِکنْدِی *El bulğalï ikändi,*

اَنْداغْ اَرِکْ کم اُتارْ *Andağ erig kim utar* (DLT.I.209).

Ma’nosi: Dushman endi uyqusidan uyg‘ondi, keyin kelishuv vaqtida bosh tortganidan ko‘p o‘kindi. Unday odamni mendan boshqa kim yengadi.

Bu parchada *uδïn uδundï* so‘zlari bir-biriga yaqin ma’noli so‘z bo‘lib, tanosub san’atini hosil qilgan.

«Devonu lug‘ati-t-turk» asarida keltirilgan she’rlarda **qaytarish** san’ati, ya’ni baytdagi mazkur o‘rinlardan biridagi so‘zning yana boshqa bir o‘rinda takrorlanishini kuzatish mumkin. Asardagi jangnoma she’rlardan birida qaytarishning radd ul-aruz il-al-ajuz (birinchi misra oxiridagi so‘zning bayt oxirida kelishi) turi mavjud:

کَلْدِی بَرُو اَرْتُرُو *Keldï berü arturu,*

بِیرْدِی اِیلِنْ اَرْتُرُو *Berdï elin arturu,*

مُندا قَلِبْ اُلْتُرُو *Munda qalïb olturu,*

بُکْرِی بُلِبْ اُنْ بُتارْ *Bugrï bolïb in bütär* (DLT.I.225).

Ma’nosi: Asir qilgan bek haqida so‘z boradi: bek haddan ortiq kekkayib, haddidan oshib, mag‘rurlanib ko‘p askar bilan bizga keldi. Keyin bizga mamlakatini hadya qildi. Yonimizda tovushi bo‘g‘iq, mukkayib, engashib o‘ltirib qoldi.

Ushbu parchada birinchi misradagi *arturu* so‘zi ikkinchi misra oxirida kelib, qaytarish san’atini hosil qilgan.

Yana bir misol:

بِکِمْ اُوزِنْ اُغُرْلادِی *Begim özin oğurladï,*

یَرغ بِیلِب اُغُرْلادِی *Yarağ bilib oğurladï.*

اُلُغْ تَنْکرِی اَغِرْلادِی *Uluğ täŋri ağïrladï,*

اَنِنْ قُتْ قُقْ تُرِی تُغْدِی *Anin qut quw türi tuğdï* (DLT.I.293-294).

Ma’nosi: Tangutlarning begi dushmanni qo‘lga tushirish uchun pistirmaga yashiringanini ta’riflab yozadi: begim fursat kutib, o‘zini askardan chetga olib yashirindi, Xudo unga zafar berdi. Ko‘kragi ko‘tarilib, baxti, kuchi, davlati ortdi.

Ushbu parchada birinchi misradagi *oğurladï* so‘zi ikkinchi misra oxirida kelib, qaytarish san’atini hosil qilgan.

Narsa, voqea-hodisa, aniqlovchi, izohlovchi, tavsiflovchi so‘zni she’rda qo‘llash sifatlash (epitet) deyiladi. Buni asardagi quyidagi parchalarda ham ko‘rishimiz mumkin:

كُورْكلُوكْ تنُوغْ اُوزُنْكْكا *Körklüg tonuğ özüŋä,*

تَتْلِيغْ اَشِيغْ اَذِينْقا *Tatlïğ ašïğ aδïnqa,*

تُوتْغِيلْ قنُوقْ اَغِرْلِيغْ *Tutğïl qonuq ağïrlïğ,*

يَذْسُونْ جَقِينکْ بُذُونْقا *Yaδsun yawïŋ buδunqa* (DLT.I.80).

Ma’nosi: «Ko‘rkam, chiroyli to‘ning o‘zingga, shirin ovqatingni boshqalarga ata; qo‘noqlarni hurmatla, toki, shuhrating el-yurtga taralsin».

Ushbu parchada *körklüg tonuğ* va *tatlïğ ašïğ* birikmalari epitet bo‘lib kelmoqda.

Yana:

اغلم سنکا قذرمن *Oğulum seŋä qoδurmen*

اردم اکت خمارو *Ardam ögüt xumaru*

بلکا ارک بلب سن *Bilgä erig bolup sen*

بقل اننک تبارو *Baqqïl anïŋ tabaru* (DLT.III.444).

Ma’nosi: O‘g‘lim, senga meros qilib ezgu xulq, odobni qoldiraman. Agar ilmli, aqlli odamlarga yo‘liqsang, ularga yaqinlash, ulardan foydalan.

Bu parchada esa *ardam ögüt* va *bilgä erig* birikmasi epitetni hosil qilgan. Ya’ni ikkala o‘rinda ham o‘z sifati bilan birga kelayotgan so‘z qo‘llangan.

Xulosa qilib aytganda, janrlarning takomilida badiiy tasvir vositalarining vazifasi muhim omil ekani namoyon bo‘ladi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari ilgari surilayotgan fikrlarni, misralarda berilayotgan mazmunni ifodalash uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi va, shu bilan birga, ular misra, bayt yoki asarning jozibaliligi, obrazliligi, ta’sir kuchini oshirish kabi muhim vazifalarni ham bajaradi.

«Devonu lug‘ati-t-turk» asarida badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda alliteratsiya ham keng qo‘llanilgan. Har bir she’riy parcha o‘zgacha ohangdorlikka ega. Badiiy tasvir vositalari esa she’rlarda ustalik bilan qo‘llangan va ular she’rning semantik ma’nosini ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi.

Rezyume. Maqolada Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘ati-t-turk» asaridagi she’riy uzindilarning badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda qo‘llangan tajnis, takrir, mubolag‘a, istiora, tashbih, tanosub, qaytarish va sifatlash kabi badiiy san’atlarning poetik vazifalari yoritilgan. Tadqiqot natijasida ushbu badiiy vositalar qadimgi turkiy she’riyatning obrazliligi, ohangdorligi va ta’sirchanligini ta’minlovchi muhim omillardan biri ekanligi aniqlangan.

Resume. The article analyzes the artistic features of poetic fragments in Mahmud al-Kashgari’s Dīwān Lughāt al-Turk. It examines poetic devices such as paronomasia, repetition, hyperbole, metaphor, simile, semantic harmony, reiteration, and epithet. The study concludes that these artistic techniques play an important role in enhancing the imagery, expressiveness, and aesthetic value of ancient Turkic poetry.

Резюме. В статье исследуются художественные особенности поэтических фрагментов произведения Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-тюрк». Рассматриваются такие поэтические приёмы, как таджнис, повтор, гипербола, метафора, сравнение, танасуб, повторение и эпитет. Анализ показывает, что данные художественные средства обеспечивают образность, выразительность и музыкальность древнетюркской поэзии.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

INTERTEKSTUAL BIRLIKLARNING POETIK VAZIFASI

Raimova Sayyora Zaitovna,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Iqtibos san'ati intertekstuallikning asosini tashkil etuvchi muhim birliklardan biri deyish mumkin. Ayniqsa, profetologiya –payg'ambarlik ta'limotiga oid asarlarda uning yaxshi namunalarini uchratish mumkin. Iqtibos intertekstlar retsipiyent uchun har jihatdan qulaylik tug'diradi, ayniqsa, diniy-ma'rifiy asarlarni tushunishda asosiy vositadir. Shu bois iqtibosning qadim tarixini bilish uchun adabiyotshunosligimizning ba'zi manbalariga murojaat etdik.

Mazkur san'at tarixi va nazariyasi, umuman olganda genezisi borasida adabiyotshunos Olimjon Davlatov o'z tadqiqotida atroflicha to'xtaladi[1].

Iqtibos haqida arab va fors manbalarini kuzatgan olim shunday yozadi: «Badi' ilmiga oid o'rta asr arab adabiyotshunosligining ilk manbalarida iqtibos san'ati haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lolmadik. Mumtoz fors adabiyotshunosligining ilk obidalari – «Tarjumon ul-balog'a», «Hadoyiq ussehr», «Al-mo'jam», «Hadoyiq ul-haqoyiq»da ham iqtibos alohida san'at sifatida ko'rsatilmagan»[2],- degan ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Iqtibos san'atining ilmiy manbalarda ilk bora uchrashi haqidagi keng qamrovli aniq xulosalarini beradi: «Bu haqda ilk marotaba Atoulloh Husayniyning «Badoyi us-sanoyi»i va Husayn Voyiz Koshifiyning «Badoyi' ul-afkor fi sanoyi il-ash'or»ida ma'lumot berilgan»[3].

Bundan tashqari iqtibos san'ati haqida o'z qarashlarini ilgari surish jarayonida uning takomilidagi bir qancha asosiy omillarni sanar ekan, mazkur san'atning adabiy manbalarda XV asrda qayd qilinganligini va shu davrgacha ham «Sanoiy, Yassaviy, Yusuf Boqirg'oniy, Sa'diy, Mavlaviy, Hofiz, umuman, qaysi shoir devonini ochsangiz, Qur'on oyati yo hadis matni aynan keltirilgan bayt yoki misraga duch kelasiz»[4],- degan qimmatli fikrlarni bayon etadi. Mazkur fikrlar iqtibos san'ati nazariyasiga doir adabiyotshunoslikdagi muhim dalillardir.

Darhaqiqat, Atoulloh Husayniyga ko'ra: «Iqtibos mashhur qavlg'a ko'ra Qur'on yo hadisdin bir nimani aning Qur'on yoki hadisdin olinganig'a ishora bo'lmag'an tarzda kalomg'a kiritmaktin iborattur»[5]. Lug'atlarda iqtibos haqida shunday ma'lumotlar keladi:» IQTIBOS (ar. – ilm o'zlashtirmoq, o'zaro foydalanmoq) — mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at. Keng ma'noda I. «bir so'z yoki yozuvni bo'lgani kabi yo qisqartirib olmoq. Biridan ilman istifoda etmoq... So'z orasida Qur'oni Karimdan yoxud Hadisi Sharifdan yo boshqa maqbul asarlardan bir jumlaning to'liq yoki qisman o'z tasarruf ila yoxud tasarrufsiz olinishi»ni anglatadi va bu ma'nosida I. s i tata (q.) bilan sinonimdir. She'riy san'at sifatida esa I. «Qur'on yo hadisdin bir nimani aning Q|ur'on yoki hadisdin olinganiga ishora bo'lmag'an tarzda kalomg'a kiritmaktin iborattur» (Atoullo Husayniy). Ya'ni I. san'ati Qur'on va hadis ilmi bilan bog'liq bo'lib, ijodkorning o'z fikrini shu ikki mo'tabar manbaga tayanib asoslashini anglatadi. I. san'ati mumtoz adabiyotimizda keng qo'llangan bo'lib, uning ikki navi mavjud.

Birinchi navida oyat yoki hadis aynan keltiriladi va «darj» deb yuritiladi. Oyat yoki hadisni aynan emas, balki tarjimasi yoki mazmunini keltirish esa «hall» deb ataladi. Demak, umumlashtirib aytish mumkinki, baytda oyat yoki hadisni hech qanday ishorasiz aynan keltirish ham, baytga oyat yoki hadisning mazmunini singdirib yuborish ham I. sanaladi».[6]

Topos singari, iqtibos (sitatsiya) tarixi ham inter-

[1] Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини: Филол. фан. б. фалс. док. дисс... – Самарқанд, 2017. – Б. 160.

[2] Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини: Филол. фан. б. фалс. док. дисс... – Самарқанд, 2017. – Б. 14.

[3] Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини: Филол. фан. б. фалс. док. дисс... – Самарқанд, 2017. – Б. 16.

[4] Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини: Филол. фан. б. фалс. док. дисс... – Самарқанд, 2017. – Б. 17.

[5] Ҳусаиний Атоуллоҳ. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 242-243.

[6] Адабиётшунослик луғати // Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 128.

tekstual amaliyotning tushuncha sifatida shakllanishidan ancha oldin — ming yillar davomida — ilmiy va madaniy hayotda qanchalik keng rivojlanganini ko‘rsatadi. « Sitatsiya»« so‘zi bugungi ma’nosini (ya’ni boshqa matndan so‘zma-so‘z parcha olish) nisbatan kech — faqat XVI asrda — olgan. Biz bilgan shaklda esa u XVIII asrda, avvalo ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanila boshlagan. Bu atama lotincha *citare* («chaqirmoq», «murojaat qilmoq», «guvohlikka chaqirmoq») fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, qadimgi davrda asosan huquqiy termin sifatida ishlatilgan, ba’zan esa yozma manbalarga murojaat qilish ma’nosini ham bildirgan.[1]

XVI asr boshlarida Erasmus o‘zining *De copia verborum ac rerum libri duo* asarida mualliflarni iqtibos qilishning 26 ta modelini (*Auctores citandi formulae*) jamlagan. U asosan sentensiyalar va umumiy o‘rinlarni nazarda tutgan bo‘lsa-da, aslida manbalarni iqtibos qilish amaliyotining zamonaviy nazariyasiga asos solgan[2].

1970 yillardan boshlab, ayniqsa 1980 yillarda, adabiyotshunoslarning umumiy intertekstuallik zaminida idrok etiladigan iqtibosiylikka bo‘lgan qiziqishi Fransiyadan butun Yevropa va AQShga yoyildi. Iqtibos keltirish mavzusidagi sharhlovchi maqolalar, sintetik tadqiqotlar, maxsus sonlar, monografiyalar va konferensiya materiallari quyidagi mamlakatlarda nashr etildi:

Fransiya: *Poétique* (1976), *Littérature* (1981, 1984, 1988) va *Texte* (1983) jurnallari.

AQSh: *«Intertextuality: New Perspectives in Criticism»* (1978), *«Intertextuality: Theories and Practices»* (1990), *«Influence and Intertextuality in Literary History»* (1991).

Germaniya: *Dialogizität* (1982), *Dialog der Texte* (1983), *Das Gespräch* (1984), *Intertextualität* (1985, 1991, 1994).

Boshqa mamlakatlar: Niderlandiya (Hugo Verdaasdonk, 1973), Ispaniya (Pérez Frimat, 1978), SSSR/Rossiya (*«Tekst v tekste»*, 1981; N.A. Fateeva, 2000), Kanada, Shveysariya, Polsha, Xorvatiya va Sloveniya[3].

T. G. Vinokur esa iqtibosni kengroq talqin qiladi, biroq aniqlik kiritadi: «Iqtibos — bu aslida senga tegishli bo‘lmagan nutq formulasining o‘zlashtirilgan shakli, lekin u endi sening maqsading uchun ishlatiladi».

N.Pege-Gro iqtibos intermatnlikning eng yaxshi namunasi ekanligini, uning ko‘zga yaqqol tashlanib turish xususiyati matnlararo qo‘shiluvni bevosita ko‘rish imkonini berishini ta’kidlaydi[4]. Chunki bunday matn hatto qo‘shtirnoq bilan ajratilgani bois tez ko‘zga tashlanadi va endi retsepientga qiyinchilik tug‘dirmaydi, faqat uning tahlili va talqiniga e’tibor qaratishni taqozo qiladi. Iqtibos intertekstuallikning eng kichik va sodda ko‘rinishi hisoblansa-da, uning matn to‘qimasidagi tashiydigan ma’nosi, vazifasi anchayin murakkablik kasb etadi. «Sitata keltirish usuli ochiq xarakterga ega bo‘lsa ham, bundan uning murakkablik darajasi kamayib qolmaydi»[5]

Tadqiqotimiz obyekti sifatida olingan diniy-ma’rifiy asarlarda ko‘plab diniy iqtiboslar keltirilganining guvohi bo‘ldik. Mazkur intertekstual birliklar — iqtiboslarni quyidagicha tasnifladik:

1. Qur’oniy iqtiboslar.
2. Hadis iqtiboslar.

Matnlararo aloqalar, ya’ni intertekstuallik muallifning individual uslubi va asarning g‘oyaviy-falsafiy ko‘lamini belgilovchi zamonaviy adabiyotshunoslikning yetakchi mezonlardan biri hisoblanadi. Abdulla Oripovning «Haj daftari» (Hikmat sadolari) to‘plami muqaddas manbalar, Qur’on oyatlari, hadisi shariflar hamda mumtoz adabiy meros bilan mustahkam intertekstual aloqaga kirishgan asardir. Diniy-tasavvufiy va falsafiy manbalarning intertekstual aloqasi va integratsiyasini ta’minlagan asosiy namunadir. Shoir muallif so‘zboshisida qayd etganidek, ushbu she’riy turkum bevosita payg‘ambar Muhammad alayhissalomning suxanlari hamda Islom tarixidagi muqaddas ziyorat taassurotlari asosida dunyoga kelgan.

Turkumdagi Qur’oni karim matnlaridan to‘g‘ridan-to‘g’ri iqtibos keltirish badiiy konsepsiyani shakllantirishda asosiy poydevor vazifasini o‘tagan.

Muallif «Qum fa anzir!» she’rida «Qur’oni karim»ning Makkada nozil bo‘lgan 56 oyatdan iborat «Muddassir» surasining ikkinchi oyatidan iqtibos sifatida foydalanadi. «Qum fa anzir!» (Tur va ogoh et!) ilohiy buyrug‘i turkumdagi maxsus she’rning sarlavhasi va bosh refreni sifatida aynan keltirilgan bo‘lib, u dastlabki bandda insondagi g‘aflatga qarshi kurashish va da’vat pafosini kuchaytirishga xizmat qilgan bo‘lsa, oxirgi bandlarga kelib esa «Muddassir» surasining uchinchi oyati karimasi «Va rabbingni ulug‘la»ni «Ulug‘lagin Rabbingni doim» shaklida she’r strukturasiga muvofiq qo‘llab, iqtibos sifatida foydalanadi:

[1] Marko Juvan. History and Poetics of Intertextuality.West Lafayette, Indiana: Purdue University Press, 2008.
[2] Marko Juvan. History and Poetics of Intertextuality.West Lafayette, Indiana: Purdue University Press, 2008. P.26.
[3] Marko Juvan. History and Poetics of Intertextuality.West Lafayette, Indiana: Purdue University Press, 2008. P.139.
[4] Пьеге-Гро Натали Введение в теорию интертекстуальности: Пер. с фр. / Общ. ред. и вступ. ст. Г. К. Косикова. – М.: Издательство ЛКИ, 2008.– 240 с.
[5] Ҳасанов С. Ҳозирги o’збек ва инглиз насрида интерматн ҳодисаси талқини (Исажон Султон, Баҳодир Қобул ва Кадзуо Исигуро асарлари мисолида) Филол. фан. ... фалс. док. дисс. – Самарқанд, 2025. – Б. 22.

Qum fa anzir! – Tur va ogoh et,
Ayt mo‘minlar bo‘lsinlar qoim.
Qum fa anzir! – Tur va ogoh et,
Ulug‘lagin Rabbingni doim.[1]

Shu o‘rinda, she’rdagi allyuziyalarga ham e’tiborni qaratish lozim. Misralardagi asosiy allyuziv qatlam bevosita Islom tarixining ilk davrlariga — payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ga ilk vahiylar nozil bo‘la boshlagan paytga ishora qiladi. «Qum fa anzir» buyrug‘i orqali Johiliyat davriga ya’ni, arab jamiyatining jaholat botqog‘iga botgan, adolatsizlik va ma’naviy inqiroz hukmron bo‘lgan davriga ishora bor. Shoir saodat asri poydevorini qurishdagi o‘sha davr muhitga bilvosta ishora qilish orqali, insoniyat tarixidagi har qanday ma’naviy yangilanish va yuksalish hamisha insonga ulkan mas’uliyat va qiyinchiliklar tug‘dirishiga shama qiladi.

Islom tarixidan ma’lumki, ushbu oyat nozil bo‘lishidan avval Sarvari koinotning vahy yukidan cho‘chib, kiyimlariga burkanib olgani va bu chaqiriq nafaqat saodat asridagi balki barcha davrlardagi jamiyatdagi befarq kimsalarga nisbatan yashirin teologik allyuziv da’vatdir.

«Ayt mo‘minlar bo‘lsinlar qoim» degan xitobda shoir yashagan davrning ijtimoiy-ruhiy manzarasiga qilingan kuchli ijtimoiy-ma’naviy allyuziya mavjud. Chunki sobiq Sho‘ro davrida xalqimiz milliy o‘zligi va muqaddas e’tiqodlaridan mahrum etilgan edi. Shu tufayli «mo‘minlar» so‘zini ham yashirin allyuziya sifatida talqin etish mumkin.

«Qoim bo‘lmoq» iborasida ham yashirin allyuziya mavjud. Haqiqiy ma’nosida ibodatda qoim bo‘lish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, allyuziv sathda mustabid mafkura asoratidan qutulish, milliy o‘zlikni anglash, haqiqat va adolatning jilovini mahkam tutishga da’vat bor.

Shuningdek, Qur’oni karimning ko‘plab o‘rinlarida mo‘minlarga adolat va e’tiqodda va ibodatda qoim turish buyuriladi. Masalan, Niso surasi 135-oyatda «Ey imon keltirganlar ! Adolatda barqaror turuvchi (Qoim bo‘luvchi) bo‘ling» yoki Sho‘ro surasi 13-oyatda «Dinni qoim qilinglar va unda firqalarga bo‘linmanglar» degan muborak qoidalar keladi. Keyingi satrdagi *«ulug‘lagin rabbingni doim»* talabi insoniyatning olamda o‘z o‘rnini unutib qo‘yish fojiasiga qilingan falsafiy allyuziyadir. Chunki inson bu olamda barcha hukmronlik va ulug‘lik Allohgagina xos xususiyat ekanligini anglamog‘i va Uni ulug‘lamog‘i lozimligi uqtiriladi. Masalan, Asqar Mahkam 1999 yilda yozgan «So‘z joni» she’rida iqtibosni intertekstual birlik sifatida o‘z g‘oyaviy maqsadini ifodalash uchun qo‘llaydi:

Odam bo‘lmas hech kim o‘qimay
Mavlononing kulliyotini!
Va payg‘ambar rahmat tog‘ida
Tinglamoqda ilohiy vahiy.
Butun olam ahlin og‘zida
«Iqro bismi Robbikal-laziy!»[2]

Mazkur satrlardagi «Iqro bismi Robbikal-laziy!» Makkada nozil bo‘lgan, 19 oyati karimadan iborat «Alaq» surasining birinchi oyatidan olingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtibos hisoblanadi. Muhammad payg‘ambarga Hiro g‘ori(Rahmat tog‘i)da kelgan ilk ilohiy vahiy matni sifatida butun olam ahlining og‘zida ekanligi alluziya qilingan. Faqat shoir oyati karimaning oxirgi «xolaqo» so‘zini she’r vazniga muvofiq tushirib qoldiradi. Bu haqda shunday tafsir qilinadi: «**Yaratgan Robbing nomi bilan o‘qi**. Demak, o‘qish, ilm talab qilish Alloh taoloning roziligi uchun bo‘lishi, boylik, mansab, shon-shuhrat va boshqa shunga o‘xshash narsalar uchun bo‘lmasligi kerak ekan»[3].

Ana shu iqtibosdan ruboiylarida ham mahorat bilan foydalangan, ya’ni ruboiy talablariga mos holatda «Iqro» muborak kalomi orqali butun boshli oyat yoxud suraga ishora qilinganini ko‘rish mumkin:

Bizlarni bino aylagan ul zotga hamd,
«Iqro»degan Ul Xoliqi Ustodga hamd.
Gar aslimiz tuproq edi bok yo‘qdir hech,
Odamligimiz yetar, bu ijodga hamd[4].

Shuningdek, shoir «Muso va Tur» she’rida ham Qur’oni karim oyatlaridan iqtibos sifatida foydalanadi:

Asta-asta tog‘lar tebranar
«Va bussatil jibalu...»dayin,
«Zilzilatul arzu...» eslatar
Nechuk titrar bir kuni zamin[5].

Qur’oniy syujet asosiga qurilgan mazkur she’r Muso (a.s)ning Alloh jamolini ko‘rishga intilishining badiiy-falsafiy talqini sifatida tahsinga loyiqdir. Chunki she’rning falsafiy asosida nafaqat haqiqiy voqelik — Qur’oniy syujet, balki insonning haqiqatga intilish ramzi aks etgan. Mumtoz salaflarga xos tasavvufiy ruh – ma’rifat, ilohiy ishq, ramziylik shoir konsepsiyasini tushuntirishda asosiy o‘rin tutadi. She’rning mazmun jihatidan Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi mumtoz mutasavvif shoirlar ijodida ko‘p uchraydigan motivlar bilan bog‘liqligi matnlararo aloqalarni ta’minlash orqali intertekstuallikni vujudga keltirgan deyishimiz mumkin.

Shuningdek, she’rdagi sarlavha intertekstga e’ti-

[1] А.Орипов. Танланган асарлар.2-жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 198.
[2] Маҳкам, Асқар. Ваҳдат куйи. – Т.: Nurafshon busines, 2021. – Б. 191.
[3] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. -Т.: Ҳилол- Нашр, 2023. – Б. 507.
[4] Маҳкам, Асқар. Ваҳдат куйи. – Т.: Nurafshon busines, 2021. – Б. 269.
[5] Маҳкам, Асқар. Ваҳдат куйи. – Т.: Nurafshon busines, 2021. – Б. 221.

boringizni qaratmoqchimiz. Shoir sarlavhadayoq Qur'ondagi Muso va Tur voqeasiga ishora qiladi va bu sarlavha intertekstning yaxshi namunasiga misol bo'ladi.

Qur'oniy «Va bussatil jibalu...» iqtibosi esa Makkada nozil bo'lgan 90 oyati karimadan iborat «Voqi'a» surasining 5-oyatidan olingan:»**Va tog'lar maydalashib titilganda. Hozirda salobat va sobitlik timsoli bo'lgan ulkan tog'lar voqe bo'lgan kunda mayda-mayda bo'lib titilib ketadi»**[1].

Keyingi satrlardagi **«Zilzilatul arzu…»** oyati karimasi Madinada nozil bo'lgan 8 oyatdan iborat – Zalzala surasining 1-oyatiga ishora qiluvchi iqtibosdir. Uning tafsiri quyidagicha: «**Vaqtiki, yer o'ziga xos zilzilaga tushsa**...» Ya'ni yer o'z hajmi, o'lchoviga yarasha katta zilzilaga tushsa. Qiyomat qoim bo'lganda, yer butunlayicha qattiq zilzilaga tushadi. Hozirgiga o'xshab uning ba'zi bir nuqtasi sal-pal silkinib qo'ymaydi. Balki yer o'zining butun vujudi bilan hech bir nuqtasi ham qolmay nihoyatda shiddatli zilzilaga tushadi. Ana o'sha yerning o'ziga xos zilzilaga tushgani bo'ladi. Ana o'sha zilzila oqibatida...[2]

She'r shunday misralar bilan yakun topadi:
Eng so'nggi bor so'ngsiz qahrda
Muso bilan gaplashadi Tur...[3]

Shoir Muso va Tur talmehlari orqali intertekstuallikning asosiy turlaridan Qur'oniy allyuziyani hosil qiladi. Chunki Muso (a.s) va Tur tog'i bilan bog'liq voqealar Qur'oni karimning «Tur», «Toha», «Qosos», «A'rof», « Naml», «Shuaro» kabi bir qancha suralarida zikr etiladi. Makkada nozil bo'lgan 206 oyati karimadan iborat «A'rof» surasi 143-oyatida shunday keladi: «**Muso miyqotimizga kelib, Robbi unga gapirganida, «Robbim, menga (jamolingni) ko'rsatgin, Senga nazar solay», dedi. (U Zot) «Meni hech ko'ra olmassan. Lekin toqqa nazar sol, agar u makonida sobit tura olsa, bas, Meni ko'rasan», dedi. Robbi toqqa tajalliy qilganida, uni titilgan holga keltirdi va Muso hushidan ketib yiqildi. Hushiga kelgach: «Sen poksan, Senga tavba qildim. Men mo'minlarning avvalgisiman» dedi**»[4].

Yoki «Muso bilan gaplashadi Tur» satrlaridagi mazmun Qur'oni karimning Makkada nozil bo'lgan 49 oyatdan iborat «Tur» surasidagi birinchi oyati karimaga ishora qiladi: «**Tur bilan qasam**»... Tur tog'i Siyno yarimorolidagi tog' bo'lib, o'sha joyda Alloh taolo Muso alayhissalom bilan gaplashgan. Muso alayhissalomga Alloh taolo tomonidan yuborilgan lavhlar ham shu toqqa tushgan. Muso alayhissalom Alloh taolodan, jamolingni ko'rsat, deb so'raganida, Haq subhanahu va taolo, men toqqa nazar solaman, agar u chidasa, senga jamolimni ko'rsataman, deb Turga nazar solganda, tog' chidamagan ekan. Ushbu muborak tog' bilan qasam ichishning o'zi suraning muqaddaslik ruhini oshiradi»[5].

Asqar Mahkamning mazkur she'ri Boborahim Mashrab lirikasidagi Muso va Tur bilan bog'liq Qur'oniy syujetlar aks etgan she'rlar bilan intertekstual aloqaga kirishganini ham e'tirof etish lozim.

Kuzatuv va tahlillar shuni ko'rsatadiki, diniy-ma'rifiy asarlarda qo'llanilgan iqtibos, talmeh va allyuziyalar shunchaki ziynat unsuri emas, balki asarning falsafiy-tasavvufiy yo'nalishini belgilovchi, inson vujudi va ruhiyati o'rtasidagi ziddiyatlarni ochib beruvchi eng muhim badiiy vositalardir. Shuningdek, asarning kompozitsion yaxlitligini, lirik qahramonning ruhiy-ijtimoiy evrilishlarini hamda milliy she'riyatning estetik quvvatini ta'minlovchi asosiy funksional birliklar bo'lib xizmat qilgan.

Rezyume. Mazkur maqolada diniy ma'rifiy she'rlarda uchraydigan intertekstual birliklarning poetik vazifasiga e'tibor qaratilgan. Abdulla Oripov, Asqar Mahkam kabi shoirlarning ayrim she'rlari intertekstual tahlilga tortilib, xulosa berilgan.

Resume. This article focuses on the poetic functions of intertextual units occurring in religious and educational poetry. Selected poems by Abdulla Oripov and Asqar Mahkam are subjected to intertextual analysis, and relevant conclusions are drawn based on the findings.

Резюме. В данной статье рассматриваются поэтические функции интертекстуальных единиц, встречающихся в религиозно-просветительской поэзии. Отдельные стихотворения Абдуллы Орипова и Аскара Махкама подвергаются интертекстуальному анализу, по результатам которого делаются соответствующие выводы.

[1] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. -Т.: Ҳилол- Нашр, 2023. – Б. 24.
[2] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. -Т.: Ҳилол- Нашр, 2023. – Б. 520.
[3] Маҳкам, Асқар. Ваҳдат куйи. – Т.: Nurafshon busines, 2021. – **Б.** 221.
[4] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 2-жуз. -Т.: Ҳилол- Нашр, 2023. – Б. 374.
[5] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. -Т.: Ҳилол- Нашр, 2023. – Б. 609.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JADID DRAMATURGIYASINING G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Tashpulatov Muxriddin Raxmatulla o'g'li,
Andijon davlat universiteti doktoranti

Jadidlar favqulodda qisqa muddatda Turkiston ahlini ma'rifatga chorlash zarur degan mutlaq xulosaga kelib, buning eng tezkor vositalarini qo'llash payida bo'ldilar. Jadidlar o'lka hayotida siyosiy va harbiy qonunlarini joriy etish asnosida o'z urf-odat va qadriyatlarini, yashash tarzini, maishiy, ma'naviy va madaniy zavq olish vositalarini ham tatbiq etish yo'lidan borgan mustabid tuzumning adabiy, madaniy yangiliklarini taftish etishdi. Ana shunday vositalarning eng samaralisi sifatida matbuot va teatrni harakatga keltirish masalasi kun tartibiga qo'yildi.

O'lkaga jadidlar olib kirgan teatr san'ati qisqa fursatda shakllanib, favqulodda rivojlandi. «1911-yildan, ya'ni ilk milliy drama – «Padarkush» yaratilgandan to 1916-yil o'rtalariga qadar shakllanish davrini, 1916-yil ikkinchi yarmidan to harakat ma'naviy ham ilk jismoniy tazyiqlarga uchragan 1929-yilgacha rivojlanish bosqichlarini kechirdi»[1].

O'zbekiston tarixi va madaniyatini tadqiq etgan amerikalik olim, professor Edvart Olvort to'g'ri ta'kidlaganidek, «Padarkush»ning sahna asari sifatidagi o'ziga xos fazilati shuki, muallif zamonasining mudhish va jirkanch illatlarini ochiq namoyish etganligi bilan belgilanadi. Demak, Markaziy Osiyoda birinchi zamonaviy sahna asari «Padarkush» nomi bilan boshlandi va rivoj topdi. «Padarkush» mavzusiga mos birinchi pardaning dastlabki daqiqalarida tomoshabinlar ota va o'g'il o'rtasidagi juda qisqa va noxush munosabatga guvoh bo'ladilar.

Shundan so'ng N.Qudratillaning «To'y», A.Qodiriyning «Baxtsiz kuyov», A.Badriyning «Juvonmarg», H.Muinning «Eski maktab, yangi maktab», H.H.Niyoziyning «Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari», A.Avloniyning «Advokatlik osonmi?» kabi o'z davri uchun ham, eng e'tiborlisi, bugungi davr uchun ham dolzarb hisoblanadigan, qator muhim mavzularga bag'ishlangan, g'oyaviy jihatdan millatni uyg'otish, o'lka musulmonlari yashash tarzida illat o'laroq malakalangan ayrim battol, xurofiy, mutaassibona, eskilik sarqitlari sanaladigan rasm-rusum, ortiqcha odat va urflarni tag tomiri bilan sug'urib tashlash maqsadida bitilgan asarlari debocha namunalar sifatida e'tirof etilib, muvaffaqiyat qozondi.

Behbudiyning shogirdi, u boshlab bergan teatr san'atidagi an'analarni munosib davom ettirgan muallif Nusratulla Qudratilla Samarqandda istiqomat qilib, dramatik asarlar ijod etgan. Uning «To'y» nomli dramatik asari o'zining g'oyaviy xususiyatlari bilan yangicha qarashlar, milliy mazmun-mundarijaga mutlaqo yangi yashash tarzini joriy etish, eski, dogmatik qarashlarga barham berish, mavjud milliy illatlarni baralla fosh etish nuqtai nazaridan tomoshabinda katta taassurot qoldirgan dramatik asardir. Behbudiy asos solgan «Oyina» jurnalining 1914-yil, 29-mart №23-sonida e'lon qilingan «To'y» pyesasida ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, Turkiston diyorida yashayotgan turkiy xalqlarning istiqboli, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy hayot tarzida «og'riq tish» *o'laroq simillab turgan ortiqcha marosim va tantanalar tashvishida yashash, alaloqibat, kishini (to'y sohiblarini, umuman, shunday kayfiyatda andarmon yashayotgan jamiyatni) turli falokatlarga, ko'ngilsiz va boshi berk vaziyatlarga giriftor etish manzaralari* ro'y-rost tasvirlanadi. «To'y» dramatik asarining bosh qahramoni – Boy. U o'g'lining sunnat to'yini o'tkazish munosabati bilan to'ydan avvalgi izdihom – «maslahat oshi» muddaosida xonadonida yig'in tashkil etadi. Yig'inga mahalla ahli: imom, oqsoqol, nuroniylar vakili, yigitlarning jo'raboshisi, ko'pkari tadbirlarining bakovuli taklif etiladi.

Teatrshunos T.Tursunov ushbu o'rinda quyidagilarni bayon etadi: «Maslahat boshlanishi bilan mahalla oqsoqol – ellikboshisining «Boy bobo na tariqa to'y qilmoqchisiz? Kichikroq, kambag'alvormi? Yoki ovoza chiqaraturg'on boy zebmi?» degan savoliga Boy: «Manim ixtiyorim sizlardadur. Baharhol bir maslahat beringlarki, boshqa boy jo'ralarimiz ayb qilmayturg'on to'y bo'lsun. Agar mumkin bo'lsa, bizniki alarnikidan bir parda ziyoda bo'lsun», – deb javob beradi»[2]. Dialoglardan anglashiladiki, «maslahat»ga kelganlar ham Boyning qosh-qovog'iga qaraydigan, aslida, so'zi ham, qarori ham undan o'tib, hech qanday ahamiyat kasb etmaydigan kimsalardir. Boy esa barcha zamonlarda ham – Boy. Agar sal-

[1] Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 134.
[2] Турсунов Т. XX аср ўзбек театри тарихи. – Тошкент: ART PRESS Co.Ltd, 2010. – Б. 39.

biy jihatlari avj olsa, u jamiyatdagi muvozanatlarni buzib yuboruvchi, o‘zi qatori puldorlarga baxas qilish fonida boshqa oddiy, qashshoq, nochor odamlar tafakkurida turli fikrlarni hosil qiluvchi kimsaga aylanishi mumkin. Pyesada muallif «maslahat oshi»ga kelgan nuroniy oqsoqollar vakili tilidan quyidagi voqeani keltirib o‘tadi:

«Ushbu yil Ka’batullohga borayotganimizda, Istambulda yigirma olti kun qoldim. Bir kun taxtdan tushirilgan sultonning ikki o‘g‘ilchasini xatna qilmoqchi ekanlar. Uch-to‘rt rafiqalarim bilan tomoshasiga borduk. Sakkiz oshyonalik katta bir hovlini tagiga borib yetganimizda, rafiqalarimning biri: «Ana shu yerda to‘y bo‘ladur», – dedi. Darvozasi tagida qorovul bo‘lib turgan bir to‘radan ruxsat olub, ichkari kirduk. Murti olinmagan bir turk bizlarni to‘rtinchi oshyonaga olib kirdi. Qarasak, taxminan o‘ttiz-qirq kishi, Turkiya amaldor-u askarlaridan hammalari kursilarda o‘tiribdurlar. Bizlarga ham kursi olib keldilar. Lekin bizlar hushyorlik qilub, «kursiga o‘tirmoq durust emas», deb yerga o‘tirduk. Besh-olti daqiqadan keyin hammamizga bir stakandan choy berdilar. Choyni ichib bo‘lur erdukki, bolalarni yotquzib kesdilar. So‘ngra hammalari bitta-bitta chiqib ketdilar. Bizlar ham shu ishga hayron bo‘lub, chiqib qo‘shxonamizga kelduk. So‘ngra ba’zi odamlardan surishtirib bildikki, u yerlarda to‘y, bazm, ko‘pkari degan narsa yo‘q ekan...»[1].

Ma’lumki, Usmonli turklar O‘rta Osiyodan ko‘chib, Kanstantinopol(Istanbul)ni ishg‘ol qilgan qardoshlarimiz hisoblanadi. Ularning demokratik, maishiy iqtisod asosiga qurilgan yangi jamiyatidagi urf-odatlar asarda bejiz namuna qilib tasvirlanmagan. Turkiston turklari turmush tarzidagi maishiy tashvishlarning og‘ir oqibatlarini bartaraf etish mavzusini tarannum etgan ziyolilar xalqning qoloq va omi qismiga shu tarzda ko‘zgu tutarkan, aslan tomirlari bir bo‘lgan ikki turkiy xalqning yashash ahvolini shu tariqa qiyoslaydi.

Atoqli adibimiz A.Qodiriyning «Baxtsiz kuyov» nomli dramatik asari ham ayni mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, u ham «To‘y» dramasi bilan bir yilda (1914) e’lon qilingan. «Baxtsiz kuyov» dramatik asari kechadigan voqea-hodisalar «To‘y»dan farqli ravishda boy-badavlat xonadonda emas, aksincha, oddiy, yo‘qsil, kambag‘al oilada sodir bo‘ladi. Shundan farqlash mumkinki, boylar urf-odatlar bilan bog‘liq muvozanatni buzib yuborgan, kim o‘zarga to‘y qilish an’anasi oddiy fuqarolarning ham turmushiga kirib borgan. Farqi shundaki, oddiy fuqaro oilasi dabdabali to‘y qilish payida turli iqtisodiy muammolarga duchor bo‘lishi turgan gap. «Baxtsiz kuyov»da ham xuddi shunday bo‘ladi. Asarda yetimlikda voyaga yetgan Solih ismli yigitni amakisi(Abdulrahim)ning qizi Rahima bilan nikohlashga kengashadilar. Qiz tomon rozi. Ammo shar’iatdan tashqari mablag‘ olib qarzdor qilingan Solih tang ahvolda qoladi. Tabiiyki, u qarzni to‘lay olmaydi. Natijada, uning bor bisoti musodara qilinib, «xat»ga tushadi. Ularni hech kim qutqara olmaydi. Uy-joy va mol-mulkdan ayrilgan ikki yosh o‘z joniga qasd qilishga majbur bo‘ladi.

«RAHIMA – O‘zingizni o‘ldurar bo‘lsangiz, avval meni o‘lduring, sizdan ajralib turolmayman bu dunyoda.

SOLIH – Seni o‘ldurishka aslo qo‘lim bormaydi, sen bu dunyoda tur, meni o‘lganim yaxshiroq (o‘z-o‘ziga pichoq urmoqchi bo‘lar).

RAHIMA – (sakrab Solihdan pichoqni olib, o‘z biqiniga urar, chalqanchasiga yiqilur, qo‘lidan pichoq bir tarafga tushar, tipirlar va ohlar tortar, jon berar).

SOLIH – (Yig‘lay-yig‘lay qoziqdan joynamoz olub kelib Rahimaning ustiga yopar va yuzidan o‘pub, Rahimaga qarab) Ey vafodor yorim, meni deb shirin joningdan kechding, mahshar kuni Xudo va rasul alayhissalom oldida meni erim jabr bilan o‘ldurdi demagil, ajalingga men sabab bo‘lmadim, balki o‘zingning otang sabab bo‘ldi. Mendan shar’iatdan tashqari oqcha olib qarzdor qildi va yosh umrimizni xazon qildi. Seni va meni bevaqt o‘lumimizg‘a isrof sabab bo‘ldi. Xudo xohlasa, mahshar kunida otang Fayziboy javobgar bo‘lsa kerak. Oh, esiz yosh jonim, ey xudovandim! Bizlarni o‘limimizg‘a sabab bo‘lgan o‘zingg‘a ma’lum (Rahimaning bosh tarafiga o‘tub o‘ziga birdan pichoq urub, yiqilib, xirillab-xirillab jon berar. Birozdan so‘ng boy, pristuf kirarlar)»[2].

A.Qodiriyning ushbu asaridagi prototip va protosyujetlar masalasi hayot haqiqatlari bilan mutanosib. Muallif yashagan davrda bechora solihlar va rahimalar taqdiriga o‘xshash taqdirlar bot-bot uchrab turganligi, buyuk adibning shu og‘riqli mavzuda asar bitishga, uni sahna orqali millatga namoyish etishga undagani, tabiiy hol.

XX asrning ilk choragida, ayniqsa, xotin-qizlar ozodligi, ularning huquq va erkinligi masalasi dolzarbligicha qolgan. Bu og‘riqli mavzuni birinchilardan bo‘lib teatr sahnasiga olib chiqqan mahoratli aktyor va dramaturg Abdulla Badriy 1915-yilda «Juvonmarg» sarlavhali tragediyani yaratadi. Asar milliy illatlarning turli qirralariga ko‘zgu tutish va fosh etish borasida «To‘y», «Baxtsiz kuyov» tipidagi sahna asarlarining mantiqiy, uzviy davomi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Asarda qimorboz, buzuq Toshpo‘lat To‘tioy ismli qizini hech kimning roziligisiz Akram kanto‘r ismli bir boy kimsaga unashtirib, qalin pulini olishi epizodi bilan boshlanadi. Bundan xabar topgan qiz va ona

[1] Қудратилла Н. Тўй // *Ойина журнали,* 1914 йил, 29 март. № 23.
[2] https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-qodiriy/abdulla-odirij-bahtsiz-kuyov-drama/

bor kuchi bilan bu qarorga qarshi chiqargan, ayni jarayonda tragediyada kuchli dramatik intriga vujudga keladi. Alaloqibat to‘yni bekor qilishga erishgan To‘tioy va uning onasi shu bilan qutulmaydi. Endi kelin bo‘lmish istiqbolini aniq bilardi: yo o‘lim, yo baribir Akram kanto‘rga tegib, hayotini xazon qilish. Shunday bo‘ladi ham. Pyesa yakunida ona va qiz o‘zlarinii halok etadilar. «Pyesada Abdulla Badriy ko‘pchilik jadidlar singari hamma yomonliklarning, shu jumladan, turkistonlik musulmonlar fojiasining bosh sababi – jaholat, nodonlik va bilimsizlikdadir degan g‘oyani olg‘a suradi, – deb ayni haqiqatni bayon etadi teatrshunos T.Tursunov. – Jaholat qurboni Toshpo‘lat:

«Xudoyim taolo xotunlarni bizlarga qul qilib yaratib qo‘ygan. Onalar bizlarga xizmatkor», – desa, qizi To‘tioy, «Bizning baxti qaroliklarimiz otamning buzuqlikidadur. Ammo otamning buzuqliklari nodonlikdandur... Biz xotin-qizlar, barchamiz baxti qarodurmiz. Xususan, biz Turkiston xotin-qizlaridek badbaxt ham mazlumalar hech bir yerda yo‘q... Bizlarni badbaxt qilgan narsa ham nodonlikdur», – degan xulosaga keladi»[1]. Mahalliy aholining Toshpo‘lat singari tipik vakillari tafakkurini o‘zgartirish, ularning zehniyatidagi jaholatga butkul barham berish bir nechta maqola yoki sahna asarlari bilan amalga oshiriladigan ish emasligini jadidlar yaxshi bilganlar (Keyinchalik, 1933-1934-yillarda yaratilgan Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanida ham shu xil muammoga Razzoq so‘fi obrazi taqdiri asnosida poetik yechimlar taqdim etiladi). Shu asnoda ular, milliy o‘zlik ustida, ta’bir joiz bo‘lsa, qobiq kabi hosil bo‘lgan nodonlik va jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurash usullarini muntazam ravishda matbuot va sahna vositasida qo‘llashni maqsad qilganlar. Tabiiyki, jadidlarning bu urinishlari besamar ketmagan. O‘lka musulmonlarining johil qatlami sekin-asta oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratadigan holatga kela boshlaganlar.

Behbudiyning yana bir munosib shogirdi va izdoshi Hoji Mu’in Shukrullo ham o‘zbek ayollarining erksiz taqdiri mavzusiga qo‘l urgan. U «Mazluma xotin» (1916) dramasida jamiyatdagi xotin-qizlarga zulm muammosini jadid g‘oyalariga uyg‘un ravishda keskin qoralash yo‘lidan boradi. Shuningdek, H.Muinning uch pardali «Eski maktab, yangi maktab» nomli dramatik asari ham o‘z davrida ijtimoiy hayotni real tasvirlash borasida jadid dramaturgiyasi taraqqiyotini yuksaltirgan asarlar sirasiga kiradi. Asarda muallif eski maktablardagi ta’limning mavjud ahvolini (1-pardada), eski va yangi (usuli jadidni ta’limda tatbiq etish) maktablarning bir-biridan farqlarini yaqqol ko‘rsatib beradigan bahs va munozaralarni (2-pardada) hamda yangi jadid maktablarida olib boriladigan tizimli ta’limni: dars, fanlar, imtihonlar, samaradorlik masalalarini (3-pardada) ifoda etish asnosida zarur xulosalar chiqarishni o‘quvchiga (tomoshabinga) qoldiradi. Muallif dramatik asarning muhim qahramonlaridan biri – Komilboy obrazi vositasida yangi maktablarni ochish ishlariga mahalliy sarmoyadorlarning mablag‘larini jalb etish, ularning fikrini, dunyoqarashini zamonaviylashtirish lozim, degan g‘oyani ilgari suradi. Shu bois ham «Eski maktab, yangi maktab» dramasida tasvirlangan boy obrazi jadid yozuvchilari qalamga olgan boshqa boy timsollaridan farq qiladi. Dramada Komilboy – yangi taraqqiyot usullariga moyil, yangilikka xayrixoh, umuman olganda, dolzarb milliy masalalarga befarq bo‘lmagan, ziyoli sifatida tasavvur uyg‘otadi.

Tadqiqotchi G.Qarshiyeva «Hoji Muin Shukrullo dramaturgiyasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari» nomli nomzodlik ishida jadid dramaturgiyasining o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritarkan, buni shartli ravishda beshga bo‘ladi: «Jadid dramaturgiyasining o‘ziga xos beshinchi xususiyati dramalarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, xarakterlarning yaratilishida aks etadi»[2].

Behbudiyning «Padarkush»i boshlab bergan yo‘lni qo‘qonlik Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘ziga xos original ijodi bilan yuksak badiiy saviyada yanada kengayishiga hissa qo‘shdi. Hamza – o‘zbek dramaturgiyasining eng peshqadam, favqulodda iste’dodli namoyandasidir. Uning 1915-yilda yaratilgan «Ilm hidoyati» (bizgacha yetib kelmagan – *M.T.*), «Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari», «Boy ila xizmatchi», «Muxtoriyat yoki avtonomiya», «Tuhmatchilar jazosi», «Kim to‘g‘ri?», «Loshmon fojialari», «Farg‘ona fojialari», «Burungi saylovlar», «Qozining sirlari», «El quzg‘unlari», «Jahon sarmoyasining oxirgi kunlari», «Burungi qozilar yoxud Maysaraning ishi», «Paranji sirlaridan bir lavha yoxud Yallachilar ishi» deb nomlangan dramatik asarlari g‘oyaviy-mundarijaviy jihatdan jadidchilik konsepsiyasiga uyg‘un ekanligini ko‘rish mumkin. Hatto, uning matni bizgacha yetib kelmagan «Qahramon O‘g‘iz», «Normuhammad domlaning kufr xatosi» kabi asarlarining sarlavhasidanoq taxmin qilish mumkinki, ushbu dramalar orqali muallif milliy qahramon siymosini: millatga suv va havodek zarur bo‘lgan yangi davr, zehniyat, bilim, iqtidor hamda tadbir (yashash hadisi, usuli) egalari kerakligini («Qahramon O‘g‘iz»); yoki din-diyonat masalasida ham isloh qilinishi muhim bo‘lgan milliy masalalar bisyor ekanligi («Normuhammad domlaning kufr xatosi») ifoda etilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

[1] Турсунов Т. XX аср ўзбек театри тарихи. – Тошкент: ART PRESS Co.Ltd, 2010. – Б. 52.

[2] Қаршиева Г. Ҳожи Муин Шукрулло драматургиясининг ғоявий-бадиий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 21.

*«*Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari*»* dramatik asari Hamzaning mazkur adabiy turga qo‘l urgan dastlabki urinishlaridan biri hisoblanadi. Asarda o‘zbeklarga xos yashash va ish ko‘rish tarzi, jarayondagi ma’lum kamchiliklar yoritilgan. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek Hamza dramalariga baho berarkan: *«*Dramalaridan «Xolisxon» («Paranji sirlari» – *M.T.*), «Maysaraning ishi», «Zaharli hayot» – o‘tmish hayotimizning o‘zi*»*[1], – deya bejiz bitmagan. Ushbu pyesa tematik jihatdan ham, badiiy-g‘oyaviy tomondan ham, biz, dissertatsion ishimizning ushbu faslida nomlari va asarlarini zikr etgan mualliflar asarlarida singdirilgan mazmun (yangilik, yangicha yashash, jididona dasturulamal) bilan hamohang. Hamza *«*Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari*»* fojiasida katta hayot ostonasida turgan yigit va qizlarning turmush qurish qarorini berishidan avval bir-birini ko‘rib, tanib, sinab, amin bo‘lib, ko‘zi yetib so‘ng oila qurishi lozim, ularning taqdirini ko‘r-ko‘rona hal qilishga intilish, muayyan moddiy yoki ijtimoiy rag‘batlar evaziga insonni bebaxtlikka, hatto fojiaviy nihoyalanishi mumkin bo‘lgan hayotda yashashga majbur etmaslik shartligini badiiy sathda ifoda etadi.

Asarda yaxshi niyat bilan, millat ravnaqiga hissa qo‘shish orzusida turmush qurishga ahd qilgan ikki yosh – Mahmudjon va Maryamxonning fojiasiga sabab bo‘lgan ijtimoiy illatlar: ota-onalarning farzandlar taqdiriga beparvoligi, qizning roziligisiz yoshi bir joyga borib qolgan cholga (Piri murshid eshon) turmushga berish, bunga chiday olmay qochib ketgan qizning alaloqibat o‘z joniga qasd qilishi, xuddi shu manzara yigit taqdirida ham sodir bo‘lishi ta’sirchan ko‘rsatib berilgan.

Muallif asar nihoyasida (qabristonda) o‘z qo‘lida jon bergan Maryamxonning jonsiz tanasi uzra fig‘on chekib, sevgilisi loshiga murojaat qilayotgan Mahmudjon tilidan quyidagi badiiy nutqni irod qiladi:

*«*Afv qil! Gunoh bir ota-onalarda ham emas. *(Jahl ila qo‘l siltub.)* Haqiqatda bu ishlar jaholatdan! Jaholatdan! G‘aflatdan! Ilmsizlikdan! *(Cho‘chib, yana sarosima bo‘lib, to‘xtab turib, lahadga qarab*.) Jonim Maryam, mandanmi xafalanur ruhing?! Yo‘q, ota-onalardanmi? Yo‘q! *(Qichqirib.)* Jaholat bu! Jaholat! ... Tog‘lardagi yirtqich hayvonlarda ham sizning kabi farzandga muhabbasizlik, shafqatsizlik, muruvvatsizlik, *(qichqirib)* zolimlik, xunxo‘rlik o‘lmas!!! Hech o‘lmas! Volloh! O‘lmas!*»*[2].

Hamzaning dramaturgik faoliyati uning yon-atrofidagi jadid yozuvchilariga ta’sir o‘tkazmay qolmagan. Hamza ijodi quvvati o‘zbek dramaturgiyasining yaqin istiqbolidagi repertuarlarining badiiy jihatdan kuchayishiga xizmat qilgan. O‘zining dramanavislik iste’dodi bilan shunday badiiy yuksaklikni zabt etgan adib, qomusiy olim Fitrat dramalarida ham jadidchilik g‘oyalarining asosiy mavzulari qalamga olingan.

Abdurauf Fitrat inqilob bo‘lgan yildan e’tiboran dramatik asarlar yoza boshlagan. Uning *«*Begijon*»*, *«*Abu Muslim*»*, *«*Temur sag‘anasi*»*, *«*O‘g‘uzxon*»*, *«*Mavludi sharaf*»*, *«*Qon*»* (sanoqdagi ushbu asarlar matni bizgacha yetib kelmagan. – *M.T.*), *«*Chin sevish*»*, *«*Hind ixtilolchilari*»*, *«*Abulfayzxon*»*, *«*Shaytonning tangriga isyoni*»*, *«*Arslon*»* (sanoqdagi ushbu asarlar matni bizgacha yetib kelgan. – *M.T.*) kabi sahna uchun yozilgan asarlari o‘tgan va hozirgi asr adabiyotshunoslari uchun tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Ta’kidlash kerakki, Fitrat tarixiy mavzudagi dramatik asarlar yaratish an’anasini boshlab bergan muallifdir. E’tibor berilsa, u bu mavzuda pyesa yozishni birinchidan, davr taqozo etgan bo‘lsa, ikkinchidan, muallifning o‘z tabiati, ilmi, iste’dodi tarixiy mavzularga begona emas edi.

O‘tgan asrning 20-yillari dramaturgiyasini tadqiq etgan adabiyotshunos Q.Jo‘rayev o‘zining doktorlik dissertatsiyasida keltirib o‘tgan quyidagi fikrlari haqiqatga yaqin: *«*Bizga to‘la yetib kelmagan bu asarda (*«*Temur sag‘anasi*»* (1918) dramasi nazarda tutilmoqda – *M.T.*) Fitrat Oktyabr inqilobining o‘zbek xalqini yangi *«*Qizil kishanlar*»*ga bog‘lagan davlat to‘ntarishi bo‘lganligini tushunib, sovetlarga qarshi kayfiyatni xalq ommasiga singdirishga, unda mustaqil davlatni barpo etish orzusini uyg‘otishga intildi. Lekin yangi jamiyat Fitrat singari yozuvchilarning bunday asarlar yaratishiga qat’iy ravishda chek qo‘ydi. Shunday keyin Fitrat *«*Chin sevish*»* (1921), *«*Hind ixtilolchilari*»* (1923) pyesalarini yozdi va ularda o‘z qahramonlarini ingliz mustamlakasi bo‘lgan Hindiston tuprog‘iga ko‘chirib, g‘ayrimustamlakachilik *g‘oyalarini olg‘a surdi»*[3].

Fitrat o‘zining poetik xulosalarini ifoda etishda o‘zi yashab turgan davr qahramonlaridan ko‘ra o‘tmishda yashagan shaxslar taqdirini syujet chizig‘iga keltiradi.

Fitrat dramalari poetikasini tadqiq etgan adabiyotshunos I.G‘aniyev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, «Islohotchilik, ma’rifatparvarlik, Turkiston birligi g‘oyalari Fitrat uchun har doim asosiy g‘oyaviy bazis bo‘lib xizmat qilgan. Ana shunday g‘oyalar Fitrat she’rlarining ham, publitsistikasining ham, dramaturgiyasining ham, hatto ilmiy faoliyatining ham markazida yonib turgan va ularni yadrosidan tortib to qobig‘igacha va shu qobiqni yorib chiqib, o‘quvchilar qalbigacha yor-

[1] Ойбек. Куйчи ва курашчи. Ҳамза замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 81.

[2] Ҳамза. Ҳ.Н. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик. 3-том. Драмалар (1915-1920). – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 39-40.

[3] Жўраев Қ. 20-йиллар ўзбек драматургияси: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 46-47.

itib turgan chirog‘dir»[1].

Fitrat dramalarida erk, milliy mustaqillik uchun kurash, ozodlik yo‘liga to‘g‘anoq bo‘lib turgan tashqi va ichki dushmanlarni daf etish masalasi, qolaversa, millatning birligiga raxna solib kelayotgan ulkan sabab va kamchiliklarni taftish etadi. Bunday taftish unsurlarini dramaturgning, ayniqsa, «Abulfayzxon» tragediyasi misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Yangi o‘zbek sahnasidagi ilk musiqali drama – «Halima» asarini bitib, uni ommaga manzur qilib, xalq va teatr rishtalarini yanada mustahkamlashga erishgan shoir va dramaturg G‘ulom Zafariy ham g‘oyaviy jihatdan qaralganda, mohiyatan o‘zigacha bo‘lgan mualliflar yurgan yo‘ldan boradi. Buning yaqqol isboti sifatida «Halima» musiqali dramasini keltirish mumkin.

Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon «Halima» asari haqida «Turkiston» gazetasining 1922-yil 16-dekabr sonida quyidagi fikrlarini bayon etadi: «11-dekabrda o‘zimiz ko‘rgan qishloq «Turon» binosida – yuzinchi martaba bo‘lsa kerak – «Halima» *o‘ynaldi ... Asarning* allanechanchi martaba qo‘yilishiga qaramasdan, xalq to‘ladir, joy tegishmaydir»[2]. Cho‘lpon mulohazalaridan ayon bo‘ladiki, asar keng ommaga manzur bo‘lgan, tomoshabinni e’tiborini qozongan anshlag sifatida muvaffaqiyat qozongan.

Adabiyotshunos O.Usmonov «G‘ulom Zafariyning ijodiy yo‘li» nomli nomzodlik ishida: «Halima» dramasida ko‘tarilgan g‘oya aslida barcha jididlarning ma’naviy ustozi, bu harakatning yo‘lboshchisi Ismoil G‘asprali tomonidan o‘rtaga tashlangan bo‘lib, u maktab va maorif, matbuot va adabiy til masalalarini hal etish bilan birgalikda xotin-qizlarning shar’iy huquqlarini tiklashni ham o‘z harakat dasturiga kiritgan»[3], – deb qayd etadi.

«Halima» musiqali drama haqida «Qizil O‘zbekiston» gazetasining 1925-yil 20-mart sonida «To‘lqin» imzosi ostida e’lon qilingan maqolada ifoda etilgan quyidagi fikrlar e’tiborga molik: «O‘zbek oila turmushi juda ham yomon. Xotin-qizlarimiz bu kunga qadar o‘yinchi-qo‘g‘irchoq qatorida sanalib keldilar va haliyam sanalib kelmoqdalar. Qiz berish, kuyov qilishda ham ixtiyor mutaassib ota-onalar qo‘lida bo‘ldi. Qiz ixtiyorsiz hayvon qatoridadir. ... Bu o‘pera («Halima» nazarda tutilmoqda – *M.T.*) turmushimizning eng qayg‘uli, fojiali joylaridan olib yozilg‘on bir narsa bo‘lishim bilan barobar yo‘qolib ketmakda bo‘lg‘on ohanglarimizni bir yerga to‘plag‘on»[4].

Adabiyotshunoslikda «Halima» ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan sahna asarlari sirasiga kiradi.

Mazkur davrda yondosh adabiy tur va janrlarda ijod qilib shuhrat qozongan Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon dramaturgiya sohasida qalam tebratib, badiiy so‘z orqali mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ochib berish, milliy muammolarni ko‘rsatib berish hamda ularning yechimi o‘laroq jadid g‘oyalarini sizdirish kabi ijodiy niyatlarni ko‘zda tutadi.

Umuman olganda, jadidlar boshlab bergan va taraqqiy ettirgan milliy dramaturgiya sohasi o‘zining g‘oyaviy-badiiy, umummilliy va umuminsoniy tamoyillari bilan o‘zbek sahnasi uchun yaratilgan va istiqbolda ijod etilgan asarga dasturilamal vazifasini o‘tab berdi.

Rezyume. Jadid dramaturgiyasining g‘oyaviy xususiyatlari tahlil etilgan ushbu maqolada Behbudiyning **«**Padarkush**»** fojiasidan G‘ulom Zafariyning **«**Halima**»** musiqiy dramasiga qadar yaratilgan avangard sahna asarlari, ular atrofidagi fikr-mulohazalar tadriji asos qilib olindi. Maqolada mazkur asarlar g‘oyaviy-badiiy jihatdan XX asr o‘zbek milliy dramaturgiyasining taraqqiyotiga xizmat qilganligi ochib berilgan.

Resume. This article, which analyzes the ideological features of Jadid dramaturgy, examines the evolution of avant-garde stage works–from Behbudiy’s tragedy «Padarkush» (The Patricide) to G’ulom Zafariy’s musical drama «Halima» – and the critical discourse surrounding them. The article reveals how these works, from an ideological and artistic standpoint, contributed to the development of 20th-century Uzbek national dramaturgy.

Резюме. В данной статье, где анализируются идейные особенности джадидской драматургии, за основу взят путь развития авангардных сценических произведений — от трагедии Бехбуди «Падаркуш» («Отцеубийца») до музыкальной драмы Гуляма Зафари «Халима» — и размышления вокруг них. В статье раскрывается, как эти произведения в идейно-художественном плане послужили развитию узбекской национальной драматургии XX века.

[1] Ғаниев И. ***Фитрат драмалари поэтикаси:*** Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 30.
[2] Қаландар (Чўлпон). Саҳнамизда // Туркистон, 1922. 16 декабрь.
[3] Усмонов О. Ғулом Зафарийнинг ижодий йўли: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 61.
[4] Тўлқин. “Ҳалима” // Қизил Ўзбекистон, 1925. 20 март.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY TAFAKKURDA JINOYAT VA PSIXOLOGIYA O'ZARO ALOQADORLIGINING ESTETIK TALQINI

Fayzullayeva Nigina Sur'at qizi,
Osiyo xalqaro universiteti ingliz tili o'qituvchisi

Badiiy adabiyot inson ruhiyati va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi estetik hodisa sifatida doimo insonning ichki dunyosiga murojaat qilib kelgan[1]. Ayniqsa, jinoyat fenomeninig adabiyotdagi talqini faqat voqelikni tasvirlash bilan cheklanmay, inson psixologiyasining eng nozik qatlamlarini ochib berishga xizmat qiladi[2]. Chunki jinoyat ko'pincha tashqi hodisadan ko'ra ichki ruhiy jarayonlarning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya bir-birini to'ldiruvchi estetik kategoriyalar sifatida shakllanadi.

Adabiyot tarixiga nazar tashlansa, jinoyat mavzusi qadimiy tragediyalardan tortib zamonaviy detektiv romanlargacha turli estetik shakllarda talqin qilinganini kuzatish mumkin[3]. Ammo XIX–XX asrlardan boshlab inson ruhiyatiga bo'lgan qiziqishning ortishi bilan jinoyatning psixologik ildizlarini ochishga intilish kuchaydi. Natijada qahramonning ichki monologi, ruhiy inqirozi, aybdorlik hissi va travmatik tafakkuri badiiy matnning asosiy estetik unsurlariga aylandi.

Bugungi zamonaviy adabiyotda ham jinoyat tasviri shunchaki kriminal voqealar ketma-ketligi emas, balki inson ongidagi qorong'i nuqtalarni yorituvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, psixologik detektiv janrida qahramonning ichki ziddiyatlari va ruhiy beqarorligi jinoyatning sababiy omili sifatida talqin qilinadi[4].

Jinoyat adabiyotda ko'p qirrali fenomen hisoblanadi. U ijtimoiy muhit mahsuli, axloqiy tanazzul belgisi yoki individual ruhiy iztirobning natijasi sifatida talqin qilinishi mumkin[5]. Biroq badiiy tafakkur jinoyatni oddiy voqea sifatida emas, balki insonning ichki «men»i bilan bog'liq estetik hodisa sifatida o'rganadi.

Adabiyotda jinoyat ko'pincha dramatik konfliktning markazida turadi. Chunki jinoyat insonning ichki va tashqi dunyosi o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuchli tarzda yuzaga chiqaradi. Jinoyat sodir etgan qahramonning ruhiy iztirobi, qo'rquvi, pushaymonligi yoki o'zini oqlashga urinishi estetik ta'sirchanlikni oshiradi.

Fyodor Dostoyevskiyning «Jinoyat va jazo» romanida Rodion Raskolnikov obrazi buning yorqin misolidir[6]. Asarda jinoyat tashqi harakatdan ko'ra qahramon ongidagi murakkab falsafiy va psixologik jarayon sifatida tasvirlanadi. Qahramonning ruhiy parchalanishi, aybdorlik hissi va vijdon azobi estetik dramatizmni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, modernistik va postmodernistik adabiyotda jinoyat inson ongining fragmentatsiyasi bilan bog'liq holda talqin qilinadi[7]. Bunday asarlarda voqelikning parchalanib tasvirlanishi qahramon ruhiyatidagi ichki beqarorlikni ifodalashga xizmat qiladi.

Psixologik realizm adabiyotda insonning ichki kechinmalarini chuqur tahlil qilishga asoslangan estetik yo'nalish hisoblanadi[8]. Bu uslubda jinoyatning tashqi tafsilotlaridan ko'ra uning ruhiy sabablari muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik realizm qahramonning ichki monologi, ong oqimi va ruhiy dialoglari orqali namoyon bo'ladi. Natijada o'quvchi jinoyatchining tashqi harakatlarini emas, balki uning ichki ruhiy evolyutsiyasini kuzatadi.

XX asr Amerika adabiyotida psixologik jinoyat romanlari keng rivojlandi. Ayniqsa, Gillian Flynn asarlarida inson ongidagi manipulyatsiya, ruhiy travma va identitet inqirozi markaziy estetik unsur sifatida namoyon bo'ladi[9]. Uning «Gone Girl» romanida jinoyat voqeasi er-xotin o'rtasidagi psixologik o'yinlar orqali ochiladi. Bu yerda jinoyat faqat kriminal hodi-

[1] Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Oxford: Blackwell, 2008. – P. 45.
[2] Qo'shjanov M. Badiiy tafakkur va psixologizm. – Toshkent: Fan, 2016. – B. 28.
[3] Todorov T. The Poetics of Prose. – Oxford: Blackwell, 1977. – P. 91.
[4] Flynn G. Gone Girl. – New York: Crown Publishing, 2012. – P. 54.
[5] Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – B. 133.
[6] Dostoyevskiy F. Jinoyat va jazo. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 217.
[7] Ricoeur P. Memory, History, Forgetting. – Chicago: University of Chicago Press, 2004. – P. 112.
[8] Bahktin M. Problems of Dostoevsky's Poetics. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984. – P. 76.
[9] Flynn G. Gone Girl. – New York: Crown Publishing, 2012. – P. 101.

sa emas, balki inson ruhiyatidagi patologik munosabatlarning mahsuli sifatida talqin qilinadi.

O‘zbek adabiyotida ham psixologik tahlil kuchayib bormoqda. Zamonaviy detektiv va psixologik nasrda qahramonning ichki ziddiyatlari, ruhiy tushkunligi va ijtimoiy bosim ostidagi psixologik holati badiiy markazga chiqmoqda. Bu esa milliy nasrda psixologik estetik tafakkurning shakllanayotganidan dalolat beradi[1].

Jinoyat bilan bog‘liq asarlarda aybdorlik hissi asosiy psixologik komponentlardan biri hisoblanadi. Aybdorlik qahramon ruhiyatidagi ichki kurashni kuchaytirib, badiiy dramatizmni yuzaga keltiradi[2].

Adabiyotda aybdorlik ikki shaklda namoyon bo‘ladi:

1. Ongli aybdorlik;
2. Ong osti darajasidagi aybdorlik.

Ongli aybdorlikda qahramon o‘z jinoyatini tan oladi va ichki azob chekadi. Ong osti aybdorligida esa qahramon jinoyatni oqlashga urinadi, biroq ruhiy bosim uni ichki inqirozga olib keladi.

Psixoanalitik nazariyalarga ko‘ra, aybdorlik inson ong ostida saqlanadigan bosim natijasidir[3]. Shu sababli badiiy asarda jinoyatchining ruhiy beqarorligi turli ramziy obrazlar, tush motivlari yoki ong oqimi orqali ifodalanadi.

Masalan, zamonaviy psixologik trillerlarda qahramon ko‘pincha paranoid holatda tasvirlanadi. Bu usul orqali muallif inson ruhiyatidagi qo‘rquv va ichki bo‘linishni estetiklashtiradi.

Zamonaviy adabiyotda jinoyat ko‘pincha travmatik tajriba bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Ruhiy travma inson ongida chuqur iz qoldirib, agressiya yoki destruktiv harakatlarning sababiga aylanishi mumkin[4].

Psixologik tadqiqotlarda bolalik travmalari, zo‘ravonlik va ijtimoiy bosim jinoyatchi shaxs shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar sifatida ko‘riladi. Adabiyot esa bu jarayonni estetik shaklda ochib beradi.

Travmatik tafakkur badiiy matnda quyidagi vositalar orqali ifodalanadi:

fragmentar kompozitsiya;
xotira parchalanishi;
takrorlanuvchi obrazlar;
tush va gallyutsinatsiyalar;
ichki monolog.

Bu usullar qahramon ruhiyatidagi iztirobni estetik jihatdan ta’sirchan ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Zamonaviy Amerika detektiv nasrida travmatik psixologiya alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, oilaviy zo‘ravonlik, bolalikdagi ruhiy jarohatlar va identitet inqirozi jinoyatning ichki sabablariga aylantiriladi. O‘zbek nasrida esa ijtimoiy muhit va ma’naviy bosim bilan bog‘liq travmalar ko‘proq uchraydi.

Ichki monolog va ong oqimi texnikasi psixologik adabiyotning muhim estetik vositalaridan biridir[5]. Ushbu usullar orqali muallif qahramonning yashirin fikrlari va ruhiy holatini bevosita ochib beradi.

Ichki monolog qahramonning o‘zi bilan suhbatini aks ettiradi. Bu usul ayniqsa jinoyat sodir etgan qahramonning ruhiy iztirobini ko‘rsatishda samarali hisoblanadi.

Ong oqimi esa inson tafakkurining tartibsiz, parchalanib oqishini ifodalaydi. Modernistik adabiyotda bu texnika inson ongidagi beqarorlik va ruhiy bosimni tasvirlash uchun keng qo‘llanilgan.

Psixologik detektiv asarlarda ushbu texnikalar o‘quvchini qahramon ongiga yaqinlashtirib, jinoyatning ichki motivlarini tushunishga imkon beradi. Natijada o‘quvchi voqeani tashqaridan kuzatuvchi emas, balki ruhiy jarayonlarning bevosita guvohiga aylanadi.

Bugungi detektiv nasr klassik kriminal sxemalardan uzoqlashib, psixologik tahlilga asoslangan murakkab estetik tizimga aylangan[6]. Endilikda detektiv asarda «jinoyatni kim sodir etdi?» degan savoldan ko‘ra «nega sodir etdi?» degan savol muhimroq bo‘lib qolmoqda.

Bu esa psixologik estetik tafakkurning ustuvorligini ko‘rsatadi. Zamonaviy detektiv asarlarda:

ruhiy manipulyatsiya;
identitet inqirozi;
travmatik xotira;
paranoid tafakkur;
depressiv holatlar
asosiy badiiy komponentlarga aylangan.

Shuningdek, postmodernistik detektiv romanlarda voqelikning noaniqligi va haqiqatning subyektiv talqini ham muhim o‘rin egallaydi. Bunday asarlarda jinoyat faqat tashqi hodisa emas, balki inson ongidagi metaforik parchalanish timsoliga aylanadi.

O‘zbek detektiv nasrida ham psixologik yo‘nalish kuchayib bormoqda. Milliy mentalitet, ma’naviy qadriyatlar va oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq ruhiy ziddiyatlar jinoyat motivining ichki qatlamlarini ochishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o‘rtasidagi aloqadorlik inson ruhiyatining murakkab estetik talqinini yuzaga chiqaradi. Adabiyot jinoyatni oddiy

[1] Qo‘shjanov M. Badiiy tafakkur va psixologizm. – Toshkent: Fan, 2016. – B. 84.
[2] Dostoyevskiy F. Jinoyat va jazo. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 301.
[3] Freud S. The Interpretation of Dreams. – London: Macmillan, 2010. – P. 156.
[4] Jung C.G. Modern Man in Search of a Soul. – New York: Harcourt, 2001. – P. 143.
[5] Bahktin M. Problems of Dostoevsky’s Poetics. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984. – P. 122.
[6] Todorov T. The Poetics of Prose. – Oxford: Blackwell, 1977. – P. 147.

kriminal hodisa sifatida emas, balki insonning ichki dunyosi, ruhiy travmalari, aybdorlik hissi va ong osti jarayonlari bilan bog‘liq murakkab fenomen sifatida tasvirlaydi.

Psixologik realizm, ichki monolog, ong oqimi va travmatik tafakkur kabi estetik vositalar qahramon ruhiyatini chuqur ochishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy detektiv nasrda jinoyatning psixologik ildizlarini tadqiq qilish ustuvor estetik tamoyilga aylangan.

Shuningdek, jinoyat motivining estetik talqini insoniyatning axloqiy va ruhiy inqirozlarini anglashga yordam beradi. Shu bois jinoyat va psixologiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik badiiy tafakkurning muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida dolzarblik kasb etmoqda.

Badiiy adabiyotda konflikt asarning estetik asosini tashkil qiluvchi muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, jinoyat motivi bilan bog‘liq asarlarda konflikt tashqi voqealardan ko‘ra qahramonning ichki ruhiy kurashi orqali shakllanadi. Shu jihatdan psixologik tafakkur jinoyatning badiiy-estetik mohiyatini ochib beruvchi asosiy vositaga aylanadi.

Psixologik detektiv va dramatik asarlarda qahramon ko‘pincha ikki qarama-qarshi holat o‘rtasida qoladi: axloqiy me’yor va individual istak. Mana shu ichki qarama-qarshilik badiiy konfliktning chuqurlashuviga sabab bo‘ladi. Jinoyat sodir etilishidan avval qahramon ongida yuz beradigan ruhiy beqarorlik, qo‘rquv, shubha va iztirob estetik dramatizmni yuzaga chiqaradi. Shu sababli zamonaviy adabiyotda jinoyatning o‘zi emas, balki unga olib kelgan psixologik omillar muhimroq ahamiyat kasb etmoqda.

Badiiy tafakkurda jinoyat ko‘pincha insonning ichki «men»i bilan bog‘liq yashirin qatlamlarni ochishga xizmat qiladi. Qahramonning tashqi harakatlari uning ong ostidagi qo‘rquv, travma yoki ruhiy bosimning natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat ayniqsa psixoanalitik yondashuvga asoslangan asarlarda yaqqol ko‘rinadi. Sigmund Freyd nazariyasiga ko‘ra, inson ong ostida saqlanadigan bostirilgan hissiyotlar ma’lum vaziyatlarda agressiv yoki destruktiv harakatlar shaklida yuzaga chiqishi mumkin. Adabiyot esa ushbu psixologik jarayonlarni estetik shaklda ifodalash imkonini beradi.

Zamonaviy detektiv nasrda jinoyatchi obrazi biryoqlama salbiy qahramon sifatida emas, balki murakkab ruhiy olam egasi sifatida tasvirlanmoqda. Mualliflar jinoyatchining bolalik travmalari, oilaviy muammolari, ijtimoiy bosim yoki ruhiy tanazzulini ochib berish orqali o‘quvchini uning psixologik holatini tushunishga undaydi. Natijada o‘quvchi jinoyatni faqat axloqiy nuqtayi nazardan emas, balki inson ruhiyatining inqirozi sifatida ham qabul qiladi.

Badiiy tafakkurdagi psixologik konflikt estetik ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, ichki monolog va ong oqimi texnikalari qahramon ruhiyatidagi parokandalikni tabiiy tarzda aks ettirishga xizmat qiladi. Qahramonning uzilib-uzilib ketadigan fikrlari, takrorlanuvchi xotiralari yoki tush motivlari uning ichki ruhiy iztirobini estetik jihatdan chuqurlashtiradi.

Shuningdek, zamonaviy postmodernistik adabiyotda jinoyat metaforik ma’noda ham qo‘llaniladi. Ba’zi asarlarda jinoyat jamiyatdagi ma’naviy tanazzul, yolg‘izlik yoki identitet yo‘qolishining timsoliga aylanadi. Bunday yondashuvda jinoyat real voqea emas, balki inson ruhiyatining parchalanishini ifodalovchi badiiy model sifatida talqin qilinadi.

O‘zbek zamonaviy nasrida ham psixologik konfliktning kuchayishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, insonning ichki yolg‘izligi, ijtimoiy bosim va ma’naviy qadriyatlar inqirozi bilan bog‘liq ruhiy holatlar jinoyat motivi bilan uyg‘unlashib ketmoqda. Bu esa milliy adabiyotda psixologik realizmning yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat va psixologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik badiiy tafakkurning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi. Psixologik konflikt orqali muallif inson ruhiyatining eng murakkab qatlamlarini ochib beradi. Natijada jinoyat motivi nafaqat voqeabandlik vositasi, balki inson tabiatini chuqur anglashga xizmat qiluvchi estetik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

Resyume. Mazkur maqolada badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning estetik mohiyati tahlil qilinadi. Jinoyat fenomenining inson ruhiyati, ichki ziddiyatlari va travmatik tafakkur bilan bog‘liqligi yoritiladi. Psixologik realizm, ichki monolog, ong oqimi va aybdorlik hissining badiiy ifodasi asosida qahramon ruhiyatining estetik talqini ochib beriladi. Shuningdek, zamonaviy Amerika va o‘zbek detektiv nasrida jinoyatning psixologik ildizlari hamda uning badiiy-estetik funksiyasi tahlil qilinadi.

Resume. This article analyzes the aesthetic interpretation of the relationship between crime and psychology in artistic thinking. The study highlights the connection of the crime phenomenon with human consciousness, inner conflicts, and traumatic thinking. Through psychological realism, inner monologue, stream of consciousness, and the artistic expression of guilt, the aesthetic representation of a character’s psychology is revealed. The article also examines the psychological roots of crime and its artistic-aesthetic function in contemporary American and Uzbek detective prose.

Резюме. В данной статье анализируется эстетическая интерпретация взаимосвязи преступления и психологии в художественном мышлении. Освещается связь феномена преступления с внутренним миром человека, психологическими конфликтами и травматическим мышлением. На основе психологического реализма, внутреннего монолога, потока сознания и художественного выражения чувства вины раскрываются эстетические особенности изображения психологии героя. Также рассматриваются психологические основы преступления и его художественно-эстетическая функция в современной американской и узбекской детективной прозе.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ВЛИЯНИЕ МИФОЛОГИЧЕСКИХ МОТИВОВ СОЗДАНИЯ И РАЗРУШЕНИЯ НА СЮЖЕТ РОМАНА

Буранова Жамила Алиевна,
докторант кафедры узбекского литературоведения
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

В современной литературе и филологии миф продолжает оставаться одним из мощнейших инструментов художественного осмысления реальности. Е.М. Мелетинский подчёркивал, что «мифология есть необходимое условие и первичный материал для всякого искусства», а в литературе XX века наблюдается «возрождение» мифа, объясняемое стремлением связать понятие «человек» с понятием «человечество» и увидеть за данным отрезком времени многовековую протяженность[1]. В эпоху глобализации, стремительной цифровизации и кризиса традиционных ценностей мифологическое мышление не только не утрачивает своей актуальности, но, напротив, обретает новое дыхание. Оно выступает универсальным языком, способным соединять архаику и постмодерн, Восток и Запад, сакральное и профанное[2].

Мифологические мотивы создания (космогония, акт демиурга, превращение хаоса в космос, рождение новой формы) и разрушения (апокалипсис, энтропия, метаморфоза как утрата или освобождение от формы, возврат к изначальному хаосу) не просто обогащают текст декоративными элементами. Они часто становятся определяющими для его сюжетной архитектоники, задавая глубинную логику повествования и внутреннюю динамику произведения. Эти мотивы позволяют авторам моделировать фундаментальные философские категории: природу бытия и небытия, иллюзорность мира, циклическую природу времени, хрупкость человеческой идентичности и границы между реальным и ирреальным.

В.Н. Топоров отмечал, что в мифопоэтическом хронотопе «время сгущается и становится формой пространства», а пространство, напротив, «заражается» внутренне интенсивными свойствами времени и «втягивается в его движение»[3]. М.М. Бахтин в концепции диалога культур подчёркивал, что «диалог как форма бытия культуры» позволяет различным культурным традициям вступать в продуктивное взаимодействие, сохраняя свою уникальность[4].

Особую остроту данные мотивы приобретают

[1] Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: Восточная литература, 2000. – С. 12.
[2] Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: Восточная литература, 2000. – С. 45–47.
[3] Топоров В.Н. Мифологический хронотоп // Избранные труды. – М., 1995. – С. 232–233.
[4] Бахтин М.М. К философии поступка // Работы 1920-х годов. – Киев, 1994. – С. 89.

в литературе переходных эпох, когда привычная картина мира рушится, а новая ещё не сформировалась. В таких условиях миф становится инструментом как реконструкции утраченной целостности, так и её радикального переосмысления. Центральноазиатская и русская постсоветская проза представляет в этом смысле исключительно плодотворный материал. Здесь мифологические архетипы активно взаимодействуют с локальной культурной памятью – суфийской традицией, тенгрианскими представлениями, буддийской философией пустоты и травматическим опытом XX века[1].

Актуальность настоящего исследования обусловлена необходимостью глубокого анализа того, как древние мифологические модели создания и разрушения трансформируются в современной романной форме и определяют её сюжетные стратегии. Объектами анализа избраны два ярких и во многом показательных произведения конца XX века: роман Тимура Пулатова «Черепаха Тарази», глубоко укоренённый в среднеазиатской культурной почве, и роман Виктора Пелевина «Чапаев и Пустота», представляющий постмодернистский вариант русской литературы с выраженным буддийским подтекстом.

Несмотря на очевидные культурные, стилистические и мировоззренческие различия, оба романа демонстрируют удивительную типологическую близость в использовании мифологических мотивов создания и разрушения как основы сюжетостроения. Как отмечает Э.Ф. Шафранская, в прозе Т. Пулатова мифопоэтика служит способом синтеза национальных образов мира с универсальными архетипами[2].

Цель статьи – выявить и описать механизмы влияния мифологических мотивов создания и разрушения на сюжетную организацию романов Т. Пулатова и В. Пелевина. Задачи исследования: раскрыть теоретические основы изучения мифологических мотивов в современном романе; провести детальный анализ функционирования мотивов создания и разрушения в каждом из произведений с привлечением подлинных текстовых примеров; осуществить сравнительно-типологическое сопоставление романов; определить, как данные мотивы влияют на философскую глубину и художественную структуру текстов.

Таким образом, исследование находится на пересечении мифопоэтики, компаративистики и современной нарратологии, что позволяет по-новому взглянуть на природу мифологизированного романа рубежа XX–XXI веков.

Исследование выполнено в рамках мифопоэтического, мотивного, сравнительно-типологического и нарратологического подходов. Применяются идеи М.М. Бахтина о диалоге культур, Е.М. Мелетинского о поэтике мифа и В.Н. Топорова о мифологическом хронотопе. Основным методом работы с текстом стало качественное кодирование ключевых мотивов: создание (демиургия, космогония, метаморфоза как рождение), разрушение (энтропия, апокалипсис, растворение формы). Анализ опирается исключительно на подлинные цитаты из романов с указанием страниц по наиболее доступным изданиям.

Художественный мир романа Т. Пулатова «Черепаха Тарази» представляет собой сложный синтез, глубоко укоренённый в среднеазиатской культурной и философской почве. Автор выстраивает многослойное повествование, в котором органично переплетаются догматы суфийской философии, концепция танасуха (переселения душ) и архаичные космогонические представления о строении мироздания. Центральная фигура произведения – бухарский учёный Тарази – посвящает свою жизнь «тестудологии», которая становится метафорой демиургического акта и попыткой человека взять на себя функции творца. Ключевым мифологическим и сюжетным узлом текста выступает эпизод метаморфозы судьи Бессаза, превращающегося в гигантскую черепаху. Данный процесс рассматривается автором не просто как физиологическое изменение, а как амбивалентный акт: одновременное созидание новой биологической формы и тотальное разрушение прежней человеческой идентичности[3]. Черепаха здесь выступает древним мифологическим символом устойчивости и мироздания, который в руках Тарази превращается в объект опасного эксперимента.

Пространственная организация романа также подчинена мифологической логике. Образ города, неумолимо засыпаемого песками, служит мощным символом энтропии и разрушения цивилизации. Пустыня в тексте Пулатова – это не просто географический ландшафт, а мифологическая сила, возвращающая упорядоченный космос в состояние первозданного хаоса. Пески стирают границы между прошлым и настоящим, нивелируя результаты человеческого созидания[4]. Идейный конфликт произведения строится на

[1] Шафранская Э.Ф. Мифопоэтика прозы Тимура Пулатова: национальные образы мира. – М.: URSS, 2005. – С. 78–82.
[2 5] Шафранская Э.Ф. Мифопоэтика прозы Тимура Пулатова: национальные образы мира. – М.: URSS, 2005. – С. 145.
[3] Пулатов Т. Черепаха Тарази. – М.: Художественная литература, 1993. – С. 212.
[4] Пулатов Т. Черепаха Тарази. – М.: Художественная литература, 1993. – С. 7.

демиургической гордыне Тарази, пытающегося «улучшить» природу и форсировать эволюцию. Финал романа демонстрирует крах рационализма перед лицом вечных законов бытия. Герой приходит к осознанию иллюзорности своего контроля над процессами трансформации, замыкая повествование в классическое мифологическое кольцо: странствия – эксперимент – метаморфоза – осознание – возвращение.

Анализ романа В. Пелевина позволяет выявить принципиально иную парадигму мифологизма, где категории создания и разрушения переосмысляются сквозь призму постмодернистской иронии и буддийской метафизики. Как отмечает М. Липовецкий, в прозе Пелевина «миф выступает одновременно объектом деконструкции и главным инструментом конструирования новой реальности», а буддийская философия становится «метаязыком постмодернистского письма»[1]. В отличие от классических мифологических систем, где созидание и деструкция упорядочены во времени, у Пелевина эти процессы синхронизированы. Центральным структурообразующим концептом произведения становится Пустота (шуньята) – универсальная субстанция, выступающая одновременно абсолютным источником всех проявленных форм и метафизической силой, их аннигилирующей.

Е.М. Мелетинский подчёркивал, что в современной литературе миф способен «воссоздавать целостную модель мира», даже если эта целостность иронична и относительна[2]. Автор выстраивает сложную архитектонику сюжета на постоянном колебании между двумя реальностями: мифологизированной эпохой Гражданской войны 1919 года и клиническим пространством психиатрии 1990-х. В художественной ткани романа обе эти плоскости демифологизируются и предстают как равнозначные, взаимозаменяемые иллюзии сознания.

В.Н. Топоров, говоря о мифологическом хронотопе, отмечал возможность существования «многомерного времени-пространства», в котором реальности наслаиваются и взаимопроникают[3]. Мотив создания мира здесь лишён демиургического пафоса и переведён в плоскость субъективного восприятия. В философских диалогах с Чапаевым, который выступает в роли «просветлённого наставника», утверждается, что любая реальность – это лишь проекция ума. Следовательно, акт творения мира происходит ежесекундно, но это «творение» мгновенно подлежит ментальному разрушению из-за своей онтологической зыбкости: «Любая форма – это пустота. Но это значит, что пустота – это любая форма»[4].

Разрушение в романе интерпретируется не как трагедия или конец бытия, а как радикальное освобождение духа от диктата ложных форм. А. Генис справедливо указывает, что у Пелевина «буддийская пустота становится постмодернистской иронией над любой устойчивой картиной мира»[5]. Одним из наиболее репрезентативных примеров такой деструкции является мотив экзистенциального побега героя. Петр Пустота осознает, что линейного пути к спасению не существует: «Убегает сумасшедший по фамилии Пустота. Времени для побега нет, и он про это знает. Больше того, бежать некуда, и в это «некуда» нет пути»[6]. Это разрушает привычную мифологему «пути героя», превращая её в метафору внепространственного прыжка в истинную реальность.

Финал произведения знаменует собой полное растворение субъекта в Пустоте, где дихотомия создания и разрушения окончательно снимается в акте просветления. Сюжетная структура текста остаётся предельно фрагментарной: каждая последующая глава выполняет функцию деконструкции предыдущей картины мира, последовательно возводя новую интеллектуальную иллюзию, чтобы тут же её разоблачить. Таким образом, миф о Чапаеве как о бодхисаттве органично соединяется с буддийской космогонией, согласно которой мир рождается из «омраченного» ума и разрушается (очищается) усилием того же ума, стремящегося к истине[7].

Проведённый сравнительно-типологический анализ позволяет выявить как глубокие архетипические совпадения, так и концептуальные различия в использовании мифологем создания и разрушения в творчестве Т. Пулатова и В. Пелевина. В обоих произведениях данные мотивы выступают не просто как тематические элементы, но как основные сюжетообразующие факторы, определяющие архитектонику текстов.

[1] Липовецкий М. Паралогии: трансформации постмодернистского дискурса в русской культуре 1920–2000-х годов. – М.: Новое литературное обозрение, 2008. – С. 412.

[2] Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: Восточная литература, 2000. – С. 312.

[3] Топоров В.Н. Мифологический хронотоп // Избранные труды. Т. 1. – М., 1995. – С. 235.

[4] Пелевин В. Чапаев и Пустота. – М.: Вагриус, 1996. – С. 145.

[5] Генис А. Иван Петрович умер. – М.: Вагриус, 1999. – С. 178.

[6] Пелевин В. Чапаев и Пустота. – М.: Вагриус, 1996. – С. 378.

[7] См.: Торчинов Е.А. Введение в буддизм. – СПб.: Амфора, 2005. – С. 89–92.

В романе Т. Пулатова мотивы трансформации жёстко детерминированы восточной (суфийско-тюркской) традицией. Метаморфоза черепахи и человека в его художественном мире символизирует циклическое обновление бытия через обязательное разрушение косной формы и последующее возвращение к субстанциональному единству мира. Сюжетное движение здесь направлено к трагическому катарсису, где демиургический эксперимент Тарази оборачивается крахом человеческой самости перед лицом вечности[1].

Напротив, в поэтике В. Пелевина данные мотивы приобретают подчеркнуто иронический, множественный и релятивистский характер. Разрушение у Пелевина выступает как тотальный и одновременно освобождающий процесс: Пустота интерпретируется как альфа и омега существования – источник любого творения и его неизбежный финал. Как отмечает исследовательница творчества Пелевина С. Полотовская, «пустота у Пелевина – это не отсутствие, а полнота всех потенциальных форм»[2]. Если у Пулатова доминирует притчевая эпичность, пафос трагизма и онтологическая серьёзность, то Пелевин выстраивает нарратив на принципах постмодернистской игры, интертекстуальности и буддийской иронии. Тем не менее, обоих авторов объединяет радикальная критика рационалистического типа «творчества». Будь то научный эксперимент Тарази или идеологизированный революционный миф Чапаева – в обеих художественных системах попытка насильственного переустройства реальности приводит к хаосу либо к духовному просветлению через полное нивелирование эго. Использование мифологических паттернов позволяет писателям преодолеть ограничения линейного классического романа, формируя открытый, циклический и многомерный сюжет, ориентированный на глубокую философскую рефлексию читателя.

Мифологические мотивы создания и разрушения в исследуемых романах Т. Пулатова и В. Пелевина выполняют фундаментальную структурообразующую функцию, определяя не только динамику сюжета, но и специфику художественного конфликта.

В центральноазиатском и постсоветском литературном контексте мифологические архетипы создания и разрушения выступают мощным инструментом осмысления «травмы времени», кризиса личностной и культурной идентичности, а также поиска альтернативных форм метафизического бытия. При этом различие творческих подходов – суфийский мистицизм и циклическое мировидение у Т. Пулатова и буддийский солипсизм, игра с иллюзорностью реальности у В. Пелевина – ярко подчёркивает вариативность и гибкость постмодернистского мифологизма, способного успешно адаптировать архаичные коды под решение актуальных социокультурных и философских задач. Перспективы дальнейших исследований видятся в расширении корпуса анализируемых текстов за счёт привлечения прозы других авторов Центральной Азии, творчество которых развивается на стыке национального мифа и постмодернистской эстетики.

Rezyume. Maqolada zamonaviy prozada mifologik yaratilish va yo‘q qilish motivlarining syujet tuzuvchi element sifatidagi roli o‘rganiladi. T. Po‘latovning «Taraziying toshbaqasi» va V. Pelevinning «Chapaev va Bo‘shliq» romanlari misolida kosmogonik va apokaliptik arxetiplar syujet arxitektonikasi, personajlar dinamikasi va asarlarning falsafiy chuqurligini belgilashi tahlil etiladi. Bu motivlar klassik romanning chiziqliligini yengib, ochiq va falsafiy boy syujet modelini yaratishga imkon berishi ko‘rsatilgan.

Resume. The article explores the role of mythological motifs of creation and destruction as plot-forming elements in modern prose. Based on T. Pulatov’s novel «The Turtle of Tarazi» and V. Pelevin’s «Chapaev and Emptiness», it analyzes how cosmogonic and apocalyptic archetypes determine the plot architectonics, character dynamics, and philosophical depth of the works. These motifs help overcome the linearity of the classical novel and create an open, philosophically rich narrative model.

Резюме. В статье исследуется роль мифологических мотивов создания и разрушения как сюжетообразующих элементов в современной прозе. На материале романов Т. Пулатова «Черепаха Тарази» и В. Пелевина «Чапаев и Пустота» анализируется, как космогонические и апокалиптические архетипы определяют сюжетную архитектонику, динамику персонажей и философскую глубину произведений. Показано, что данные мотивы позволяют преодолеть линейность классического романа и создать открытую, философски насыщенную сюжетную модель.

[1] Шафранская Э.Ф. Мифопоэтика прозы Тимура Пулатова. – М.: URSS, 2005. – С. 167.

[2] Полотовская С. Буддийские мотивы в творчестве Виктора Пелевина // Вестник Московского университета. Сер. 9. Филология. – 2012. – № 3. – С. 124.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

УБАЙДИЙ ИЖОДИДА САЛАФЛАРИ ИЖОДИ ТАЪСИРИ

Муҳаммад Абдуллаев,
ЎзДЖТУ Араб тили таржима назарияси ва амалиёти кафедраси доценти.
Эмайл: muhammadxonxamzayev@gmail.com

Ҳар қандай мумтоз ижодкорнинг шеъриятдаги ўрни ва мавқеъи, авввало, унинг балоғат ва фасоҳатли шеърлари билан адабиётга қўшган ҳиссаси орқали баҳоланади. Шарқ мумтоз шеъриятида балоғат илмининг маъоний, баён ва бадиий илмлари таъсирида мавзу, шакл, ифода ва эстетик анъанага суянилади. Шунинг учун кўп шоирларнинг девонида ғоя ва мавзу томонидан ҳам, шакл ва тасвир эътибори билан ҳам умумий яқинлик, аниқроғи , ўхшашлик кўзга ташланиб туради. Бунинг тасдиғи сифатида шайбонийлар сулоласидан бўлиш, араб,-форс ва туркий тилларда самарали ижод қилган Убайдий тахаллуси билан қалам тебратган Убайдуллохон Султон Маҳмуд ибн Будоғ Султон ибн Абулхайрхон ўғлининг ижодиётига ўз аксини топган.

Убайдий ўз замонасининг дарғалари Абдураҳмон Жомий ва Навоий замонида, яъни 1487 йилда шайбонийлар оиласида таваллуд топади. Тарихий манбалар («Музаккир ул-аҳбоб», «Мажмаъул-фусаҳо», «Тарихи Салими ва бошқа)да ёзишларича. Маҳмуд Султон севикли ўғлига ном қўйиб беришлик учун пири Мавлоно Муҳаммад Қози ибн Мавлоно Бурҳониддин (Убайдуллохоннинг устозлаидан бири) орқали Носириддин Убайдуллоҳ Хожа Аҳрорга илтимос килиши ва Хожа Аҳрор илтифот қилиб, ўз номлари «Убайдуллоҳ" деб чақалоқни номлашларида руҳоний-ботиний сир-синоат мавжуд бўлган. Чунки, тарихчи Мирзо Ҳайдар таъкидлаганидек, "У (Убайдий) ёшлигидан барча фазилатлар билан безанган ва ўз даврининг олиму шайхлари- Амир Абдуллоҳ Яманий, Хожа Муҳаммад Садр, илми ҳадис [1]олими Хожа муллои Исфаҳоний, қориъул куръон Мавлоно Ёрмуҳаммад ва фикҳ илмининг устози Мавлоно Муҳаммад Қозидан таълим ва тарбия олиб ўсади. Унинг илму маърифат ва ижодиётда етишган ютуқларини кўрган Ҳасанхожа Нисорий шундай деб таърифлайди: «... Фазилат (Убайдий) лари ичида энг эътиборлиси ўта мутадаййин олим сифатида туркий тилда ёзган тафсиридирки, далиллари суянилган асосда битилган».(Афсуски, ҳозирча аниқлангани йўқ.

Мазкур фазилатлар соҳиби Убайдий, тарихчи Мир Муҳаммад Мунший таъкидлаганидек, Ўз ҳаёти давомида ҳукмронликда бўлсин ёки ижодда Навоийга ҳавас ила, унга ўхшашликка ҳаракат қилиб яшаганлиги манбалардан маълум. Ўша замон тарихчиларидан бири Мирзо Ҳайдар Убайдий отаси Маҳмуд Султон (1504 йил) вафотидан сўнг 18 ёшида Бухоро тахтига ўтиришини қуйидагича таърифлайди:[2]

Абулғозий Убайдуллоҳ Баҳодирхон динпарвар,
Биҳамдиллаҳ, киш уд жоҳаш фарози маснади Хоний…

Орифи азмони султони жаҳон,он Убайдуллоҳ машҳури жаҳон,
Шуд муриди бар Махдуми Аъзами Валий…

«Баҳрул асрор» муаллифи Маҳмуд ибн Валининг ёзишича: У ҳамма яхши хислатларни ўзида мужассамлаштирган подшоҳ эрди деб, бошқа шайбоний султонларга йўқ фазилатлар билан тавсифлаб шундай дейди: "У ҳукмронлик қилиб турган Бухоро халқининг яхши ва фозиллиги, фаровонлигию осойишталиги Ҳиротни ва Ҳусайн Бойқаро замонини эслатади». Ҳатто Убайдийнинг кучли ҳарбий салоҳият эгаси ва шижоатли саркардалиги билан бирга яхшигина «табъ» (ижод) соҳиби эканлиги ҳақида эрон тарихчиси Муҳаммад Музаффар Ҳусайн Сабонинг "Рўзи Равшан» китоби ва бошқа темурий ва сафавий тарихчилари асарларида қайд этил-ган. Филология фанлари доктори Н. Комиловнинг ёзишича, "Навоий дарвишларни Худо ва пайғамбарлардан кейин тилга олиб, уларни инсоният билан Аллоҳ орасидаги воситачи, руҳий-маънавий олам посбонлари си-фатида эъзозлайди"

Алишер Навоий ғазалларидан бирида Ҳусайн Бойқародаги фазилат ва ахлокий хусусиятлари-

[1] Мирзо Ҳайдар, Тарихи рашидий,ЎзШИ. Қўлёзма 1430 .
[2] Муҳаммад ибн Вали, Баҳрул асрор. Ўз.ШИ. қўлёзма 1375.

нинг энг олийси унинг дарвиш табиатли эканлигини шарафлаб:

Шоҳлар дарвеши-ю, дарвешлар шоҳи, ки бор
Шоҳлик сурат анга, дарвешлик сийрат анга,

деб тавсифлаган бўлса-да, бу таърифга аслида Убайдий лоиқ деб ўйлаймиз. Убайдий ҳам тожу-тахт соҳиби бўлишига қарамай, табиатан, отаси Маҳмуд Султон сингари фақирлик ва дарвишликни хуш кўрган. Фахрий Ҳиротий Убайдийни Ҳиротда кўрганида унга «дарвеш либосидаги шоҳ» деб таъриф берган. Шоирнинг ўзи эса бир ўринда[1]:

Дарвешмен ўз ҳолима, эй банда Убайдий,
Юз шукрким, хоқони Каводу жом эмасман,

-деса, бошка бир ғазалида умуман дарвешликни улуғлаб шундай дейди:

Беш турур «дарвеш» ҳарфиким, бориси рамз эрур,
Хар бирининг рамзини айлай бош, дарвешлар,
Ишоратдурки, дийдор истаганлар Тангридин,
Мосиваллоҳ таркин айлаб жовидон, дарвешлар.

Албатта, дарвешлар хусусида тасаввуфий манбаларда кўп фикр-мулоҳазалар илгари сурилган. Лекин шоҳ қиёфасида дарвешни, дарвеш сиймосида шоҳни кўриш истагида Убайдий салафларига ҳамфикр бўлган деса асло хато бўлмайди.Шунингдек, Убайдийнинг адлу инсоф, ҳақ ва ҳақиқат, мехр ва шафқат каби фикр-мулоҳазаларида ҳам Навоийга яқинлик яққол сезилиб туради. Навоий:

Юз жаво қилса, манга, бир қатла фафрёд айламон,
Элга қи+лса гар жафо, юз қатла фарёд айларам, -

деса, Убайдий:

Истеза била улусни вайрон қилма,
Вайрон қилибон, ер била яксон қилма,

деб ҳукмдору амалдорларга танбеҳ беради. Убайдий ўзининг туркий ва форсий (400 яқин ғазал, 900 яқин рубоий, ҳикмат ва бошқа жанолардаги ижодида Яссавийга эргашиб ҳикматлар ёзган бўлса, ғазаллар, рубоий ва бошқа шеърий жанрларда ижод қилишда энг кўп ўрганган ва таъсирланган манба – Навоий ва бошқа салафлари ижодидир. У хусусан мавзу танлашда форсий ва туркий ижодкорлар тажрибаларига кўпроқ таянади. Убайдийнинг бир ўринда:[2]

Шеърлар айтиб Убайдий ҳам Навоий шеъридан,
Кўрки, шоирлар аро ул доғи шоир бўлғуси, - деган эътирофи ҳам бежиз эмас.

Тўғри, Убайдий назмда соддаликка мойиллиги салафларига нисбатан кўпроқ. Бу шоир шеърлари қолипга солинган оддий ва содда сўзлар мажмуасидан иборат, дегани эмас. Балки, Убайдий бениҳоят сўзга усталик билан маънони чиройли ва ўтли ифодалайди. Чунки моҳиятда шеърни-шеър, шоирни-шоир айлайдиган худди шу ўтли шижоатдир. Унинг шеърлари, балоғат илмига асосланган ҳолда, гўзал ўхшатишлар, ажойиб сўз ўйинлари, ранг-баранг бадиий бўёқлар воситасида охангдорлик касб этган. Адабиёт тарихидан маълумки, шоирлар (IX-XII асрдан бошлаб) кўпроқ шаклан издошлик қилган бўлсалар ҳам, аммо мазмунда оригиналликка интилиб ижод қилганлар, шу билан бирга, истеъдодли шоир ҳеч қачон издошлик қилган шоирга кўр-кўрона эргашмайди, аксинча, буни ўзларига ижоддаги макруҳ амаллардан ҳисоблаганлар, ўз салафи асарини чуқур таҳлил қилиб, мавзунан янги қирраларини очишга ҳаракат килади. Бу ҳолат мумтоз шоирларимиз ижодида хусусан, Убайдий ижодида ҳам ўз аксини топган.

Биз бир ҳақиқатни тан олиб айтамизки, Шарқ ижодкорнинг, хусусан,Навоийнинг улуғ муқаддас сиймоси ул зотнинг руҳонияти, бебахо шахсияти ва туркий шеъриятни санъат даражасига етказган моҳир ижодкорлиги мана 600 йилга якин бўляптими, тан олиниб келинаётганли айни ҳақиқат. Шундай экан, бундай беназир ижодкорлар «панжасига панжа урмоққа» ҳар кандай шоир журъат этолмаган. Убайдий ва бошқа моҳир ижодкорлар бунга журъат эта олган. Убайдий ҳам Навоий сингари ўз ижодида руҳий олам билан реал турмушда бор ходисалар ва тушунчаларга ҳам эътибор беради. У фикрни реал турмуш ҳодисалари билан боғлашга уринади, ўхшатишлар, муболағалар ва образларни воқеликдан олади. Бу анъана туркий адабиётда Навоий ижодида кўпроқ акс этган. Навоий:

Чархдин жонимгадур юз тиги қотил ҳар замон,
Даврдин жонимда минг заҳри ҳалоҳил ҳар замон,

-деса, Убайдий:

Бир лаҳза кўнглум ўлмади бегам замонадин,
Тўйди замона мендину мен ҳам замонадин,

дейди.

Ёки образ танлашдаги ўхшашликка эътибор қаратайлик. Навоий:

Қилди овора мени ҳастани овора кўнгул,
Хону монимни қора қилди юз қора кўнгул,

деса,

[1] Абдуллоҳ ибн Муҳаммад. Торихи Шайбонийхон.Ўз.ШИ.қўлёзма 1505.
[2] Убайдуллоҳ ибн Маҳмуд Султон. Девони Убайдий. ЎзШИ.қўлёзма 8931.

Убайдий:

Оҳу фигон айлабон багримни қон айлар кўнгул,

Аллоҳ-Аллоҳ, не бало оҳу фигон айлар кўнгул, дейди.

Ибни Жавзий (Саъдий устози) ўзининг «Сайд ул-хотир» китобида қуйидаги жумлани ёзган: «... ким кўнглини маънан покласа, фазилатлар хидини таратади ва ҳид таралиши билан ўзгалар кўнгиллари қалблари у сари ошикади». Навоий ва Убайдий бу байтларида инсон аслиятини ташкил этгувчи аъзо бўлмиш «кўнгул»га мурожаат этяпти.

Убайдийнинг ишкий, орифона ва риндона шеърлари ҳам маъно ва моҳият жиҳатидан салафлари шеърларига яқин туради. Навоий бир рубоийсида:

Кўзум учадур, магарчи ёрим келадур,
Эсар ҳар дам озор, магар нигорим келадур.
Юз марҳала қатъ шаҳсуворим келадур, -
Ё бодияйи фироқ сайрида қилиб,

деса, Убайдий эса Навоий фикрларини қуйидагича ифода этган:

Давлат ила сайр этай, нигорим келадур,
Иқбол ила ёри гамгузорим келадур.
Ўтру борай, эй кўнгул, ки ёрим келадур,
Жон гулшанига саманузорим келадур.

Навоий шеъриятини синчиклаб ўрганар эканмиз, унинг арабий билим доираси ниҳоятда кенглигини, шоирнинг ўша даврдаги араб тилида ёзилган мураккаб тасаввуфга оид китоблардан жуда яхши хабардор эканлигини кўрамиз. Бу илм тасаввуфий-ирфоний таълимотини устозлар орқали ўрганган (зикр этиб ўтганимиздай) Убайдийнинг аксар шеърларидаги тасаввуфий мазмун ва моҳият шунга далолат қилиб турибди.

Навоий ўз девонини «Ашрақат мин аксиш-шамсил-каъса анворул худо», байт билан бошласа, Убайдий девонининг "Ё акрамал киром, лакал жуду вас-сахо», деган байт билан бошланиши ҳам икки туркийзабон шоирнинг арабий илмга мукаммал эга эканлигига далолатдир.

Рэзюмэ: Мазкур мақолада Убайдий ижодида салафлари, хусусан Алишер Навоий, Абдураҳмон Жомий ва бошқа мумтоз шоирлар ижодининг таъсири таҳлил қилинган. Муаллиф Убайдий шеъриятидаги тасаввуфий ғоялар, дарвешлик фалсафаси, ахлоқий қарашлар ҳамда бадиий образлар орқали салафлар анъанасининг давомийлигини ёритиб берган. Шунингдек, шоирнинг туркий ва форсий адабиёт анъаналарига таянган ҳолда ўзига хос услуб яратгани мисоллар асосида кўрсатилган. Мақолада Навоий ва Убайдий шеърияти ўртасидаги маънавий ва бадиий яқинлик қиёсий таҳлил қилинган.

Resume: This article analyzes the influence of predecessors, particularly Alisher Navoi, Abdurahman Jami, and other classical poets, on Ubaydiy's творчество. The author examines the continuity of classical literary traditions through Sufi ideas, the philosophy of dervishhood, moral views, and artistic imagery reflected in Ubaydiy's poetry. The article also demonstrates, through examples, how the poet created his own unique style based on Turkic and Persian literary traditions. Furthermore, a comparative analysis of the spiritual and artistic similarities between the poetry of Navoi and Ubaydiy is presented.

Рэзюмэ: В данной статье анализируется влияние предшественников, в частности Алишера Навои, Абдурахмана Джами и других классических поэтов, на творчество Убайди. Автор рассматривает преемственность классических литературных традиций через суфийские идеи, философию дервишества, нравственные взгляды и художественные образы, отражённые в поэзии Убайди. Также на основе примеров показано, что поэт создал собственный оригинальный стиль, опираясь на тюркские и персидские литературные традиции. В статье проведён сравнительный анализ духовной и художественной близости поэзии Навои и Убайди.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MUIZZIY QASIDALARDA LIRIK MAZMUN VA BADIIY MAHORAT

Ramazon Abdullaev
Termiz davlat universiteti tojik filologiyasiva sharq tillari kafedrasi dotsenti
abdullaevr@tersu.uz

Muizziy she'rlaridagi obrazlar asosan an'anaviydir. Uning she'rlarida biz X va XI asrning birinchi yarmida ishlatilgan qiyos, tashbeh, tavsif va istioralarni ko'ramiz. Biroq shu bilan birga shoir ijodida yangi, toza obrazlar, badiiy topilmalar hamda mazmunli qiyos va iboralar ham kam emas. Hatto an'anaviydek tuyulgan obrazlar ham Muizziy she'rlarida yangi uslubda, shoirona tasavvur va chuqur ma'no bilan qo'llanilib, boshqa mazmun va ma'nolarning yaratilishiga xizmat qilgan. Bu obrazlar, Yan Ripkaning ta'kidlashicha, "o'zining ravshanligi, aniqligi va juda ta'sirchan uslubi bilan ajralib turadi"[1].

Ayniqsa Muizziy realistik va xalqona obrazlarni, tabiat hamda xalqning estetik va ijtimoiy hayoti bilan bog'liq nozik badiiy topilmalarni ishlatishga alohida e'tibor bergan. Shu jihatdan uning she'rlaridagi bunday obrazlar jozibali va ta'sirlidir:

Man g'ulomi on xati mushkin, ki go'y mo'rcha,
Poi mushkolud bar bargi guli nasrin nihod.[2]

(Mazmuni: Men o'sha mushkin rangdagi xatning quliman – go'yoki mo'rcha mushk suvlangan oyog'ini nasrin gulining bargi ustiga qo'ygandek.)

Qiyos etish – mushkin xatni mo'rchaga o'xshatish – jozibali obraz bo'lib, realistik asosga ega:

Makun ba sarvu mah on dilfirebro tashbeh,
Ki o' judost ba xubiyu sarvu moh judo.[3]

Ya'ni, shoir mahbubani sarv yoki oyga qiyos etma, chunki u go'zallikda ulardan ham farqli va yuksak, deydi. Muizziy bu yerda voqeiy (real) xandonlabi mahbuba – inson bilan jonsiz va ruhsiz manzaraviy qiyoslar o'rtasida farq qo'yadi. U mahbubaning go'zalligi va nozu nazokatini tabiiy holda tasvirlab, an'anaviy obrazlarni yangicha tarkibda xalqona va realistik mazmunda qayta yaratadi. Bu, o'z navbatida, poetik tasvirning xalqona va yangi qiyofada rivojlanishiga muhim hissa bo'ladi.

Shunday aniq qiyos va voqeiylik ifodasi arab va ajam (fors-tojik) adabiyotida mahbuba vasfidagi farqni ham ko'rsatib beradi:

Bar arab hast zi bahri tu aҷamro tafzil,
Ki aҷam vasfi tu guftastu arab vasfi talal[4].

Muizziyning bu muqoyosi ilmiy jihatdan ham haqiqatga mos keladi. Fors-tojik nazmining mahbuba vasfidagi betakrorligi va uning arab she'ri ustidan ustunligi ravshan dalildir. Arab she'riyatida eng yaxshi mavzular, odatda, qum sahrolari, dasht va manzaralar – talal vasfi bo'lgan.

Muizziyda esa tabiatning turli holatlari – bulutning harakati, uning to'planishi va yomg'ir yog'dirishi, rangi va kengligi – simob, kemalar, mushk to'dasi, qum uyumi, nilufar shoxi yoki kuling to'dasiga o'xshatilib tasvirlanadi. Bu qiyoslar nafaqat juda nozik va romantik husnga ega, balki haqiqiy hayotiy manzara sifatida ham yangraydi.

Biroq Muizziy qiyoslarda ba'zan mubolag'a (haddan ortiq ta'rif) usulini ham ishlatgan, osmoniy va ko'hna mifologik obrazlardan foydalanish unga begona emas. Buni quyidagi bayt yaqqol isbotlaydi:

Bingar tu bar on ro'yi duraxshanda chu Farqad,
Bingar tu bad-on orazi raxshanda chu Javzo[5].

(Mazmuni: Qara, u yoru durafshon yuzini – go'yo Farqad yulduzidek yorug'; yana u nurli chehraga boq – go'yoki Javzo (Egizak burji kabi charog'on.)

Osmon jismlarining (falak obyektlarining) qo'llanilishi ko'pincha tasavvur (taxayyul) bilan bog'liq bo'lib, bunday shukŷhli qiyoslar albatta o'ziga xos obyektga ega bo'lishi va obrazning salobati hamda tasvirning kengligini oshirishga xizmat qilishi kerak.

Qadimgi yunon olimi Aristotel shunday degan edi: "Go'zallik buyuklik va tartibda namoyon bo'ladi; aks holda, eng kichik mavjudot ham go'zal bo'la olmaydi"[6].

Demak, mahbubaning buyukligi, nazokati va jozibador go'zalligi shunda ravshan namoyon bo'ladi va

[1] Рипка, Я. История персидской и таджикской литературы / Я, Рипка. – Москва: Прогресс, 1970. – 172 с.
[2] Куллиёти девони Муиззй. Бо муқаддима ва тасҳеҳи Носир Ҳайирӣ / - Теҳрон, -175 б.
[3] Куллиёти девони Муиззй. Бо муқаддима ва тасҳеҳи Носир Ҳайирӣ / - Теҳрон, -35 б.
[4] Куллиёти девони Муиззй. Бо муқаддима ва тасҳеҳи Носир Ҳайирӣ / - Теҳрон - 453 б.
[5] Куллиёти девони Муиззй. Бо муқаддима ва тасҳеҳи Носир Ҳайирӣ / - Теҳрон – 29 б.
[6] Аристотель. Об искусстве поэзии. Поэтика / Аристотель. – Москва: "Художественная литература", 1965. – 63 с.

ta’kidlanadiki, u yuqoridagi kabi shukӯhli obrazlar bilan qiyos etilgandagina o‘z husnini to‘liq namoyon qila oladi. Muizziyning san’ati ham aynan shunda – u bu ma’noni juda aniq va ta’sirli tarzda bayon eta olgan.

Quyidagi bayt ham shu fikrni isbotlaydi:

V-on Banotunna’sh chun taxti Faridun ro‘zi razm,
V-on shabohangi duraxshon chun dirafshi Koviyon[1].

(Mazmuni: U – Banotunna’sh yulduzlari jang kuni Faridunning taxtidek, U – nurli shabohang yulduzi esa Koviyon bayrog‘idek yorug‘ va shukӯhli.)

Banotunna’sh – Faridun taxti, Zuhra – Koviyon bayrog‘i kabi obrazlar har jihatdan mutanosib bo‘lib, hajman va ma’nan bir-biriga muvofiqdir. Firdavsiy dostonidagi buyuk isyonkor qahramon Kova XI–XII asrlar she’riyatida ba’zan yodga olinadi va mazkur bayt ana shunday eng yaxshi namuna hisoblanadi. Xususan bu yerda Kova o‘zining durafshon va isyonkor bayrog‘i bilan tilga olingan.

Kosmologik obrazlar – ya’ni osmon bilan bog‘liq timsollar – Muizziy she’rlarida shuko‘h va kenglik baxsh etish vazifasini bajaradi. Ayniqsa, tun manzaralarini tasvirlashda bu obrazlar juda ravshan ko‘zga tashlanadi, chunki ularning tabiati bilan tunning musiqiy ohangi uyg‘undir va ular faqat kechgi vaqtlarida namoyon bo‘ladi.

Muizziy faqat tungi falakni kuzatib, osmon jismlarini obraz yaratish vositasi sifatida mahorat bilan ishlatgan emas, balki tungi safarlarida ham yulduzlar va sayyoralarning harakatini yo‘lboshchi qilib olgan. U ularning chiqishi, botishi va burjlar bo‘yicha harakatini kuzatib, manzilga yetishishda ularni belgi sifatida foydalangan. Shu bois, bu kabi kosmologik obrazlar uning she’rlarida tabiiy tarzda tilga olinadi va tun manzarasini ularsiz to‘liq ifoda etib bo‘lmaydi.

Quyidagi tag‘azzul (g‘azal yoki qasidaning tun manzarasini aks ettiruvchi qismi) shunday tasvirning jonli namunasidir va ayrim baytlari keltiramiz:

Chun namozi shom Parvin nur zad bar osmon,
Sorbon az bahri raftan bong zad bar korvon.
Axtaronu moh paydo gashta bar charxi baland,
Oftobi ravshanigustar ba xok andar nihon.
Moh bo sayyoragon royat barovarda zi ko‘h,
Guftӣ: omad Xusravi Chin bo sipohe bekaron.
Rӯyi Homun gulsiton az qatrai mohisipar,
V-az shuoi Sheru Mohii ro‘yi gardun gulsiton.
V-on Mijarra bar kanori osmon xoma zada,
Hamchu marvoridreza rexta bar parniyon.
Chun baromad subh, didam qal’aero man zi dur;
Osmonro rozdoru Mushtariro tarjjumon[2].

Bu – to‘liq voqeiy tun manzarasining tasviri bo‘lib, uning mushohadasi shom namozidan to tonggacha davom etgan uzoq safar chog‘iga to‘g‘ri keladi. Manzaraning tunda bo‘lishi va osmoniy shuko‘hli obrazlar bilan boyitilishi she’rga ayni vaqtda salobat, ehtiros, buyuklik va kenglik baxsh etgan.

Shu bilan birga, bu tasvirda romantik orzu, hissiy tebranish yoki shiddatli hayajon yo‘q – aksincha, u voqeiy va tabiiy holda ifoda etilgan. Ammo osmon jismlari (falak ob’ektlari) qiyos, tashbeh va lirik burilish vositasi sifatida she’rga jon bag‘ishlab, tabiat manzarasini yaratishda muhim o‘rin tutgan.

Bu baytlarda osmon timsollarining soni juda ko‘p – Parvin, Quyosh, Oy, Mohisipar, Sher, Mohiy, Miҷarra, Mushtariy va boshqalar – har biri alohida ma’no, toza mazmun va nurli obraz sifatida namoyon bo‘lgan.

Oyli tunlardagi safar, falak jismlarining harakati, ularning nuri va shu’lasi, sorbonning qo‘shig‘i va korvon zanglagani, cho‘lning qorasimon kengligi, yulduzlar bilan to‘lgan osmon, – bularning barchasi she’rning ichki ritmikasi va dinamikasini ta’minlagan.

Muizziyning nazarida tog‘ ortidan chiqqan oy va sayyoralar go‘yo Chin podshohi Xusravning beadad qo‘shinlari zafar bayrog‘i bilan harakatlanishidek ko‘rinadi. Bu yerda qiyos va qiyoslanuvchi obrazlar hajman va mazmunan deyarli tenglashgan, shu tariqa har ikki obrazning buyukligi ta’sirli ravishda ta’kidlangan.

Bundan tashqari, Miҷarra (Samoviy yo‘l)ning osmon kanorida “xayma tikkani” – ya’ni ipak kabi oq parniyon ustiga marvarid sochilgandek ko‘rinishi, juda nozik, lirik va dilbar taassurot uyg‘otadi.

Ko‘rinib turibdiki, Muizziy she’rlarida obraz na faqat rang va yorug‘lik, balki yangi mazmun, hayratomuz hajm va salobat, shuningdek tungi safar ruhiyatini ham ifoda etadi.

Muizziyning badiiy mahorat va ijodiy tafovutlari aynan shu jihatda – obrazni tabiiy hayot bilan uyg‘unlashtirib, unga kosmologik shukӯh va inson ruhiyatini qo‘shib tasvirlay olganida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Muizziyning quyidagi kichik baytida to‘rtta yirik osmoniy jism (yulduz va burjlar) mahorat bilan tilga olinib, o‘zaro qiyos etilgan:

Tarfi chaman hast purhilolu Dupaykar,
Shoxi suman hast pursuhaylu Surayyo[3].

Bu so‘zlar zohirda oddiy va go‘yoki suhbatona yo nasriy tarzda aytilgandek tuyuladi. Biroq aslida ular lirik ruhdagi she’riy ifoda bo‘lib, bahor manzarasining o‘zgarishlarini tasvirlaydi.

[1] Куллиёти девони Муиззӣ. Бо муқаддима ва тасҳеҳи Носир Ҳайирӣ / - Теҳрон, -634 б.
[2] Куллиёти девони Муиззӣ. Бо муқаддима ва тасҳеҳи Носир Ҳайирӣ / - Теҳрон-634 б.
[3] Куллиёти девони Муиззӣ. Бо муқаддима ва тасҳеҳи Носир Ҳайирӣ / - Теҳрон- 40 б.

Shoir go‘zal va jilosi bilan gulzor va bog‘ning bezakli ashyolarini (gullar, sabzalar, lolalar va nargislar) osmoniy timsollar bilan qiyoslaydi: chaman go‘yo hilol va Dupaykar (ikki yulduzli burj) bilan bezangan, suman shoxlari esa Suhayl va Surayyo (yulduzlari) kabi yorug‘.

Muizziy bu yerda osmon obrazlarini yerdagi tabiiy gul va sabzalar bilan uyg‘unlashtirib, shukuhli, ammo bir vaqtning o‘zida nozik va dilbar obrazlar yaratadi. Uning tasvirida osmon va zamin, falak va tabiat o‘zaro uyg‘unlik kasb etadi.

Nemis faylasufi Gegel shunday yozgan edi: “Obraz o‘z mohiyatida fikr mazmunini unga xos voqeiy shaklda namoyon qiladi. Ayniqsa, Sharq nazmi o‘zining barcha shuko‘h va rangbarang obraz hamda qiyoslarini o‘zida mujassam etadi”[1].

Muizziy nazmi ham aynan shundaydir. Uning she’rlari rang-barang, serma’no va serjilo bo‘lib, bu badiiy kamolot obraz yaratish mahorati orqali vujudga kelgan. Muizziyning tasvirlari nafaqat ma’noga, balki shakl va uslubga ham yuksak nafosat bag‘ishlaydi – uning nazmining kamoloti va martabasi aynan shu bilan yaqqol namoyon bo‘ladi.

Rezyume: Maqolada Amirushshuaro Muizziyning qasidaviy ijodi misolida uning badiiy uslubi va obraz yaratish mahoratlari tahlil etilgan. Muallif shoirning tabiat va samoviy manzaralarini bir-biriga uyg‘unlashtirish orqali chuqur lirik mazmun yaratganini ko‘rsatadi. Muizziyning she’rlaridagi hilol, Dupaykar, Suhayl va Surayyo kabi kayhoniy timsollar yerdagi gul va sabzalar bilan qiyoslanib, ulug‘vor va nozik estetik obrazlar vujudga keltirilgan. Shu orqali shoirning badiiy tafakkuri, tasvir uslubi va fors-tojik qasidanavisligidagi o‘rni ochib berilgan.

Resume. The article analyzes the artistic style and mastery of image creation of Amir al-Shuʿarā Muʿizzi on the example of his qasidas. The author demonstrates how the poet combines images of nature and the cosmos, endowing his poetry with deep lyrical content. In Muʿizzi’s poetry, celestial symbols such as the crescent moon, Dūpaykar, Suhayl, and Thurayya are juxtaposed with earthly flowers and plants, creating majestic and refined aesthetic images. Through this approach, the poet’s artistic thinking, poetic style, and his significance in the development of the Persian–Tajik qasida are revealed.

Резюме. В статье анализируется художественный стиль и мастерство создания образов Амирушшуаро Муиззи на примере его касид. Автор показывает, как поэт объединяет картины природы и космоса, придавая стихам глубокое лирическое содержание. В поэзии Муиззи такие небесные символы, как полумесяц, Дупайкар, Сухайл и Сурайя, сопоставляются с земными цветами и растениями, что создаёт величественные и изящные эстетические образы. Тем самым раскрываются художественное мышление поэта, его поэтический стиль и значение в развитии персо-таджикской касиды.

[1] Гегел Георг Вильгельм Фридрих. Эстетика в четырёх томах, Т. Ш. -М. : Искусство, 1971. -386- 387 с.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FOLKLORSHUNOSLIKDA LATIFA JANRINI TASNIFLASHNING NAZARIY ASOSLARI

G'ayratbek Oybek o'g'li Xolbutayev
O'zbek va rus tili filologiyasi dotsenti
Qo'qon universiteti Andijon filiali, Andijon, O'zbekiston
Filologiya fandari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
gayratbek19912705@gmail.com
+998 94 108 6008

Zamonaviy jahon folklorshunosligida latifa (anekdot) janri insoniyat tafakkurining universal, shu bilan birga, madaniy-lokal xususiyatlarini o'zida mujassam etgan eng hayotiy janrlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Jahon tajribasida mazkur janr tadqiqiga bo'lgan yondashuvlar turlicha: g'arb ilmiy maktablarida latifa ko'proq lingvomadaniy va pragmatik aspektda, ya'ni muloqotdagi kulgi strategiyasi sifatida o'rganilsa, sharq va turkiy xalqlar folklorshunosligida uning epik tabiati, qahramon va syujet qurilishi masalalari ustuvorlik qiladi. Maishiy, ijtimoiy va paradoksal vaziyatlar zaminida qurilgan bu janr, bugungi kunda kognitiv folklorshunoslik va madaniy antropologiya chorrahasida tahlil qilinmoqda.

O'zbek xalq nasri tizimida latifa janri o'zining qadimiy ildizlari va o'ziga xos poetikasi bilan markaziy o'rinni egallaydi. Milliy folklorshunosligimizda K.Imomov, O.Safarov va M.Jo'rayev kabi olimlarning tadqiqotlari natijasida latifaning mustaqil janriy tabiatiga doir nazariy qarashlar shakllandi. O'zbek latifashunosligida asosiy e'tibor janrning funksional-semantik ko'lami, xususan, "hikmatli yumor" (Afandi obrazlari misolida), didaktik xulosa va an'anaviy qahramonlar tizimiga qaratilgan. M.Jo'rayev tomonidan taklif etilgan janrlar tasnifi mezonlari – bayon usuli, epik vaqt va makon, tinglovchi munosabati kabi jihatlar latifani faqat kulgi manbai emas, balki murakkab badiiy tizim sifatida baholashga xizmat qiladi.

Rus folklorshunosligida latifa, ya'ni anekdot janrini ilmiy jihatdan o'rganish va uni tasniflash masalasi turli nazariy-metodologik yondashuvlar asosida shakllangan. Bu yo'nalishda Yu.M.Sokolov hamda V.Ya.Proppning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Garchi mazkur olimlarning yondashuvlari bir-biridan farq qilsa-da, ular latifa janrining mazmuniy, ijtimoiy va strukturaviy xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Avvalo, Yu.M.Sokolov folklorni xalq turmushi, ijtimoiy hayoti va dunyoqarashining bevosita ifodasi sifatida talqin etadi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, latifa jamiyatdagi voqelikni kulgi, hajv va satira orqali badiiy aks ettiradigan janr hisoblanadi. Shu sababli olim latifalarni asosan ularning mavzu doirasi, mazmuniy yo'nalishi va ijtimoiy vazifasiga ko'ra tasniflashni maqsadga muvofiq deb biladi. Masalan, maishiy latifalarda kundalik hayotda uchraydigan oddiy voqealar kulgi asosida tasvirlansa, ijtimoiy-satirik latifalarda amaldorlar, byurokratik munosabatlar, ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlik tanqid qilinadi. Tarixiy latifalar esa muayyan tarixiy davr, voqea yoki shaxs haqidagi xalq munosabatini ifodalaydi. Demak, Yu.M.Sokolov uchun latifani tahlil qilishda asosiy mezon uning "nima haqida" ekanligini aniqlashdan iboratdir. U kulgini ijtimoiy ziddiyatlarni ochib berishga xizmat qiluvchi badiiy vosita sifatida baholaydi.

V.Ya.Propp esa folklor hodisalariga strukturalistik nuqtai nazardan yondashadi. Uning "Sehrli ertaklar morfologiyasi" asarida ishlab chiqilgan tahlil usuli dastlab ertak janriga nisbatan qo'llangan bo'lsada, keyingi tadqiqotlarda latifa janrini o'rganishda ham samarali metodologik asos sifatida foydalanilgan. Proppning fikricha, har qanday folklor matni muayyan ichki qurilish, funksiyalar tizimi va voqealar ketma-ketligiga ega. Shu jihatdan latifa ham kirish qismi, ziddiyatli vaziyat va kutilmagan yechim – puantdan iborat qisqa mikrosyujet sifatida qaraladi. Bunda asosiy e'tibor matnning mazmunidan ko'ra uning qanday tuzilgani, voqealar qanday rivojlanishi va ular qanday funksiya bajarishiga qaratiladi. Demak, Propp uchun latifaning asosiy xususiyati uning "qanday qurilgani" bilan belgilanadi.

Yu.M.Sokolov va V.Ya.Propp qarashlarini qiyosiy tahlil qilganda, ular o'rtasidagi asosiy farq metodologik yondashuvda ekanligi namoyon bo'ladi. Yu.M.Sokolov latifani ijtimoiy hayot bilan bog'liq holda o'rganib, uni mazmun va mavzu asosida tasniflaydi. V.Ya.Propp esa latifaning ichki kompozitsion tuzilishi, syujet modeli va universal strukturalarini aniqlashga

e'tibor qaratadi. Masalan, amaldor haqidagi muayyan latifani Sokolov ijtimoiy-satirik turga mansub deb baholasa, Propp uni "kutilmagan yakunga asoslangan komik struktura" sifatida tahlil qiladi[1].

Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur ikki yondashuv bir-biriga zid emas, aksincha, ular o'zaro to'ldiruvchi xususiyatga ega. Yu.M.Sokolov latifaning mazmuniy va ijtimoiy mohiyatini ochib bersa, V.Ya.Propp uning ichki qurilishi, kompozitsion mexanizmi va komik ta'sir hosil qilish qonuniyatlarini izohlaydi. Zamonaviy folklorshunoslikda latifa janrini har tomonlama tadqiq etish uchun aynan shu ikki yondashuvni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Yu.M.Sokolov latifani xalq hayoti va jamiyat munosabatlarini aks ettiruvchi badiiy ko'zgu sifatida talqin qilsa, V.Ya.Propp uni muayyan ichki qonuniyatlarga ega bo'lgan badiiy-strukturaviy tizim sifatida izohlaydi. Bu ikki nazariy qarash latifa janrining ham mazmuniy, ham shakliy jihatlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

V.Ya.Proppning "Komizm va kulgi muammolari" (Проблемы комизма и смеха) asari ham latifa janrini o'rganishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda olim kulgini faqat estetik zavq yoki oddiy ruhiy holat sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy, psixologik va badiiy qonuniyatlarga bo'ysunuvchi murakkab hodisa sifatida tahlil qiladi.

Propp nazariyasining muhim jihati shundaki, u kulgining paydo bo'lishini inson tafakkuri, kutilmalar tizimi va voqelikni qabul qilish jarayoni bilan bog'laydi. Olimning qarashiga ko'ra, kulgi ko'pincha kutilgan holat bilan haqiqiy natija o'rtasidagi ziddiyat yoki nomuvofiqlik asosida yuzaga keladi. Ya'ni tinglovchi yoki o'quvchi voqeaning ma'lum bir mantiqiy yo'nalishda rivojlanishini kutadi, biroq voqea kutilmagan tarzda yakunlanadi. Ana shu ziddiyat komik ta'sirni vujudga keltiradi. Bu holat latifa janri uchun ayniqsa muhimdir, chunki latifaning asosiy badiiy ta'siri aynan puant – kutilmagan yakun orqali namoyon bo'ladi.

V.Ya.Propp kulgining bir qator asosiy prinsiplarini ajratib ko'rsatadi. Ularning birinchisi nomutanosiblik prinsipidir. Bu holatda voqelikdagi unsurlar o'rtasidagi mantiqiy, axloqiy yoki ijtimoiy muvofiqlik buziladi. Masalan, jiddiy vaziyatda mutlaqo ahamiyatsiz yoki absurd javob berilishi kulgili effekt hosil qiladi. Ikkinchi prinsip me'yorning buzilishi bilan bog'liq. Jamiyat tomonidan qabul qilingan odob-axloq qoidalari, ijtimoiy me'yorlar yoki mantiqiy tartib buzilganda komizm yuzaga keladi. Uchinchi prinsip paradoks va teskarilikka asoslanadi. Bunda fikr, vaziyat yoki harakat o'zining qarama-qarshi ma'nosiga aylanadi. To'rtinchi muhim prinsip esa karikatura va giperbolizatsiya bilan bog'liq bo'lib, unda muayyan belgi yoki xususiyat ataylab kuchaytirib ko'rsatiladi va shu orqali kulgi paydo qilinadi.

Propp kulgining ijtimoiy vazifasiga ham alohida e'tibor qaratadi. Uningcha, kulgi faqat ko'ngilochar vosita emas, balki tanqid qilish, fosh etish va baholash quroli hamdir. Kulgi vositasida jamiyatdagi kamchiliklar, inson xarakterining salbiy jihatlari, axmoqlik, manmanlik, ayyorlik yoki adolatsizlik ochib beriladi. Latifalarda bu xususiyat ayniqsa ravshan ko'rinadi, chunki ularda komik vaziyat orqali muayyan ijtimoiy yoki axloqiy muammo badiiy ifoda topadi.

Bizningcha, latifa janrida V.Ya.Propp tomonidan ko'rsatilgan komik prinsiplar yaqqol namoyon bo'ladi. Latifa qisqa hajmli, ixcham syujetli va kuchli ta'sirga ega bo'lgan janr sifatida odatda uch bosqich asosida quriladi: vaziyat yaratiladi, tinglovchida muayyan kutilma shakllantiriladi va bu kutilma kutilmagan tarzda buziladi. Masalan, savol-javob shaklidagi latifada tinglovchi mantiqan to'g'ri javobni kutadi, ammo berilgan javob g'ayrioddiy, paradoksal yoki bema'ni bo'lib chiqadi. Bu esa nomutanosiblik va me'yor buzilishi orqali kulgi hosil bo'lishini ko'rsatadi.

Latifa xalq og'zaki ijodining eng harakatchan, ommaviy va funksional jihatdan serqirra janrlaridan biri sanaladi. U qisqa syujet, kutilmagan yechim va komik ta'sir orqali ijtimoiy hayotni aks ettiradi. Turli xalqlar folklorida latifalar muayyan umumiy strukturaga ega bo'lsa-da, ularning mazmuni, vazifasi, obrazlar tizimi va badiiy ifoda usullari milliy-madaniy xususiyatlarga ko'ra farqlanadi. Rus va o'zbek latifalarini qiyosiy o'rganishda V.Ya.Propp, Yu.M.Sokolov va B.N.Putilov nazariyalari muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Latifa bir epizodga asoslangan, qisqa hajmli, komik ta'sir uyg'otuvchi og'zaki epik janr bo'lib, uning markazida kutilmagan burilish – puant turadi. V.Ya. Propp ta'kidlaganidek, kulgi kutilgan holat bilan voqeiy natija o'rtasidagi ziddiyat tufayli yuzaga keladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, rus va o'zbek latifalarida asosiy struktura umumiy xarakterga ega. Ular, odatda, quyidagi qismlardan iborat bo'ladi**: vaziyat → kutilma → puant**. Biroq ushbu universal kompozitsion sxema har bir xalq folklorida turli mazmun, obrazlar tizimi va milliy tafakkur xususiyatlari bilan to'ldiriladi.

Rus latifalarida ko'proq ijtimoiy tanqid, satira va absurd komizm ustuvorlik qiladi. Yu.M.Sokolov bunday latifalarni "xalqning ijtimoiy voqelikka munosabatini ifodalovchi"[2] sifatida baholaydi. Rus folklorida

[1] Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1976. – С. 60 – 68; Соколов Ю.М. Русский фольклор. – М.: Учпедгиз, 1941. – С. 210 - 215.

[2] Соколов Ю.М. Русский фольклор. – М.: Учпедгиз, 1941. – С. 213.

latifalar mavzu va vazifasiga ko‘ra bir necha turga ajratiladi.

Birinchidan, ijtimoiy-satirik latifalarda davlat tuzumi, amaldorlar, byurokratik munosabatlar va jamiyatdagi adolatsizliklar kulgi orqali tanqid qilinadi. Bu turdagi latifalarda komik ta’sir ko‘pincha norma bilan real hayot o‘rtasidagi ziddiyat asosida yuzaga keladi.

Ikkinchidan, absurd latifalarda voqealarning mantiqiy izchilligi buziladi. Ularda paradoks, nomutanosiblik va g‘ayrioddiy xulosa yetakchi o‘rin tutadi. Bu holat V.Ya. Propp ta’riflagan komik struktura prinsiplariga mos keladi.

Uchinchidan, kasbiy latifalarda soldat, professor, shifokor, o‘qituvchi kabi obrazlar orqali muayyan ijtimoiy qatlam yoki kasb egalariga xos xususiyatlar kulgi asosida ochib beriladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida: **“Latifa –** (a) 1. kulgili voqea hodisalar haqida kichik hikoya sifatida izohlanadi. Afandi latifalari afsonaviy xalq qahramoni Xo‘ja Nasriddin afandining sarguzashtlari bilan bog‘lab, xalq tomonidan yaratilgan qisqa-qisqa kulgili hikoyalar”[1],-deb talqin etiladi. O‘zbek folklorshunosligida ham latifa mustaqil janr sifatida keng o‘rganilgan. K.Imomov latifani “o‘zbek xalq nasrining hajv, yengil yumor, hazil-mutoyiba, so‘z o‘yini, masxara va nayrangga asoslangan mustaqil janri”[2] sifatida tavsiflaydi. O.Safarov esa “latifaning asosiy janriy belgilarini kompozitsiya soddaligi, syujet ixchamligi, yechimning favqulodda yuz berishi, kulgining tasodifiy ko‘rinishi va yagona markaziy qahramon obrazi bilan bog‘liqligida” ko‘radi[3].

M.Mardonovning fikricha, latifa o‘zbek xalq nasrida kichik hajmli, ixcham syujetli, kulgi uyg‘otishga asoslangan og‘zaki epik janr hisoblanadi. U odatda bir kishi tomonidan ijro etiladi va unda epik qahramonning sarguzashti kulgili voqea bilan yakunlanadi. Ko‘p hollarda latifalarda voqelik bosh qahramon va unga qarama-qarshi turgan personajlar o‘rtasidagi dialog asosida quriladi. Bosh qahramon esa zukkoligi, hozirjavobligi, ayyorligi yoki topqirligi bilan ajralib turadi. O‘zbek xalq latifalarida Afandi, kal, Aldar Ko‘sa kabi an’anaviy obrazlar, zamonaviy latifalarda esa jinni, Shirini kabi yangi obrazlar ham uchraydi[4].

O‘zbek latifalarida yumor ko‘pincha hikmat, tarbiya va hayotiy tajriba bilan uyg‘unlashadi. B.N.Putilov ta’kidlaganidek, folklor janrlarini ularning madaniy muhitidan ajratib o‘rganish mumkin emas[5]. Shu nuqtai nazardan o‘zbek xalq latifalarini mavzu va funksiyasiga ko‘ra bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinchidan, Afandi latifalari o‘zbek latifalarining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Bu turdagi latifalarda yumor mulohaza, ironiya va hikmat bilan birlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, maishiy latifalarda kundalik turmush, oilaviy munosabatlar, bozor, qo‘shnichilik, insonlar o‘rtasidagi oddiy muloqot vaziyatlari kulgi asosida tasvirlanadi.

Uchinchidan, axloqiy-didaktik latifalarda kulgi orqali tinglovchiga muayyan tarbiyaviy xulosa yetkaziladi. Bunday latifalarda kibr, manmanlik, qo‘pollik, odamlarni mensimaslik, nohaqlik kabi salbiy xususiyatlar kulgi vositasida tanqid qilinadi.

O‘zbek va rus latifalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikki xalq latifalarida syujetning soddaligi, voqeaning ixchamligi va kutilmagan yakun bilan tugallanishi umumiy poetik belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq ularning mazmuniy yo‘nalishi va funksional vazifasida farq mavjud. O‘zbek latifalarida “hikmatli yumor”, obrazli ifoda va Afandi kabi an’anaviy qahramonlar muhim o‘rin tutsa, rus latifalarida satira, byurokratiya tanqidi, ijtimoiy muammolar va absurd komizm kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Shu asosda o‘zbek latifalarining asosiy modeli “yumor + axloqiy xulosa + obrazli fikrlash” tarzida ifodalanishi mumkin. Rus latifalarida esa “ironiya + ijtimoiy tanqid + mantiqiy buzilish” modeli yetakchilik qiladi. Demak, o‘zbek va rus latifalari umumiy komik strukturaga ega bo‘lsa-da, ularning madaniy vazifasi va badiiy yo‘nalishi har xildir. O‘zbek latifalarida hikmatli-kommunikativ model ustun bo‘lsa, rus latifalarida satirik-ijtimoiy model kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Rus folklorshunosligida latifalarni ichki guruhlarga ajratishda bir nechta yirik nazariy yo‘nalish shakllangan. Ulardan birinchisi Yu.M.Sokolov nomi bilan bog‘liq sotsiologik yondashuvdir. Bu yondashuvda latifa ijtimoiy mazmun, xalq fikri va satira asosida tasniflanadi. Ikkinchisi V.Ya.Propp tomonidan rivojlantirilgan strukturalistik yondashuv bo‘lib, unda latifaning komik qurilishi, nomutanosiblik, me’yor buzilishi va puant kabi elementlari tahlil qilinadi. Uchinchisi B.N.Putilov maktabiga xos funksional-tipologik yondashuvdir. Bu yo‘nalishda latifa madaniy kommunikatsiya, ijtimoiy vazifa va janrlararo aloqalar tizimida o‘rganiladi.

Keyingi folklorshunoslik tadqiqotlarida ushbu yondashuvlar turli shakllarda davom ettirilgan. Masalan, O.A.Chirkova zamonaviy xalq latifalarini o‘rganar

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик 1- том. – Москва: “Русский язык”, 1981.– 428. (632 б).

[2] Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.199.

[3] Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки бадиий ижоди. Дарслик. – Бухоро, 2006. – Б. 221.

[4] Mardonov M.S. O‘zbek va amerika hazillarining madaniy o‘ziga xosliklari//“O`zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari” ilmiy-nazariy metodik jurnal. – Urganch, 2024. № 5, – B.128-136.

[5] Путилов Б.Н. Фольклор и народная культура. – СПб.: Наука, 1994. – С. 132 - 140.

ekan, hayotiy latifa, mifologik latifa va tarixiy latifa kabi ichki guruhlarni ajratib ko‘rsatadi[1]. L.Diasamidze tadqiqotida esa anekdot janrining tarixiy tipi va uning turli tillardagi tipologik xususiyatlari tahlil qilinadi[2]. A.A.Sitnova talabalar folklori doirasida talabalar latifalarini alohida guruh sifatida o‘rganadi[3]. Uning tadqiqotida ham latifalarni mavzu asosida tasniflash prinsipi yetakchi o‘rin tutadi.

Ye.N.Abdrazakova rus, bolgar va ingliz latifalarining kognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganar ekan, ularni tarixiy va zamonaviy latifalarga ajratadi[4]. A.S.Astapovaning tadqiqotida esa rus latifalari siyosiy, etnik va dolzarb latifalar sifatida guruhlashtiriladi[5]. Bu holat mazkur tadqiqotlarda latifalarni asosan mavzuiy doirasiga ko‘ra tasniflash tamoyili ustuvor ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq nasri janrlarini tasniflashda M.Jo‘rayevning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Olim jahon va turkiy xalqlar folklorshunosligida to‘plangan nazariy tajribaga tayanib, o‘zbek xalq nasri janrlarini badiiy-estetik jihatdan tasniflashda bir necha mezonga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Ular qatoriga janrning funksional-semantik qamrovi, aytuvchi va tinglovchining bayon etilayotgan voqeaga munosabati, janrning badiiy darajasi, obrazlar tizimi, voqelikka munosabati, epik vaqt va makon qamrovi hamda voqelikni bayon qilish usuli kiradi.

Mazkur mezonlar latifa janrini tasniflashda ham samarali qo‘llanishi mumkin. Bizningcha, o‘zbek xalq latifalarini ilmiy asosda guruhlashtirishda professor M.Jo‘rayev konsepsiyasiga tayanish maqsadga muvofiqdir[6]. Chunki bu yondashuv latifalarni faqat mavzu yoki qahramon asosida emas, balki ularning funksiyasi, badiiy qurilishi, ijro xususiyati va madaniy konteksti bilan birgalikda tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va rus latifalarini qiyosiy tasniflashda ularning strukturasi, mavzu doirasi, ijro sharoiti, uslubiy xususiyati va funksional vazifasini hisobga olish zarur. Shu asosda ularni quyidagi mezonlar bo‘yicha o‘rganish mumkin: tematik mezon – ijtimoiy, maishiy, siyosiy latifalar; strukturaviy mezon – puant, dialog, absurdga asoslangan latifalar; funksional mezon – tanqidiy, ko‘ngilochar va tarbiyaviy latifalar; madaniy kontekst mezoni – sharqona va g‘arbona an’analar ifodasiga ko‘ra shakllangan latifalar.

Tipologik jihatdan o‘zbek va rus latifalari umumiy komik strukturaga ega. Biroq ularning mazmuni, vazifasi va milliy-madaniy ifodalanishida sezilarli farqlar mavjud. Rus folklorida latifa ko‘proq ijtimoiy tanqid va satirik baholash vositasi sifatida shakllangan bo‘lsa, o‘zbek folklorida u ko‘proq hayotiy hikmat, tarbiyaviy mazmun va yumor uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Shu bois har ikki xalq latifalarini tasniflashda ularning madaniy muhiti, milliy dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasini inobatga olish lozim.

Shuningdek, latifalarni o‘rganishda ularning funksiyasi muhim o‘rin tutadi. Ayrim latifalar tarbiyaviy vazifa bajarsa, boshqalari asosan ko‘ngilochar xarakterga ega bo‘ladi. Yana bir guruh latifalar tanqidiy funksiyani bajarib, jamiyatdagi muammolarni kulgi orqali ochib beradi. Demak, latifa nafaqat estetik zavq beruvchi janr, balki ijtimoiy munosabat, axloqiy baholash va madaniy xotirani ifodalovchi muhim folklor shakli hamdir.

O‘zbek va rus latifalarini tasniflashda mavzu, qahramon, komik ta’sir xususiyati, til-uslubiy vositalar va funksional vazifa asosiy mezonlar sifatida qaralishi lozim. Latifalar har bir xalqning madaniy dunyoqarashi, hayot tarzi, ijtimoiy tajribasi va milliy tafakkurini o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. Shu ma’noda ularni faqat kulgi manbai sifatida emas, balki muhim ijtimoiy-madaniy hujjat va xalq tafakkurining badiiy ifodasi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Rezyume. Yu.M.Sokolovning sotsiologik va V.Ya.Proppning strukturalistik yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, janrning mazmuniy va shakliy xususiyatlari ochib berilgan. Rus va o‘zbek latifalarining universal kompozitsion modelini (vaziyat → kutilma → puant) hamda ulardagi milliy-madaniy farqlarni asoslab beralgan. Shuningdek, latifa janrini tematik, strukturaviy va funksional mezonlar asosida tasniflash masalalari hamda an’anaviy obrazlarning janr taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan.

[1] Чиркова О.А. Поэтика современного народного анекдота. Автореф.дисс. канд.филол.наук. – Москва, 1997. 24 с.

[2] Диасамидзе Л. Текст типологическая интерпретация жанра «анекдот» (на материале английского, его американского варианта и грузинского языков). Автореф. дисс. докт. филол.наук. – Батуми, 2013. 56 с.

[3] Ситнова А.А. Вербальное творчество студенческого сообщества: характер и типы связей с традиционной и массовой культурой. Автореф.дисс. канд.филол. наук. – Ульяновск, 2009. 24 с.

[4] Абдразакова Е. Н. Сопоставительный когнитивный и лингвокультурологический анализ русских, болгарских и английских анекдотов: автореферат дисс. канд. филол. наук – Тюмень, 2007. - 24 с.

[5] Астапова А.С. Современный студенческий анекдот: сюжетный состав и тематические особенности. Автореф. дисс. канд. филол. наук.– Санкт-Петербург – 2016. 24 с.

[6] Жўраев М. Ўзбек халқ насри жанрларини тасниф қилиш мезонлари//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. 5-сон. – Б.28-34.

Resume. The sociological approaches of Yu.M.Sokolov and the structuralist approaches of V.Ya.Propp are comparatively analyzed, revealing the substantive and formal features of the genre. The universal compositional model of Russian and Uzbek anecdotes (situation → expectation → point) and their national and cultural differences are substantiated. The issues of classifying the anecdotal genre based on thematic, structural and functional criteria, as well as the role of traditional images in the development of the genre are also highlighted.

Резюме. Проводится сравнительный анализ социологических подходов Ю.М. Соколова и структуралистских подходов В.Я. Проппа, выявляющий содержательные и формальные особенности жанра. Обосновывается универсальная композиционная модель русских и узбекских анекдотов (ситуация → ожидание → точка) и их национальные и культурные различия. Также освещаются вопросы классификации юморестического жанра по тематическим, структурным и функциональным критериям, а также роль традиционных образов в развитии жанра.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BOG'LANISHLI MATN YARATISH MALAKASINI RIVOJLANTIRUVCHI ZAMONAVIY METODLAR

Xalilova Muyassarxon Tolipovna,
Farg'ona davlat universiteti
tilshunoslik kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jahonning ko'plab rivojlangan davlatlarida nafaqat ona tilini mukammal bilish yoki til o'rganish, balki yuksak intellektga ega, salohiyatli, ma'naviyati yuksak, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarni egallagan shaxsni tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifa sifatida qaraladi. Globallashuv jarayonida tilga milliy madaniyat belgisi sifatida yondashuv kuchaymoqda. Bu esa shu tilda so'zlashuvchilarning o'z ona tilidan amaliy foydalanish, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi voqeliklarga turli munosabatlarini bildirish, his-tuyg'ularini ifodalash ehtiyojlarini yuzaga keltirmoqda. Til ta'limi oldiga muhim ijtimoiy buyurtma – milliy tilimizdan turli sohalarda amaliy foydalanish samaradorligini oshirish vazifasi qo'yildi.

Fikrlarni yozma tarzda savodli bayon qila olishga o'rgatish murakkab jarayon hisoblanadi. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi[1].

O'quvchining yozma nutqini o'stirishda yosh, fiziologik xususiyatlarini, psixologiyasini inobatga olgan holda sabr bilan shug'ullanilgandagina qoniqarli natijaga erishish mumkin bo'ladi. Yozma nutq o'qituvchidan tekshirish uchun alohida vaqt talab qilganligi uchun ham ko'p o'qituvchilar ta'lim berishning bu usulini tanlamaydilar. Natijada esa o'z fikrini yozma tarzda bayon qila olmaydigan, fikrlamaydigan o'quvchilar shakllanib qoladi. Psixologiyaga doir adabiyotlarda yozish insonni fikrlashga o'rgatadigan eng mahsuldor usul ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Yozma nutqni rivojlantirish bolalarda kichik yoshdan boshlab amalga oshiriladi va yillar davomida rivojlantirib boriladi. Shu sababli ham bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish tavsiya etiladi. Bu jarayonda o'qituvchilardan sabr va chidam hamda o'quvchilarga bilim berish ishtiyoqi talab qilinadi. Bu jarayon faqat dars vaqtida emas, darsdan tashqari vaqtlarda – to'garak mashg'ulotlari va qo'shimcha soatlarda ham olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maqoladagi fikrlar, asosan, empirik metod asosida olib borilgan kuzatishlar natijasiga ko'ra berilgan.

Matn yaratishda samarali hisoblangan metodlar yordamida bog'lanishli nutq matnlarini yaratishga o'rgatish eksperiment metodi asosida kuzatildi va xulosalar chiqarildi.

Yozma ishlarni yozish u xoh insho bo'lsin, xoh bayon yoki esse o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham alohida tayyorgarlik talab etiladigan jarayon hisoblanadi. O'quvchi ona tili fanidan egallagan lisoniy bilimlarini yozma ishlarni yozish jarayonida amaliy qo'llaydi. Yozma ishlarga tayyorgarlik jarayonida qo'llash tavsiya etiladigan turli metodlar jarayonning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Masalan, metodist olima T.Ziyodova tomonidan tavsiya etilgan «MYBT – 4» moduli – matn yaratishning bosqichli tizimi»[2][2,81] o'quvchilarning bog'lanishli nutq tuzish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali usul hisoblanadi.Bu usulda o'quvchilar, asosan, oldin og'zaki, so'ng yozma nutq tuzishni o'rganadilar. Matn yaratishning 4 bosqichli tizimi bo'lib, u quyidagilardan iborat: so'z tanlash, so'z birikmalari hosil qilish, gap tuzish, matn yaratish. Bu usulda soddadan murakkabga qarab boriladi. Masalan:

So'z: kitob

So'z birikmasi: qiziqarli kitob, badiiy kitob

Gap: Do'stimning juda ko'p qiziqarli kitoblari bor.

Matn: Mening do'stim Abdumurod. Uning uyida juda ko'p qiziqarli kitoblari bor. Men uning uyiga borishni va kitoblarini o'qishni yaxshi ko'raman...

Yuqorida ta'kidlanganidek, yozish ko'nikmalari kichik yoshdan boshlab shakllantiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari to'g'ri yozishni o'rganib olganlaridan so'ng, yuqori sinfga o'tgach, bog'lanishli nutq tuzish

[1] Muxtarova SH. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda yozma ishlarning ahamiyati. Academic Research in Educational Sciences. № 5.2022. - B.1167.

[2] Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 81.

o‘rgatiladi. O‘quvchilarda gaplarni xatosiz va chiroyli yozish, imlo qoidalariga amal qilish kabi ko‘nikmalar rivojlantiriladi. O‘quvchilarni matn tuzishga, ya’ni esse yozishga tayyorgarlik bosqichida yaxshi natija beradigan usullardan yana biri «Maktub» usuli hisoblanadi.

«Maktub» usulidan foydalanish ham bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda yaxshi samara beradi. Bu usulni 6-7-sinf o‘quvchilari uchun qo‘llash maqsadga muvofiq sanaladi. Bu usulda o‘quvchilar o‘zlari xohlagan insonga maktub yozadi. U xoh yaqin kishisi bo‘lsin, xoh ertak qahramoni, o‘quvchi unga maktub yozishi kerak bo‘ladi. Tajribada adabiyot darsida o‘tilgan Lengston Xyuzning «Rahmat, xonim» asari qahramoni Rojerning 20 yildan so‘ng unga yaxshilik qilgan xonimga xat yozishi topshirig‘i berildi. O‘quvchilar juda katta qiziqish bilan bu topshiriqni bajardilar. O‘quvchilar maktublarini yozib bo‘lgach, ularni o‘qituvchi tekshiradi va shundan so‘ng barcha o‘quvchi o‘z maktubini ifodali qilib o‘qib beradi. Yokiona tili darslarida biror grammatik tushunchaga xat yozish tajribasini qo‘llasa bo‘ladi. Masalan, 10-sinf «Ona tili» darsligining 162-sahifasida qo‘shtirnoq haqida ma’lumot berilgan. O‘quvchilarning qo‘shtirnoqni qo‘llash yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash yoki baholash maqsadida ularga shu tinish belgisiga maktub yozish topshirig‘i berilishi mumkin. Tajriba dars jarayonida o‘quvchilar quyidagicha maktub yozdilar:

«*Salom, qadrdonim qo‘shtirnoq! Bu maktubni senga doim sening dastingdan past baho oluvchi o‘quvchi yozmoqda. Senga maktub yozishimdan maqsad, ozgina meni ham tushunishingni, yordam berishingni iltimos qilmoqchiman. O‘qituvchimiz seni boshqalarning gapini o‘z ichingga olishingni doim aytadi, lekin men buni hamisha unitib qo‘yaman. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni, kesatiq, piching, kinoya va boshqa ma’no uchunqo‘llangan so‘zlarni, badiiy asar, musiqa asarlari, spektakl va boshqalarning nomlarini; muassasa, tashkilot, korxona nomlarini, zavod, fabrika, mehmonxona, turli transport vositalarining shartli nomlarini , sinflar, buyruqlar, qarorlarning ayrim bandlariga qo‘shilib yoziladigan harflar: sinf, 9- «A», sinf, 135 – «V» sonli qaror, 10-moddaning «B» bandi);baho ballari («besh», «to‘rt» yoki «a’lo», «yaxshi»); matn ichida kelgan maqollar, hikmatli so‘zlar, sarlavhalarni o‘z ichingga olishingni ham «Ona tili» darsligimizda yozilgan bo‘lishiga qaramay, yozayotganimda unutaman. Sendan iltimos, yozayotganimda yodimga tushib tur!..*

Bunday maktublarni xohlagan grammatik tushunchalarga nisbatan yozdirish mumkin. Ma’lumki, ona tili o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri bu o‘quvchining kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Kommunikativlikni shakllantirish borasida N. Fayziyeva :»…o‘quvchilarda aloqa ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosi juda dolzarbdir. Kommunikativ ko‘nikmalarning rivojlanish darajasina faqat bolalarni o‘qitish samaradorligiga, balki ularning ijtimoiylashuvi jarayoniga va umuman shaxsning shakllanishiga ham ta’sir qiladi,»[1] - deb yozadi.

Maktub yozish kommunikativ aloqa turlaridan biri ekanligi ma’lum. Maktub yozar ekan, o‘quvchi his-tuyg‘ularini boricha namoyon qila oladi, shu sababli ham bu mashg‘ulotni qiziqish bilan amalga oshiradi. Bu o‘quvchining ona tili ta’limidan ko‘zlangan maqsad kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan birga o‘rgangan lingvistik bilimlarini mustahkamlashga va esse yozish ko‘nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘quvchining yozma nutqini rivojlanishiga samarali ta’sir etuvchi usullardan yana biri «Yozma bahslar» metodi hisoblanadi. Tajriba jarayonida 10-sinf oquvchilari bilan yozma shaklda o‘tkazildi. O‘quvchilarga gapirmasliklari, faqat yozma tarzda bahslashishlari tushuntirildi. «Taqlid so‘zlarni mustaqil so‘z turkumi deyish mumkinmi?» mavzusida bahs tashkillandi. Natijada o‘quvchilar bu muammo yuzasidan bahslashar ekan, morfologiya bo‘limi bo‘yicha o‘rgangan bilimlarini esladilar, fikrlarini asoslashga harakat qildilar.

Bu usulni qo‘llash jarayonida sinf ikki guruhga ajratiladi. O‘qituvchi ularga bahs mavzusini e’lon qiladi. Oq qog‘ozga guruhlar navbat bilan o‘z argumentlarini yozadilar. Og‘zaki so‘z aralashtirish umuman mumkin emas. Bahs so‘nggida guruhlar tomonidan yozilgan fikrlar taqdimotchi tomonidan o‘qib beriladi.

Mazkur metod o‘quvchilarning bahslashish qoidalarini o‘zlashtirish bilan birga fikrlarini dalillashga ham o‘rgatadi.

O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, matnt uzishda g‘alizliklarga yo‘l qo‘yishlarining oldini olish maqsadida N.Mustafayeva tomonidan tavsiya etilgan «***M**a’**n**o**d**o**shini t**o**p***» usuli ham matn yaratish uchun tayyorgarlik bosqichida samarali metodlardan biri hisoblanadi:

«O‘quvchilar sinf taxtasida navbatbilan oq qog‘ozdan berilgan so‘zning ma’nodoshini topadi. Masalan: *Yozuvchi – adib, muallif, avtor. Qadimiy – ko‘hna, osori-atiqa, eski, azaliy. Bajarmoq – ijro qilmoq, amalga oshirmoq, ishlab chiqmoq. Yuz –*

[1] Fayziyeva N. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda aloqa ko‘nikmalarini rivojlantirish shakllari va usullari. // Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2024. – B.87.

*aft, bashar*a, *chehr*a, o*raz.* Bunda o‘quvchining so‘z boyligi oshadi. Yozma nutqda o‘rinsiz takroriy g‘arizliklarga yo‘l qo‘ymaslikka o‘rgatiladi. Nutqning go‘zal bo‘lishiga e’tibor qaratiladi. So‘znit o‘g‘ri qo‘llash malakasi rivojlanadi»[1].

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, shu kabi usullar ona tilidan turli mavzularni o‘tish jarayonida darsni mustahkamlash bosqichlarida qo‘llanilib, bu kabi zamonaviy metodlar orqali o‘quvchilar sekin-asta esse yozishga tayyorlab boriladi. Bu metodlarni yoki essening «Argumentli esse», «Besh daqiqali esse», «Erkin yozish metodi» kabi turlarini yuqori sinflarda muntazam qo‘llash o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, kundalik hayotimizda bo‘lib o‘tayotgan voqeliklarga nisbatan oshkora munosabatda bo‘lishga undaydi hamda har qanday mazmundagi yozma matnni qiynalmay, savodli yoza olishga o‘rgatadi.

Rezyume. Ushbu maqolada yozma nutq ko‘nikmalarini takomillashtirishda bog‘lanishli matn yaratish malakalarini rivojlantirishga yordam beruvchi zamonaviy metodlar, ularni tashkil etishning usul va yo‘llari, ahamiyati yuzasidan ilmiy mulohazalar bayon qilingan.

Resume. In this article, the methods that help to develop the skills of text creation in the improvement of written speech skills, the methods and ways of their organization, and the importance of them are expressed.

Резюме. В данной статье излагаются современные методы, помогающие развивать навыки текстотворчества в совершенствовании навыков письменной речи, способы и способы их организации, а также их значение.

[1] Mustafayeva N. Ona tili darslarida noan’anaviy oyinlar. – “Science and Education” Scientific Journal. November, 2020. – B.142.